



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI  
TARIX FAKULTETI**

**NARMANOV FERUZ ASFANDIYOROVICH**

**SHARQ ALLOMALARI ILMIY MEROsi**

**O'quv qo'llanma**

**TAMADDUN  
Toshkent – 2022**

UO'K 9(575.1)

KBK: 63.3

N 26

### Narmanov Feruz

Sharq allomalari ilmiy merosi [Matn]: o'quv qo'llanma / F.Narmanov. – T.:TAMADDUN, 2022. 256 b.

Mazkur o'quv qo'llanma "Sharq allomalari ilmiy merosi" fanining maqsad va vazifalari, mazmun-mohiyatini yoritish maqsadida tuzilgan bo'lib, jahon ilm-fani va madaniyati tarixida o'z nomi va o'rniga ega bo'lgan buyuk qomusiy allomalar ilmiy merosi va uning o'r ganilishi masalalarini talabalarga yetkazib berishdan iborat.

Muallif har bir mavzuga ilova etilgan ilmiy adabiyotlar majmuini tahlil etgan holda, tariximizda muhim o'rin tutgan qomusiy allomalarning ilmiy faoliyatini tarixiy tahlil qilishga harakat qiladi. Shu bilan birga talabalarni mutaxassislikning o'quv rejasidan joy olgan ushbu fanning bosh maqsadi – Sharq allomalarining o'tmish ibratlarini yanada chuqurroq o'r ganishga yo'naltiradi.

### MAS'UL MUHARRIR:

Ziyodov Sh.Yu. – tarix fanlari doktori, dotsent

### TAQRIZCHILAR:

G'oyibov B.S. – tarix fanlari doktori, dotsent

Amonov M.O. – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

*O'quv qo'llanma Samarqand davlat universiteti kengashi tomonidan 2022-yil 30-avgustda (1-sonli bayon nomma) nashrga tavsiya etilgan.*

ISBN 978-9943-8419-6-3

© Narmanov.F, 2022

© «TAMADDUN», 2022

## KIRISH

Tarixni o‘rganishning asosiy maqsadlardan biri bo‘lgan uzoq va yaqin o‘tmish voqealari salalrini obyektiv yoritishga qaratilmog‘i lozim. Bu muhim masala tarix fanining nazariy masalalariga to‘g’ri yondashishni talab qiladi. Zero, tarixni talqin qilishda uning ijtimoiy xossasidan kelib chiquvchi bir qator jihatlari mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Samarqand davlat universiteti faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasining “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi”da “o‘quv adabiyotlari sifatini yaxshilash, zamonaviy o‘quv adabiyotlarini yaratish tartibini soddalashtirish, eng yangi xorijiy adabiyotlarni xarid qilish va tarjima qilish ishlarini jadallashtirish, xorijiy adabiyotlardan qo‘srimcha yoki muqobil o‘quv adabiyotlari sifatida foydalanishni kengaytirish, kutubxonalar fondlarini muntazam ravishda yangilab borish” ko‘rsatib o‘tilgan. Bu o‘z navbatida oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan fanlar bo‘yicha zamonaviy o‘quv adabiyotlarni yaratish va chop ettirishni bugungi kun talabiga qo‘ymoqda.

Mamlakatimizda kechayotgan ma’naviy tiklanish jarayonida buyuk ajdodlarimiz Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Bobur Mirzo hayoti va faoliyatini tarixiy manbalar orqali chuqr o‘rganish ehtiyoji yuzaga keldi. Bunday asarlarda aks etgan g‘oyalalar yosh avlodni buyuk ajdodlarimizning ezgu an’analari ruhida tarbiyalashda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Zero, “Qadimiy va betakror diyorimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma, adib va mutafakkirlarimizning yuksak gumanistik g‘oyalarga asoslangan boy ma’naviy merosi umumbashariy sivilizatsiya va madaniyat, dunyoviy va diniy ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa

bo‘lib qo‘shilgani dunyo jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda e’tirof etilmoqda”<sup>1</sup>.

O‘z milliy tarixi va madaniyatiga, dunyoda eng katta boylik bo‘lgan intellektual va ma’naviy salohiyatga chuqur hurmat bilan yondashish, uni asrab-avaylash va boyitish, shu asosda yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jahondagi har bir davlat va jamiyatning moddiy va ma’naviy taraqqiyotida, hech shubhasiz, hal qiluvchi o‘rin egallaydi. Shu ma’noda mazkur o‘quv qo‘llanma ham oliy ta’lim tizimida o‘qilib kelayotgan sharq allomalari ilmiy merosini o‘rganish va o‘qitishga qaratilgan bo‘lib Yangi O‘zbekiston sharoitida buyuk ajdodlarimiz nomi va ular qoldirgan yuksak ilmiy merosni teran anglab yetishga qaratilgan. Zero, keyingi yillarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida milliy urf-odat va qadriyatlarimizni tiklash, muqaddas dinimizni, aziz avliyo va ulamolarimizning boy merosini teran o‘rganish, ularning qadamjolarini obod qilish, tarixiy obidalarni asrab-avaylash yo‘lida bir qator chora-tadbirlar amalga oshrilmoqda. Xususan, muqaddas dinimizning ezgulik va insonparvarlik, mehr-shafqat kabi buyuk fazilatlari, milliy-diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va rivojlantirish, shu asosda yosh avlodni ezgu g‘oyalar ruhida tarbiyalash, ularning qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘usini yanada kuchaytirish maqsadida 2017-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 14-fevralda “Imom Termiziy xalqaro ilmiytadqiqot markazini tashkil etish to‘g‘risida”, 2017-yil 27-martdagি 2855-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil

---

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida yoshlar o‘rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi 3721-sonli Qarori.

etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” va 2020-yilda PQ-4802-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari bilan Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, Islom sivilizatsiyasi markazi, O‘zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi tashkil etildi. Ulug‘ ulamolarning nomlari bilan atalgan diniy majmualar, jome masjidlari, ilmiy markazlar bunyod etildi.

Shu bilan birga mustaqillik yillarda Sharq allomalari ilmiy merosi tadqiqiga bag‘ishlangan juda ko‘plab asarlar yaratildi. Jumladan, M.Xayrullayev, U.Uvatov, A.Qayumov, B.Abduhalimov, N.Komilov, Sh.Ziyodov, N.Mumamedov va boshqa olimlarning Sharq allomalari ilmiy merosiga bag‘ishlangan asarlaridan qo‘llanma yuzaga kelishida keng foydalanildi.

Bu esa dunyo tarixida ilk Sharq Uyg‘onish davri – Musulmon Renessansi deb nom olgan o‘rta asrlar va undan keyingi zamonalarda bugungi O‘zbekiston zaminidan yetishib chiqqan buyuk alloma va mutafakkirlarning jahon ilm-fani va madaniyati, muqaddas islom dini rivojiga qo‘shtigan beba ho hissasi dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan ilmiy merosini tadqiq etish ishlarnining yangi bosqichga ko‘tarilishiga zamin yaratmoqda. Ulug‘ ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bugungi kunda butun ma‘rifatli dunyonи hayratga solib kelayotgan ilmiy meros faqat bir millat yoki xalqning emas, balki butun insoniyatning ma‘naviy mulki bo‘lib, bu beba ho boylik yangi va yangi avlodlar uchun donishmandlik va bilim manbai, eng muhimmi, yangi kashfiyotlar uchun mustahkam zamin bo‘lib xizmat qilishi shubhasizdir.

Shu maqsadda yaratilgan ushbu o‘quv qo‘llanma ham talaba va magistrantlarga ta’lim jarayonida sharq allomalari ilmiy merosini o‘rganish va mazkur yo‘nalishdagi bilimlarini yanada boyitib takomillashtirish uchun xizmat qiladi. Sharq allomalari ilmiy merosi fani va mazkur fan dasturi asosida tayyorlangan ushbu o‘quv

qo'llanma bo'lajak o'qituvchilarga metodik yordam sifatida ma'lum ma'noda xizmat qiladi.

Ushbu qo'llanma 60220300-Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha) yo'nalishi talabalari va O'zbekiston tarixi mutaxassisligi bo'yicha bakalavr ta'limi o'quv rejasining bosh masalasiga, ya'ni tarix tadqiqotlari va ta'limining ob'yektiv asoslarini yoritishda, Sharq allomalarining ilmiy merosini tushuntirishga, bu borada keyingi yillarda yaratilgan ilmiy adabiyotlarni tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, bundan ko'zlangan maqsad tarixshunos talabalar o'zlarini egallayotgan ixtisoslikning qanchalik muhimligini anglashlaridir.

## **MAVZU: “SHARQ ALLOMALARINING ILMIY MEROSI” FANINING PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI**

### **Reja:**

1. Sharq allomalarining ilmiy merosi faniga kirish.
2. Sharq allomalari ilmiy merosining o‘rganilishi.
3. Sharq allomalari ilmiy merosi bebahो ma’naviy boylik sifatida.
4. Mustaqillik yillarda mamlakatimizda Sharq allomalari ilmiy merosining qayta tiklanishi.
5. Sharq mutafakkirlari ilmiy merosining xalqaro ilm hamjamiyatida e’tirof etilishi.

**Tayanch so‘z va iboralar:** mutafakkirlar, ilmiy meros, qadimiy qo‘lyozmalar, mustaqillik, Uyg‘onish davri, Xorazmiy, dunyoviy ilmlar, Beruniy, F.Sulaymonova, B.Abdughalimov, K.Nallino, J.Sarton.

### **Sharq allomalarining ilmiy merosi faniga kirish**

Istiqlol yillarda ko‘hna tariximiz, boy madaniy-ma’naviy merosimiz, milliy davlatchiligidimiz, urf-odat va an’analarimiz qayta tiklandi, aziz-avliyolarimizning qarovsizlikdan nurab, deyarli yo‘q bo‘lib ketish arafasiga kelib qolgan maqbaralari, masjid va madrasalar tubdan ta’mirlandi. Bugungi kunda mehr-oqibat, bag‘rikenglik, hamjihatlik kabi oliyjanob fazilatlar, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat, Vatan taqdiri va kelajagiga daxldorlik tuyg‘usi yuragimizning tub-tubidan o‘rin oldi.

Respublikamizda xalqimizning boy tarixi va madaniyatining ajralmas bir qismini tashkil etadigan, ma’naviy va ilmiy taraqqiyotimiz uchun g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘lgan

qadimiy qo‘lyozmalarni ilmiy tadqiq etish, ularni yurtimiz va jahon jamoatchiligi o‘rtasida targ‘ib qilish yuzasidan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada IX-XII asrlarda yashab ijod qilgan buyuk mutafakkirlarimiz ilmiy merosi salmoqli tadqiqotlarning obyektiga aylandi.

O‘zbek xalqining intellektual merosini o‘rganish, targ‘ib va tashviq qilish, saqlash va kelajak avlodga yetkazish umum davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan masalalardan biridir. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 24-mayda imzolangan “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorda qayd etilganidek, O‘zbekiston hududida qadimdan shakllangan va rivojlangan ilm-fan taraqqiyotini chuqur o‘rganish sohaning istiqboldagi taraqqiyoti uchun xizmat qiladi.

Darhaqiqat, O‘zbekiston jahon ilm-fani rivojiga munosib hissa qo‘shgan buyuk allomalar, qomusiy olimlar va mutafakkirlar yetishib chiqqan diyordir. Ayniqsa, IX-XII asrlardagi Renessans, ya’ni Uyg‘onish davri hamda Amir Temur va temuriylar davridagi madaniy yuksalish davrlari nafaqat butun mintaqada, balki jahon ilm-fani, madaniyati tarixida chuqur iz qoldirgan davr bo‘ldi. Bu davrda yaratilgan beba ho durdonalar, boy intellektual meros namunalari asrlar mobaynida jahon miqyosida ilm-fan rivojiga xizmat qildi va intellektual meros durdonalari sifatida tan olinib, yuksak baholandi.

Zero, bu borada davlatimiz rahbari 2017-yilning 10-sentabrida Islom hamkorlik tashkilotining fan va texnologiyalar bo‘yicha I sammitidagi so‘zlagan nutqida “bugungi notinch va tahlikali zamonda taraqqiyot va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda buyuk ajdodlarimiz qoldirgan, butun insoniyatning ma’naviy boyligi bo‘lgan beba ho merosning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir”, – deya fikr bildirgan edi.

Sharq allomalarining ilmiy merosi fanining maqsadi – O‘rtalarda Sharq olamida yashab ijod etgan buyuk alloma va mutafakkirlarning ilmiy merosini chuqur o‘rganish va uning mazmun-mohiyatini teran anglash, uning zamonaviy sivilizatsiya tarixida tutgan o‘rni va roliga bugungi kun ruhi bilan baho berishdan iboratdir. Ana shu beba ho ilmiy merosni yanada teran tadqiq etish va ommalashtirishga qaratilgan sa’y-harakatlarga yangi turtki berish, Sharqning ulug‘ allomalari tomonidan amalga oshirilgan kashfiyotlar zamonaviy ilm-fan va taraqqiyot uchun naqadar dolzarb va zarur ekanligini his etish ilmiy ahamiyati jihatdan juda muhimdir. O‘rtalarda Sharq tarixi shundan dalolat beradiki, madaniyat va ta’lim-tarbiya, tibbiyot, adabiyot, san’at va arxitektura sohalaridagi beqiyos yuksalish, ilmiy maktablarning vujudga kelishi, yangi-yangi iste’dodli avlodlar to‘lqinining paydo bo‘lishi va voyaga yetishi – bularning barchasi birinchi navbatda, iqtisodiyot, qishloq va shahar xo‘jaligining ancha jadal o‘sishi, hunarmandlik va savdosotiqlarning yuksak darajada rivojlanishi, yo‘llar qurilishi, yangi karvon yo‘llarining ochilishi va avvalambor, nisbiy barqarorlikning ta’miylanishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan.

### **Sharq allomalari ilmiy merosining o‘rganilishi**

Bugungi kunga qadar Sharq allomalari hayoti va ular qoldirgan beba ho ilmiy merosning ilmiy o‘rganilishi tarixiga nazar tashlasak, bir qancha tadqiqotlarning yaratilganligiga guvoh bo‘lamiz. Mazkur tadqiqotlar yaratilgan davri, geografik joylashuvi, tili nuqtayi nazaridan guruhlarga ajratilib tahlil etilsa, Sharq allomalari ilmiy merosining mazmun-mohiyati, tarixi haqida qimmatli va boy tarixiy ma’lumotlar haqida tasavvurga ega bo‘lish mumkin.

Allomalar ilmiy merosining o‘rganilishi tarixiga e’tibor qaratsak, dastlabki ma’lumotlarning sharqshunos olimlar, sayyoohlardan to‘planganligi ko‘zga tashlanadi. Shu bilan birga sovet davrida ham allomalar ilmiy merosi o‘rganilgan. Xususan,

XX asrning 50-yillarida sharqshunoslikda beruniyshunoslikning alohida yo‘nalish sifatida kirib kelishi alloma ilmiy faoliyatiga doir ko‘plab ma’lumotlarning qayta nashr etilishiga asos bo‘ldi. Beruniyshunoslik markazining Toshkentga ko‘chishi esa mahalliy tadqiqotchi olimlarning mazkur yo‘nalishda olib borayotgan ilmiy tadqiqot ishlarining kengayishi uchun xizmat qildi. Bu davrda yaratilgan tadqiqot ishlarining ayrimlari quyidagi asarlar bo‘ldi: M.Xayrullayevning 1973-yilda “Farabi-krupneyshiy myslitel srednevekovya”, 1980-yilda A.Irisovning “Abu Ali ibn Sino hayoti va ijodiy merosi”, 1983-yilda “Xorezmi. Astronomicheskie traktaty” nomli tadqiqotlar nashr etildi.

**Mustaqillik yillarida yaratilgan tadqiqotlar** – Istiqlol yillarida milliy o‘zlikni anglash, milliy qadriyatlarning tiklanishi va milliy istiqlol g‘oyasi kabi tushunchalarning keng targ‘ib etilishi, allomalar ilmiy merosiga bo‘lgan e’tiborning yangi bosqichga ko‘tarilishi uchun xizmat qildi. Xalqimizning tarixiy ildizlarini qayta tiklash, milliy tafakkur taraqqiyoti tarixi bilan bog‘liq masalalarda allomalar qoldirgan ilmiy merosning ahamiyati nihoyatda yuqoriligi bilan ularning hayoti va faoliyatini o‘rganishga hukumat darajasida e’tibor berildi.

IX-XII asrlarda Sharqdagi, xususan, O‘rta Osiyodagi ilmiy va madaniy jarayonlar mamlakatimiz olimlarining ham doimo diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Sharq allomalari hayot yo‘li va ularning ilmiy merosinini tadqiq etishda akademik M.Xayrullayevning hissasi kattadir. U tomonidan turli yillarda mazkur mavzuning u yoki bu qismlarini o‘z ichiga olgan quyidagi ishlar nashr etildi: 1963-yilda “Forobiy va uning falsafiy risolalari”, 1967-yilda “Mirovozreniye Farabi i yego znacheniye v istorii filosofii”, 1971-yilda “Uyg‘onish davri va Sharq mutafakkiri”, 1975-yilda “Madaniyat va meros”, 1994-yilda “O‘rta Osiyoda ilk Uyg‘onish davri madaniyati”.

1997-yilda B.Ne’matovning Forobiy va ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot haqidagi ta’limotlar rivojidagi vorislik nomli

tadqiqoti yaratildi. 2000-yilda F.Babashevning Xorazm Ma'mun akademiyasi allomalarining ma'rifiy-ahloqiy qarashlari haqidagi dissertatsiyasi yaratildi. 2000-yilda K.Nosirov IX-X asrlarda O'rta Osiyo mutafakkirlarining axloqiy tarbiya haqidagi g'oyalari (Imom Buxoriy va Abu Nasr Forobiy asarlari misolida) deb nomlangan dissertatsiyasini yaratdi. 2007-yilda F.Juraqulov tomonidan "Abu Rayxon Beruniy tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy merosining g'arb olimlari tomonidan tadqiq etilishi" nomli tadqiqot yaratildi. 2010-yilda F.Muxitdinova o'zining Sharq uyg'onish davri mutafakkirlarining siyosiy-huquqiy ta'limotlari ( Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sinoning siyosiy-huquqiy qarashlari asosida) deb nomlangan tadqiqotini amalga oshirdi. 2018-yilda F.Yuldashev Abu Nasr Forobiyning aql va bilim evolyutsiyasi haqidagi qarashlari nomli dissertation tadqiqotni olib bordi. 2018-yilda O.Mahmudovning "Yevropada Markaziy Osiyo olimlari ilmiy merosini o'rganishda Toledo mакtabining o'rni (XII-XIII asrlar)" nomli dissertatsiyasi yaratildi.

Mustaqillik yillarida F.Sulaymonova 1994-yilda o'zining "Sharq va G'arb" deb nomlangan asarini nashr ettirdi. 2000-yilda respublikamizning bir guruh yetakchi olimlari tomonidan "O'rta Osiyoning mumtoz fani va hozirgi zamon jahon sivilizatsiyasi" risolasi nashr etildi. 2010-yilda B.Abdughalimov "Bayt ul-hikma" va Markaziy Osiyo olimlarining Bag'doddagi ilmiy faoliyati" nomli ishini nashr etdi. O.Fayzullayev "Ahmad Farg'oniyning fanniy olami", A.Irisov, A.Nosirov, I.Nizomiddinov. "O'rta Osiyolik qirq olim", "Ma'naviyat yulduzlari (Markaziy osiyolik mashhur allomalar)", N.Muhammedov "Shosh vohasi olimlarining ilmiy-ma'naviy merosi" kabi asarlar ham shular jumlasidandir.

**Xorijda o'rganilishi** – Shveytsariyalik sharqshunos Adam Mets o'zining "Musulmon renessansi" asari bilan mazkur yo'nalishda ilk asarlarni yarata boshlagan edi. Mazkur asar IX-X asrlarda musulmon Sharqida yuz bergen madaniy rivojlanishning tarixiga

bag'ishlangan Sharq fani va madaniyatini yorituvchi noyob qomus hisoblanadi. Sharqshunos Adam Metsning 1909-yilda "Musulmon Renessansi" nomli fundamental asari chop etilgan. Shundan buyon Renessans faqat Yevropaga oid hodisa emasligi, uni Sharq xalqlari yevropaliklarga nisbatan avvalroq boshdan kechirgani to'g'risidagi qarashlar va tadqiqotlar paydo bo'la boshladi. Rossiyalik sharqshunos akademik N.Konrad Renessans VII-VIII asrlarda Xitoyda boshlanib, VIII asrda Hindistonda davom etgani, undan IX-XII asrlarda islom mamlakatlari estafetani qabul qilgani, mo'g'ul istilosiga tufayli ancha pasayib qolgan yuksalish Amir Temur va temuriylar davrida yana qayta gurkurab o'sganini ta'kidlaydi. U O'rta Sharq Uyg'onish davrini Alisher Navoiy zamonasigacha cho'zadi.

### **Sharq allomalari ilmiy merosi bebahohi ma'naviy boylik sifatida**

Tarixiy ildizlari uch ming yildan chuqurroq qadimiyatga borib taqaluvchi o'zbek davlatchiligi ko'p marotaba yuksalishlar va evrilishlar davrini boshdan kechirgan. Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatining gurkirab rivojlanishi omillari ilm-fan ahlini ko'pdan beri qiziqtirib keladi. Markaziy Osiyo, shu jumladan, O'zbekiston insoniyat sivilizatsiyasi qaror topgan mintaqalardan biri sifatida o'z o'mi va salohiyatiga ega hudud sanaladi. O'z davrida hozirgi zamon ilm-fanining ilk poydevorini qo'ygan va rivojlantirgan ajdodlarimiz qadim-qadimlardan G'arb va Sharq xalqlari yaratgan tafakkur, g'oya, kashfiyotlar va donishmandlikni sinchiklab o'rganganlar. Shuning uchun ham o'rta asrlarda G'arbda "Nur Sharqdan taraladi" degan iboraning paydo bo'lishi ham bejiz emas. Buyuk sharq allomalarining ilmiy merosi mazmuni va ko'lami shundaki, bu meros bugun ham o'zining ilmiy-amaliy ahamiyatini yo'qotmasdan, yangi ilmiy tadqiqotlar uchun muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. Buyuk mutafakkir Abu Rayxon Beruniyning "Hindiston" nomli asari Hindiston to'g'risida barcha zamonlarda

yozilgan eng mukammal asar sifatida hozir ham o‘z qimmatini yo‘qotmagan va bugungi kunda tadqiqotlar uchun manba bo‘lib xizmat qilayotgani buning yaqqol isbotidir. Buyuk ajdodarimiz o‘z ilmiy merosi bilan insoniyat sivilizatsiyasiga munosib hissa qo‘shganlar. Sharq va G‘arbning ilmiy dunyosi birlashgan va uyg‘unlikda rivoj topgan. Allomalarimiz faqat Osiyoning ilm-fan yutuqlari bilan chegaralanib qolmasdan, xorijlik mutafakkirlarning ham ilmiy yutuqlaridan bahramand bo‘lganlar va ularni yanada boyitishga alohida e’tibor qaratganlar. Istiqlol yillarida allomalar hayotiga oid ko‘plab asarlar chop etildi va xalqimizga tuhfa etildi, bu asarlar yoshlarimizni ma’naviy dunyosini boyitishga xizmat qilmoqda.

### **Mustaqillik yillarida mamlakatimizda Sharq allomalari ilmiy merosining qayta tiklanishi**

Mustaqillik yillarida buyuk allomalarimiz xotirasiga bag‘ishlab barpo etilgan yodgorlik majmualari jamiyatimiz ma’naviyatini yuksaltirish va yoshlar ongida ajdodlar merosiga hurmat ruhini kuchaytirish va ularning ota-bobolarimizga munosib avlod bo‘lib kamol topishida muhim tarbiyaviy omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Haqli ravishda qayta tiklanish o‘n yilligi deb aytish mumkin bo‘lgan 1991-2001-yillarda O‘zbekiston hududida xalqimiz tarixini o‘zida mujassam etgan 2000 dan ortiq tarixiy yodgorlik ta’mirlangani va bu ishlarning izchil davom ettirilayotgani boy merosimizni asrab-avaylashga qaratilgan ulkan e’tibor natijasidir.

Milliy madaniyatimizga, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan bobokalonlarimizning ma’naviy merosi xalqimizga qaytarildi, tavallud topgan kunlari butun mamlakatda xalqaro miqyosda 1991-yil – Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi, 1994-yil – Mirzo Ulug‘bek tavalludining 600 yilligi, 1996-yil – Amir Temur tavalludining 660 yilligi, 1997-yil – Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi, 1998-yil – Ahmad Farg‘oniy

tavalludining 1200 yilligi, 1998-yil – Imom Buxoriy tavalludining 1225 yilligi, 1999-yil – Jaloliddin Manguberdi tavalludining 860 yilligi, “Alpomish” eposining 1000 yilligi, 2000-yil – Burhoniddin Marg’inoniy tavalludining 910 yilligi, Imom Moturidiy tavalludining 1130 yilligi, Kamoliddin Bexzod tavalludining 545 yilligi, 2001-yil – “Avesto” yaratilganining 2700 yilligi, 2002-yil – Termiz shahrining 2500 yilligi, Shahrисabz shahrining 2700 yilligi, 2003-yil – Abduxoliq G‘ijduvoniy tavalludining 900 yilligi, 2006-yil – Qarshi shahrining 2700 yilligi, Xorazm Ma’mun akademiyasining 1000 yilligi, 2007-yil – Marg’ilon shahrining 2000 yilligi, Samarqand shahrining 2750 yilligi keng nishonlandi. 2009-yili Toshkent shahrining 2200 yilligi keng nishonlanib, unga “Mustaqillik” ordenining berilishi yangi tariximizdagi ulkan voqeа bo’ldi. Yurtimizdan yetishib chiqib, islam olamida shuhrat qozongan allomalar – Bahouddin Naqshbandning 675 (1993-yil sentabr), Xoja Ahror Valiyning 590 (1995-yil noyabr), Mahmud Zamazshariyning 920 va Najmiddin Kubroning 850, Imom Buxoriyning 1225 va Ahmad Farg‘oniyning 1200 (1998-yil oktabr), Imom Motrudiyning 1130 va Burhonuddin Marg’inoniyning 910 (2000-yil noyabr) yillik yubileyлari keng nishonlandi, ularning nomi bilan bog‘liq qadimiy qadamjolar obod qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagи “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi. Bu sa’y-harakatlar muqaddas zaminimizdan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyatini chuqur tadqiq etish, xalqaro miqyosda dinlararo va sivilizatsiyalararo muloqotni yo‘lga qo‘yish, bugungi murakkab davrda islam dinining insonparvarlik mohiyatini ochib berish hamda yosh avlodni yuksak ma’naviyatli insonlar etib tarbiyalashga xizmat qilishi, shubhasiz. 2017-yil 28-, 30-avgust kunlari Samarqand shahrida **“Jahon tamadduni tarixida**

**Markaziy Osiyo renessansi** mavzusida xalqaro konferensiya o'tkazilgan edi.

2018-yilning 15-iyun oyida Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazi quriladigan hududga tashrif buyurgan chog'ida milliy-diniy qadriyatlarimizni tiklash, buyuk ajdodlarimizning islom rivojiga qo'shgan ulkan hissasini targ'ib etishga alohida e'tibor qaratgan edi. Bu yerda davlat rahbari "Hamma o'ztarixini ulug'laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo'q. Bu merosni chuqur o'rghanishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak"-ligini ta'kidlagan edi.

### **Sharq mutafakkirlari ilmiy merosining xalqaro ilm hamjamiyatida e'tirof etilishi**

Jahon miqyosida yuz berayotgan globallashuv jarayonlari ilm-fan insoniyat taraqqiyotining bosh omili ekanligini ko'rsatmoqda. Bu borada O'rta asr Sharq mutafakkirlari ilmiy merosining zamонавија sivilizatsiya uchun naqadar dolzarb va zarur ekanligini ochib berish, ushbu bebaho ilmiy merosni yanada teran tadqiq qilish va ommalashtirish jahon sharqshunosligining eng asosiy masalalari sisatida e'tirof etilmoqda.

Islom tamadduniga ulkan hissa qo'shgan allomalarning juda ko'pchiligi bizning ajdodlarimiz – Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Forobi, Ibn Sino, Beruniy, Xorazmiy, Nasafiy, Buxoriy, Termiziy, Shoshiylar ekanini nazarda tutsak, G'arb olimining fikri haqligi hamda biz qanchalik ulkan xazina sohibi ekanimiz ayon bo'ladi. Masalan, Abu Rayxon Beruniy yozgan asarlar ro'yxatining o'ziyoq, agar mayda harflar bilan yozilsa, oltmis varaqlik kitobcha hosil bo'lar ekan. Buyuk Britaniyaning mashhur Kembrij universitetida Xorazmiy va Ibn Sino stipendiyalari ta'sis etilishi aslo beziz emas. Bugungi kunda dunyoning yirik ilmiy markazlarida Markaziy Osiyoda IX-XII va XIV-XV asrlarda ro'y bergan ilmiy-madaniy

uyg'onish davrining turli jihatlari, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy va boshqa mutafakkirlarning ilm-fan rivojiga qo'shgan hissasi, Imom Buxoriy, Burhoniddin Marg'iloniy, Imom Termiziy, Abu Mansur Moturidiy kabi ulamolarning ma'naviy merosi tahliliga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Mazkur ilmiy markazlarda "Markaziy Osiyo Renessansi davrida aniq va tabiiy fanlar rivoji", "Markaziy Osiyo – islom ilm-fanining ilg'or g'oyalari beshigi", "Markaziy Osiyo Renessansi davrida gumanitar fanlar", "Madaniyat va me'morchilik Markaziy Osiyodagi madaniy yuksalishning yorqin aksi sifatida" kabi yo'naliishlar ishlab turibdi.

Imom Moturidiyning "Kitob Tavhid" asari bizning davrimizgacha yetib kelgan va u 1970-yilda Fathulloh Xulif tomonidan Bayrutda nashr etilgan. U islom dinidagi sunniylarning to'rtta asosiy mazhabi asoschilarining asarlarini o'rganib, fiqhga va kalomga oid asar yozadi. XIV-XVI asrlarda Yevropa universitetlarining rivoj topishiga asosiy sabab bo'lgan tabiiy va falsafiy fanlarning negizida Ibn Sino (Avitsenna) va Ibn Rushd (Averroyes)larning ilmiy konsepsiyalari yotgan. L.Torndayk: "Agar biz Alfraganus va Sakroboskoning mavjud qo'lyozmalari sonini yoxud "Astronomiya elementlari" va "Sakrobosko sferalari"ga tegishli lotincha sharhlarining sonlarini o'zaro solishtirsak, unda biz bu ma'lumotlardan qaysi biri ko'p o'qilgani va o'rganilganiga aniq baho bera olamiz". Beruniy asarlariga bag'ishlangan yevropalik olimlar J.Reno, E.Zaxau, G.Zuter, E.Videman, K.Nallino, J.Sarton, R.Rayt, M.Meyerxof, Osiyo olimlari S.Nasr, M.Kozim, S.Baraniy, M.Nizamuddin, Sh.Yaltkay kabilarning kitoblari, tarjimalari nashr etildi. Ionn Sevil, Xerard Kremoniy, Gool, Regimontan, Shyoner, Kristman va boshqalar Ahmad Farg'oniy merosini o'rganish bilan maxsus shug'illangan tadqiqotchilar bo'ldi.

## **Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. Sharq allomalari ilmiy merosini o‘rganishning bugungi kundagi ahamiyati haqida so‘zlab bering?
2. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda allomalar ilmiy merosini o‘rganish yuzasidan qanday chora-tadbirlar amalga oshirilgan?
3. Mustaqillik yillarida allomalar ilmiy merosi O‘zbekistonda kimlar tomonidan o‘rganildi?
4. Sharq allomalari ilmiy merosining bugungi kundagi ahamiyati haqida so‘z yuriting?
5. Mustaqillik yillarida allomalar ilmiy merosi o‘rganilishining qaysi jihatlarini bilib oldingiz?

### **Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. Ўрта аср шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий-фалсафий мероси энциклопедияси. – Самарқанд: Имом Бухорий халқаро илмий маркази нашриёти. 2016.
2. Шарқ алломалари мероси-фаҳримиз, ифтихоримиз. – Фарғона: Фарғона нашриёти. 2014. – 72 б.
3. Шарқ Ренессанси даври алломалари ва мутафаккирлари асарларининг илмий-фалсафий ва бадиий-лингвистик тадқиқи. – Тошкент: Муҳаррир. 2018. – 284 б.
4. Шарқ Ренессансидавриалломаларивамутафаккирларининг илмий-фалсафий мероси. – Тошкент: Сано- стандарт. 2017. – 192 б.
5. “Ўрта асрларда Шарқ алломалари ва мутафаккирлари тарихий меросида санъат ва маданият масалалари”. 2018 йил. 5-7 май. 1-2 тўплам. – Тошкент: Наврӯз, 2018. – 333 б.
6. Зиёдов Ш. Ўрта асрларда яшаган машҳур самарқандлик алломалар. – Тошкент: Faфур Гулом нашриёти, 2019. – 260 б.

## Tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. Ўрта аср шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий-фалсафий мероси энциклопедияси. – Самарқанд: Имом Бухорий халқаро илмий маркази нашриёти. 2016.
2. Шарқ алломалари мероси-фаҳримиз, ифтихоримиз. – Фарғона: Фарғона нашриёти. 2014. – 72 б.
3. Шарқ Ренессанси даври алломалари ва мутафаккирлари асарларининг илмий-фалсафий ва бадиий-лингвистик тадқиқи. – Тошкент: Муҳаррир. 2018. – 284 б.
4. Шарқ Ренессанси даври алломалари ва мутафаккирларининг илмий-фалсафий мероси. – Тошкент: Сано-стандарт. 2017. – 192 б.
5. “Ўрта асрларда Шарқ алломалари ва мутафаккирлари тарихий меросида санъат ва маданият масалалари». 2018 йил. 5-7 май. 1-2 тўплам. – Тошкент: Наврӯз, 2018. – 333 б.
6. Зиёдов Ш. Ўрта асрларда яшаган машҳур самарқандлик алломалар. – Тошкент: Faфур Fулом нашриёти, 2019. – 260 б.

## MAVZU: O'RTA ASRLARDA MUSULMON SHARQIDA TASHKIL ETILGAN YIRIK ILMIY MARKAZLAR<sup>3</sup>

### Reja

1. Yirik ilmiy markazlar faoliyatining O'zbekistonda o'rganilishi.
2. Bayt ul-hikma va uning faoliyati.
3. Xorazm Ma'mun akademiyasi.

**Tayanch so'z va iboralar:** akademiya, Ma'mun, Marv ilmiy markazi, “Bayt ul-hikma”, Bag'dod akademiyasi, Xorazm Ma'mun akademiyasi, Abdulloh al Ma'mun, “Majlisi uloma”.

### Yirik ilmiy markazlar faoliyatining O'zbekistonda o'rganilishi

Dunyo ilm-fani tarixida musulmon Sharqida vujudga kelgan ilk akademiya sifatida nom qoldirgan “Bayt ul-hikma” faoliyati

<sup>3</sup> 3- mavzu tayanch doktorant Aziz Ungalov tomonidan tayyorlangan.

tarixini o‘rganish nafaqat Sharq va balki G‘arb olimlarining ham diqqat markazida bo‘lib kelgan. Shu bilan birga mazkur ilm dargohi tarixining mamlakatimiz olimlari tomonidan o‘rganilishi borasida B.Abduhalimov tomonidan katta qadam tashlangan edi. 2001-yilda olim tomonidan “Bayt al-hikma” va O‘rta Osiyo olimlarining Bag‘doddagi ilmiy faoliyati (IX-XI asrlarda tabiiy fanlar)” nomli dissertatsion tadqiqot yaratildi. Mazkur tadqiqot ishining to‘ldirilgan monografik shakldagi ko‘rinishi 2 bor dastlab 2004-yilda Islom universitetida, 2010-yilda esa “O‘zbekiston” nashriyotlarida bosilib chiqdi. Mazkur tadqiqot o‘ziga xos tomoni olimlar faoliyati va ularning Bag‘dod akademiyasidagi faoliyati juda ko‘plab tarixiy manbalar orqali o‘rganilgan.

Uzoq vaqt davomida O‘rta Osiyo zaminining yirik ilmiy madaniy markaziga aylangan Xorazm Ma’mun akademiyasi faoliyati tarixini o‘rganish va tadqiq qilish ishlari ayniqsa mustaqillik yillarda yangi bosqichga ko‘tarildi. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti 1997-yil 20-oktabrda butun dunyo miqyosida nishonlangan qadim Xivaning 2500 yillik yubileyiga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan tabrik nutqida ilm-fan, madaniyat, adabiyot va san’at namoyondalari qatori betakror tarixiy obidalar haqida bildirgan edi. Oradan ko‘p o‘tmay 1997-yil 11-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xorazm Ma’mun Akademiyasini qaytadan tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni e’lon qilindi<sup>4</sup>. Shunday so‘ng mazkur ilmiy markazning tarixini tadqiq etishga qaratilgan turli yo‘nalishdagi tadqiqotlar amalga oshirildi. Xususan, dastlab F.Babashev tomonidan “Xorazm ma’mun akademiyasi allomalarining ma’rifiy-ahloqiy qarashlari” nomli dissertatsion tadqiqot amalga oshirildi.

Mazkur yillar davomida akademiya faoliyati bilan bog‘liq izlanishlar A.Sadullayev, A.Sotliqovlarning “Xorazm Ma’mun

---

4 Xorazm Ma’mun Akademiyasini qaytadan tashkil etish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-1880 son Farmoni. 11.11.1997-yil. <https://lex.uz/docs/198975>.

akademiyasining tarixiy ildizlari” va I.Baydjanovning Xorazm Ma’mun akademiyasi tashkil topganligining 1000 yilligiga bog‘ishlangan “Xorazm Ma’mun akademiyasi o’tmishda va hozir” nomli tadqiqotlarida yangi ma’lumotlar bilan boyitildi. 2006-yilda Madrahim Safarboyev tomonidan “Ma’mun akademiyasi va uning jahon ilm fani taraqqiyotidagi o‘rni” asari yaratildi.

Bir so‘z bilan aytganda, ilk ilmiy markazlar tarixini o‘rganish keyingi yillarda yangi fan yo‘nalishi va tarmoqlari miqyosida amalga oshirilib borilmoqda. 2017-yil 12-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xorazm Ma’mun akademiyasining faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi. Bugungi kunda Xorazm Ma’mun akademiyasida 60 ga yaqin ilmiy xodim yuqorida bayon qilingan olti ustuvor yo‘nalish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib bormoqda.

### **“Bayt ul-hikma” va uning faoliyati**

O‘rta asrlar Sharq tarixi shundan dalolat beradiki, madaniyat va ta’lim-tarbiya, tibbiyat, adabiyot, san’at va arxitektura sohalaridagi beqiyos yuksalish, ilmiy mакtablarning vujudga kelishi, yangi-yangi iste’dodli avlodlar to‘lqinining paydo bo‘lishi va voyaga yetishi – bularning barchasi, birinchi navbatda, iqtisodiyot, qishloq va shahar xo‘jaligining ancha jadal o‘sishi, hunarmandchilik va savdo-sotiqning yuksak darajada rivojlanishi, yo’llar qurilishi, yangi karvon yo’llarining ochilishi va avvalambor nisbiy barqarorlikning ta’minlanishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. Tadqiqotchi-olimlarning fikricha, Sharq, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi IX-XII va XIV-XV asrlarda ilmiy-madaniy yuksalishning manbai hisoblanib, jahoning boshqa mintaqalaridagi Renessans jarayonlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan Sharq uyg‘onish davri – Sharq Renessansi sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan.

Mazkur jarayonda shubhasiz, Sharqda tashkil etilgan yirik ilmiy markazlar – akademiyalarning o‘rni nihoyatda katta bo‘lgan. O‘rta asr Sharq xalqlari fani va madaniyati tarixida Bag‘dodda bunyod etilgan “Bayt ul-hikma” shak-shubhasiz, yirik ilmiy voqeа sanaladi. “Bayt ul-hikma” o‘zbek tilida “Hikmatlar uyi” degan mazmunni anglatadi. Bu iboradagi “hikmatlar” ortida o‘sha davrdagi qator fanlar, jumladan, falsafa, tabobat, falakiyat, riyoziyot, adabiyot, diniy ilmlar tushuniladi. Binobarin, “Bayt ul-hikma” birinchi navbatda, ushbu sanab o‘tilgan fanlar va qolaversa, ilm-fanning boshqa yo‘nalishlarida ham izlanishlar olib borilgan ma’rifat va tarjima dargohi bo‘lgan.

Dastlab tashkil etilgan davrda kutubxona sifatida bunyod bo‘lgan “Bayt ul-hikma” ko‘p vaqt o‘tmay, u yerda jamlangan kitoblarni arab tiliga tarjima qilish markaziga aylandi. Keyinchalik esa, bu markaz tevaragida o‘z davrining eng yirik olim va tarjimonlari to‘planib, ijod qildilar. Ta’kidlash joizki, ularning o‘zagini Mavarounnahr va Xuroson olimlari tashkil etdi. Ayni paytda bu maskanda bir tomonidan, yunon, hind va fors tillaridagi ko‘plab nodir asarlarning jamlanganligi, ikkinchi tomonidan jamlangan kitoblarning eng noyoblari tanlab olinib, arab tiliga o‘girilgani hamda muomalaga kiritilishi, uchinchi tarafdan esa, muhim asarlarni yaratgan taniqli olimlarning “Bayt ul-hikma”da to‘plangani, uni o‘rta asrlarning eng mashhur ilmiy dargohiga aylanishi va ilmiy adabiyotlarda “Bag‘dod ilmiy maktabi” va “Bag‘dod akademiyasi” degan nomlar bilan tanilishiga asos bo‘ldi.

“Bayt ul-hikma” tashkil etilgan yil haqidagi ma’lumotlar hozirga qadar ma’lum emas. Hozirga qadar olimlar o‘rtasida bahsmunozaralar davom etmoqda. Ushbu ilmiy markaz Bag‘dodning qaysi nuqtasida joylashgani borasida ham aniq bir xulosaga kelish qiyin. Ammo u xalifa saroyining biror-bir qismida joylashgan bo‘lishi kerak, deb taxmin qilinadi. Bundan tashqari, “Bayt ul-hikma”ning tashkil topishi ba’zan faqat xalifa Ma’mun ismi bilan

ham bog'lab ko'rsatiladiki, bu haqiqatdan ancha yiroqdir. 813-yilda xalifalik taxtiga o'tirgan Abdulloh Ma'mun 819-yilgacha Marvni vaqtinchalik poytaxtga aylantiradi. U 813-815-yillarda Sharqning eng mashhur olimlarini Marvga chorlaydi. 819-yilda esa poytaxt bilan birga Ma'mun tuzgan ilmiy markaz ham Bag'dodga ko'chadi. 828-yilda Bag'dodning ash Shammosiya mahallasida marvlik Yahyo ibn Mansur rasadxonaga rahbarlik qildi. 831-yilda esa Damashq yaqinidagi Qosiyun tog'ida qurilgan rasadxonaga Xolid ibn Abdumalik Marvarrudi boshchilik qildi. Turkmanistonda joylashgan qadimiy Marv shahri XII asrda Xitoyning Xanchjou shahrini ortda qoldirgan holda, dunyodagi eng ulkan shahar hisoblangan. Tertius Chandler o'zining "Shaharlar rivojining to'rt ming yili" nomli tadqiqotida, 1150-yilda Marv shahri 200 000 aholisi bilan dunyoning eng yirik shahri bo'lgani haqida yozgan.

Abbosiylar sulolasi davriga kelib doimiy ishga aylangan qo'lyozmalarni saqlash odati xalifa Mansur davrida doimiy jarayonga aylandi, sifat va miqdor jihatidan tubdan o'zgardi Mansur nodir qo'lyozma asarlarni to'plashdan tashqari o'zga yurtlardagi olimlarni ham o'z saroyiga keng ko'lamda jalb eta boshladи. Uning saroyida Gundishopur mакtabidan taklif etilgan turli diniy e'tiqoddagi ko'pgina olimlar, tabiblar, kimyogarlar, geograflar va muhandislar xizmat qilgan. Ular orasida Bag'dod shahrining qurilishida ishtirok etgan astrologlar - eronlik Navbaxt (vafoti 777-y) va basralik yahudiy Menassiyalar (vaf. tax. 815-y) ham bor edi. Musulmonlar orasida "Mashallax" nomi bilan tanilgan Menassiya Mansur, Horun ar-Rashid, Amin va Ma'munlar davrida eng mashhur astrologlardan edi.

Xalifa Mansur saroyida Gundishopur mакtabidan Bag'dodga taklif qilingan qator tabiblar ham faoliyat ko'rsatgan Ular ichida Baxtyashu oilasiga mansub bir qancha xristian tabiblari bo'lib, ularning eng yirik namoyandası Jibril Baxtyashu Mansur uchun tabobatga oid ko'pgina asarlarni yunon tilidan arab tiliga tarjima

qiladi. Jibril Baxtyashuning o‘zi va bu oilaning o‘ndan ortiq boshqa tabiblari Bag‘dod shahrida uzoq yillar davomida tabiblik faoliyati bilan mashg‘ul bo‘ldilar.

Xalifa Ma’mun “Bayt ul-hikma”ga alohida e’tibor bilan qaradi. Natijada uning davrida (813-833) “Bayt ul-hikma”dagi ilmiy muhit misli ko‘rilmagan darajada rivojlanib, u yerda yunon, fors va hind tillaridagi muhim kitoblarni arab tiliga o‘girish, sharplash bilan bir qatorda, mustaqil ilmiy faoliyat ham olib borilib, yangi asarlar yozildi. Ma’mun diniy ilmlar, falsafa, aniq fanlar bilan qiziqqan va o‘zi ham ular bilan muntazam shug‘ullangan. Shuningdek, u tarjimonlar va olimlarga har bir yozgan yoxud tarjima qilgan kitoblari uchun katta mukofotlar tayinlagan. Ma’munning bevosita homiyligi ostida Yunoniston, Hindiston, Rim, Eron va Marvdan “Bayt ul-hikma”ga katta miqdorda turli mavzudagi kitoblar kelib tushgan. Ularning ba’zilari esa harbiy yurishlardagi o‘lja sifatida Bag‘dodga olib kelingan.

Ma’munning qo‘llab-quvvatlashi bilan eng sara asarlar tanlab olinib, arab tiliga o‘girildi. Umuman, bu davrda tarjimonlik ishlari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilib, u yaxshi tashkil etilgan doimiy faoliyatga aylandi. Tarjimonlar alohida-alohida guruhlarga bo‘linib ishlaganlar; har bir guruhni albatta malakali, mohir tarjimon boshqargan va so‘nggi tahrir uchun ushbu shaxs mas’ul bo‘lgan. Tarjimalar, odatda, yunon tilidan suryoniy tiliga, so‘ngra arab tiliga, ba’zan esa yunon tilidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri arab tiliga o‘girilgan. Aksariyat hollarda, tarjimalar kitob matnlarining asli bilan taqqoslab amalga oshirilgan. Har bir tarjimonlar guruhi tarkibida matn ko‘chiruvchi va kitoblarni muqovalovchi mutaxassislar bo‘lgan. Binobarin, xalifa Ma’mun davriga kelib, “Bayt ul-hikma” tarkibida yirik kutubxona, tarjima va asarlar yozish, ko‘chiruvchilar hamda muqovalash uchun ajratilgan maxsus xonalar mavjud edi. Bog‘dodning Shammosiya mintaqasi hamda Damashq atrofidagi Qosiyun tog‘larida mavjud bo‘lgan rasadxonalar ham “Bayt ul-hikma” tarkibiga kirgan.

Ma'lumki, xalifa Ma'mun davrida katta muvaffaqiyatlarga erishgan fanlardan biri bu – **falakiyat** edi. “Bayt ul-hikma”dagi astronomlar qadimgi yunon olimlari asarlarida ta'riflangan natijalarini, qaytadan o'zlarining tajribalari asosida tekshirib chiqdilar. Jumladan, Batlamusning “Al-majistiy” kitobida keltirilgan ko'pgina tajribalar, musulmon astronomlari tomonidan yana bir karra sinovdan o'tkazildi va erishilgan natijalar “Ma'munning sinalgan jadvali” nomli mashhur asarda bayon etildi.

Yuqorida biz bayon qilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, “Bayt ul-hikma” tez orada turli fanlar bo'yicha ilmiy munozaralar, tadqiqotlar, amaliy tajribalar olib boriladigan hamda nodir asarlar bitilgan, shuning barobarida, astronomik tajribalar va shifokorlik bilan shug'ullanishni keng ko'lamda amalga oshirgan ilmiy dargohga aylandi. “Bayt ul-hikma”ning allomalar va tadqiqotchilar uchun yaratib bergen qulay shart-sharoitlari, u yerdagi ilm sarchashmasidan ko'pchilikni bahramand etishi, ayniqsa, antik davrga oid noyob ilmiy merosni saqlab qolib, uni qaytadan tiklab, dunyoning turli burchaklarida ilm yo'lida mayoq bo'lib kelayotgan allomalarga yetkazish - markazning **asosiy vazifalaridan** biri edi.

### Xorazm Ma'mun akademiyasi

Bundan ming yil muqaddam Xorazmning poytaxt shahri Gurganjda (Ko'hna Urganch) ma'rifatparvar ma'muniylar sulolasiga mansub Xorazmshox Ali Ibn Ma'mun va Ma'mun ibn Ma'munning sa'yi-harakati hamda qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning bevosita rahnamoligida Sharqning yirik ilmiy markazi “Dor-ul hikma va ma'rifa” tashkil qilingan edi. Fanning dolzarb muammolari bilan shug'ullangan bu ilm dargohi o'zidan ikki asr avval Bag'dodda faoliyat ko'rsatgan “Bayt-ul hikma” hamda O'rta Osiyo, xususan, Xorazmda shakllangan qadimiy ilmiy-ma'rifiy an'analarni davom qildirib, jahon ilm-fani taraqqiyotida munosib o'rinni egalladi.

Bu ilmiy dargoh endilikda Xorazm Ma'mun akademiyasi nomi bilan yuritilib kelmoqda. "Dor-ul hikma" yoki "Majlisi uloma" nomi bilan atalgan bu ilm maskani Xorazmshohlar shuhratini orttirish maqsadini ko'zlagan bir guruh olim, adib, shoirlarning tasodify yig'ini emas edi. Masalaga shu nuqtayi nazardan qarash mutlaqo noto'g'ri bo'lar edi. Boshqacha aytganda u quruq yerda tasodifan vujudga kelmadi, aksincha o'zining mustahkam zaminiga ega edi. Ma'mun akademiyasi avvalo ko'hna Xorazmning uzoq o'tmishdagi ilm-ma'rifikat ildizlari bilan bevosita aloqador, shuningdek, u ilk o'rta asr Uyg'onish davri madaniy yuksalishining qonuniy natijasi bo'ldi. Zero ko'hna Xorazmda ayniqsa, falakiyot (astronomiya), riyoziyot (matematika) va boshqa ilmlarga bo'lgan qiziqish ancha erta vujudga kelgan.

Yevropalik olim E.Zaxau, rus sharqshunoslaridan akad. S.Tolstov, I.Krachkovskiy, A.Yakubovskiy, P.Bulgakov, o'zbek olimlaridan akad.Ya.G'ulomov, I.Mominov, M.Xayrullayev, A.Ahmedov, B.Abdughalimov va boshqalar o'z tadqiqotlarida shu ilmiy dargoh faoliyatini chuqur o'rganib, uni o'z davrining Fanlar akademiyasi bo'lganligini asoslab berdilar.

"Ta'rifi shahri Xorazm" qo'lyozmasining muallifi o'sha davrda Gurganjda 170 o'rinda katta va kichik bozorlar, 5 mingga yaqin masjid, 700 ga yaqin madrasa va mingga yaqin hammom ishlab turganligi haqida xabar beradi. O'sha davrda bu yerga tashrif buyurgan arab sayyoohlari Xorazm va poytaxt Gurganjni Jayhun yoqasidagi benihoya go'zal, jannatmakon maskan, aholisi badavlat va ma'rifikatli kishilar bo'lganligini alohida qayd etadilar. Jumladan Muqadasiy (Xasr) "Xorazmliklar aql-idrok, ilm, fiqh, qobiliyat hamda bilim kishilaridir" – deb ta'riflaydi. Yoqut Hamaviy (XII asr) esa "Men jahonning biror joyida Xorazmning poytaxti Gurganjga o'xshagan ulug'vor, boy va benihoya go'zal, aholisi bilimdon shaharni ko'rmaganman", – deb yozadi.

Yuqorida bayon etilgan ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy muhit Xorazmda Ma’mun akademiyasining faoliyat ko’rsatishi uchun zarur shart-sharoitni hozirlagan edi. Ma’rifatparvar hukmdor Ali ibn Ma’mun Gurganjda madaniy-ma’rifiy ishlarni juda rivojlantirdi. Saroy qoshida kutubxona barpo etib, uni Sharqning turli shaharlaridan keltirilgan nodir qo’lyozmalar bilan boyitdi. Saroy qoshida bino qilingan madrasada iqtidorli yoshlarga islomiy va dunyoviy ilmlardan ta’lim beriladi. Bu davr Xorazmda ilm-fanning ham gullagan davri bo’ldi. 1004-yilda Ali ibn Ma’mun farmoni bilan Sharqning yirik ilm-ma’rifat markazi – “Dor-ul hikma va ma’rif” yoki Ma’mun akademiyasi tashkil etildi.

Beruniy shu ilm maskaniga rais etib tayinlandi. Sharqning turli mamlakatlariga maktublar yuborildi, u yerdagi ilmda nom taratgan olimu fozillar ushbu ilm maskaniga taklif qilindi. Xorazmshoh Ma’mun II davrida “Dor-ul hikma”ning shuhrati yanada oshdi. Bu dargohda xorazmliklardan tashqari Buxoro, Samarqand, Jand, Marv, Nishapur, Balx, Eron, Iroq, Hindiston, Misr, Shom (Suriya) va boshqa viloyatlardan kelgan yuzdan ortiq olimlar, huquqshunoslar, adiblar, dinshunoslar tadqiqotlar o’tkazib, fanning turli sohalarida, buyuk kashfiyotlar qildilar.

Xorazm Ma’mun akademiyasida Abu Rayhon Beruniy boshchiligida xorazmlik olimlardan matematik va astronom Abu Nasr Iroq, Xorijiy, Xamdoqiy, kimyogar olim Abul Hokim Muhammad ibn Abdumalik Solih Xorazmiy Kosiy, Ahmad ibn Muhammad Suhayliy Xorazmiy va boshqalar bilan bir qatorda, buxorolik qomusiy olim, mashhur tabib Abu Ali ibn Sino, tarixchi olim, faylasuf va shoir bag’dodlik Abul Xayr ibn Xammor, tabib va faylasuf Abu Sahl Iso ibn Yaxyo Masihiy Jurjoniy, matematik va astronom Mahmud ibn Xidr Xo’jandiy, tarixchi olim va shoir Abu Mansur Abdumalik ibn Muhammad ibn Ismoil Saolobiy, Abul Xayr al-Hasan ibn Sivar ibn Boba ibn Bixnam, Abu Sayd Ahmad ibn Muhammad ibn Iroq, Abu Abdulloh Biyon Naysoburiy, Ahmad

ibn Hamid Naysoburiy, tarixchi olim ibn Miskavayx, Abul Fazl Bayhakiy, tabiatshunos olim Abu Abdulloh Husayn ibn Ibrohim Tabariy Notiliy, Ahmad ibn Muhammad Sahriy va boshqa o‘z zamonasining yetuk olimlari ko‘plab ilmiy va amaliy muammolarni yechib, jahon fani rivojiga ulkan hissa qo‘shdilar. Yuqoridagi nomlari zikr qilingan olimlar Ma’mun akademiyasida xizmat qilgan allomalarining hozircha aniqlangan.

Xorazm Ma’mun akademiyasining peshqadam olimlaridan biri Abu Nasr Iroq (vaf.1039-y.) edi. U o‘zining matematika va astronomiya sohasidagi tadqiqotlari bilan olimlar orasida juda tanilgan va katta hurmatga sazovor bo‘lgan. Olim yuqoridagi fanlarga doir 30 dan ortiq asarlar muallifidir. Shulardan 12 asari shogirdi Beruniyga bag‘ishlanadi. Abu Nasrning “Majistiy ash-shohiy” (“Podsho al-Magesti”) “Risola fil usturlob” (“Astrolyabya haqida kitob”), “Beruniyga yuborilgan taqvim jadvallari haqida kitob”, “Menelayning “Sferikasi” va boshqa risolalari bizgacha yetib kelgan. Olim fanda tekis va sferik trigonometriyaning asoschilaridandir. Uning bu sohadagi ilmiy xulosalaridan hatto binokorlik va me’morchilik ishlarida ham keng foydalanilgan. O’rta osiyolik mashhur matematik, faylasuf va shoir Forobiy olim ijodiga yuksak baho berar ekan “Riyoziyot (matematika) bilan shug‘ullangan buyuk olimlarning eng buyugi Abu Nasr Iroqdir”, degan edi. Olimning asarlari o‘z zamonasida unga beqiyos shuhrat keltirdi va u “Ptolemey Soniy” degan yuksak unvonga musharraf bo‘lgan.

Abu Sahl Masihiy (970-1011) ham Ma’mun akademiyasida katta shuhrat qozongan olimlaridan bo‘lib, astronomiya, matematika, tabiatshunoslik va falsafaga doir o‘nlab asarlar muallifidir. Shulardan 8 risolasi tabobatga doir bo‘lib, bizgacha yetib kelgan. Olimning “Tabobatga doir yuz masala” nomli asari qomusiy asar sifatida tanilgan bo‘lib unda tabobatning nazariy masalalari, odam organizmida yuz beradigan kasalliklar, ularning kelib chiqish

sabablari hamda davolash usullari haqida so‘z yuritildi. Shu boisdan olimning yuqoridagi asari tibbiyotda Abu Bakr Roziy va Ibn Sino asarlari bilan bir qatorda turadigan qimmatli asar sifatida baholanadi.

Xorazm Ma’mun akademiyasining yetakchi olimlaridan yana biri Abu Mahmud Hamid ibn Xidr Xo‘jandiydir. U o‘z davrining mashhur astronomi va ixtirochisi sifatida tanilgan bo‘lib, Beruniy olimning bu boradagi ijodini “asnning noyob hodisasi” deb baholagan. Xo‘jandiy Ray va Gurganjda o‘z davrining ulkan rasadxonalar qurilishiga boshchilik qildi. Ushbu rasadxonalar olim tomonidan ixtiro qilingan noyob astronomik asbob-uskunalar-sekstant bilan jihozlandi. Xo‘jandiy ana shu rasadxonalarda osmon yoritqichlari yuzasidan taddiqotlar o’tkazib, astronomiyaga doir qimmatli risolalar yozib qoldirdi. Olimning “Astronomiya qonunlari”, “Umumiyy astronomik asboblardan foydalanish qoidalari” va boshqa asarlari fan sohasidagi mashhur bo‘lgan asarlardir.

Ma’mun akademiyasida faoliyat ko’rsatgan olimlardan Abu Mansur Saolobiy (961-1038) va Abul Xayr Hammor (942-1030) ning ham fanda alohida xizmatlari bor. Saolobiy tarix, falsafa, adabiyot, mantiq va arab tili ilmlari sohasida o‘z davrining o‘ta iste’dodli olimlaridan bo‘lgan. U Nishapurda tavallud topgan, uzoq vaqt Jurjon, Marv, Buxoro, Gurganj va G‘azna shaharlarida yashagan. Olim 1038-yilda Nishapurda vafot etgan. U yuqorida zikr etilgan ilmlarga doir 51 ta asar yozib qoldirgan. Ayniqsa, uning Ma’mun akademiyasidagi hayot yo‘li juda sermahsul bo‘ldi. Saolobiyning bizgacha yetib kelgan “Yatimat ad-dahr fi mahosin aql ul-asr” (“Zamona ahlining fozillari haqida yagona durdon”), “Latoif ul-maorif” (“Latif ma’lumotlar”), “G‘urar axbor muluk ul-fors va siyaruxum” (“Eron podsholari haqida ma’lumotlar va ularning hayoti”), “Sehr ul-balogsat va sirr al-baro’sat” (“Notiqlikning sehri va nutq san’atining siri”) va boshqa asarlari O‘rta Osiyo, Xuroson va Eron xalqlarining X-XI asrdagi

tarixi va madaniy hayotini o‘rganishda yagona manbadir. “Yatimat ad-dahr” risolasida yana o‘sha davrda O‘rta Osiyo va Xorazmda ijod etgan 124 olim, adib va davlat arboblari haqida qimmatli ma’lumotlar yozib qoldirilgan. Asarning to‘liq bo‘lmagan arabcha matni, fransuzcha va lotincha tarjimalari 1883 va 1947-yillarda Yevropalik olimlar tomonidan chop etilgan. 1976-yili asar o‘zbek tilida olim I.Abdullayev tomonidan nashrdan chiqarildi. Abul Xayr ibn Xammorning Gurganjda Ma’mun akademiyasida yozgan “Tabiblar tajribasi haqida kitob”, “Homiladorlar kitobi”, “Qariyalar tadbiri haqida kitob” va boshqa asarlari tibbiyotning nazariy va amaliy masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, ulardan shifokorlar hozir ham nodir qo‘llanma sifatida foydalaniб kelmoqda. Abul Xayr ibn Hammor o‘z davridayoq “Suqroti Soniy” degan yuksak unvonga sazovor bo‘lgan olimdir.

Arab tarixchisi Yoqut Hamaviy (1179-y. tug‘ilgan)ning “Mu’jam ul-udabo” (“Adiblar ro‘xhati”) va boshqa asarlarida Ma’mun akademiyasida yana Abu Abdulloh Naysoburiy (vaf. 1014-y.), Ahmad ibn Muhammad Sahriy (vaf. 1015-y.), Muhammad Suhayliy Xorazmiy (vaf. 1027-y.) kabi sermahsul olimlar ijod qilganligi haqida so‘z yuritiladi. Xorazm Ma’mun akademiyasining faoliyati 1017-yilgacha davom qiladi. Lekin shunga qaramasdan shu ilmiy dargohdan jahon fani xazinasini o‘zining bebaho asarlari bilan boyitgan ko‘plab qomusiy olimlar yetishib chiqdi. Shu ilm maskani fan olamida yorqin iz qoldirgan o‘nglab, yuzlab iste’dodlarni tarbiyalab, voyaga yetkazdi va kamol toptirdi. Keyinchalik ular Sharq mamlakatlarida o‘zlarining ijodiy faoliyatni davom ettirdilar. 1017-yili Xorazm Mahmud G‘aznaviy tomonidan zabit qilindi va u g‘aznaviyalar saltanati tarkibiga qo‘sildi. Ma’mun akademiyasining bir guruh olimlari G‘aznaga Sulton Mahmud saroyiga olib ketildi. Olimlarning boshqa bir guruhi Sharqning turli mamlakatlariga tarqalishib shu joylarda ilmiy faoliyatini davom qildirdilar va oxirigacha Ma’mun akademiyasi an’analariga sodiq qoldilar.

Beruniy, Abu Nasr Iroq, Bayhaqiy va boshqalar G‘aznada Sulton Mahmud saroyida, Ibn Sino va shogirdlari esa Jurjon va Hamadonda Qobus ibn Vashmgir va Abu Tohir saroyida, Xo‘jandiy Ray shahrida umrining oxirigacha o‘zlarini fan xizmatiga bag‘ishladilar. Abu Rayxon Beruniy boshchilik qilgan Ma’mun akademiyasi olimlari yaratgan boy ilmiy meros nafaqat Sharqda ilmiy tafakkurning yuksalishiga, balki Yevropada ham ilm-fanning rivoj topishiga juda katta ta’sir ko‘rsatdi.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. Musulmon Sharqida dastlabki yirik ilmiy, madaniy markazlar vujudga kelishining tabiiy shart-sharoitlari haqida so‘z yuriting?
2. “Bayt ul-hikma”da gumanitar fanlar rivoji va uning ahamiyati haqida qanday fikrdasiz?
3. Xorazm Ma’mun Akademiyasida faoliyat olib borgan olimlar haqida esse yarating.
4. Mustaqillik sharoitida mazkur ilmiy madaniy markazlar faoliyatining o‘rganilishi va uning ahamiyati haqida bahs-munozara yuriting.

### **Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. Садуллаев А. Хоразм Маъмун академияси. Хива, 2000.
2. Бабашев Ф.А. Хоразм маъмун академияси алломаларининг маърифий-ахлокий қараашлари. Педагогика фан. номзоди. дисс. – Тошкент. 2000. – 140 б.
3. Садуллаев А., Сотликов А. Хоразм Маъмун академиясининг тарихий илдизлари. Урганч, 2003.
4. Абдухалимов Б.А. “Байт ул-хикма” ва Марказий Осиё олимларининг Бағдоддаги илмий фаолияти (IX-XII асрларда аниқ ва табиий фанлар). – Тошкент. Ўзбекистон, 2010. – 264 б.
5. Байджанов И.С. Хоразм Маъмун академияси ўтмишда ва ҳозир. Хоразм Маъмун академияси ташкил топганлигининг 1000 йиллигига бағишиланади. – Урганч. 2016.

## MAVZU: O'RTA OSIYODA DUNYOVIY IMLAR RIVOJI

### Reja

1. O'rta asr ilmlar tasnifida falakiyot.
2. Riyoziyot ilmi rivoji.
3. Tabobat ilmlari rivoji.
4. Geografik bilimlar rivoji.

**Tayanch so'z va iboralar:** tibbiyat, geografiya, osmon jismlari, Qo'yqirilganqal'a, riyoziyot, Handasa negizlari, Xuttal, Batlimus, Almajistiy, "Sindhind" kitobi.

### O'rta asr ilmlar tasnifida falakiyot

Falakiyotkundalik amaliy ehtiyojlar bilan bog'liq bo'lgani sababli insoniyat bu fan bilan qadim zamonlardan beri shug'ullanib kelgan. Osmon sirlari, Quyosh, Oy, yulduzlar na sayyoralar, ularning turlari, masofasi, kattaligi va nihoyat, ularning xarakatlari barcha zamonlarda ham kishilar diqqatini doimo o'ziga rom etib kelgan. Qadimda yunon olimlarining samoviy jismlar harakatlari, ularning o'lchamlari, ularga qadar bo'lgan masofalar va boshqa xususiyatlari haqidagi fikrlari falakiyotfani rivojidagi muhim davrni tashkil etadi. Ular qoldirgan eng muhim asarlardan biri Batlimusning "Almajistiy" kitobidir. Mazkur asar nomi yunon tilida "Hisobga oid buyuk kitob" iborasining qisqartirilgan shakli bo'lib, u o'z mohiyatiga ko'ra, falakiyotfanidagi qomus hisoblanadi. Asarda nafaqat falakiyot bilim sohasi ma'lumotlari, balki geografik ma'lumotlar ham o'rin olgan.

629-yilda hindistonlik astronom Brahma Gupta o'zining "Brahmasuta sidxanta" nomli mashhur asarini yaratdi. Muallif bu asarida samoviy jismlarning harakatlari bilan bog'liq yechimlarni ilmiy asoslashga harakat qidi. Mazkur asar arab tiliga "Sindhind" kitobi deb tarjima qilindiki, u musulmon sharqida falakiyotga oid yangi asarlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

O'rta Osiyoda ham xorazmlik va sug'dliklar ham qadim zamonlardan beri falakiyothaqidayaxshitavvurgaegabo'lganliklari va mazkur soha bilan shug'ullanganini Qo'yqirilganqal'adan topilgan burchak o'lchaydigan sopolgardishning topilishi uning isbotidir. Musulmon sharqida falakiyotilmining taraqqiyoti, shubhasiz, "Bayt ul-hikma" bilan bog'liq bo'lib, bu ilm bilan bog'liq shug'ullanuvchilar hukmdorlarning eng yaqin kishilariga aylana borgan edi. Bu hukmdor saroylarida bashorat amaliga bo'lgan qiziqish bilan bog'liq edi. Xalifa Mansur barcha muhim tadbirlarni falakiyotchi olimlar bilan bamaslahat olib borishga odatlangandi. U o'zining siyosiy kurashlari, dushmanlariga munosabati, shahar qurish, ziyoratlar vaqtini aniqlash, hatto, bemorlarni davolash va ovqatlanish masalalarida ham astrooglarning bashoratini e'tiborsiz qoldirmasdi.

Uning saroyida an-Navbaxt, Abu Saxl Navbaxt, Umar Farruxan Tabariy, Iso Usturlobiy va Mashalloh kabi olimlar xizmat qildi. Aniq vaqt va uning shaharlardagi holati jug'rofiy koordinatalarning musulmon olami muqaddas fazilatlari bo'lgan namoz uchun ham zarur edi. Keyingi davrda musulmon olamida falakiyot rivojida ikki asar – "Almajastiy" va "Sindhind"ning arabcha tarjimalari muhim rol o'ynadi.

"Sindhind" asarining arab tilida yuzaga kelishiga 772-yilda xalifa Mansur qasriga hind olimlaridan Kankaning tashrifi sabab bo'ldi. Tashrif natijasida mazkur astronom Mansurga hind falakiyotilmiga oid muhim asarni tuhfa qildi. Xalifa Mansur asarning qisqartirilgan shakli tarjimasini Muhammad Fazariyga topshiradi. "Almajistiy" asari 148 yilda ta'lif etilgan bo'lib, "Hisobga oid buyuk asar" mazmunini anglatadi. Asar arab tiliga bir necha bor tarjima qilingan. Tarjimalar orasida 808-877-yillarda yashagan Hunayn ibn Is'hoq tomonidan bajarilgan tarjima katta shuhrat qozongan.

Mazkur ikki asar Sharq falakiyotilmining negiziga aylanib alohida fan sifatida taraqqiy etdi. Falakiyot ilmi taraqqiyotida

Muhammad Xorazmiyning o‘rni katta bo‘ldi. U Sindhindni ijodiy yondashgan holda undagi masalalarni takomillashtirdi. Buning natijasi o‘laroq o‘zining 37 bob va 116 jadvaldan iborat “Zij”ini yaratdi hamda uning “Asturloblar bilan bajariladigan amallar” asari sharq falakiyat ilmini rivojlantirdi. Shuningdek, falakiyat ilmi rivojiga Ahmad Marvaziy, Yahyo ibn Mansur, Said Javhariy kabi olimlar o‘zlarining katta hissalarini qo‘shdilar. Xususan, marvlik Yahyo ibn Mansur “Ma’munning sinalgan jadvali” asari bilan Sharq falakiyotini rivojlantirdi. U uch aka-uka bo‘lgan Banu-Musolarga ham ustozlik qildi.

### Riyoziyot ilmi rivoji

Riyoziyot Sharqda IX-XI asrlarda eng tez va ko‘lami jihatdan eng keng taraqqiy etgan ilm sohasi bo‘ldi. Fanlararo o‘zaro aloqadorlik falakiyotbilan bir qator riyozat, xandasa, geodeziya, jug‘rofiya kabi fanlarning o‘zaro bog‘liq holda rivojlanishi uchun asos bo‘ldi. Ma’lumki, O‘rta asr Sharq matematikasi rivojida Uqliydisning “Handasa negizlari” (“Usul al-xandasa”) kitobi muhim o‘rin tutadi. Kitob avvaliga Hunayn ibn Is’hoq, so‘ngra esa Hajjoj ibn Yusuf ibn Matarlar tarafidan arab tiliga tarjima qilindi. Asar o‘n besh bobdan iborat bo‘lib, ulardan to‘rttasi geometrik shakllar, uch bob sonlar, 5 bob geometrik jismlarga bag‘ishlangan.

Asarga yozilgan sharhlar va uning erkin tarjimalari Muhammad Mahaniy, Abu Rayxon Beruniy, Sobit ibn Qurra, Hasan ibn Qaysam kabilar tomonidan amalga oshirilgan. Bu davrda mutaxassislarning fikriga ko‘ra Xorazmiy riyoziyot fanini, undagi bir qancha tarmoq va asosiy ta’limotlarni ta’sis etgan buyuk daho hisoblanadi. Xorazmiyning zamonaviy algebra fanini ta’sis etgan shaxs deb tan olinishi esa uning xizmatlari beqiyos ekanini so‘zsiz tasdiqlaydi.

Sharq riyoziyoti tarixi va taraqqiyotida o‘z nomiga ega bo‘lgan olimlardan yana biri Abd Hamid ibn turk Xuttaliy bo‘lib Xorazmiy

bilan bir davrda yashagan holda nomi bir-biriga yaqin bo‘lgan asar ham yaratgan. U Tojikistonning Panj va Vaxsh daryolari orasida joylashgan Xuttal mintaqasidan edi. O‘rta asr fanlari tarixiga doir asarlarda Xuttaliyning matematikaga doir 4 asari sanab o‘tiladi. Muallifning “Al jabr val muqobala” asarining parchasi Sulaymoniya Markaziy kutubxonasida saqlanayotgan bo‘lib, turk olimi O.Sayili tomonidan turk va ingliz tillariga, Tagizade nomli olim tomonidan rus tiliga tarjima qilingan.

### Tabobat ilmlari rivoji

Tabobat Sharq xalqlari tarixida doimo alohida e’tiborga molik ilmlar jumlasiga kiradi. Mazkur fan sohasida xalifalikning hukmron sulolalari davridayoq keng ko‘lamda izlanishlar olib borilib, ko‘plab asarlar yozildi. Boshqa fanlardagi singari musulmon olimlarining tabobatni o‘rganishi qadimgi xalqlarning, jumladan, yunon olimlarining tabobatga doir asarlarini o‘qib o‘zlashtirishdan boshlandi. “Bayt ul-hikma”da yunon, fors, hind, nasroniy madaniyatlariga oid tibbiy asarlar jamlanib, ular arab tiliga tarjima qilinganidan so‘ng Buqrot, Jolinus kabi antik mutafakkirlarning tibbiy qarashlari musulmon olimlari tarafidan muhokama, sharh va tahlil etildi.

Tadqiq etilayotgan davrda tabobatga oid asarlarni tarjima qilish ishlarini boshqargan mashhur tabiblardan biri nasroniy Yuxanna ibn Mosavayh edi. Uning otasi Bag‘dodga ko‘chib o‘tgunga qadar Gundishopurda tabobat bilan shug‘ullangan. Horun ar-Rashid tomonidan qadimiylar tibbiy kitoblar tarjimasini boshqarish mas’uliyati yuklatilgan Yuxanna ibn Mosavayh o‘zining qirqdan ortiq asarlarini yaratishga tuyassar bo‘ldi. Ibn Qiftiy Yuxanna ibn Mosavayh Bag‘dodda ilmiy anjumanlar tashkil qilgani va tadbirda tabiblar, mutakallimlar, faylasuflar va boshqa adiblarning ham ishtirok etgani haqida ma’lumot beradi.

808-873-yillarda yashab o'tgan Hunayn ibn Is'hoq nafaqat mashhur tabib, yirik tarjimon, balki tarixchi ham edi. U Hira (Suriya) shahrida dorishunos oilasida tavallud topadi, Basra shahriga kelib, arab tilini mukammal o'rganadi. Keyin esa Bag'dodga ko'chib o'tib, Yuxanna ibn Mosavayh va boshqalardan tabobat sirlarini o'rganadi. Hunayn ibn Is'hoq arab tilidan tashqari yunon, suryoniy va fors tillarining ham bilimdoni hisoblangan.

Bu davr tabiblari orasida eng mashhur tabib va tarjimonlardan biri Qusta ibn Luqa Ba'albakkiy edi. Uning tabobatga doir asarlarida insonlarning xarakteri, turmush tarzi, intilishlariga qarab ular orasidagi har xillikning sabablari, sayyoh uchun gigiyena va diyeta, o'lat va uni keltirib chiqaradigan omillar, infeksiya, qish vaqtidagi tumov va shamollash, qonning xususiyatlari va uni inson tanasidan chiqarish, safro va sando masalalari, kasalliklarning avj olishi bo'yicha savol-javoblar sharhlanadi.

Yana bu alloma - Ali ibn Rabbon Tabariy ham IX asr Bag'dodda faoliyat ko'rsatgan tabiblar jumlasiga kiradi. Uning otasi Marvning tabib va matematik olimlaridan bo'lib, keyinchalik Bag'dodga ko'chib o'tadi. Ali ibn Sahl Rabbon Tabariy Tabaristonda tavallud topadi va o'sha yerda o'sib ulg'ayadi U o'zining tabiblik faoliyatini, asosan, Bag'dodda olib bordi. Xalifa Mu'tasim davrida islom dinini qabul qilgan muallif, xalifa Mutavakkilning yaqin kishilaridan bo'lgan. Musulmonchilikni qabul qilgan Ali Tabariy umrining oxirlarida islomni nasroniylik, majusiylik va iudaizm dinlaridan himoya qilib ikki asar bitadi.

Xuroson va O'rta Osiyo fani, madaniyati an'analari ta'sirida shakllangan Abu Bakr Roziy Bag'dod shahrining ilmiy hayotida o'chmas iz qoldirdi. 865-yili Rayda tug'ilgan Roziy yoshlik yillarida adabiyot, musiqani, keyinchalik esa falsafa, riyoziyot, falakiyotva alkemyoni o'qib o'rgandi. O'ttiz yoshlar atrofida tabobat bilan shug'ullanishni boshlagan Roziy tezda mashhur tabibga aylanib Ray va Bag'doddagi shifoxonalarni boshqargan. Aytish kerakki,

Roziy XVII asrga qadar tabobatdagi eng katta obro' sohiblaridan bo'lgan. O'rta asr manbalarida Roziyning katta iqtidor sohibi ekanidan dalolat beruvchi rivoyatlar uchraydi.

### Geografik bilimlar rivoji

Biz ko'rib chiqayotgan davrda rivojlanib taraqqiy etgan fanlardan yana biri jug'rofiy bilimlar edi. Kundalik turmush talablari, musulmonlarning bir shahardan ikkinchi shaharga safar qilishi, ob-havo o'zgarishlarini kuzatish, harbiy harakatlar uchun ma'lumotlar va xaritalarning zarurligi jug'rofiya fanining rivojlanishini ta'minlovchi omillar bo'ldi. Xorazmda geografik bilimlarning rivoji, birinchi navbatda, Xorazm o'lkasining geografik joylashuvidan kelib chiqqan holda olib borilgan.

A.Ahmedovning ta'kidlashicha, yaqin va uzoq ellarga bo'ladigan safarlar, savdo va moliya ehtiyojlari faqat xalifalik mamlakatlarining o'zinigina emas, balki ularga qo'shni bo'lgan mamlakatlarni, hatto, uzoqlardagi noma'lum mamlakatlarni ham bilishni, ulardagi katta-kichik daryolar, buloqlar, quduqlar, ko'llar, sahro va cho'llar, tog' va qirlarni bilishni taqozo qilar edi.

Bu davrda Batlimusning "Almajistiy" va "Jug'rofiya" hamda Muhammad Xorazmiyning "Yerning tasviri" ("Kitab surat al-ard") kitoblari jug'rofiy bilimlar mustahkamlanishi uchun asosiy manba bo'ldi. Xorazmiyning mazkur kitobi Sharq jug'rofiya ilmiga asos solgan asar sifatida e'tirof etiladi.

"Surat al-ard" asarini o'rgangan olim A.Axmedov shartli ravishda asarni olti bo'limga taqsimlaydi va ularda muhokama etilgan mavzularni quyidagicha sharhlaydi: Birinchi bo'limda yerning odamlar yashaydigan (mamur) qismidagi shaharlarning nomlari yetti iqlim bo'ylab, jadvalda uzunlama va kenglamalari bilan keltiriladi Ikkinchi bo'limda tog'lar sanab o'tiladi. Uchinchi bo'limda Yer kurrasidagi dengizlar tavsiflanadi. Kitobning to'rtinchi

bo‘limi dengizdagi orollarga, beshinchi bo‘lim mamlakatlar, davlat va o‘lkalar va nihoyat, oltinchi bo‘lim esa Yerning odamlar yashaydigan qismidagi daryo va buloqlarga bag‘ishlanadi. Muhammad Xorazmiy o‘z asarida bosh meridian, ekvator va iqlimlar haqida mulohazalar yuritadi hamda umumiy hisobda 2402 ta maskanlarning jug‘rofiy koordinatlarini keltiradi.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar:**

1. O‘rta asrlar ilmlar rivojida dunyoviy ilmlarning tutgan o‘rnini haqida fikr yuriting?
2. Geografik bilimlar rivoji haqida so‘zlab bering?
3. Sharq allomalar faoliyatida dunyoviy ilmlar haqida esse yarating?
4. O‘rta asrlarda qaysi olimlar aniq fanlar rivojiga katta hissa qo‘shganlar?

### **Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. Баҳодиров Р. М. Абу Абдуллоҳ ал-Хоразмий ва илмлар таснифи тарихидан // Масул мұхаррир М.М. Хайруллаев. – Т.: Ўзбекистон, 1995. – 144 б.
2. Абдуҳалимов Б. “Байт ул-ҳикма” ва Ўрта Осиё олимларининг Бағдоддаги илмий фаолияти (IX-XII асрларда аниқ ва табиий фанлар). – Тошкент: Тошкент ислом университети. нашриёт-матбаа бирлашмаси. 2004.

## MAVZU: MUHAMMAD XORAZMIY ILMIY MEROSINING HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI

### Reja:

1. Muhammad Xorazmiy o‘rta asrlarning yirik qomusiy olimi.
2. Muhammad Xorazmiy asarlari tahlili.
3. Muhammad Xorazmiyning aniq va ijtimoiy fanlar rivojiga qo‘sishgan hissasi.

**Tayanch so‘z va iboralar:** Kat, Majusiy, Bayt ul-hikma, Abdumalik Marvarrudiy, O.Neygubauer, Xorazmiy “Ziji”, algebra, qutrubbul, Brahmagupta.

### Muhammad Xorazmiy o‘rta asrlarning yirik qomusiy olimi

Buyuk matematik, astronom va geograf Muhammad Xorazmiy VIII asrning oxiri va IX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan. Rivojlanib kelayotgan mavjud tuzum taqozo qilgan ijtimoiy-iqtisodiy talablar bu davrdagi taraqqiyot jarayonining asosiy omillaridan biri bo‘ldi. Qurilish, savdo-sotiqlar, hunarmandchilik, dehqonchilik va boshqa sohalarni yanada taraqqiy ettirish uchun astronomiya, geodeziya, geometriya kabi fanlarni rivojlantirish zaruriyati tug‘ildi. O‘sha davrning ilg‘or olimlari bu fanlarning amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo‘lib, Muhammad Xorazmiy esa shu olimlarning peshqadami va yo‘lboshchisi edi. Olimning to‘liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso Xorazmiy bo‘lib, uning tug‘ilgan yili adabiyotlarda 783-yil deb ko‘rsatib o‘tiladi. Olim 850-yilda vafot etgan. Yevropada “Algoritmus” nomi bilan mashhur bo‘lgan buyuk matematik, astronom va geograf. Manbalarda Xorazmiyning ismiga yana al-Majusiy va al-qutrubbuliy degan atamalar ham qo‘sib aytiladi. Bularning birinchisi olim Xorazmning asli mahalliy aholisidan, ya’ni otashparastlar (arabcha – “majus” – otashparast degani) oilasidan, balki shu otashparastlik dinining kohinlari oilasidan kelib chiqqanligini, shu bilan birga olimning

o‘zi yoki otasi majusiy bo‘lib, ular islomni keyin qabul qilganligini ko‘rsatadi. Xorazmda majusiylar islomdan keyin ham uzoq muddat o‘z diniy urf-odatlarini saqlab kelgan. Bu haqida Beruniy o‘zining “Osori ul boqiya” asarida guvohlik beradi. Keltirilgan ismlarning ikkinchisi, Xorazmiy mo‘ysafidlik yillarini Bag‘dod yaqinida Dajla bo‘yidagi Qutrubbul dahasida o‘tkazganligini ko‘rsatadi. Odatda arablar biror kishining xarakterli xususiyatlari, hunarlari, sevimli odatlari yoki yashash joylariga qarab, unga bir necha xil ism – “nisbatlar” beradilar.

Xorazm juda qadimgi madaniyatga ega bo‘lib, uning qishloq xo‘jaligi sug‘orma dehqonchilikka asoslanar, bu o‘z navbatida, astronomiya va xronologiyaning rivojlangan hisoblash usullarining mavjud bo‘lishini taqozo etar edi. Haqiqatdan ham, qadimgi Xorazmda astronomiya juda rivojlangan, xorazmliklar osmon “sirlari”ni arablarga qaraganda ancha yaxshi bilganlar. Arxeologik qazishmalar Xorazmda qadimda islomdan bir necha asr avval ham rasadxonalar bo‘lganligi va u yerda muttasil astronomik kuzatishlar olib borilganligidan guvohlik beradi. Xorazmiyning bizgacha yetib kelgan asarlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, u yunon, hind va eron astronomiyasi va matematikasini yaxshi bilgan.

U o‘z ilmiy faoliyatining katta qismini Bag‘doddagi “Bayt ul-hikma”da o‘tkazgani tarixdan ma’lum. Mazkur dargoh xalifa Ma’munning shaxsiy e’tibori ostida bo‘lib, ma’lum muddat Xorazmiy tomonidan boshqarilgan. Shu sababdan ham xalifa Ma’mun bilan Muhammad Xorazmiy orasida nihoyatda yaqin munosabatlar bo‘lgan. Xalifa Xorazmiyni olim sifatida qadrlagan, “Bayt ul-hikma” kabi markazni boshqarish ishlarini unga ishonib topshirgan va u yerda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarga har jihatdan ko‘mak bergen.

Ibn Nadimning “al-Fixrist” kitobida Xorazmiy haqida quyidagi ma’lumotlar keltiriladi: “Xorazmiy. Uning ismi Muhammad ibn Muso, asli Xorazmdan. U o‘zini xalifa Ma’munning “Bayt ul-

hikma”siga bag‘ishlagan falakiyotilming bilimdonlaridan edi. Odamlar astronomik tadqiqotlar boshlashdan avval va undan so‘ng ham Xorazmiyning “Sindhind” nomi bilan ma’lum bo‘lgan birinchi va ikkinchi zijiiga (ikki astronomik jadvallariga) tayanganlar. U quyidagi asarlarning muallifidir: “Zij” kitobining ikki, ya’ni birinchi va ikkinchi tahrirlari, “Quyosh soati kitobi”, “Asturlob bilan qilinadigan amallar”, “Asturlob yasash amali kitobi” va “Tarix kitobi”.

Ma’lumki, xalifa Ma’mun 809-yildan Marvda dastlab xalifa Xorun ar-Rashidning noibi, so‘ng 813-yildan boshlab xalifa bo‘ladi va 819-yili Bag‘dodga ko‘chadi. Ma’mun Marvda bo‘lganida Xorazmiyni, movarounnahrlik va xurosonlik boshqa olimlarni o‘z saroyiga jalgan. Xorazmiy davrida “Bayt ul-hikma”da ishlagan yirik tarjimonlar orasida Hajjoj ibn Yusuf ibn Matar, Abu Zakariyo Yuhanno ibn Bitriq, Hunayn ibn Is’hoq va Kusto ibn Luqo Ba’albakiylar bor edi. Bag‘dodga kelgan Markaziy osiyolik olimlar orasida mashhur astronom Ahmad ibn Kasir Farg‘oniying nomini eslatish lozim. Marvlik Yahyo ibn Abu Mansur Bag‘dodning Shammosiya qismidagi rasadxonaning asoschisi va rahbari bo‘ldi. Rasadxonadagi ishlar haqida u “Bayt ul-hikma”ning mudiri Xorazmiyga hisobot berib turardi. Yahyo 831-yili vafot etganidan so‘ng Xorazmiy bu rasadxonani ham boshqaradi va u yerdagi kuzatishlarda faol qatnashadi. Yahyoning qalamiga mansub “Zij al-mumtahan” (“Sinalgan zij”) nomli astronomik asari ma’lum. Damashq yaqinida Qosiyun tog‘idagi rasadxonani Xolid ibn Abdumalik Marvvarudiy boshqaradi. U ham o‘z “Zij” ini tuzadi. Xolid Yer meridianining uzunligini o‘lchash ishlariga boshchilik qiladi.

### Muhammad Xorazmiy asarlari tahlili

Muhammad Xorazmiy birinchi navbatda buyuk matematik sifatida namoyon bo‘ladi. U o‘zigacha butun sharq ilm fani to‘plagan matematik bilimlarni umumlashtirib, ularni o‘zining natijalari bilan boyitib bordi. Xorazmiy o‘z davri uchun eng aniq hisob-kitoblarga

ega trigonometrik jadvallar ishlab chiqdi. Ushbu jadvallarda sinusning muhim funksiyalari aniq bayon qilingan risolalar va o‘quvchi uchun muhim ko‘rsatmalardan iborat izohlar, formulalar bayon qilinadi. Muhammad Xorazmiyning trigonometrik jadvali va risolalari asosida XII asrda “Carmen de Algorismo i Algorismus vulgaris” asari yozildi va u XVII asrgacha Yevropaning barcha oliy ta’lim muassasalarida asosiy matematik darslik bo‘lib xizmat qildi. XVI asrga kelib esa, Muhammad Xorazmiy ning barcha ilmiy asarlari Yevropa tillariga o‘girib bo‘lindi. Ulardan so‘nggisi – “Hind hisobi haqida risola” 1857-yilda knyaz Baldasare Bankompaniy tomonidan chop etilgan “Arifmetika risolasi”ning birinchi qismiga tarjima sifatida kiritildi.

Matematikadan tashqari Muhammad Xorazmiy o‘z davri allomalariga xos ravishda, falakiyotilmi – astronomiya bilan ham jiddiy shug‘ullangan. U o‘z astronomik tadqiqotlarida sayyoralar harakati, quyosh va oy tutilishlari sabablari va vaqtлari, yulduzlarning osmon sferasidagi harakatlari, sayyoralarining joylashuv va harakat yo‘nalishlari haqida, o‘z zamonasi uchun mufassal bo‘lgan astronomik jadvallar – zijlar tuzgan va ularga mufassal sharhlar yozgan.

### **Muhammad Xorazmiyning aniq va ijtimoiy fanlar rivojiga qo‘shgan hissasi**

**1.“Algoritmi hind hisobi haqida”.** Asarning arabcha nusxalari saqlanmagan. XIV asrda ko‘chirilgan va Kembrij universitetida saqlanadigan lotincha nusxasi mavjud. Bunga asos bo‘lgan lotincha tarjimani XII asrda Kremonalik Gerardo yoki Adelard Bat bajargan va B.Bonkompani va K.Fogel tomonidan nashr etilgan. O‘zbek tilida Xorazmiy tanlangan asarlarida 1983-yilda e’lon qilingan. Ushbu kitobning dunyo ilm fani tarixida tutgan o‘rniga mutloq baho berish mushkul. Sababi, aynan ushbu asar qadimgi dunyo matematiklarining eng muhim

muammolari – sanoq tizimlaridagi chalkashliklar, noqulayliklar va raqamlash tizimining o'tkir kamchiliklarini bartaraf etgan, zamonaviy sanoq va raqamlash tizimiga asos solgan buyuk ilmiy manba hisoblanadi. Aynan "Hind hisobi haqidagi kitob" tufayli, o'nlik sanoq tizimining qulayliklari va hind raqamlash tizimining afzalliliklari fanga aniq-tiniq ma'lum bo'ldi. Hind hisobida sonlar 1 dan 9 gacha bo'lib, hind hisob tizimida manfiy sonlar va nol umuman matematik tushuncha sifatida mavjud bo'lmagan. Muhammad Xorazmiyning matematika oldidagi yana bir buyuk xizmati shu ediki, u fan tarixida ilk marotaba nol sonini arifmetik va algebraik amallarga tadbiq etdi, ya'ni Xorazmiy nol sonini fanga kiritdi! Ungacha bo'lgan barcha matematik ilmiy asarlardan sanoq bosru birdan bosilanar va nol soni haqida tushunchalar qayd etilmas edi. Kitob qor'lyozmasi ilmiy ommaga tarjalishi bilan u halifalik bo'ylab juda tez va ko'plab nusxalarda, Mavarounnahirdan to Andalusiyagacha bo'lgan ulkan hududda shiddat bilan omimalashdi va madrasa va ilmiy muassasalarda darslik sifatida o'qitila bosilandi. "Hind hisobi haqida" asarida beyond etilgan hind raqamlarining hisoblashlardagi qulayligi tezda bunun ilm ommasiga ma'lum bo'ldi va u keyingi davr Yevropa faniga "arab raqamlari" sifatida kiritildi. "Arab raqamlari" Haqidagi dasifahki ma'lumot 1200-yilga oid bo'lib, unda italyan sivodagariining mazkur raqamlardan foydalanib yuritgan hisob-fuohlar eks etadi. 1299-yilda esa Floreasiyada "arab raqamlaridan foydalanshni ta'qiqlashi" va g'olibagi qonun qabul qilingan ham tarixiy markhalarda mavjud. Bi qonunga nima vazab bo'lganligi aniq emas, balki, kinosi italyan sen'orlar orz mehallasiga foydasiga mazkur qonungz imzay chekligizadir, lekin hekin "arab raqamlari" ning analiy afzalliliklari orz tarixi qurunkiliigida endin ketdi. XVI zo'rda ketib bu nun mataniy shingan canadchin "arab raqamlari" ga deyarli orz bo'lib. Muhammed Xorazmiyning "Hind hisobi haqida" asari

“Algoritmi de numero Indorum” nomi bilan XII asrda lotin tiliga tarjima qilingan. Mazkur kitobning ham arab tilidagi matni yo‘q bo‘lib ketgan, lotin tilidagisi esa salqanib qolgan.

## 2. “Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr val muqobala”.

Asarning arabcha nusxasi Oksford universitetining Bodleyan kutubxonasida saqlanadi. (№ Hunt 214, p.1-34). Bu qo‘lyozma 1342-yili ko‘chirilgan. Uning arabcha nusxasi va inglizcha tarjimasi F.Rozen tomonidan 1831-yili nashr etilgan. Risolaning yana ikkita arabcha nusxasi mavjud. Ikkita lotincha tarjimasining nusxalari mavjud. Muhammad Xorazmiy dunyoga bиринчи navbatda o‘zining “Kitab Muxtasab al jabr val-muqobala” (“Tiklash va qarama-qarshi qo‘yish haqida muxtasar kitob”) asari bilan mashhur. Asar nominining so‘zma-so‘z ma’nosi shundan iborat: “Al-Jabr” – tiklash va “val-Muqobala” - qarama-qarshi qo‘yish. Bularning Muhammad Xorazmiy asaridagi tom ma’nosi va mohiyati, asarda tahlil qilingan chiziqli va ikkinchi darajali tenglamalarni yechish jarayonida, tarixda ilk marotaba Muhammad Xorazmiy tomonidan qo‘llanilgan usul – tenglamaning ma’lum va noma’lum hadlarini guruhlash, ya’ni tenglikning o‘ng tarafiga ma’lum qiymatlarni, chap tarafiga esa noma’lumlarni tartiblash – “Tiklash”, ularni o‘zaro matematik amallar yordamida soddalashtirish , qisqartirish va yechish – “qarama-qarshi qo‘yish” deb atalganligidir. Ushbu asar nomidagi “Al-Jabr” so‘zidan keyinchalik takassuzdagi o‘zgarishlar (Yevropa ullari tufayli) “Algebra” so‘zi paydo bo‘ldi.

Mazkur asarning asl qo‘lyozma matni yo‘q bo‘lib ketgan, ammo erking 1140-yilda ingliz matematigi Robert Chesterki tomonidan tafsime qilingan kelin tilidagi nusxasi saqlanib qolgan. Bu asar nomi “Book algebra and val muqobala” bo‘lib, horirda Kembrijdija saqlanadi. Shuningdek, “Al jabr val-muqobala”ning ispaniyalik yahudiy lezgani Sevilkliy tomonidan o‘girilgan tarjima nusxasi ham mavjud bo‘lib, uni markur muallif o‘zining “Boshlang‘ich arithmetika” asarining birinchi qismiga kirigan.

**3. “Ziji Muhammad Xorazmiy”.** Asarning arabcha nusxasi saqlanmagan. Asarning 1007-yili arab astronomi Maslama Majritiy qayta ishlangan nusxasidan XII asrda Adelard Bat bajargan lotincha tarjimaning nusxalari mavjud. Bu nusxalar Oksford universiteti Bodleyan kutubxonasida saqlanadi. Xorazmiyning eng yirik astronomik asari uning “Zij”idir. Olim bu asarini 830-yil atrofida yozgan.

Xorazmiyning “Zij”i 37 bob, 116 jadvaddan iborat. Asarning avvalgi besh bobi xronologiyaga bag’ishlangan bo‘lib, “to‘fon”, “iskandar”, “safar” va xristian eralaridagi sanalarni hijriy eraga ko‘chirish qoidalari keltiriladi. 6-bobda aylana – 12 burjga, burj – 30 darajaga, daraja – 60 daqiqaga, daqqa – 60 soniyaga va hokazo mayda bo‘laklarga bo‘linishi bayon etiladi. 7 – 22-boblar Quyosh, Oy va besh sayyoraning harakatlari masalasiga bag’ishlangan. Bu boblarda Xorazmiy qadimgi va ilk o‘rta asr hind astronomik ma’lumotlaridan, Eron va Yunon ma’lumotlaridan mohirona foydalangan holda Ptolemeyning geomarkaz sistemasiga asoslanib, planetalar harakatini bayon etgan. 23-bob trigonometriyaga bag’ishlangan, unda Xorazmiy “tekis” va “akslangan sinus” tushunchalarini kiritadi va bu funksiyalar jadvallarini keltiradi. 25–27-boblar matematik geografiyaga bag’ishlangan. Bu yerda geografik joylarning uzunlik va kengliklarini aniqlash qoidalari keltiriladi va bu koordinatlarning o‘zgarishi Quyoshning yillik, kecha-kunduzlik harakatida ekliptik, ekvatorial koordinatlarning o‘zgarishi bilan bog‘liqligi ko‘rsatiladi.

28-bobda Xorazmiy yana trigonometrik masalalarga murojaat qiladi va tangens, kotangens tushunchalarini kiritadi hamda ularga mos jadvallarni keltiradi. 29-bobda planetalar harakatining tezligi aniqlanadi. 30-bobda Quyosh va Oy ko‘rinmas kulchalarining o‘lchami keltiriladi. 31-32 va 36-37-boblar munajjimlik masalalariga bag’ishlangan, 33-35-boblar Quyosh va Oy tutilishi va parallaks (yoritgichning ko‘rinish farqi) masalalariga bag’ishlangan.

Xorazmiy “Zij”i xalifalikdagi dastlabki astronomik asarlardan edi. Asar yozilishi bilan olimlarning diqqatini o‘ziga jalg‘ etdi. Unga Xorazmiyning zamondoshlaridan Farg‘oniy, Hoshimiylar va boshqalar yuksak baho berishgan. Abu Rayxon Beruniy bu “Zij”ni sharhlashga uchta asarini bag‘ishlagan. Fan tarixida ispaniyalik arab astronomi Maslama Majritiy tomonidan 1007-yili ko‘chirilgan nusxa diqqatga sazovor. Bu nusxani 1126-yili Adelard Bapg Ispaniyada lotinchaga tarjima qildi. Xorazmiy “Zij”i hozir mana shu lotincha tarjimada mavjud. Shu tarjimaning to‘rt qo‘lyozma nusxasi asosida 1914-yili X.Zuter “Zij”ning lotincha tanqidiy matnini, shu matn asosida O.Neygubauer esa 1962-yili uning ingilizcha tarjimasini nashr etgan. Mana shu ikki nashr asosida “Zij”ning to‘la ruscha va qisman o‘zbekcha tarjimalari nashrga tayyorlandi.

Xorazmiy “Zij”ining Yevropa faniga ta’siri X.Zuter, K.Nallino va I.Krachkovskiylar tomonidan yaxshi o‘rganilgan. Tadqiqotchilar yakdillik bilan ta’kidlashicha, Xorazmiyning bu asari uning arifmetik va algebraik risolalari kabi bunday asarlarga ehtiyoj tug‘ilgan paytda yuzaga keladi va bu asari bilan olim astronomik asarlar yozilish uslubini standartlashtirdi, bu standart esa to Ulug‘bek “Zij”igacha o‘z kuchini saqladi. Xorazmiy o‘z “Zij”ida boshlang‘ich meridian sifatida, hind an’anasiga ko‘ra, Arin (hozirgi Hindistonidagi Ujayn) shahridan o‘tgan meridianni tanlagen, Yevropada XIII asrda Rojer Bekon va Buyuk Albert ham Arin meridiani g‘oyasining tarafдорлари bo‘lganlar. Arin g‘oyasiga ko‘ra, Ayyalik Petr (Fransiyadan) 1410-yili o‘zining “Yer tasviri” nomli asarini yozdi. Bu asarning 1487-yili chop etilgan bir nusxasidan Xristofor Kolumb foydalangan. Kolumbning o‘ziga tegishli nusxa hoshiyasiga yozgan eslatmalariga ko‘ra, Arin g‘oyasi unda Yerning noksimon ekanligi va yerning Aringa diametral qarama-qarshi tarafida Aringa o‘xshash joy bo‘lishi kerakligi haqidagi tasavvur hosil qilgan.

4. “Surat-ul-arz” kitobi. (Kitob surat ul-ard) asari Xorazmiy “Geografiyasi” hisoblanadi. Shuningdek, buyuk alloma vatandoshi-

miz, geografiya bilan ham muntazam shug'ullangan bo'lib, uning yer meridiani yoyi uzunligini o'lehash va geodeziya borasidagi tadqiqotlari borasida yuqorida qisqacha bayon yetgan edik. Qo'shimcha qilib shuni ta'kidlash joizki, Muhammad Xorazmiyning geografiyaga bag'ishlangan kashfiyotlari uning "Kitab surat al-ard" asarida mufassal bayon qilingan. Bu asarda Muhammad Xorazmiy 70 ga yaqin qadimgi yunon, hind va boshqa tamaddunlar geograflarining asatlarini o'z nuqtayi nazaridan tahlil qilib, ularga aniqliklar va tuzatishlar kiritadi. O'z davri uchun "ma'lum bo'lган" (ya'ni inson qadamini yetgan) yerlarning geografik, topologik xaritalarini keltiradi va muhim shaharlar, aholi yashash joylari, harbiy istehkomlar va boshqa geografik obyektlar (dengiz, daryo, tog', cho'l va karvon yo'llari) ning koordinatalarini bayon qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, Muhammad Xorazmiyning "Kitab surat al-ard" asarida keltirgan yer xaritasi umgacha foydalanib kelingan Ptolomey xaritasidan ko'ra ancha mukammal va aniq bo'lsa-da, negadir noma'lum sabablarga ko'ra keyingi davrda bu xaritalar ommalashmadidi.

Xorazmiy geografik asarining yozilgan yili aniq ma'lum emas. Akademik V.V.Bartold bu asar 836-847-yillar orasida yozilganligini aniqlagan. Asar 1037-yili ko'chirilgan yagona arabcha nusxasida bizgacha yetib kelgan bo'lib, bu nusxa Strasburg universiteti kutubxonasida saqlanadi. Kitobda shaharlar, tog'lar, dengizlar, orollar va daryolardagi 2402 ta geografik joyning koordinatlari keltiriladi. Shaharlar, daryolar, tog'lar, orollar va boshqa obyektlar iqlimlar bo'yicha taqsimlangan. Iqlim so'zi aslida yunoncha klima – "og'ish" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, uni fanga Gipparx (eramizdan oldingi II asr) kiritgan. Gipparx Yerning odamlar yashaydigan qismini 12 ta iqlimga ajratgan. Undan so'ng Ptolemey iqlimlarning sonini 8 tagacha kamaytiradi, lekin o'z "Geografiya"sida u iqlimlar nazariyasiga to'la rioya qilmaydi, chunki geografik joylarni mintaqalar va yeparxiyalar bo'yicha taqsimlaydi.

Geografiyani iqlimlar nazariyasiga to'la rioya etgan holda birinchi marta Xorazmiy bayon qiladi. U yerning ma'mur, ya'ní insonlar yashaydigan obod qismini yetti iqlimga ajratadi. Xorazmiy qadimgi yunon olimi Ptolemeydan farqli o'laroq, mintaqalar, mamlakatlar va ulardag'i geografik joylarni emas, balki 1-iqlimdan to 7-iqlimgacha joylashgan joylarni tavsif etadi.

Xorazmiyning geografik risolasi o'rta asrlardagi eng birinchi geografik asar edi. Shuning uchun uning iqlimlar nazariyasi keyingi davrlarda geografiyaning rivojlanishida katta ahamiyat kasb etdi. Xususan, uning iqlimlar nazariyasi Yerning ma'mur qismini iqlim mintaqalari bo'yicha o'rghanishni osonlashtirdi. Xorazmiy ham Ptolemey kabi uzunliklarni Kayar orollaridan boshlab hisoblaydi. Xorazmiy ekvatoridan janubda 8 ta shahar, 1-iqlimda 64 ta shahar, 2-iqlimda 54 ta shahar, 3-iqlimda 59 ta shahar, 4-iqlimda 146 ta shahar, 5-iqlimda 79 ta shahar, 6-iqlimda 63 ta shahar, 7-iqlimda 25 ta shahar va 7-iqlimdan shimalda 40 ta shaharning koordinatlarini keltiradi.

Risolaning ikkinchi bobida iqlimlardagi tog'lar tavsiflanadi. Tog'larning boshi va oxirining koordinatlari keltiriladi. Xorazmiy Yaqin va O'rta Sharqdagi hamda Kavkaz va Markaziy Osiyodagi tog'larni ham u yerlardagi shaharlar kabi batassil bayon qiladi. Shunga qaraganda olim u yerkarning geografiyasi bilan shaxsan tanish bo'lgan ko'rindi. Risolaning uchinchi bobida Xorazmiy dengizlarni, to'rtinchi bobida orollarning qirg'oq chiziqlari va ulardag'i punktlarni, beshinchi bobda esa mamlakatlarni, oltinchi bobida esa daryolar va buloqlarni tavsiflaydi.

Xorazmiyning "Kitob surat ul-arz" asari ko'p olimlar tomonidan o'r ganilgan. Lekin asar shu paytgacha to'la ravishda birorta hozirgi zamon tiliga tarjima qilinmagan. 1983-yili olimning 1200-yillik yubileyi munosabati bilan bizda bu asarning o'zbekcha tarjimasi Xorazmiyning "Tanlangan asarlar"i tarkibida chop etildi. Xorazmiyning yuqorida keltirilgan asarlariyoq u fanning qator

tarmoqlarining asoschisi bo‘lganligini ko‘rsatadi. Uning g‘oyalari matematika va astronomiyaning oyoqqa turishi va rivojlanishiga sabab bo‘ldi.

Shuningdek, Xorazmiyning quyidagi asarlari haqida ma‘lumotlar saqlanib qolgan – “Asturloblar bilan amal tutish haqida”. Bu risolaning matni Berlindagi sobiq Prussiya kutubxonasida 5093 raqam bilan saqlanadigan anonim risola qo‘lyozmasi tarkibiga kirgan. I.Frank uning nemischa tarjimasini nashr etgan. “Asturlob yordamida azimutni aniqlash”. Asarning yagona arabcha qo‘lyozmasi Istanbulda Ayo So‘fiyo kutubxonasida 4830/13 raqamli inventar bo‘lib saqlanadi. Ruscha tarjimasi bor. “Marmar soat haqida kitob” (“Kitob ar-ruhama”) asari Ayo So‘fiyo kutubxonasida 4830 (231-235 varaqlar, hijriy 620-yili ko‘chirilgan) raqam bilan saqlanadi. Ruscha tarjimasi bor. “Kitob at-tarix” (“Tarix kitobi”). Bu asardan parchalarni Ibn Nadim, Ma‘sudiy, Tabariy va Hamza Isfaxoniy keltiradilar. “Yahudiylar eralari va bayramlari haqida risola” (Risola fi istixroj ta’rix al-yahud va a’yodihim) asari taqvimga taalluqli. “Quyosh soatlari haqida kitob”, “Astronomik san’atga kirishlar kitobi”, “Qo‘shish va ayirishlar haqida kitob”.

### Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Muhammad Xorazmiy dunyo ilm-fani tarixida tutgan o‘rnini haqida nimalarni bilasiz?
2. Muhammad Xorazmiyning aniq fanlar rivojiga qo‘shgan hissasi to‘g‘risida fikr yuriting.
3. “Kitob at-tarix” asari va uning mazmuni haqida so‘z yuriting.
4. “Kitob surat ul-arz” asari va uning geografiya ilmlari rivojiga qo‘shgan hissasi haqida esse yarating.
5. Muhammad Xorazmiy ilmiy merosida ilmlar tasnifi haqida qanday ma‘lumotlar keltirilgan?

### **Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. Файзуллаев О. Мухаммад ал-Хоразмий ва унинг илмий мероси. – Тошкент: Фан. 1983.
2. Аҳмедов А. Мухаммад ал-Хоразмий. – Тошкент Ўзбекистон. 2011.
3. Абдуҳалимов Б.А. “Байт ал-хикма” ва Марказий Осиё олимларининг Бағдоддаги илмий фаолияти (IX-XII асрларда аниқ ва табиий фанлар). – Тошкент. Ўзбекистон, 2010. – 264 б.
4. Маънавият юлдузлари. – Тошкент. 2001.
5. Буюк аждодларимиз. – Тошкент. 2001.
6. Аҳадова М. Ўрта осиёлик машҳур олимлар ва уларнинг математикага доир ишлари. Т., 1983.

### **MAVZU: ABU ABDULLOH XORAZMIYNING DUNYO ILMLARI TASNIFIGA QO‘SHGAN HISSASI**

#### **Reja**

1. Abu Abdulloh Xorazmiy hayoti va faoliyati.
2. Abu Abdulloh Xorazmiy ilmiy merosida ilmlar tasnifi.
3. Abu Abdulloh Xorazmiy va uning “Mafotih al-ulum” (“Ilmlar kaliti”) asari.

**Tayanch so‘z va iboralar:** ilmlar tasnifi, ilmlar kaliti, Utbiy, matematik ilmlar, ana’naviy ilmlar.

#### **Abu Abdulloh Xorazmiy hayoti va faoliyati**

Siyosiy jihatdan barqarorlikning ta’min etilishi natijasida ijtimoiy-iqtisodiy tomondan taraqqiyotga erishgan Xorazm hududida IX-XI asrlar davomida ilm-fan va madaniyat ham yuksak darajada taraqqiy eta boshlagan edi. Bu davrda ilm-fan va madaniyatning taraqqiyoti Xorazmda hunarmandchilik, dehqonchilik, me’morchilik, tashqi va ichki savdoning rivoji bilan uyg‘unlashib ketadi. Iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy hayotdagi ijobiy siljishlar mamlakat shaharlaring, ayniqsa,

Gurganjning gullab-yashnashiga zamin hozirlaydi. Huddi shu olimlar hamda Xorazmning qulay jo‘g‘rofiy sharoitda joylashgani Sharqning yirik ilmiy-madaniy va savdo markazlaridan biriga aylanishida muhim o‘rin tutdi. Fanning ijtimoiy sohalari qatorida tabiiy va aniq fanlar, jumladan, astranomiya, matematika va geografiyaga ham maxsus e‘tibor qaratilgan. Mazkur sohalar mamlakatning amaliy ehtiyojlari, chunonchi, turli o‘lkalar va karvon yo‘llari haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish, xalqaro savdo-elchilik va madaniy aloqalarni rivojlantirish, mamlakatda sug‘orish tarmoqlari barpo etish, obodonchilik ko‘lamini kengaytirish kabilar uchun bevosita zarur edi.

Ma‘lumki, milodiy IX-XI asrlar Markaziy Osiyoda ilm-fan yuksak taraqqiy etgan va buyuk allomalar davri edi. O‘sha davrning keng bilimli, peshqadam olimlaridan biri Abu Abdulloh Xorazmiy bo‘lgan. Bu olim haqida saqlanib qolgan ma‘lumotlar juda kam. Olimning to‘liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Yusuf Xorazmiydir. Uning yoshligi Xorazmning Xiva, Zamaxshar va Qiyot shaharlarida o‘tgan. Bu shaharlarda u voyaga yetgan, yashagan, ta’lim olgan. Olim Xurosonda ham yashagan. Uning mashhurligi 976-997-yillarda hukimronlik qilgan Somoniylar podshohi Nuh II ning vaziri Abul Hasan Utbiy (977-982) huzurida kotib bo‘lib xizmat qilgan davrida cho‘qqisiga chnqqan. Shu vazifasi tufayli u “kotib Xorazmiy” nomi bilan ham tanilgan. Ayni vaqtida ilmga chanqoq olim xizmat asnosida amirning boy kutubxonasidan foydalanish huquqini qo‘lga kiritgan. Abu Abdulloh Xorazmiy 997-yidda vafot etgan. Olimning dunyoqarashi o‘sha davrda keng tarqalgan qadimgi yunon falsafasi va madaniyati, Sharq namoyandaları Yoqub ibn Is’hoq Kindiy, Abu Nasr Forobiy hamda Abu Bakr Roziy ta’siri ostida shakllandi.

### **Abu Abdulloh Xorazmiy ilmiy merosida ilmlar tasnifi**

Abu Abdulloh Xorazmiyning bizgacha yetib kelgan, ko‘pchilik asarlari singari o‘sha davrning ilm tili – arab tilida bitilgan, yagona ma‘lum asari – “Mafotih al-ulum” (“Ilmlar kalitlari”)dir. Asarning

qo'lyozma nusxalari juda ko'p emas. Yaqin-yaqingacha uning to'rti nusxasi bor deb hisoblanib kelinar edi. Ana shu to'rti nusxadan uchtasi Buyuk Britaniya muzeyida hamda Berlin kutubxonasida saqlanadi. XX asrning 60-yillarida ushbu asarning yana olti nusxasi Istanbul kutubxonalarida borligi aniqladi. Barcha olti nusxa Istanbul shahridagi kutubxonalardadir. "Mafotih al-ulum" ("Ilmlar kalitlari") o'ziga xos qomusiy asar bo'lib, o'sha davrdagi deyarli hamma asosiy fan sohalarini o'z ichiga qamrab olgan. Muallif o'rta asrlardagi har bir ilm mazmunini sharhlash yo'li orqali tushuntirib beradi.

"Mafotih al-ulum" o'ziga xos qomusiy asar bo'lib, o'sha davrdagi deyarli hamma asosiy fan sohalarini o'z ichiga qamrab olgan. Muallif o'rta asrlardagi har bir ilm mazmunini sharhlash yo'li orqali tushuntirib beradi. Olim ilmlarni ikkiga bo'lib, ularga "arab-shar'iy" va "arab bo'limgan" larga ajratadi. Bu hol olim o'z davrining namoyandalari singari ilmlar tasnifida ularni ikki qismga bo'lish an'anasiqa sodiq qolganligini ko'rsatadi. Uning birinchi an'anaviy "arab" ilmlari qismi o'n bir bobdan iborat fiqh, yetti bobdan iborat kalom, o'n ikki bobdan iborat grammatika (sarfl va nahv), sakkiz bobdan iborat ish yurgizish, besh bobdan iborat she'r va aruz hamda to'qqiz bobdan iborat tarixdan tashkil topgandir. Ikkinchi qismiga esa "arab bo'limgan" quyidagi ilmlar kiritilgan: ular – uch bobdan iborat falsafa, to'qqiz bobdan iborat mantiq, sakkiz bobdan iborat tib, besh bobdan iborat arifmetika, to'rt bobdan iborat handasa, shuningdek, to'rt bobdan iborat ilm an-nujum, uch bobdan iborat musiqa, ikki bobdan iborat mexanika va uch bobdan iborat kimyodir.

Shunday qilib, asar ikki qismdan iborat bo'lib, unda o'n besh ilm to'qson uch bobda bayon etilgan. Abu Abdulloh Xorazmiy ilmlar tasnifining shakli quyidagicha:

- I. Shariat va u bilan bog'liq "arab" ilmlari:
  1. Fiqh, ya'ni musulmon huquqshunosligi.
  2. Kalom, ya'ni din asoslari.
  3. Grammatika.

4. Ish yurgizish.
5. She'riyat va aruz.
6. Tarix.

II. "Arab bo'limgan" ilmlar (yunon va boshqa xalqlar):

1. Nazariy falsafa:
  - a) tabiiy ilmlar – tibbiyot (tib, samoviy hodisalar – meteorologiya, mineralogiya, alkimiyo, mexanika) – quyi;
  - b) riyoziyot ilmlari (arifmetika, handasa, ilm an-nujum, musiqa) – o'rtanchi;
  - v) ilohiy, ya'ni metafizika – oliy ilm;
  - g) mantiq.
2. Amaliy falsafa:
  - a) axloq – etika (odamni boshqarish);
  - b) uyshunoslik (uyni boshqarish);
  - v) siyosat (shaharni, mamlakatni boshqarish).

"Mafotih al-ulum"da ilmlar tasnifi har bir fanning predmetini aniqlash hamda ularning asosiy atamalarini qisqa va aniq bayon etish bilan birgaliqda olib boriladi. Bu yerda, biz zikr etganimizdek, Abu Abdulloh Xorazmiy o'z tasnifida o'sha davr an'anasi, ya'ni ilmlarni ikkiga bo'lishni qo'llab-quvvatlab, shar'iy va falsafiy ilmlarga ajratadi.

An'anaviy "Arab" ilmlari. Shu ilmlardan biri, fiqhda muallif islom qonunshunosligining asosi bo'lgan va islom huquqi posbonining doimiy dasturi qur'on, payg'ambar so'zlari, hikmatli gaplari va hayotlarini aks ettiruvchi Sunnat, Hadis va uning xillari; Ijmo' – islom jamoasining yakdillik bilan tan olgan qarori; shariat qonun-qoidalariga amal qilishni, ya'ni tahorat qilish, namoz o'qish, azon aytish, ro'za tutish, zakot to'lash ustida to'xtab o'tadi.

Ikkinchi bo'lim kalomda o'sha davrda Yaqin va O'rta Sharqda mavjud bo'lgan ko'pgina mazhablar haqida ma'lumotlar berilgan. Xususan, bu mazhablarning yettiga bo'lib bayon etilishi, ayniqsa, mu'taziliylar haqidagi mukammal tafsilotlar muhim ahamiyatga

egadir. Shu bilan birga grek-xristian mazhablari, islomgacha bo‘lgan davrdagi Eron va Yamandagi diniy e’tiqodlar, Hindistonda tarqalgan ba’zi dualistik mazhablar va oqimlar hamda zardushtiylik bayon etiladi. Bu ma’lumotlar Yaqin va O’rta Sharq hamda Markaziy Osiyodagi xalqlarning dinlari tarixini o‘rganishda g‘oyat katta ahamiyatga egadir.

Arab adabiy tili grammatikasi, uning qonun-qoidalari grammatika bo‘limida bayon etilgan. Ayni paytda muallif arab she’riyati va uning tarkibiy qismlaridan bo‘lgan aruz ustida ham mufassal to‘xtalib o‘tgan. Ish yurgizish bo‘limi davlat devoni, soliq turlari va olinishi, soliq yig‘uvchilarning vazifalari, askarlar ro‘yxati, ularning kiyim-kechagi va to‘lanadigan maoshlari, irrigatsiya shahobchalarida foydalaniladigan atamalar, kanal xillari, suv uskunalari, ikki daryo oralig‘idagi sug‘orish tizimlari haqidagi ma’lumotlarni yoritib berishi bilan muhimdir. Asarning tarix bo‘limida afsonaviy podshohlardan boshlab, tartib bilan turli davr va mamlakatlar maliklari, Umaviylar va Abbosiylar xalifaligi, islomgacha bo‘lgan davrdagi Yaman tarixi, Rum va Yunon tarixi haqida mufassal ma’lumotlar keltirilgan. O’rta asrlarda odamlar jamoasini tabaqalarga bo‘linishi ham shu bo‘limda zikr etiladi.

An’anaviy bo‘lmagan - “Arab bo‘lmagan” ilmlar. Bu ilmlar qatorida birinchi bo‘lib falsafa qayd etilib, unda ushbu ilm atamalarining sharhi bilan bir qatorda ilmlar tasnifi masalasi yoritilgan. Arastuning mantiqqa oid kitoblari sharhi Xorazmiy asarining mantiq bo‘limida o‘z aksini topali. Unda muallif Yaqin va O’rta Sharq hamda Markaziy Osiyodagi ushbu ilm haqidagi ma’lumotlar, oldinga surilgan ajoyib g‘oyalardan foydalanib, ularni yanada boyitdi. Asarning tabiiy ilmlarga oid bo‘limlari O’rta asr Sharqida ilmiy yuksalish darajasini o‘rganish nuktai nazaridan nihoyatda ma’lumotlarga boydir. Tibga oid bo‘limda kasalliklar, sodda va murakkab dorilar haqidagi ma’lumotlar keltirilgan. Ushbu bo‘limda o‘sha davr tabobatida ma’lum bo‘lgan va keng tarqalgan

mijoz hamda qon tomiri urushiga qarab kasallikni aniqlash to'g'risidagi nodir tavsiflar berilgan.

Kimyo bo'limida ham Xorazmiy o'rta asr Sharqidagi kimyoviy bilimlar haqida nihoyatda qimmatli ma'lumotlarni keltiradiki, ular Sharqda tabiiy fanlar rivojini o'rganishda muhim ahamiyatga egadir. Riyoziyot bo'limida o'rta asr Sharqidagi matematik ilmlar holati bayon etiladi. Alloma matematik tushunchani aqlning ixtiyoriy ijodi emas, balki obyektiv olamning ma'lum tomonlari, predmetlar munosabatlarining in'ikosi deb talqin etadi. Masalan, muallif Forobiy g'oyalarini davom ettirib, arifmetikani ikkiga: nazariy va amaliyga ajratadi. U kub sonlar bilan bir qatorda shakliy sonlarni ko'rib chiqish bilan nazariy arifmetikaning ba'zi bir tomonlarini boyitdi. Handasa ham nazariy va amaliy qismlarga bo'linadi, bu esa o'sha davrda uning boshqa riyoziyot ilmlari kabi yuqori darajada rivojlanganligidan dalolat beradi. Astronomiya bo'limida uning vazifasi bilan birga tarixiga oid masalalar ham ko'rib o'tiladi.

Xorazmiy o'z tasnifida musiqani riyoziyot ilmlariga qo'shadi va unda musiqaviy asboblar, tovushlarning o'zaro mutanosibligi, tartibi, sozi (lad) tavsiflanadi va oxirida ritm haqidagi ta'limot ko'rib chiqiladi. Mexanika bo'limida, og'ir yuklarni va dalalarni sug'orish magsadida ishlatiladigan qurilmalar, ya'ni sodda mashinalar, ularning tuzilishi va vazifalari ustida to'xtab o'tiladi, Xorazmiy dunyoviy ilmlar ustiда to'xtaganda, ularning amaliy ahamiyatini ochib berishga harakat qiladi. Umuman, asarda Abu Abdulloh Xorazmiy o'z davri tabiiy va riyoziyot ilmlarini yaxshi bilganligi, ularni nazariy falsafaga kiritish bilan, bir tomondan, ularning ahamiyatini oshirish va ta'kidlash, ikkinchi tomondan, falsafani boyitishga intilganligi o'z ifodasini topgan. Abu Abdulloh Xorazmiyning "Mafotih al-ulum" asari o'rta asr madaniyati va ma'naviyatini o'rganishda muhim ahamiyatga egadir.

## **Abu Abdulloh Xorazmiy va uning “Mafotih al-ulum” (“Ilmlar kaliti”) asari**

Abu Abdulloh Xorazmiyning bizgacha yetib kelgan, ko‘pchilik asarlari singari o‘sha davrning ilm tili – arab tilida bitilgan, yagona ma’lum asari – “Mafotih al-ulum” (“Ilmlar kalitlari”)dir. “Mafotih al-ulum”ning qo‘lyozma nusxalari juda ko‘p emas. Yaqin-yaqingacha uning to‘rt nusxasi bor deb hisoblanib kelinar edi. Ana shu to‘rt nusxadan uchtasi Buyuk Britaniya muzeyida 7528, 23429 va 2524 raqamlari hamda Berlin kutubxonasida 1051 raqami ostida saqlanadi. Amerikalik olim K.Bosvort XX asrning 60-yillarida ushbu asarning yana olti nusxasini Turkiya kutubxonalarida borligini aniqladi. Barcha olti nusxa Istanbul shahridagi kutubxonalardadir. Abu Abdulloh Xorazmiyning bu asari o‘rta asarlardagi fanlar rivojlanishi tarixiga oid kamyob manba sifatida ko‘pgina olimlarning diqqat-e’tiborini o‘ziga jalb etdi.

Birinchi bo‘lib bu manbani o‘rgangan va 1895-yilda nashr qilgan olim – gollandiyalik sharqshunos Van Flotendir. Akademik I.Krachkovskiyning fikricha, bu asar 976 va 991-yillar orasida yaratilgan. Olim K.Brokelman uni qisqa va aniq ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan hamda ko‘p fanlar yoritilgan qomusiy asar deb baholasa, E.Videman asar muallifi – Abu Abdulloh Xorazmiyi birinchi musulmon ilmlar tasnifini tuzuvchilaridan deb ta’kidlaydi. Fan tarixi va rivojlanishi bo‘yicha ko‘pgina asarlar yaratgan G.Sarton bu asarni o‘rta asrlar fanlari va madaniyatini o‘rganishda asosiy manbalardan biri muallifning o‘zini esa X asrning ikkinchi yarimdagisi mavzuiy olimlardan deb hisoblaydi. Yu.Ruska “Islom” jurnalida ushbu asarni X asr kimyosi bo‘yicha manba, F.Sezgin esa “Mafotih al-ulum”ni mavzuiy xarakterdagi ma’lumotlarga ega bo‘lgan hamda 15ta fanni o‘z ichiga qamrab olgan manba sifatida baholab, ayniqsa tib bo‘limi, garchi unda jarrohlik va gigiyena haqida ma’lumotlar bo‘lmasa ham, alohida yuksak o‘ringa ega ekanligini yozadi.

Bu qomusiy manba o‘z qimmati, kamyobligi, ahamiyati jihatidan ko‘pgina olimlar etiborini jalg qildi. Shu kungacha asar H.Xadyujam tomonidan faqat fors tiliga to‘liq tarjima qilingan bo‘lib, boshqa tillarga esa ba’zi bir bo‘limlar yoki boblarigina tarjima qilingan. Masalan, tib bo‘limini E.Zaydel, musiqa bo‘limini E.Videman va V.Myuller nemis tiliga, G.Frmer – ingliz tiliga, tarix bo‘limining beshinchi va oltinchi bobini M. Unvala ingliz tiliga, riyoziyotga oid bo‘limlarni E.Videman, V.Xins esa undagi o‘lchov birliklarinigina nemis tiliga tarjima qilgan va o‘z ishida foydalangan. Asarning falsafa qismini A.Sharipov rus tiliga tarjima qilgan. Bu qimmatbaho asar uning ko‘pgina bo‘limlarini olimlarimiz o‘rganib, tadqiq qilgan bo‘lishlariga qaramay, hozircha o‘zbek yoki rus tiliga to‘liq holda tarjima qilinmagan. Bu asarga V.Bartold Somoniylar davridagi sug‘orish shoxobehalari tartibi, davlatni boshqarish va ish yuritish bo‘yicha, I.Krachkovskiy esa fan va madaniyat tarixi bo‘yicha qomusiy manba sifatida yondashganlar. U.Karimov, M.Xayrullayev va G.Matviyevskayalar ham ishlarida Abu Abdulloh Xorazmiy asarida ilmlar tasnifining berilishi haqidagi ba’zi bir ma’lumotlarni keltirganlar. Asarning kimyo bo‘limini U.Karimov, riyoziyotga oid bo‘limlarni G.Matviyevskaya, jug‘rofiyaga oid boblarni H.Hasanov, mexanikaga oid bo‘limlarni M.Rojanskaya, mantiqqa oid bo‘limni A.Sharipov, she’riyat va aruzga oid bo‘limni M.Ziyovuddinova tadqiq qilganlar. Abu Abdulloh Xorazmiyning hayoti, ijodi va bizgacha yetib kelgan yagona asari haqidagi ma’lumotlar ana shulardangina iborat.

Abu Abdulloh Xorazmiyning “Mafotiq al-ulum” asari o‘ziga xos qomusiy asar bo‘lib, o‘sha davrdagi deyarli hamma asosiy fan sohalarini qamrab olgan. Muallifo‘rta asrlardagi har bir fan mazmunini asosiy atamalarini sharhlash yo‘li bilan tushuntirib bergan.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar:**

1. Abu Abdulloh Xorazmiy Sharq ilm-fani taraqqiyotiga qanday hissa qo'shgan?
2. Abu Abdulloh Xorazmiy ilmiy merosining o'rganilishi haqida so'z yuriting.
3. Abu Abdulloh Xorazmiy ilmning qaysi sohalarida tadqiqotlar olib borgan?
4. Abu Abdulloh Xorazmiy ilmiy merosida ilmlar tasnifi haqida fikr bildiring.

### **Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. Баҳодиров Р.М. Абу Абдуллоҳ ал-Хоразмий ва илмлар таснифи тарихидан / Масъул мухаррир М.М.Хайруллаев. – Т: Ўзбекитон, 1995. –144 б.
2. Машарипов О., Машарипов А. Хоразмнома. – Тошкент, Истиклол нури, 2014.
3. Маънавият юлдузлари. – Тошкент, 2001.
4. Буюк аждодларимиз. – Тошкент, 2001.

# MAVZU: AHMAD FARG‘ONIY ILMIY MEROSINING DUNYO ILM-FANIGA QO‘SHGAN HISSASI VA AHAMIYATI

## Reja

1. Ahmad Farg‘oniy hayoti va faoliyati.
2. Ahmad Farg‘oniy ilmiy merosi va uning ahamiyati.
3. Ahmad Farg‘oniy ilmiy merosining o‘rganilishi.

**Tayanch so‘z va iboralar:** Alfraganus, falakiyot, Yakob Golius, “Astronomiya ilmi asoslari”, Ibn Qiftiy, Abul Faraj Bar Ebrey.

### Ahmad Farg‘oniy hayoti va faoliyati

Yevropada Alfraganus (Alfraganus) nomi bilan tanilgan Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir Farg‘oniy o‘rta asrlarning eng ko‘zga ko‘ringan allomalaridan edi. Olimning ismi fan tarixida mashhur bo‘lishiga qaramasdan, uning hayoti va ilmiy faoliyati haqidagi ma’lumotlar juda oz. Uning tug‘ilgan yili mantiqiy hisoblar natijasida 798-yil deb e’tirof etilgan.

Olim B.Abduhalimov ma’lumotlariga ko‘ra, manbalarda Ahmad Farg‘oniyning yoshlik yillari haqidagi ma’lumotlar umuman saqlanmagan. U Farg‘onada tug‘ilgan va o‘z ona yurtida boshlang‘ich ta’lim olib, olim sifatida shakllangan.

Olimning to‘liq ismi Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir Farg‘oniydir. Manbalarda unig farg‘onalik ekanligidan tashqari deyarli boshqa ma’lumotlar saqlanmagan. Lekin shuni ham e’tiborga olish kerakki, o‘rta asrlarda musulmon o‘lkalarida bo‘lgan an‘anaga binoan, mamlakat poytaxti yoki markazini ham mamlakat nomi bilan atashgan. Masalan, 995-yilgacha Xorazmning poytaxti bo‘lgan Kotni, keyingi poytaxti Gurganjni ham Xorazm deyishgan. Ba’zi arab mamlakatlarida bu odad hozir ham saqlanib qolgan. Misr poytaxti Qohirani – Misr, Shom (Suriya)ning poytaxti Damashqni – Shom deyilishi shundan. Ana

shu odatga ko‘ra, o‘rta asrlardagi Farg‘ona vodiysining markaziy shahri Axsikatni ham Farg‘ona deyishgan. Ahmad Farg‘oniy Farg‘ona vodiysining Qubo (quva) qishlog‘ida tug‘ilgan. Shunisi ma’lumki, Farg‘oniy xalifa Xorun ar-Rashidning sharqiy yerlaridagi vakili o‘g‘li Abdullohning (bo‘lajak xalifa al-Ma’munning) Marvdagi olimlari doirasiga kirgan. Ehtimol, Abdulloh yoshligidan bilimga chanqoq bo‘lgani uchundir, 806-yili Marvga noib bo‘lib tayinlanganida, Movarounnahr, Xuroson, Xorazmdan olimlarni va iste’dodli yoshlarni to‘play boshlagan. Bu oimlarning asosiy qismi Abdulloh u yerga kelganidan avvalroq to‘plangan bo‘lishi ham ehtimoldan xoli emas, chunki Marv avvaldan, Sosoniylar davridanoq yirik ilmiy markaz hisoblangan. 615-yili eng so‘nggi Sosoniy shahanshoh Yazdigard ibn Shahriyor arablar ta’qibidan qochib bu yerga kelganida poytaxtdagi kutubxona kitoblarini ham olib kelganligi ma’lum. Marv arablar qo‘l ostida ham o‘z mavqeini yo‘qotmadi, aksincha, to mo‘g‘ul istilosigacha o‘sma bordi. Shunga ko‘ra, uning IX asr boshida xalifalikning yirik ilmiy va madaniy markazi bo‘lganligi tabiiydir. Olim keyinchalik Bag‘dod shahriga ko‘chib o‘tib, xalifa Ma’mun saroyidagi boshqa allomalar bilan birga o‘sha yerdagi mashhur Bag‘dod ilmiy maktabi – “Bayt ul-hikma” (Hikmatlar uyi)da ijod etadi. Ma’lumki, Bag‘dodda Horun ar-Rashidning o‘g‘li xalifa Ma’munning hukmronligi davrida (813-833) Ahmad Farg‘oniydan tashqari Muhammad Xorazmiy, Abbas Javhariy, Ahmad Marvaziy, Yahyo ibn Abu Mansur, Abdulhamid ibn Turk Xuttaliy kabi O‘rta Osiyo allomalari dong taratganlar. Umuman, Bag‘dod ilmiy maktabida faoliyat ko‘rsatgan donishmandlarning aksariyatini O‘rta Osiyodan chiqqan allomalar tashkil etgani alohida e’tiborga loyiq bo‘lib, bu qator ilmiy adabiyotlarda o‘z isbotini topgan.

## Ahmad Farg'oniy ilmiy merosi va uning ahamiyati

Ahmad Farg'oniyning asosiy astronomik asari "Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi" ("Kitob al-harakat as-samoviya va javomi' ilm an-nujum") XII asrda Yevropada lotin tiliga ikki marta va XIII asrda boshqa Yevropa tillariga ham tarjima qilinganidan so'ng, uning lotinlashtirilgan nomi "Alfraganus" shaklida g'arbda bir necha asr davomida keng tarqaladi.

Farg'oniyning asosiy astronomik asari "Osmon jismlari harakati va yulduzlar ilmi to'plami" bo'lib, u "Astronomiya ilmi asoslari" va "Astronomiya elementlari" kabi nomlar bilan ham mashhur. Uning yana "Geometriya va arifmetika yordamida mukammal shimoliy va janubiy asturloblarni yasash", "Asturlobdan foydalanish haqida kitob", "Oy yer ustida yoki uning ostida ekanida vaqt ni aniqlash", "Farg'oniy jadvallari", "Yetti iqlimni aniqlash", "Quyosh soatini yasash", "Xorazmiy zijini tushuntirish" singari asarlari ham ma'lum. Allomaning mazkur asarlari qo'lyozmalari Parij, London, Berlin, Moskva, Sankt-Peterburg, Dehli, Qohira, Anqara, Tehron va boshqa shaharlarda saqlanadi.

Ahmad Farg'oniy asarlarining eng mashhuri yuqorida qayd etilgan "Astronomiya ilmi asoslari" bo'lib, u o'ttiz bobga taqsimlangan. Ularda astronomiya fanining barcha asosiy masalalari sodda, tushunarli iboralar bilan bayon etilgan. Shu sababdan u tez orada lotin tiliga tarjima qilinib, Yevropada erta tanilgan, keng shuhrat qozongan va bir necha asrlar davomida Yevropa universitetlarida astronomiya fani bo'yicha asosiy darslik vazifasini o'tagan. Risolada o'rta asr Sharq astronomiyasining barcha yutuqlari o'z aksini topgan. Risola olimning yubileyi munosabati bilan 1998-yili Toshkentda nashr etildi.

Farg'oniyning yana bir muhim "Geometriya va arifmetika yordamida mukammal shimoliy va janubiy asturlobni yasash" risolasi muqaddima va yetti bobdan tashkil topgan. Muallif o'zining bu risolasi bilan geometriya faniga oid yangi fikrlarning

shakllanishi hamda astronomik jihozlar haqidagi nazariy tasavvurlarning rivojiga muhim hissa qo'shdi. Mazkur risolaning ham Toshkentda rus tilida chop etilishi 1998-yilda o'tkazilgan Ahmad Farg'oniy yubileyiga munosib tuhfa bo'ldi. Afsuski, Ahmad Farg'oniyning qolgan asarlari hozirga qadar o'r ganilmagan va o'z tadqiqotchilarini kutmoqda.

Hozirgi kunda Ahmad Farg'oniyning sakkiz asari ma'lum bo'lib, ularning hammasi astronomiyaga aloqador va birortasi hozirgi zamon tillariga tarjima qilinmagan. Ular quyidagilardir: yuqorida tilga olingan asar, odatda uni "Astronomiya asoslari haqida kitob" nomi bilan ham atashadi – qo'lyozmalari dunyo kutubxonalarining deyarli barchasida bor. "Asturlob yasash haqida kitob" – qo'lyozmalari Berlin, London, Mashhad, Parij va Tehron kutubxonalarida, "Asturlob bilan amal qilish haqida kitob" – birgana qo'lyozmasi Rampurda (Hindiston), "Al-Farg'oniy jadvallari" – qo'lyozmasi Patnada (Hindiston), "Oyning Yer ostida va ustida bo'lish vaqtlanini aniqlash haqida risola" – qo'lyozmalari Gota va Qohirada, "Quyosh soatini yasash haqida kitob" – qo'lyozmalari Halab va Qohirada saqlanadi. "Muhammad Xorazmiy "Zij"ining nazariy qarashlarini asoslash" asari Beruniy tomonidan eslatiladi, lekin qo'lyozmasi topilmagan. Ahmad Farg'oniyning bu ro'yxat boshidagi ikki asaridan boshqalari hali hech kim tomonidan o'r ganilmagan. Shubhasiz, ular o'r ganilib tahlil qilinishi bilan Ahmad Farg'oniy ijodining yangi qirralari ochiladi va olimning o'rta asrlarda, undan keyin Sharq va g'arbda bu qadar mashhur bo'lishi sabablari ham ayon bo'ladi.

Mazkur asarlarning birinchisi 1145-yildan boshlab lotin tiliga bir necha marta tarjima qilingan. Bu tarjimalarning barchasida Farg'oniy ismi lotinchada "Alfraganus" shaklida yozilib, shu shaklda fanga abadiy kirib qoldi. Allomaning bu asari astronomiyadan eng sodda darslik bo'lib, unda murakkab geometrik shakllar va matematik formulalar, hisoblashlar

keltirilmagan. Bu esa astronomiyadan boshlang'ich ma'lumotlarni o'zlashtirishni ancha osonlashtirgan. Balki buyuk Regiomontan asarning shu xususiyatini anglab, o'zining universitetlardagi ma'ruzalari uchun qo'llanma sifatida Ahmad Farg'oniyning ana shu asarini tanlagandir.

Shunday qilib, buyuk ajdodimizning bu asari Yevropa Uyg'onish davridagi va undan ancha keyingi davrdagi madaniyat rivojida sezilarli rol o'ynadi. Asarning iqlimlar nazariyasiga ko'ra bayon qilingan geografik bo'limi diqqatga sazovordir. Mamlakat va shaharlarning nomlariga qaraganda, Ahmad Farg'oniy Muhammad Xorazmiyning geografik asari bilan tanish bo'lgan yoki u ham Muhammad Xorazmiy foydalangan manbadan foydalangan, chunki ikkala muallifda ham bu nomlar bir xil.

Geografik bo'lim (9-bob) bunday atalgan: "Yerdagi ma'lum mamlakatlar va shaharlarning nomlari va har bir iqlimdagи narsalar haqida". Bundan so'ng, yetti iqlimning hammasi ulardagi mamlakatlar viloyatlari va shaharlari bilan birga tavsiflanadi. Shuni ham aytish kerakki, o'rta asrlarda arab tilida yozilgan geografik asarlarning eng birinchisi Muhammad Xorazmiyning "Kitob surat-ul-arz" asari edi. Unda Muhammad Xorazmiy yetti iqlimdagи dengizlari, mamlakatlar, tog'lar, daryolar, ko'lllar va shaharlarning tavsifini keltirgan edi. Bunda u tavsifni rub'i ma'muriyeng eng g'arbiy chekkasidan, ya'ni Afrikaning Atlantika okeani qo'q'ig'igacha, ya'ni Tinch okeanidagi Yaponiya okeanigacha davom etiradi.

Iqtisodining Ahmad Farg'oniy keltirgan tavsiflash usuli Muhammad Xorazmiy tavsiflaridan farq qiladi. Muhammad Xorazmiy o'zining tavsiflash usulida Ptolemey an'anasiaga asoslangan bo'sha, Ahmad Farg'oniy hindlarning an'anasiaga asoslangan, rub'i ma'muriyeng tavsifini eng sharqiy chekkasidan boshlaidi. Uning iqlimlar tavsifida 3-, 4-, 5-, 6- va 7- iqlimlarning tafsifi diqqatga sazovordir. Chunki bularda Markaziy Osiyorining

va unga tutash yerlarning shahar va viloyatlari tavsiflanadi. Shuning uchun quyida o'sha tavsiflarni o'z ichiga olgan parchani keltiramiz.

"Uchinchi iqlim Sharqdan boshlanib, Xitoy mamlakatining shimolidan, so'ng Hind mamlakatidan va so'ngra Qobul va Kemon viloyatlaridan o'tadi. To'rtinchi iqlim Sharqdan boshlanadi va Tibetdan, so'ngra Xurosondan o'tadiki, bunda Xo'jand, Ustrushona, Farg'ona, Samarcand, Balx, Buxoro, Hirot, Amuya, Marvarrud, Marv, Saraxs, Tus, Nishopur shaharlari bor. Undan so'ng Jurjon, Tabariston, Qazvin, Ray, Isfahondan o'tadi. Beshinchi iqlim Sharqda Yajuj mamlakatidan boshlanadi, so'ng Xurosonning shimolidan o'tadi, unda Taroz shahri – savdogarlar shahri bor, Navokat (Navkat), Xorazm, Isfijob (Sayram), Turar-band (O'tror-hozirgi Aris) va Ozarbayjon, Arminiya (Armaniston) viloyati, Barda'a (Barda), Nashava (Naxchivon) shaharlari bor.

Oltinchi iqlim Sharqdan boshlanadi va Yajuj mamlakatidan o'tadi, so'ng Xazar mamlakatidan (Shimoliy Kavkaz va quyi Volga bo'yisi), Jurjon (Kaspiy) dengizining o'rtasidan kesib o'tadi va Rum (Vizantiya) mamlakatigacha boradi. Yettinchi iqlim Sharqda Yajuj mamlakatining shimolidan boshlanadi, so'ng turkiy mamlakatlardan (Markaziy Osiyo), so'ng Jurjon dengizining shimolidan, so'ng Rum dengizini (Qora dengiz) kesib, saqlablar (slavyanlar) mamlakatidan o'tadi va g'arb dengizida (Atlantika) tugaydi". Keltirilgan parchadan ko'rindanidiki, Ahmad Farg'oniy katta kenglikdagi o'lkalarni tavsiflagan bo'lsa ham, o'zining asl vatani Movarounnahrni mufassalroq tavsiflagan. Undan tashqari shuni ham ta'kidlash kerakki, Ahmad Farg'oniyning rub'i ma'mur haqidagi tasavvuri ancha aniq bo'lib, har xil afsonaviylikdan xolidir. Chunonchi, u Yajuj mamlakati deb Sharqdagi afsonaviy yerni emas, balki hozirgi Mo'g'ulistonning sharqi va Xitoyning shimoli-sharqiga mos keladigan aniq geografik hududni aytgan.

## Ahmad Farg'oniy ilmiy merosining o'r ganilishi

Ahmad Farg'oniyning hayotü haqidagi ma'lumotlar juda kam bo'lganligiga qaramay, o'rta asrlarda Sharqda uning nomi mashhur bo'lgan. Ibn Nadim (X asr), Ibn Qiftiy (XII-XIII asrlar), Abul Faraj Bar Ebrey (XIII asr), Hoji Xalifa (XVII asr) kabi Sharq mualliflari uni o'z asarlarida eslatadilar. Ahmad Farg'oniyning asosiy astronomik asari "Samoviy harakatlar va umumiyy ilmi nujum kitobi" ("Kitob al-harakat as-samoviya va javomi" ilm annujum") XII asrda Yevropada lotin tiliga ikki marta va XIII asrda boshqa Yevropa tillariga ham tarjima qilinganidan so'ng, uning lotinlashhtirilgan nomi "Alfraganus" shaklida g'arbda bir necha asr davomida keng tarqaladi. Uning bu kitobi shu asrlar davomida Yevropa universitetlarida astronomiyadan asosiy darslik vazifasini o'tadi. Ahmad Farg'oniy asarining lotincha tarjimasi birinchi marta 1493-yilda nashr etilgan bo'lib, u eng qadimgi nashr qilingan kitoblardan hisoblanadi. 1669-yili mashhur Golland matematigi va arabshunosi Yakob Golius Farg'oniy asarining arabcha matnini yangi lotincha tarjimasi bilan nashr etganidan so'ng, Ahmad Farg'oniy va uning asarining Yevropadagi shuhrati yanada ortdi. Yevropa Uyg'onish davrining buyuk namoyandalaridan biri bo'lgan mashhur olim Regiomontan XV asrda Avstriya va Italiya universitetlarida astronomiyadan ma'ruzalarni Ahmad Farg'oniy kitoblaridan o'qigan. Ahmad Farg'oniy nomini Dante (XV asr) va Shiller (XVIII asr) ham eslagan. Yevropa olimlaridan Dalambr, Brokelman, X.Zuter, I.Krachkovskiy, A.Yushkevich va B.Rozenfeldlar Ahmad Farg'oniyning ijodini yuqori baholaganlar.

O'z davridagi aniq fanlarning deyarli barcha sohalarida tadqiqotlar olib borib, yuzga yaqin asar yaratgan Ahmad Farg'oniyning faqat sakkizta asari bizgacha yetib kelganligi ma'lum. Ahmad Farg'oniyning buyuk xizmatlaridan biri shundaki, u o'zining "Yulduzlar ilmi usuli kitobi" asarida I asrda yashab o'tgan mashhur Klavdiy Ptolemyning falakiyot sohasida asosiy

qomus hisoblangan “Almagast” asaridagi talay xatolarni aniqlab, te‘g‘rlab berdi. Ushbu asar yana yetti nomda shuhrat qozongan, “Osmon jismlari harakati va yulduzlar ilmi to‘plami”, “O‘ttiz fasldan iborat falakiyot kitobi”, “Almagest” muqaddimasi uchun o‘ttizta fasl”, “Osmon sferalari sabablari”, “Osmon sferalarining tuzilishi”, “Almagest” (“Almajistiy”), “Astronomiya fani” nomlari bilan atalib, hozirda uning qo‘lyozmalari Bag‘dod (2959 oltinchi nomda), Dublin (Bitti, 4114), Qoxira (Mikat, 944, 194, 310, 311), Leyden (8418/5), Sankt-Peterburg (3059/3), Moskva (154/2), Oksford ( 1, 879/1- ikkinchi nomda), Parij (2504/3- uchinchi va to‘rtinchi nomda), Prinston (Garr, 967 - yettinchi nomda), Istanbul (Aya Sofiya, 2843/2 - to‘rtinchi nomda), Tunis (Millat kutubxonasi, 02103/1 - ikkinchi nomda), Fes (Zaviy, 56-sakkizinchchi nomda) kabi bir qator davlat va shahar kutubxonalarida saqlanmoqda.

Mustaqillik yillarida alloma ilmiy merosini tiklashga qaratilgan ko‘plab amaliy ishlar olib borilmoqda. Xususan, Ahmad Farg‘oniy nomidagi Farg‘ona viloyati axborot kutubxona markaziga Turkiya milliy kutubxonasi tomonidan qimmatli manbaa – Ahmad Farg‘oniyning turk tilida nashr qilingan nodir kitobi taqdim etildi. O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasida imzolangan memorandumga asosan, mamlakatimiz vakillari Anqarada bo‘lib kutubxonalar faoliyati bilan yaqindan tanishgan edilar. Ana shu ijodiy safar samarasi natijasida Ahmad Farg‘oniyning asosiy noyob astronomik asari “Kitob al-harakat as-samoviya va javomi’ ilm an-nujum” (“Samoviy harakatlar va umumiyligi ilmi nujum kitobi”) viloyat axborot kutubxona markazidan joy oldi. Ushbu astronomik kitob XII-XIII asrlarda Yevropada lotin tiliga ikki marta, Yevropa davlatlari tillariga bir necha marotaba tarjima qilinib universitetlarda astronomiyadan asosiy darslik sifatida qo‘llanilgan. 1669-yili mashhur Golland matematigi va arabshunosi Yakob Golius Ahmad Farg‘oniy asari arabcha matnini qayta va yangilangan lotincha

tarjimasi bilan nashr ettirganidan so‘ng, Ahmad Farg‘oniy shaxsiyati va uning asari Yevropada shuhrat qozondi. Ahmad Farg‘oniyning 1119-yilda yozilgan ushbu asari dunyoda yagona nusxa va u Turkiya milliy kutubxonasida saqlanmoqda.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar:**

1. Ahmad Farg‘oniy hayoti bilan bog‘liq qanday tarixiy ma'lumotlarga ega bo‘ldingiz?
2. Ahmad Farg‘oniy qalamiga mansub asarlarni sanab o‘ting.
3. Ahmad Farg‘oniyning xalifalik markazidagi ilmiy faoliyati haqida esse yarating.
4. Ahmad Farg‘oniy ilmiy merosi kimlar tomonidan tadqiq qilingan?
5. Mustaqillik yillarida alloma ilmiy merosiga qanday munosabatda bo‘lib kelinmoqda?

### **Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. Ахмедов А. Ахмад ал-Фарғоний. – Тошкент, 1999.
2. Аҳмад ал-Фарғоний. Астрономия илми асослари / Таржимон А Абдураҳмонов. – Тошкент, 1998.
3. “Аҳмад ал-Фарғоний илмий меросининг жаҳон фани тараккиётида тутган ўрни» мавзудаги халқaro конференция материаллари. – Фарғона, 1998.
4. Ибодов Ж.Х., Матвиевская Г П. Аҳмад ал-Фарғонийнинг риёзиёт ва фалакиёт тарихидаги ўрни. – Тошкент, 1998.
6. Бўриев О., Вахобова Б. Ёзма манбалар ал-Фарғоний хақида – Тошкент, 1998.
7. Юртимиз алломалари / масъул муҳаррир У. Уватов. – Тошкент: Нижол, 2014. – 240 б.

# MAVZU: IMOM BUXORIYNING HADIS ILMI RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI

## Reja

1. Imom Buxoriy hayoti va faoliyati.
2. Imom Buxoriyning ilmiy-ma’naviy merosi.
3. Imom Buxoriy ilmiy merosining tadqiq etilishi.

**Tayanch so‘z va iboralar:** hadis, muhaddis, kunya, Subkiy, Al-Adab al-mufrad, hadisshunoslik ilmi, muborak hadislar.

### Imom Buxoriy hayoti va faoliyati

Imom Buxoriyning ismi Muhammad, kunyasi Abu Abdulloh, laqabi ba’zanimom muhaddisiyn (muhaddislarning imomi, peshvosi), ba’zan amir mu’miniyn fil hadis (hadis ilmining amiri, sulton) va nasabi Muhammad ibn Ibrohim ibn Mug‘iyra ibn Bardazbah ibn Bazazbehdir. So‘nggi ikki ismi ibn Bardazbah ibn Bazazbeh dan ko‘rinib turibdiki, Imom Buxoriyning asl nasabi ajamlarga borib taqaladi. Ko‘pchilik muhaddislarning ta’kidlashicha, “Bardazbeh” so‘zi arabcha “zori” (ziroat, dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi kishi) ma’nosini bildiradi. Mashhur olim Imom Subkiy o‘zining “Tabaqot ash-shofi’yya al-kubro” Shofe’iy ulug‘ tabaqalar”) nomli yirik asarida. Bardazbehning otasini Bazazbeh deb ko‘rsatgan.

Imom Buxoriy otasining bobosi Mug‘iyra Buxoro hokimi Yaman Ju’afiydan islom dinini qabul qilgan bo‘lib, Buxoroni vatan tutib yashab qolgan. O‘sha paytdagi taomulga ko‘ra, agar biron kishi islom dinini kimdan qabul qilsa, o‘sha kishining qabilasiga mansub hisoblangan. Bu odat qabul qilingan dinga sodiqlikning belgisi bo‘lib, arabcha nisbat ul-vilo fil-isлом (islom diniga sodiqlik nisbati) deb atalishi odat tusiga kirgan edi. Albatta Mug‘iyra ham o‘sha davrda ommaviy tus olgan ushbu urfdan holi bo‘limganligidan uning o‘zi ham, undan keyingi tug‘ilgan avlodlari ham, shu jumladan Imom Buxoriy ham Ju’fiy deb atala boshlandilar.

Imom Buxoriyning otasi Ismoil, uning kunyasi Abul-Hasan bo‘lib, o‘z davrining yetuk muhaddislaridan sanalib, imom Molikning shogird va as‘hoblaridan biri bo‘lib, tijorat ishlari bilan ham shug‘ullangan. Afsuski, hozircha uning qalamiga mansub biror asar haqida aniq ma’lumotga ega emasmiz. Biroq uni Hammod ibn Zayd, imom Molik, Abu Muoviya kabi o‘z davrining yirik muhaddislaridan hadislar rivoyat qilgani, Abdulloh ibn Muborakning suhbatida bo‘lib, undan talim olgani haqidagi xabarlar manbalarda keltiriladi.

Imom Buxoriy azaldan ilm-fan va madaniyat ravnaqida mashhur bo‘lgan Buxoro shahrida tavallud topgan. Ko‘plab muarixlarning guvohlik berishlaricha, Buxoro azaldan Movarounnahrning eng qadimiylaridan go‘zal shaharlaridan biri bo‘lgan. Manbalarda zikr qilinishicha, shaharning o‘rab turgan devorlari o‘ttiz olti millga cho‘zilgan. Shaharning obod va ko‘rkamligi, uning benazir go‘zalligi xususida manbalarda zikr qilinishicha, shaharning o‘rab turgan devorlari o‘ttiz olti millga cho‘zilgan. Mana shu muhtasham shahar-Buxoroi sharifda 194-hijriy sana shavvol oyining 13-kunida salotul jum‘adan keyin (810-milodiy sana 20-iyul) barcha muhaddislarning imomi, hadis ilmining sultonini (amirul mo‘m‘inin fil hadis), “Sayyidul fuqaho” kabi buyuk laqablarga tuyassar bo‘lib, Payg‘ambarimiz alayhissalomning muborak hadislariga durdonasimon sayqal berib, ularni abadul-abad barhayot qilgan ulug‘ zot Imom Buxoriy dunyoga kelgan.

Imom Buxoriy yoshligidayoq otasi vafot etib, uning tarbiyasi faqat voldasi qo‘lida bo‘lgan. Birmuncha ulg‘ayib aqli raso bo‘lgach, uning qalbida islomiy ilmlarga, ayniqsa, Payg‘ambarimiz alayhissalomning muborak hadislarini o‘rganishga va yodlashga moyillik tobora kuchaya borib, u dastavval Ibn al-Muborak va Vakiy’ ibn al-Jarrohning hadislarga oid asarlarini yod oladi. Imom al-Buxoriyning kotibi, uning asosiy tasnifi “Sahih” asarp roviylaridan biri Abu Ja‘far Muhammad ibn Abu Hotam Varroq shunday deb yozadi: “Buxoriyning hadislarni yod olish ilhomni menga boshlang‘ich maktabda o‘qiyotganimda

kelgan edi” - deb aytganini aniq eshitganimda: “O’shanda necha yoshda edingiz”? - deb so‘radim: u “O’n yoshda balkim undan ham kichik edim” - deb javob bergandi. Bu misoldan ko‘rinib turibdiki, Imom Buxoriy juda yoshligidan boshlab hadislarni yod olib, bu ilmga alohida zavq-shavq va qiziqish bilan qaragan.

Imom Buxoriyga ta’lim bergen dastlabki ustozlari birinchi navbatda o‘sha davrda Buxoroda ko‘zga ko‘ringan muhaddislardan Muhammad ibn Salom Poykandiy, Muhammad ibn Yusuf Poykandiy, Abdulloh ibn Muhammad Masnadiy, Ibrohim ibn Ash’as va boshqalar edi. O’n olti yoshga yetguncha Imom Buxoriy o‘z yurtidagi mashoyixlardan hadis eshitib, ulardan saboq oladi. Mana shundan keyin islomiy ilmlarning markazi, Payg‘ambarimiz alayhissalomning vatani, Qur’oni karim nozil bo‘lgan muqaddas diyor Rasululloh sahabalarining maskani, islom dinining markazi Hijoz shahriga yo‘l oladi. 825-yili Imom Buxoriy onasi va akasi Ahmad bilan Makkai Mukarramaga yetib kelib, haj ibodatini ado etgandan keyin onasi va akasini Buxoroga qaytarib yuborib, o‘zi Makkada qoldi va bu muqaddas shahar mashoyixlarining nlmiy yig‘inlariga qatnasha boshladi. O‘sha paytda Makkada istiqomat qilayotgan bir qancha ko‘zga ko‘ringan ulamolar bo‘lib, hadis ilmi sohasida katta obro‘-e’tiborga egalardan imom Abul-Valiyd ibn Arzaqiy, Abdulloh ibn Zubayr va alloma Hamidiylarni ko‘rsatish mumkin. Ulardan boshqa ham bir qancha mashhur olimlar bor ediki, Imom Buxoriy ulardan hadis ilmi bo‘yicha saboq ola boshladi.

Shuningdek, alloma Basrada imom Abu Osim Nabiyl, Safvon ibn Iso, Badal ibn Ar’ara, Sulaymon ibn Harb, Abul Valiyd Tayolisiy, A’rim va Muhammad ibn Sinon kabi ulamolardan saboq olib, o‘z bilimini oshirdi. Umuman olganda hammasi bo‘lib Imom Buxoriy Basraga to‘rt marta borib keldi. Yuqorida zikr qilgan shaharlar va mamlakatlarga Imom Buxoriy yakkayu-yagona maqsad - hadis ilmi bo‘yicha saboq olish niyatida borib, ulardagi taniqli olimlar bilan muloqotda bo‘lib, muttasil ravishda o‘z ilmini boyitishga

intildi. Tarixchilar Imom Buxoriyning ustozlarining soni haqida ham ma'lumotlar keltirganlar. Jumladan, olim Muhammad ibn Abu Hotamning yozishicha, Imom Buxoriyning o'zi suhbatlarining birida unga "bir ming saksonta shayx (ustoz)dan hadislar yozib olganman", deb aytgan gapini keltirgan. Xasrda yashagan isfahonlik olim Muhammad ibn Is'hoq ibn Manda Isfahoniy (922-1005) Imom Buxoriyning ustozlari haqida, maxsus asar yaratib, alisbo tartibida ularni nomma-nom keltiradi.

Fitnalar natijasida Buxorodan chiqib ketgan Imom Buxoriy Poykandga keladi. G'animlar Buxoroda allomaga qarshi to'qigan ig'vogarona tuhmatlarini chor atrosga tarqatishga zo'r berib, jiddu jahd ko'rsatib, ushbu tuhmatni xalq orasida oshkora qilib, yoygandilar. Shu boisdan ham bu bo'hton xabar Imom Buxoriydan oldin Poykandga kelib yetgan bo'lib, Poykand ahli shu masala xususida ikki toifaga bo'lingan edilar. Ularning bir qismi Imom Buxoriyni ushbu tuhmatdan himoya qilib, uning tarafini olsa, ikkinchi qismi, esa fisqu fasodchilarni qo'llab-quvvatlagandilar. Qachonki, Imom Buxoriy Poykand ahli o'ttasidagi ushbu ixtilosdan voqif bo'lgach, bu shaharda yashashni o'ziga munosib ko'rmadi. Ayni vaqtida Samarcand ahli Buxoriyni Poykandga kelganini bilgach, ular uni Samarcandga taklif qilib, unda muqim istiqomat etib, mudarrislik qilishlarini so'radilar. Bunga rozilik bildirgan Imom Buxoriy Poykanddan chiqib, ularga tomon ravona bo'ladi va Samarcand yaqinidagi Xartang deb ataladigan qishloqda bir qarindoshinikida to'xtaydi. u qattiq betob bo'lib qoldi va 256-hijriy yilning Ramazon hayiti (Iyd al-fitr) kechasida (870-yil 31-avgust) vafot etdi.

### **Imom Buxoriyning ilmiy-ma'naviy merosi**

Manbalarda keltirilishicha, Imom Buxoriy o'z ijodiy faoliyat davrida yigirmadan ortiq asarlar yaratgan.

1. "Al-Adabal-mufrad" ("Adabdurdonalari"). Imom Buxoriyning odob-ahloq xususidagi eng sahih hadislarni o'zida mujassam etgan

ushbu asari katta tarbiyaviy ahamiyatga molik benazir to‘plamdir. Bu asarni O‘zbekistonda o‘rganishga alohida ahamiyat berilgan. Uning arabcha nashri ikki marta bosilib, 1990-yilda esa olim Sh.Boboxonov tomonidan asarning o‘zbekcha tarjimasi ham nashr etilgan. Imom Buxoriyning bu asarida 1322 hadis va xabarlar 644 bobda jamlangan bo‘lib, u Hindiston, Turkiya va Misrda bir necha marta chop etilgan. Asarning bir qancha qo‘lyozma nusxalari ham saqlangan. Hindistonlik olim Sayyid Fazlulloh Jiloniy bu asarning tanqidiy nashri sharhi bilan birgalikda “Fazlullohi-samad fi tavziyahil Adab al-mufrad” nomi bilan chop etgan.

2. “Kitob al-kuna” (“Kunyalar haqida kitob”), Azaldan muhaddislar o‘rtasida roviylarni qator hollarda asl ismlari bilan emas kunyalari bilan atash odat bo‘lgan. Bu hol o‘z navbatida roviylarni bir-biri bilan almashtirib yuborilishiga, oxir-oqibatda xatoga olib kelgan. Shu boisdan roviylarning kunyalariga bag‘ishlangan Imom Buxoriyning ushbu asari bu sohada katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu asar Hindistonda 1940-yili chop etilgan.

3. “Kitob al-Favoid” (“Foydali ashyolar haqida kitob”). Imom Buxoriyning ushbu ta’lifi Imom Termiziyning “Al-Jome” nomli asarining “Kitob al-manoqib” qismida zikr etilgan. Olim Muhammad Jamoluddin Qosimiyy Dimashqiy “Hayot al-Buxoriy” nomli tasnifida Imom Buxoriyning ushbu asarini “Kitob al-Favoid” deb xato keltirgan. Uning qo‘lyozmalari haqida aniq ma’lumotlar saqlanmagan.

4. Juz’ raf’ al-yadayn ( “Ikki qo‘lni ko‘tarish haqida”), Ushbu asarda namozda ikki qo‘lni ko‘tarishga oid hadislar jamlangan bo‘lib qo‘lni ko‘tarmaslikka oid rivoyatlar bilan bahs yuritiladi. Asardagi hadislarni Imom Buxoriydan Buxoro shahrida ta’lim olgan, uning oxirgi shogirdlaridan biri hisoblangan Mahmud ibn Isqoq Xava’iy rivoyat qiladi.

5. “At-Tarix al-kabir” (“Katta tarix”). Ushbu “at-Tarix” asarini Imom Buxoriy o‘nsakkiz yoshida Madinai-munavvaradagi al-Masjid

an-Nabaviy (“Payg‘ambar masjidi”)da yaratgan. Ushbu asar yozib tugatilgach imom Is’hoq ibn Rohavayh katta xursandchilik bilan amir Abdulloh ibn Tohir - Xurosoniyga uni taqdim qilaturib: “Sizga harqanday kishini sehrlab qo‘yadigan bir asarni ko‘rsataymi?”, - deb xitob qilgan. Asar qo‘lyozmasining ba’zi qismlari Haydarobod kutubxonasida saqlanadi, u “kof” harfidan boshlanib, kitobning oxirigacha yetadi. Asar 1361-1362-hijriy (1941-1942-milodiy) yillarda sakkiz qism to‘rt jilda chop etilgan. “At-Tarix al-kabir” kitobi sahabalar, tobe’iynlarning izdoshlari (atbo‘)dan rivoyat qilgan hadislarni to‘la-to‘kis o‘zida qamrab olgan bo‘lib, ularning ismlari alifbo tartibida joylashtirilgan. Agarki mushtarak ismlar uchrab qolsa, alifbo harflarining tartibi ular otalarining ismlariga qarab tartib berilgan.

6. “At-Ta’rix al-avsat” (“O‘rta ta’rix”). Bu kitobni Imom Buxoriydan Abdulloh ibn Abdusallom Haffof va Zanjaviyh ibn Ahmad Lubod rivoyat qiladi. Ushbu asarning bir qo‘lyozma nusxasi Hindistonning Haydarobod shahrida saqlanishi zikr qilinadi.

7. “At-Tarix as-sag‘ir” (“Kichik tarix”). Imom Buxoriyning bu asari ham hadis tarixiga oid qimmatli manbadir. Imom Buxoriy bu asarida mashhur sahabalar, tobe’iynlar va tobe’iynlarning izdoshlarini zikr qilgan bo‘lib, ularning vafot etgan yillari, naslu nasablarini, ularning o‘zaro muloqotlarini bayon qiladi. Ko‘p hollarda noqis (jarh) va isloh qilinganlarini ham qayd etadi. Muallif o‘z asariga yilma-yil tartib berib, agar bir sanani tugatsa, u sanada vafot etgan mashhur shaxslarni, sodir bo‘lgan boshqa muhim voqealarni zikr etgan, undan so‘ng keyingi sanani boshlaydi. Bu asar Hindistonda va Qohirada nashr etilgan.

8. Imom Buxoriyning hadislarga oid “al-Jome al-kabir” (“Katta to‘plam”) asari xususida ba’zi manbalarda zikr qilinsada, bu asar haqida batafsil ma’lumot saqlanganagan. Asarning ayrim qo‘lyozma nusxasi saqlanganligi haqida ba’zi taxminlar bor. “Kashf az-zunun” asarida ham shu tarzdagi ma’lumot bilan chegaralanilgan.

11. “Kitob az-zuafo as-sag‘ir” (“Zaif roviylar haqida kichik kitob”). Bu asar “Kitob az-zuafo” nomi bilan ham zikr qilinadi. Muallif bu asarida zaif roviylarning ismlarini alifbo harflari tartibida keltirgan. Aksar hollarda zaiflikning sabablari roviyning ustozlari zikri bilan birga bayon qilinadi. O‘ta diqqat e’tibor bilan bu kitobda roviylarning nuqsonlari va qusurlari ko‘rsatilib, ular rivoyatining zaiflik negizlarini aniqlashga Imom Buxoriy katta ehtiyojkorlik va alohida mas’uliyat bilan ish tutgan. Allomaning bu asari 1885-yilda Hindistonda chop etilgan.

12. Imom Buxoriy “al-Musnad al-kabir” (“Katta musnad”) nomli asar yozgan bo‘lsada, uni bizgacha yetib kelgani haqida aniq ma’lumot yo‘q. Lekin uning bir qo‘lyozma nusxasi ikkinchi jahon urushidan oldin Germaniyada saqlanganligi haqida taxmin qilinadi.

13. Imom Buxoriyning “At-Tafsir al-kabir” (“Katta tafsir”) nomli asari haqida allomaning shogirdlaridan biri Firabriy zikr qilgan. Nemis sharqshunosi Karl Brokkelmanning yozishicha, bu asarning bir qo‘lyozma nusxasi Jazoirda, yana bir nusxasi Parijda saqlanar ekan.

14. “Kitob al-Hiba” (“Xayr-ehson haqida kitob”), Imom Buxoriyning bu kitobi haqida allomaning shaxsiy kotibi Muhammad ibn Abu Hotam al-Varroq: “Imom Buxoriy xayr ehson haqida bir kitob ta’lif etdilar, unga besh yuzga yaqin hadis kirgan”, - deb yozgan. Lekin, afsuski, bu asarning biron-bir qo‘lyozma nusxasi bizgacha yetib kelganligi hozircha ma’lum emas.

15. Imom Buxoriyning boshqa bir asari “Asomiy as-sahoba” (“Sahobalarning ismlari”) deb ataladi. Imom Buxoriydan avval biron muallif ushbu (“Asomiy as-sahoba”) mavzuda kitob yozgani ma’lum emas. Imom Buxoriydan keyin esa Ibn Munda, Ibn Abdulbir, Ibn al-Asir, al-Hofiz ibn Hajar Asqaloniy va boshqa qator mualliflar sahabalarning ismlari, ularning siyratlari va ular solnomalari haqida asarlar yaratgan. Kezi kelganda aytish kerakki, bu juda muhim mavzu bo‘lib, uning ilmiy ahamiyati kattadir.

16. “Kitob ul-vuhdon” (“Yagonalar haqida kitob”). Alloma ushbu “Kitob al-vuxdon” asarida faqat bir hadis rivoyat qilgan sahabalari zikr qiladi. Imom Buxoriy bu sohada ham birinchilardan bo‘lib asar yaratgan. Undan keyin Imom Nasoiy ham “Kitob al-vuhdon” nomli asar yaratgan, shuningdek Buxoriyga taqlid qilib imom Muslim ham “Kitob al-vuxdon” nomli asar yozgan. Imom Buxoriyning bu asari ham bizgacha yetib kelganligi hozircha ma’lum emas.

17. Imom Buxoriyning “Kitob al-Mabsut” (“Mufassal kitob”) nomli asari haqida olim Xaliliy “al-Irshod” nomli asarida zikr qilgan. Asarni Imom Buxoriydan Muhiyb ibn Salim rivoyat qilgan bo‘lib, uning mavzusi haqida aniq yozilmagan. Lekin faraz qilish mumkinki, Imom Buxoriy ushbu asarida hadislarni chuqur tadqiq etish natijasida fiqhiy masalalarini batafsil bayon qilgan bo‘lsa kerak. Asarning qo‘lyozma nusxasi Ikkinchi jahon urushidan avval Geremaaniyada bo‘lganligi zikr qilinadi.

18. “Kitob al-Ilal” (“Illatli hadislar haqida kitob”). Illatli hadislarni bilish g‘oyatda nozik va muhim bo‘lib, ushbu ilmni idrok etish uchun muallif keng ko‘lamda ma’lumotga ega bo‘lishi va g‘oyatda iqtidorli bo‘lishi talab qilingan. Ko‘pgina olimlar tomonidan Imom Buxoriyning “Kitob al-Ilal” nomli asari ushbu mavzuga bag‘ishlangan dastlabki asarlardan biri sifatida baholanadi.

19. “Birr al-volidayn” (“Ota onaga yaxshilik qilish”). Manbalarda ta’kidlanishicha, bu asarni Imom Buxoriydan Muhammad ibn Dallaviyx rivoyat qilgan. Asarning nomidan ham uning mazmun-mohiyati ma’lum bo‘lgan bilan allomaning ushbu asari bizgacha yetib kelmagan hisoblanadi.

20. “Kitob al-Ashribati” (“Ichimliklar (sharbatlar) haqida kitob”). Ushbu asar haqidagi qisman ma’lumotlar Doruqutniyning “al-Mu’talaf va al-Muhtalaf” nomli kitobida keltirilgan. Asar bizgacha yetib kelmagan deb hisoblanadi.

## **Imom Buxoriy ilmiy merosining tadqiq etilishi**

Alloma hayoti va uning ilmiy merosi bugungi kunga qadar ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Masalan, “Odob durdonalari” yaratilgan davridanoq turli olimlarning diqqatini o‘ziga tortgan va unga bag‘ishlangan asarlar yaratilgan, sharhlar yozilgan va tarjimalar amalga oshirilgan. Jumladan, Ahmad ibn Muhammad Bazzor “al-Adabu-l-mufrad”ni Imom Buxoriydan rivoyat qilgan. Muhibuddin Xatib, Sayyid Fazlulloh Jiyloniylar asarni sharhlaganlar. Shuningdek, Sayid Siddiq Hasanxon hamda Mavlono Abdulg‘affor asarni urdu tiliga tarjima qilganlar. “Al-Adabu-l-mufrad” asarining arab tilidagi matni 1970- hamda 1980-yillari O‘zbekistonda ikki marotaba chop etilgan.

Imom Buxoriyning bu nodir asarini o‘zbek tiliga tarjima qilish o‘zbek olimlarining orzusi edi. Bu xayrli ish dastlab asarning arabcha matnini chop etish bilan boshlangan bo‘lsa, tarjimalar ustida Ziyovuddin ibn Eshon Boboxon, Shamsuddinxon Boboxonov, shayx Abdulaziz Mansur, shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf va yana qator olimlar ishlaganlar. Markaziy Osiyo xalqlari orasidagi Imom Buxoriy ilmiy merosi xususan, “Al-Jomeu-s-sahih”, “al-Adabu-l-mufrad” asarlariga bo‘lgan qiziqishni ma’lum ma’noda qondirish maqsadida 1990-yili “Al-Adabu-l-mufrad” asarining 272-bolgacha bo‘lgan qismi 600 ta hadis Shamsuddin Boboxonov rahbarligidagi islomshunos olimlar tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilinib, birinchi marotaba chop etilgan edi. Nashr muallif Shamsuddinxon Boboxonovning muqaddimasi bilan boshlangan. Kitob “O‘zbekiston” nashriyotida 100000 nusxada bosilgan. 2006-yil Toshkentdagi “Movarounnahr” nashriyotida shayx Abdulaziz Mansur raisligidagi nufuzli olimlar jamoatchilik kengashi tomonidan Asror Samad mas’ul muharrirligida “Odob durdonalari” asarining o‘zbek tilidagi navbatdagi to‘ldirilgan nashri chop etildi. Asarning o‘zbek tilidagi ushbu tarjimasi islomshunos olim Shamsuddin Boboxonov va No‘mon Abdulmajidlar tomonidan

amalga oshirilgan. “Odob durdonalari” asarining o‘ziga xos tadqiqot va tarjimasi sifatida 2008-2009-yillari amalga oshirilgan va “Sharq” nashriyot – matbaa birlashmasida chop etilgan to‘rt jilddan iborat nashri shayx Muhammad Sodiq Muhammmad Yusuf tomonlaridan amalga oshirilgan. Muallif ushbu asarni “Kanzu-l-odob” – “Odoblar xaziynasi” nomli sharh deb atagan. Mazkur nashrda “Kanzu-l-odob” sharhi va uning yozilish tarixi, Imom Buxoriyning tarjimai hollari, ul zotning hayoti, ijodi va ilmiy merosiga bog‘liq ma’lumotlar jumladan, olim asarlarining to‘liq ro‘yxati va ularning qisqacha tavsifi berilgan. 2008-yili Imom Buxoriy “Odob durdonalari” asarining saylanmasi Z.Islomov va A.Abdullayevlar tomonidan K.Komilov mas’ul muharrirligida “Toshkent islam universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasida chop etilgan.

2000-yilda K.Nosirov tomonida IX-X asrlarda O‘rta Osiyo mutafakkirlarining ahloqiy tarbiya haqidagi g‘oyalari (Imom Buxoriy va Abu Nasr Forobiy asarlari misolida) nomli dissertatsion tadqiqot amalga oshirildi. 2000-yilda B.Eshonjonovning IX asr Movarounnahr madaniy hayotida Imom Buxoriyning mavqeい va uning “Al-Jomi’ as-sahih” asaridagi fiqh masalalari deb nomlangan tadqiqoti amalga oshirildi. 2001-yilda yirik hadisshunos olim U.Uvatov o‘zining “Movarounnahr va Xuroson olimlarining hadis ilmi rivojiida tutgan o‘mi (Imom Buxoriy, Muslim, Termiziy)” nomli tadqiqotini yaratdi.

Yevropaliklardan dastlab Kreyzon degan olim “Sahih al-Buxoriy”ni ingliz tiliga tarjima qilib, bu tarjima 1879-yilda Belk degan shaharda o‘n jildda nashr etilgan. Shuningdek, Imom Buxoriyning bu asari 1935-yilda nemis olimi tomonidan muhtasar izoh va hoshiyalari bilan ikki jildda nashr etilgan. Ushbu tarjima haqida o‘z vaqtida qator olimlar tomonidan yaxshi fikr-mulohazalar bildirilgan edi. “Sahih al-Buxoriy”ni ingliz tiliga doktor Muhammad Muhsinxon ham tarjima qilib, nashr ettirgan. Imom Buxoriy asarining katta bir qismi olmon tiliga ham tarjima qilinib 1936-yilda Kambirjda bepul nashr etilgan. Alloma asarining dastlabki ikki

jildi Ahmad Naiym tomonidan turk tiliga ag‘darilgan tarjimasini (Istanbulda 1928-yilda nashr etilgan) 1939-yilda va undan keyin Komil Miyros degan olim oxiriga yetkazib asarni to‘liq tarjimasini nashr ettirgan. “Sahih al-Buxoriy”ning fransuz tiliga bajarilgan garjimasi fransuz olimlari O.Hodas va V. Marsuis tomonidan 1903-1904-yillarda bajarilgan bo‘lib, besh jilddan iborat nazkur tarjima, tegishli sharhlar, izohlar va ko‘rsatkichlar bilan jihozlangan holda 1984-yil Parijda nashr etilgan.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar:**

1. Imam Buxoriy ilmiy merosiga mamlakatimizda berilayotgan e’tibor haqida fikr yuriting.
2. Hadis ilmi rivojida Imam Buxoriyning tutgan o‘rni.
3. Imam Buxoriy ilmiy merosining o‘rganilishi haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Imam Buxoriy qalamiga mansub hadislardan ilmi-fan va uning foydasi haqidagilarini tahlil qiling.
5. Allomaning asarlari haqida so‘z yuriting.

### **Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. Уватов У. Мовароуннахр ва Хуросон олимларининг ҳадис илми ривожида тутган ўрни (ал-Бухорий, Муслим, ат-Термизий). – Тошкент. 2020.
2. Имом Бухорий. – Тошкент: Азон китоблари. 2021.
3. Имом Бухорий изидан. – Тошкент: Мумтоз сўз. 2019.
4. Имом Бухорий. Ал-Адабу-л-муфрад (Адаб дурдоналари). – Тошкент: Ўзбекистон, 1990.
5. Имом Бухорий. Ал-Адабу-л-муфрад (Адаб дурдоналари). – Тошкент: Мовароуннахр, 2006.
6. Имом Бухорий – муҳаддислар султони. – Тошкент. 2004.
7. Маънавият ўлдузлари. – Тошкент. 2001.
8. Буюк аждодларимиз. – Тошкент. 2001.

## MAVZU: ABU ISO MUHAMMAD TERMIZIYNING HADIS ILMI TARIXIDA TUTGAN O'RNI VA RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI

### Reja

1. Abu Iso Muhammad Termiziy hayoti va faoliyati.
2. Abu Iso Muhammad Termiziyning hadis ilmiy rivojiga qo'shgan hissasi.
3. Abu Iso Muhammad Termiziy asarlari haqida.

**Tayanch so'z va iboralar:** Termiziylar, "Al-Ilal" kitobi, Bug' qishlog'i, Nuriddin Atar, Termiz, Abdulkarim Sam'oniy, Al-Ilal assag'ir.

Markaziy Osiyo mintaqasida Termizning o'ziga xos strategik o'rni – uning buyuk yo'llar chorrahasida joylashganligi bilan ajralib turadi. Termizda islomgacha dinlararo bag'rikenglik munosabatlari qaror topgan bo'lsa, keyin kirib kelgan islom dini esa jahon sivilizatsiyasi tarixida tub burilish yasadi. Bu ma'naviy aks-sado Markaziy Osiyoda islom ilmining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan va bu jarayonda Termiz ilk g'oyaviy markaz vazifasini o'tagan. VII-IX asrlarda Termizda shakllangan ma'naviy muhit Markaziy Osiyo taraqqiyotining turli jabhalariga katta ta'sir ko'rsatgan.

Manbalar va tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, Imom Termiziy hayot sanasi haqida ayrim mulohazalar bo'lsa-da, uni milodiy 824-892-yil deb belgilash mumkin. Imom Termiziy o'z safarlarini, taxminan, 849-yillardan boshlagan. Xuroson, Hijoz va Iroqda bo'lган, ammo Shom va Misrga bormaganligini xulosa qilinadi.

Uning to'liq ismi Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Muso ibn Zahhoq Abu Iso Sullamiy Zariyr Bug'iy Termiziy bo'lib, u hijriy 209- (milodiy 824) yili Termiz yaqinidagi Bug' (hozirgi Surxondaryo viloyatining Sherobod tumani hududida joylashgan) qishlog'ida

o'rtahol oilada tavallud topgan. Markaziy Osiyolik mashhur tarixchi Abu Saad Abdulkarim Sam'oni (1113-1167) Termiziy Bug' qishlog'ida vafot etganligi uchun al-Bug'iy taxallusi bilan ham atalgani, olimning ko'p yig'laganidan umrining oxirlarida ko'zi ojiz bo'lib qolganligidan az-Zariyr (ko'zi ojiz) taxallusi olganligini ham qayd qiladi. Lekin el orasida at-Termiziy nomi bilan mashhur bo'lishiga sabab uning butun hayoti va faoliyati (yoshligidan boshlab) Termiz shahri bilan chambarchas bog'liq bo'lganligidan, shuningdek, olim tug'ilgan Bug' qishlog'i Termiz shahriga yaqin bo'lib, ma'muriy-idoraviy jihatdan unga mansub qishloqlardan ekanligidan deb izohlanadi.

Termiziyning oilasi va ota-onasi haqida manbalarda aniq ma'lumotlar keltirilmagan, faqat tarixchilar uning "Bobom asli marvlik edi, u kishi Lays ibn Sayyor zamonida yashagan, so'ng u yerdan Termizga ko'chib kelganlar", – degan fikrini keltirish bilan chegaralanadilar. Shuningdek, Termiziyning ko'zi ojizligi xususida ham yozma manbalarda turli-tuman ma'lumotlar keltirilgan. Termiziy yoshligidan g'oyatda tirishqoq, idrokli va zakovatli bo'lib, bu fazilatlari bilan o'z tengdoshlaridan batamom ajralib turgan. Uning yoshlik chog'laridan ilmga o'ta qiziqishi va ishtiyoqi o'sha davrning ko'pgina ilmlarini, ayniqsa, hadis ilmini chuqur egallahda baralla namoyon bo'ldi. U yoshlik paytlaridan boshlab Termiz, Samarqand, Marv va Markaziy Osiyoning boshqa yirik shaharlarida istiqomat qilgan mashhur ulamolar va muhaddislar asarlarini qunt bilan o'rgangan.

Yoshligidan ilm-fanga tashna Termiziy 850-yildan ya'ni yigirma olti yoshidan boshlab, uzoq yurtlarga, qator horijiy mamlakatlar va shaharlarga safar qiladi. Jumladan, u Hijozda - Makka va Madina; Iroq, Hurosnonning qator shaharlarida ko'plab muhaddislar, ulamolar bilan muloqotda bo'lib, ularidan ta'lim oladi, qizg'in ilmiy munozara va bahslarda ishtirok qiladi. Tarixchi Shamsuddin Zahabiyning ta'kidlashicha, Termiziy Misr va Shomni shaxsan ziyorat qilmagan,

shu boisdan ham bu mamlakatlar ulamolaridan bilvosita hadislar rivoyat qilgan. Uzoq yillar davom etgan safarlari chog‘ida Abu Iso Muhammad Termiziy nafaqat hadis ilmidan, balki ilm al-qiroat, al-bayon, fiqh, tarix va ilm-fanning boshqa sohalaridan ham ko‘plab ustozlardan saboq olib o‘z bilimini oshiradi. Bular hammasi Abu Iso Muhammad Termiziyning o‘z davrining yirik olimi darajasiga yetishida mustahkam zamin tayyorlaydi.

Imom Termiziy o‘z davrining yetuk muhaddisi sifatida ko‘pgina shogirdlarga ustozlik ham qilgan. Uning shogirdlaridan Maqbul ibn Fazl, Muhammad ibn Mahmud Anbar, Abu ibn Muhammad Nasafiy, Hammod ibn Shokir, Xaysam ibn Kulayb Shoshiy, Ahmad ibn Yusuf Nasafiy, Abul-Abbos Muhammad ibn Mahbub Mahbubiy kabi yetuk olimlarni ko‘rsatish mumkin. Abu Iso Muhammad Termiziyning xorijiy mamlakatlarga safari uzoq yillarga cho‘zilib, avval esatib o‘tganimizdek, safarlari chog‘ida u ko‘pdan-ko‘p olimlar, muhaddislar bilan muloqotda bo‘ldi. Shu bilan bir qatorda ana shu safarlari chog‘ida hadislarni to‘plab, kitoblar ta’lif qilishga ham kirishdi. Xorijiy ellarga safarlaridan u o‘z yurtiga 863-yildan oldin qaytadi va o‘zelidan chiqqan olimlar bilan ilmiy munozaralarda qatnashadi, ko‘plab shogirdlarga ustozlik qiladi. Ayniqsa, mashhur muhaddis alloma Buxoriy bilan ko‘plab ilmiy bahslar yuritib istifoda qiladiki, bu haqda Termiziy o‘zining “Al-Ilal” kitobida ham yozadi. Abu Iso Muhammad Termiziyning ko‘pchilik tasniflari, jumladan, uning mashhur asari “Al-Jome” ham o‘z Vataniga qaytganidan keyin yaratilgan. Imom Termiziy 892-yilda Termiz yaqinidagi Bug‘ qishlog‘ida vafot etib, shu joyda dafn qilingan.

### **Abu Iso Muhammad Termiziyning hadis ilmiy rivojiga qo‘shgan hissasi**

O‘z ilmiy-ijodiy faoliyati davrida imom at-Termiziy o‘ndan ortiq asarlar yaratdi. Manbalarda Imom Termiziya 11 asar nisbat beriladi:

1. “Al-Jome’ al-kabir” (“Katta to‘plam”);
2. “Ash-Shamoil an-nabaviyya va xasois almoustafaviyya” (“Payg‘ambarlik siyratlari va tanlangan shaxs xususiyatlari”);
3. “Al-Ilal al-kabir” (“Hadis ilmining nozik jihatlariga tegishli katta kitob”);
4. “Al-Ilal as-sag‘ir” (“Hadis ilmining nozik jihatlariga tegishli kichik kitob”);
5. “Az-Zuhd” (“Zuhd”);
6. “Al-Asmo va-l-kuna” (“Ismlar va kunyalar”);
7. “At-Tarix” (“Tarix”);
8. “As-Sahoba” (“Sahoba”);
9. “Al-Mavquf” (“Mavquf (rivoyatlar haqidagi kitob”);
10. “Risolatu fi-l-xilof va-l-jadal” (“Xilof va jadal haqida risola”);
11. “At-Tafsir” (“Tafsir”).

Muallifning yirik asarlaridan yana biri “Ash-shamoil an-nabaviya” (“Payg‘ambarning alohida fazilatlari”)dir. Bu asar “Ash-shamoil Muhammadiyya”, “Ash-shamoil fi shamoil an-nabiy sallolohu alayhi vasallam” nomlari bilan ham ataladi. Ushbu asarning Saudiya Arabistonida istiqomat qilgan vatandoshimiz Said Mahmud Taroziy (u 1992-yili vafot etgan) tomonidan bajarilgan o‘zbekcha tarjimasi (arab alifbosida va kirillchada Toshkentda bir necha bor nashr qilingan. “Kitob at-Tarix”, “Kitob al-ilal as-sag‘iyr va al-ilal al-Kabir”, “Kitob uz-zuhd” (“Taqvo haqida kitob”), “Kitob al-asmo val-kuna” (“Roviyarning ismi va laqablari haqida kitob”), “Al-ilal fil-hadis” (“Hadislardagi illatlar yoki og‘ishlar haqida”), “Risola fil-xilof val-jadal” (“Hadislardagi ixtilof va baxslar haqida risola”), “Asmo us-sahoba” (“Payg‘ambar sahobalarining ismlari”) shular jumlasidandir.

Imom Termiziy asarlari va faoliyati islomiylar taraqqiyotida muhim o‘rin tutgan. Masalan, olimning “Al-Jome” asari islom dunyosida yozilish uslubi jihatidan yangi bo‘lgan va keyinchalik

unga boshqa olimlar ergashgan. Allomaning “Ash-Shamoil an-Nabaviyya” asari esa o‘z bobida bizgacha yetib kelgan ilk va eng yaxshi asardir. Olimning “Kitobul ilal” (“Al-Ilal as sag‘ir”) risolasi hadisshunoslikning ilmiy tahliliga bag‘ishlangan ilk yozma manba sifatida baholanadi. Alloma zamonaviy ilmda rivojlangan “fihq al-muqorin” – “qiyosiy fiqh”, ya’ni mazhablarni solishtirish yo‘nalishining ham asoschisidir. Imom Termiziy masalasida hozirgacha dunyo miqyosda ilmiy tadqiqotchilar nazaridan deyarli chetda qoladigan masala - olimning Mavarounnahr ahli bilan aloqalari va ustoz-shogirdlik munosabatlari ham muhim mavzu. Ma’lum bo‘lishicha, allomaning Termiziylardan bevosita 8 ustoz bo‘lgan va ulardan o‘zining “Al-Jome” asarida 46 hadis rivoyat qilgan, shuningdek, ulardan hadis va fiqh ilmiga tegishli boshqa rivoyatami ham keltirgan. Mahalliy miqyosda allomaning eng ko‘p shogirdlari Nasafdan, so‘ng Samarcanddan bo‘lib, Buxoro va Shosh bilan ham aloqalar mavjud edi.

Imom Abu Iso Termiziyning islom tarixi, umuman olganda esa ilmfan tarizida ham jahon miqyosida barcha tarafidan e’tirof etilgan o‘ziga zos alohida o‘rnii bor. Imom Termiziyydan oldin qirqdan oshiq Termiziylar faoliyat yuritgani va uning sakkiz nafar Termiziy nishbasidagi ustozи bo‘lganligi keltirib o‘tiladi.

### **Abu Iso Muhammad Termiziy asarlari haqida**

Imom Termiziyning ilmiy-ijodiy merosida “Al-Jome as-sahih” (“Ishonchli to‘plam”) eng asosiy o‘rinni egallab, u yuqorida qayd etilganidek “al-Jome al-kabir”. “Katta to‘plam”), “Sahih at-Termiziy”. “Sunan at-Termiziy” (“Termiziy sunnatlari”) kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Tarixchi Ibn Hajar al-Asqaloniyning yozishicha, Termiziy ushbu asarini 270-hijriy (884-milodiy) yilda, ya’ni qariyb oltmis yoshlarida, ilm-fanda katta tajriba orttirib, imomlik darajasiga erishgandan keyin yozib tugatgan.

“Al-Jome al-kabir”ning qo‘lyozmalari dunyoning bir qancha shaharlarida mavjud bo‘lib, jumladan, Toshkentda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik universitetida ham uning qo‘lyozmalari saqlanmoqda. Muhim manba sifatida “Al-Jome as-sahih” bir necha marta nashr qilingan. Ulardan 283-(1867-1868) yili Mirtoxda qilingan toshbosmasini, 1292-(1876-77) yili ikki jildda Qohirada, shuningdek, 1980-yili Bayrutda nashr etilganligini ko‘rsatish kifoyadir. Termiziyning bu muhim asariga bir qator sharhlar ham yozilgan bo‘lib, ulardan Ibn Arabiy (vafoti 543-hijriy, 1148-milodiy yili) nomi bilan mashhur bo‘lgan imom Hofiz Abu Bakr Muhammad ibn Abdulla Ashbiliyning “Oridat al-Ahvaziy ala kitob at-Termiziy” nomli 13 juz’dan (qism)dan iborat sharh eng muhim sharhlardan hisoblanadi. Ushbu sharh dastlab 1931-yilda Qohirada nashr qilingan. Imom Hofiz Abu Ali Muhammad Abdurrahmon ibn Abdurahim Muborakfuriy (1866-1935) qalamiga mansub yana bir sharhham “Tuhfat ul-Ahvaziy bi-sharhi at-Termiziy” deb ataladi. To‘rt juz’dan iborat bo‘lgan bu asar 1979-yilda Bayrutda nashr qilingan (Hindiston nashri ham mavjud). Misrlik olim va adib Jamoliddin Abdurrahmon ibn Abu Bakr Suyutiyning (1445-1505) Termiziy asariga yozgan sharhi “Qut al-mo‘g‘taziya ala Jome at-Termiziy” (undan ikki qismi nashr qilingan), deb atalgan. Bularidan tashqari, Muhammad ibn Abduqodir Abu Tayyib Madaniyining “Sharh Sunan at-Termiziy”, Ahmad Muhammad Shokirning “Tahqiyq va sharh Jome at-Termiziy” (o‘ndan ikki qismi 1937-yilda Mustafa Bobiy Halabiy tomonidan nashr qilingan). Muhammad Yusuf Bannuriyning “Maorif sunan” sharh sunan Termiziy (uning birinchi qismi 1963-yilda Pokistonda nashr qilingan) Siroj Ahmadas Sarhandiyning “Sharh sunan at-Termiziy” nomli forscha sharhi, shuningdek, Rashib Ahmad Kanuqiyning “Al-kavkab ad-durriy ala at-Termiziy” (Hindistonda chop etilgan), Muhammad Anvarshoh Kashmiriyning ikki juz’dan iborat “Al-Urf ash-shaziy

ala Jome' at-Termiziy” (bu asar ham Hindistonda chop etilgan) va nihoyat Abul-Hasan Muhammad ibn Abdulhodiy Sanadiyning (u 1138-yilda vafot etgan) “Hoshiya ala Sunan at-Termiziy” kabi sharhlardan ko‘rsatish mumkin.

O‘z ustozlari Imom Buxoriy, Imom Muslim asos solgan xayrli ishni Imom Termiziy chuqur mas’uliyat va katta idrok bilan davom ettirib, hadisshunoslikning ilmiy asosida rivojlanishiga ulkan hissa qo‘sib, musulmon dunyosidagi eng nufuzli muxaddislardan biri darajasiga ko‘tarildi. Abu Iso Termiziyning shoh asari bo‘lmish “Al-Jome as-sahih” olim mashaqqatli mehnatining mahsuli sifatida, hadis ilmida katta ahmiyatga ega muhim manbalardan biri hisoblanadi. Shuni aytish kerakki, muallif o‘z asarini alohida-alohida boblarga bo‘lib, imkonli boricha har bir hadis roviylarini keltirib, har bir hadisdan keyin uning ishonchli yoki ishonchsizlik darajasini aniqlab alohida ko‘rsatadi. Allomaning “As-Sunan” (“Sunnatlar”) nomi bilan (“Sunan at-Termiziy”) deb ataluvchi asari tarkibiy jihatdan quyidagi boblarga bo‘linadi: tahorat, salot, (namoz), zakot, ro‘za, haj, janzoza, nikoh, emizish, taloq, savdosoti, qozilik ahkomlari, tovon to‘lash, me’yor, sayd, qurbanlik, nazr-nuzur, iymon, siyratlar, jihad, kiyim-kechak (libos), taomlar, ichimliklar, (al-ashriba), xayr-ehson va saxovat, tabobat, farzlar, vasiyatnomalar, hayrixohlik va takdir, xuruju fitnalar, bashoratlar, shahodatlar, zohidlar, jannat sifatlari, jahannam sifatlari, ilm, izn so‘rash va odob, masalalar, Qur’on fazilatlari, qiroat, tafsir, duolar, manoqiblar (fazilatlar), illatlar haqidagi boblar keltirilgan.

Imom Termiziy asarining foydali tomonlari xususida al-Hokim Naysoburiy “al-Madxal ilo ma’rifat kitob al-iqliyl”, Muqaddasiy “Shurut al-aimmat as-sitta” kabi asarlarida alohida ta’kidlab o‘tadilar. Shu bilan birga hadis ilmining istilohlarini yaratishda ham Imom Termiziyning hissasi kattadir. Hadis ilmiga doir istilohlarni o‘rganishda asosiy manbalar hisoblangan “U’lum al-hadis” (“Hadis ilmlari”) kitoblarida uchraydigan barcha istilohlar

Imom Termiziyning “al-Jome” asarida keng ko‘lamda keltirilgan. Binobarin, Imom Termiziy asari bu sohada ham bir amaliy qo‘llanma vazifasini o‘taydiki, bu xildagi ko‘p asarlar xususida bu fikrni aytish mushkuldir. Imom Termiziyga ergashib, uning asaridan ta’sirlanib, uning uslubiga taqlid qilib asar yaratgan mualliflardan imom Doruqutniyni (995-yilda vafot etgan) ko‘rsatish mumkin. U o‘zining ulkan asari “as-Sunan”ni yaratishda aynan Imom Termiziy yo‘lidan yurib hadislarni turli toifalarga ajratib, ularni sahib, hasan va zaif darajalariga taqsimlab keltirdi. Shuningdek, imom Abdulazim Munziriyy (1258-yilda vafot etgan) ham “At-Targ‘iyb v-at-tarhiyb”da Imom Termiziy uslubidan yurib har bir hadis haqida alohida fikr yuritdi. Uning “Kitob al-ilal” asarida esa muallif hadis ilmining turli masalalariga doir qimmatli bahslarni jamlaganki, undan oldin bironta ham olim bunday ishlarni amalga oshirmagan. Hadis ilmining rivojidagi ulkan hissasi uchun ham Imom Termiziy va uning muhim asarlari olimu ulamolar tomonidan yuksak baholanib keldi. Imom Termiziy haqida alloma Idrisiy “u-ilm al-hadisda iqtido qilinadigan olimlardan biri bo‘lib, u “al-Jome”, “Tarixlar”, “al-Ilal” kabi buyuk asarlar tasnif etdi. Hifzda (yodlashda) u haqida masalalar keltiradilar”.

**“Ash-Shamoil an-nabaviyya”** asari Abu Iso Termiziyning boshqa bir yirik asari “Ash-Shamoil an-nabaviyya” - “Payg‘ambarning alohida fazilatlari”, deb ataladi. Bu asar ba’zi manbalarda “Ash-Shamoil fi shamoil an-nabiy sallolohu alayhi vasallam”, “Ash-Shamoil al-Muhammadiya” nomlari bilan ham keltirilgan. Asar Payg‘ambar alayhissalomning hayotlari, u zotning suvrat va siyratlari, ajoyib fazilat va odatlariga oid to‘rt yuzu sakkiz hadisi sharifni o‘ziga jamlagan qimmatli manbadir.

Arab tilida bitilgan ushbu asarga bir qancha sharhlar va hoshiyalar ham yozilgan. Ulardan Abdurauf al-Munoviy Misriyning (vafoti 1003-hijriy yili) “Sharh ush-Shamoil”, Ali ibn Sulton al-Haraviy Qoriyning (vafoti 119-hijriy yili) “Jam’ ul-vasoil fi sharhi ash-

Shamoil”, Sulaymon ibn Umar ibn Mansur Jumalning “Al-Mavohib Muhammadiya bisharh ash-shamoil Termiziya”) bu asarning bir qo‘lyozmasi Qohiradagi al-Azhar kutubxonasida 144 (hadis ilmi) raqam ostida saqlanmoqda, Muhammad ibn Jasus Molikiyning (vafoti 1182-hijriy yili) “Al-Favoid al-jaliyla al-bahiya ala “Ash-Shamoil al-Muhammadiya” (bu asar 1927-yilda nashr qilingan) va nihoyat al-Azharning sobiq shayxi Ibrohim Bojuriyning (vafoti 1277-hijriy yili), “al-Mavohib al-Laduniya ala ash-Shamoil at-Termiziya” kabi sharhlari mavjud. “Ash-Shamoil an-nabaviyya”ning XVI asrga oid bir ajoyib qo‘lyozmasi Toshkentda, O‘zbekiston musulmonlari diniy boshqarmasi kutubxonasida saqlanmoqda. 1980-yilda Toshkentda mazkur diniy boshqarma buyurtmasi bilan “Ash-Shamoil an-nabaviyya”ning ushbu qo‘lyozma tariqasida nashr etilgan bo‘lib, undagi qisqacha so‘zboshi O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy boshqarmasi hay’atining sobiq raisi, marhum mustiy Ziyovuddinxon Ibn Eshon Boboxon hazratlari tomonidan yozilgan. Bundan tashqari “Ash-shamoil an-nabaviyya”ning ayrim qo‘lyozmalari O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik univeresitetida ham saqlanmoqda.

Imom Termiziyning bizgacha yetib kelgan “Al-Ilal fil-hadis” (“Hadislardagi illatlar yoki nuqsonlar”) nomli muhim asari ham bo‘lib, bu asosan, ikki mustaqil asardan tashkil topgan. Ulardan biri “Al-ilal al-Kabir” yoki “Al-mufrad” nomi bilan atalib ba’zi olimlarning fikricha Termiziyning bu asari bizgacha yetib kelmagan. Garchand aksar tadqiqotchilar ham shunday fikrda bo‘lsalarda Imom Termiziyning hayoti va faoliyatiga doir maxsus risola yozgan olim Nuriddin Atar (ushbu risolaning Bayrutda 1988-yilda chop etilgan ikkinchi nashrida) Turkiyaning qimmatli qo‘lyozmalarga boy kutubxonalaridan birida Termiziyning “Al-Ilal al-kabir” asarining yagona qo‘lyozmasini ko‘rgani va undan fotonusxa olib o‘z tadqiqotining ushbu qayta nashrida foydalangani haqida yozadi.

Ko‘hna Sharq tafakkuri va madaniyati hamda ma’naviy-

ma'rifiy merosini o'zida mujassam qilgan Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom hadislarini ma'lum qonun-qoida va tartibotlarga solib, birinchilardan bo'lib, sahih hadis to'plamlari yaratishda tadqiqotimiz mavzusi bo'lgan uchala muhaddisning ham xizmatlari beqiyosdir. Shu bilan birga bu xayrli va o'ta muhim ishga birinchilardan bo'lib asos solib, "hadis ilmining sulton'i", "barcha muhaddislarning peshvosi", "butun dunyoning imomi" degan g'oyatda sharaflı unvonlarga sazovor bo'lgan buyuk vatandoshimiz Imom Buxoriyning tarixiy xizmatlarini alohida ta'kidlash zarurdir.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar:**

1. Abu Iso Muhammad Termiziylar haqida manbalarda keltirilgan ma'lumotlar.
2. Abu Iso Muhammad Termiziylar ilmiy merosi kimlar tomonidan o'r ganilgan?
3. Abu Iso Muhammad Termiziyning hadis ilmi rivojiga qo'shgan hissasi haqida fikr yuriting.
4. Abu Iso Muhammad Termiziylar ilmiy merosiga mustaqillik yillarida qanday e'tibor berilmoqda?
5. Abu Iso Muhammad Termiziylar qalamiga mansub hadislardan ayting.

### **Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. Абу Исо Термизий. Саҳиҳи Термизий. Танланган ҳадислар. Абдуғани Абдулло таржимаси. – Тошкент: Faafur Fулом, 1993. - 208 б.
2. Абу Исо Муҳаммад ат-Термизий. Сунани Термизий. Тарж. Мирзо Кенжабек. – Тошкент: Адолат, 1999. II жилд. - 688 б. “Сунани Термизий”нинг 2-жилди ҳам ушбу таржимон муаллифлигида “Никоҳ китоби»гача таржима қилинди: – Тошкент: Мовароуннахр, 2017. - 448 б.

3. Абу Исо Термизий. Шамоилу Мұхаммадийя. Тарж. Саййид Маҳмуд Тарозий. – Тошкент: Ўрта Осиё ва Қозогистон мусулмоилар диний идораси бошқармаси, 1411/1990. – 75 б.
4. Абу Исо Термизий. Китобул илал. Тарж. Ж.Чұтматов. – Тошкент: Мовароуниаҳр, 2017. -90 б.; Уватов У. Икки буюк донишманд. – Тошкент: Шарқ, 2005. – Б. 6-39.
5. Ҳамроқулов Ж. Имом Абу Исо Мұхаммад Термизий. – Тошкент: Мовароуниаҳр, 2017. - 218 б.; Мұхаддис ва факиҳ аллома. Мусанииф Одилхон қори Юнусхон ўғли. Тошкент: Мовароуниаҳр, 2017. - 96 б.
6. Доктор Тоҳир Азҳар Ҳазирий. Имом Термизийнинг “Ал-Жомъ ас-саҳиҳ” асарига кириш. Тарж. С.Сиддиқов, Ж.Шодисев, У.Мирсодиков. – Тошкент: Мовароуниаҳр, 2017. - 136 б.
7. Маънавият юлдузлари. – Тошкент. 2001.
8. Буюк аждодларимиз. – Тошкент. 2001.

## MAVZU: ABU NASR FOROBIY O'RTA ASRNING BUYUK QOMUSIY OLIMI

### Reja:

1. Abu Nasr Forobiy faoliyatining o‘rganilishi.
- 2 Abu Nasr Forobiy hayoti va faoliyati.
3. Abu Nasr Forobiyning bilish va aql evolyutsiyasi haqidagi qarashlari.

**Tayanch so‘z va iboralar:** akademiya, falsafa, risola, falsafiy qarashlar, mutaffakir, uyg‘onish davri, musiqa ilmi, Ibn Tufayl, M.Xayrullayev, A.Irisov.

### Abu Nasr Forobiy faoliyatining o‘rganilishi

O‘z davrining yirik qomusiy olimlaridan biri bo‘lgan Forobiy ilmiy merosi bir necha yillardan buyon dunyo olimlari tomonidan o‘rganilib kelinmoqda. Shu nuqtayi nazardan aytish mumkinki,

Forobiy ilmiy merosining o'rgalishini alohhida tadqiqot obyekti sisatida o'rganish ham mumkin. Forobiyning ilmiy merosini o'rganish XX asrning birinchi yarmidan boshlangan. Bir qancha yevropalik, rus, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari olimlari Forobiyning hayoti va ijodini tadqiq qildilar. Ayniqsa, mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng yurtimiz olimlarining Forobiy ilmiy merosini tadqiq etishi juda samarali bo'ldi.

Forobiy ilmiy merosi bugungi kunga qadar keng geografik ko'lama o'rganilib kelinmoqda. Biz Forobiy faoliyati bilan bog'liq tadqiqotlarni quyidagi guruhlarga bo'lib tahlil etamiz. Xususan, Abu Nasr Forobiy ilmiy-falsafiy qarashlarining qator jihatlarini o'rta asrlardayoq yirik Sharq mutafakkirlari, jumladan, Ibn Sino, Ibn Tufayl, Zahiriddin Bayhaqiy, Ibn Rushd, Abu Usaybia, Jamoliddin Qiftiy kabi olimlar o'rganganlar.

Yuqoridagi olimlarning xulosalariga ko'ra, alloma har bir inson aql-zakovatli, yuksak axloqli, bilim-ma'rifatli bo'lishi lozimligini alohida qayd etadi. Uning asarlarida inson ma'naviy kamoloti uning tafakkuri rivojlanishi, sog'lom va jismonan baquvvat bo'lishiga bog'liqligi ta'kidlanadi. Forobiyning ma'naviy-axloqiy madaniyat haqidagi qarashlari uning nafaqat ma'naviy-axloqiy tarbiyasi, balki ilm olish, bilish jarayoni haqidagi fikrlarida o'z ifodasini topadi.

Qomusiy olimning qoldirgan ilmiy merosi sovet hokimiyyati davrida ham bir qator mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etildi. Taniqli forobiyshunos olim M.Xayrullayevning 1963-yilda "Forobiy" nomli tadqiqoti hamda xuddi shu yili "Forobiy va uning falsafiy risolalari" yaratildi. 1967-yilda esa "Forobiy ruhiy protsesslar va ta'lim-tarbiya to'g'risida pedagogika tarixidan". Keyinchalik 1991-yilda asar qayta ishlanib to'ldirilib nashr etildi<sup>5</sup>. U birinchilardan bo'lib Abu Nasr Forobiy falsafiy merosini tizimli

5 Хайруллаев М.М. Мировозрение Фараби и его значение в истории философии. – Т: Фан, 1967; Уйгониш даври ва шарқ мутафаккирлари. – Т: Ўзбекистон, 1971; Ўрта Осиёда Уйгониш даври маданияти. – Т: Фан, 1994.

va yaxlit holda tahlil qilgan. Forobiyshunos olim fikricha, Abu Nasr Forobiy ilm va uning asosidagi donolik, aqlni baxtga erishishning asosiy vositasi sifatida talqin etadi. 1961-yilda A.Irisovning Xorazmiy va Forobiy, 1975-yilda Irisovning Forobiy adib nomli monografiyasi nashr etildi. Shuningdek, R.Nosirov, M.Qodirov, H.Aliqulov, M.Boltayev, R.Bahodirov, M.Usmonov, A.Zoxidiy, M.Jakbarov, D.Fayzixodjayevalarning tadqiqotlarida Forobiy ilmiy merosining turli sohalari o'rganildi.

**Mustaqillik yillarida** quyidagi ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. 2011-yilda N.Qobilovning Abu Nasr Forobiy nomli ishi yaratildi. 1995-yilda A.Nazarovning "Forobiy va Ibn Sino musiqiy ritmika xususida mumtoz iyqo' nazariyasi asari" Toshkentda Sharqshunoslik institutida qadimgi Sharq faylasuflari asarlaridan jami 107 ta risolani, jumladan, Forobiyning 16 ta arabcha risolasini o'z ichiga olgan "Hakimlar risolalari to'plami" ("Majmuat rasoil al-hukamo", Qo'lyozmalar fondi, 2385-in.) bor. Bu noyob qo'lyozma Fotobiy asarlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. 1995-yilda A.Nazarov. Mumtoz iyqo' nazariyasi (Forobiy va Ibn Sinoning musiqiy ritmika ta'limoti). 1997-yilda B.Ne'matov Forobiy va ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot haqidagi ta'limotlar rivojidagi vorislik. 2000-yilda K.Nosirov IX-X asrlarda O'rta Osiyo mutafakkirlarining ahloqiy tarbiya haqidagi g'oyalari (Imom Buxoriy va Abu Nasr Forobiy asarlari misolida). 2002-yilda M.Turg'unov Abu Nasr Forobiyning davlat va uni boshqarish haqidagi qarashlari. 2010-yilda A.Muhiddinova Sharq uyg'onish davri mutafakkirlarining siyosiy-huquqiy ta'limotlari (Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sinoning siyosiy-huquqiy qarashlari asosida). 2018-yilda F.Yuldashev Abu Nasr Forobiyning aql va bilim evolyutsiyasi haqidagi qarashlari to'g'risidagi alloma hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan tadqiqotlar nashr etildi.

**Xorijda** Forobiy faoliyati Yevropa olimlaridan B.Shtren-skneyder, Karna de Vo, T.Buur, R.Xammond, R.de Erlanje,

F.Deteritsi, G.Farmer, N.Rishar, G.Ley, Sharq olimlaridan Nafisiy, Umar Farrux, Turker, M.Maxdi va boshqalar Forobiy merosini o'rganishga muayyan hissa qo'shdilar. Keyingi yillarda uning ijodi va ta'limotiga bag'ishlangan bir qancha tadqiqotlar, asarlar yuzaga keldi.

### **Abu Nasr Forobiy hayoti va faoliyati**

Jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga katta hissa qo'shgan Markaziy osiyolik mashhur faylasuf, qomusiy olimi Forobiy o'rta asrning bir qancha ilmiy yutuqlari, umuman Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida taraqqiyat parvar ijtimoiy-falsafiy tafakkur rivoji uning nomi bilan bog'liq. Forobiy o'z zamonasi ilmlarining barcha sohasini mukammal bilganligi va bu ilmlar rivojiga katta hissa qo'shganligi, yunon falsafasini sharhlab, dunyoga keng tanitganligi tufayli Sharq mamlakatlarida uning nomi ulug'lanib, "Al-Muallim as-soniy" – "Ikkinchi muallim" (Aristoteldan keyin), "Sharq Arastusi" deb yuritilgan. Forobiy allomaning taxallusi bo'lib uning to'liq ismi to'liq nomi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn O'zlug' Tarxondir. Forobiy turkiy qabilalardan bo'lgan harbiy xizmatchi oilasida, Sirdaryo qirg'og'idagi Forob – O'tror degan joyda tug'ilgan. U tug'ilgan hudud Somoniylar tomonidan boshqarilib, arab xalifaligining shimoliy chegarasi hisoblangan.

Ibn Nadim ham "Kitobul fexirist" nomli asarida va milodiy 1288-yillarda yashagan Shahruziy ham Forobiyning nasl-nasabi eronlik ekanini ta'kidlaydi. Bunga ilova Forobiy ko'plab ilmiy ishlarining hoshiyalarida forscha, sug'dcha va yunoncha tillarida ayrim manbalarni tanishtirgan. Ammo turkcha so'zi uning biron asarida ko'zga tashlanmaydi. Ayrim tarixchilarning yozishlaricha, asarlarining hoshiya va chetlarida sug'd tilida qilgan Forobiyning ishoralari uning ona tili va Forob aholisining tili sug'dcha ekanligidan dalolat beradi.

Forobiy boshlang'ich ma'lumotni ona yurtida oldi. So'ng Toshkent (Shosh), Buxoro, Samarcanda o'qidi. Keyinroq o'z ma'lumotini oshirish uchun arab xalifaligining madaniy markazi bo'lgan Bag'dodga keldi. Bag'dodda bu davrda musulmon dunyosining turli o'lkalaridan, xususan Markaziy Osiyodan kelgan ko'p ilm ahilari to'planishgan edi. U yerga bora turib Forobiy Eron shaharlari – Isfahon, Hamadon, Rayda va boshqa joylarda bo'ldi. Forobiy Bag'dodda Mutaddil (829-902), Muqtafiy (902-908), Muqtadir (908-932) xalifaliklari davrida yashadi. U bu yerda o'rta asr fani va tilining turli sohalari, yunon falsafiy maktablari bilan chuqur tanishib, o'zga diniy e'tiqod, falsafiy fikrdagi kishilar bilan ilmiy muloqotda bo'ldi. Abu Bashar Matta ibn Yunusdan (870-940) yunon tili va falsafasini, Yuhanna ibn Xiylon (860-920)dan tabobat va mantiq ilmini o'rgandi.

Taxminan 941-yildan boshlab Forobiy Damashqda yashay boshlagan va bog'da qorovullik bilan shug'ullangan. Shahar chekkasidagi bog'da qorovul bo'lib, kamtarona kun kechirib, ilm bilan shug'ullangan. So'nggi yillar u Halab (Aleppo) hokimi Sayfuddavla Hamdamid (943-967) iltifotiga sazovor bo'ldi. Tadqiqotchilar uning Halabdagi hayotini eng samarali davr hisoblaydilar. Chunki bu hokim hursikrligi, ilm-fanga e'tibor bergenligi bilan ajralib turgan. Forobiy 949-950 yillarda Misrda, so'ng Damashqda yashab, shu yerda vafot etgan va "Bob as-sag'ir" qabristoniga dafn qilingan deyiladi.

### **Abu Nasr Forobiyning bilish va aql evolyutsiyasi haqidagi qarashlari**

Hozirgi davrda jahon miqyosida insoniyat o'zining ratsional xattiharakati bilan ulkan moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratmoqda, bu boyliklarni davrning eng og'ir va mashaqqatli sinovlaridan eson-omon olib o'tmoqda. Bunda Forobiyning aql mohiyatini yoritib beruvchi asarlari siyosiyaxloqiy tarbiyada muhim

ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, buyuk mutafakkirning qoldirgan asarlarida ilgari surilgan nazariya va g'oyalarning dolzarbligi ayni kunda jamiyatning ma'naviy-axloqiy, ta'lim-tarbiya sohalarini yangilash va hozirgi zamon talablari darajasiga ko'tarish vazifalari bilan ham bog'liq desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Forobiy o'z asarlarida bilish nazariyasini dialektik nuqtayi nazardan talqin qilgan. Uning falsafasida "nazariy aql", "amaliy aql", "voqeい aql", "faol aql" kabi bilish jarayonining bosqichlari o'zaro bir-birini taqozo etgan holda yuksaklikka erishib boradi. Forobiy ta'limotiga ko'ra, insondagi aql borliqning turli-tuman ko'rinishlari in'ikosidir. Inson o'zidagi aql yordamida avval yerda sodir bo'layotgan voqeа-hodisalar, o'zgarishlarning sabablarini, so'ngra esa osmon jismlarining siru-asrorini biladi. Uningcha, inson o'zi va olam to'g'risida to'plagan bilimlari, ya'ni aql vositasida yaratgan ma'naviy boyliklari hech qachon yo'q bo'lib ketmaydi, balki "dunyoviylik"ni tashkil etadi. Inson aqli olam sirlarini bilishda eng yuksak cho'qqiga ko'tarilganda "kayhoniy aql", "kayhoniy ruh" bilan qo'shiladi, ya'ni ilohiylik kasb etadi. Forobiy ta'limotida aql konsepsiysi yetakchi o'rinni egallasa-da, uning fikricha, haqiqatga muhokama va aql orqali boriladi, ammo bu maqsadga erishish uchun faqat aqlning o'zi kifoya emas, buning uchun inson o'zining ichki olamini poklab borish kerak. Aql to'g'risidagi konsepsiya Forobiyning "Aql ma'nolari haqida", "Fuqarolik siyosati". "Savollarning mohiyati", "Fozil shahar odamlarining qarashlari haqida", "Aql (so'z)ning ahamiyati haqida", "Aql to'g'risida" nomli asarlarida mufassal tarzda ishlab chiqilgan<sup>6</sup>.

Akademik M.Xayrullayev ta'kidlaganidek, Forobiy barcha fikrlarida aqlga juda katta ahamiyat beradi, uni ko'r-ko'rona e'tiqod va aqidaparastlikdan butunlay forig' etishga intiladi. Uning falsafiy tizimiga aql-idrokka asoslangan tafsakkur singib ketgan. Garchi, u aql asoslarini birinchi sabab – Haq bilan bog'lab, din, shariat va falsafani

6 Юлдашев Ф.А. Абу Наэр Форобийнинг ақл ва библим эволюцияси ҳақидаги қарашлари. – Тошкент. 2018. – Б. 10.

o'zaro kelishtirishga intilgan va bunday qarashda mustahkam turgan, natijada uning falsafiy xulosalari din, shariat va ilm-fan talablariga muvofiq kelgan. Zero, muqaddas Qur'oni Karim aql va ilm masalasiga juda katta e'tibor berilgan bo'lib, uning o'zida 750 marta ilm so'zi uchraydi. Forobiyning aql va borliq birligi dialektikasiga bag'ishlangan qarashlariga avvalu-abad ilohiy aql g'oyasi singib ketgan. Forobiy muqaddas islom dinini falsafiy jihatdan asosladi, aql mavzusini ham aynan shunday mazmunda tushuntirdi.

Forobiy asarlarida "aql" tushunchasining falsafiy jihatdan tahlil qilinishi o'rta asr ijtimoiy-falsafiy fikrida aql masalasi qanday ma'noda tushunilganini tasniflashga asos bo'ladi. Forobiy "aql" tushunchasining olti xil ma'noda, bir-biriga bog'liq bo'lgan turli mazmunda qo'llanilishini ham ko'rsatib o'tgan. Forobiyning boshqa zamondoshlaridan ustunligi shundaki, u aql to'g'risidagi turli mazmundagi qarashlarni o'zaro zid qo'ymaydi. Balki ular bir-birini o'zaro to'ldiruvchi hamda boyitib boruvchi sifatida ko'radi. Buni Forobiyning "Aql so'zi ma'nolari haqida risola" sida yaqqol ko'rish mumkin. Forobiy "Fusus-ul hikam" asarida haqiqatga yo'l muhokama va aql orqali boradi, ammo ungacha, bu maqsadga erishish uchun faqat aqlning o'zi kifoya emas, buning uchun ichki olamni poklab borish kerak, deydi. Shu munosabat bilan Forobiy intuitsiya, uning narsa va hodisalarни bilishdagi ahamiyati haqidagi nazariyani yaratadi.

### Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Forobiyning dunyo ilm-fani xazinasiga qo'shgan ulkan hissasi haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Mustaqillik yillarida Forobiy ilmiy merosining o'rganilishi haqida fikr yuriting.
3. Forobiy ilmiy merosi dunyoning qaysi olimlari tomonidan o'rganilgan?
4. Forobiy ilmiy merosida bilim va aql to'g'risida qanday fikrlar bildirib o'tiladi?

## **Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. Жумабоев Й. Ўзбекистонда фалсафа ва ахлоқий фикрлар таракқиёти тарихидан, – Т., 1997.
2. Мўминов И. Ўзбекистондаги табиий-илмий ва ижтимоий-фалсафий тафаккур тарихидан лавҳалар. – Т., 1999.
3. Хайруллаев М. Форобий ва унинг фалсафий рисолалари, – Т., 1963.
4. Хайруллаев М. Ўрта Осиёда илк уйғониш даври маданияти, Т., 1994.
5. Хайруллаев М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккири, – Т., 1971.
6. Юлдашев Ф. Абу Наср Форобийнинг ақл ва билим эволюцияси ҳақидаги қарашлари. – Т. 2018.

## **MAVZU: ABU NASR FOROBIY ILMIY ASARLARI VA TABIIY ILMIY QARASHLARI**

### **Reja:**

1. Abu Nasr Forobiy ilmiy asarlari haqida.
  2. Abu Nasr Forobiyning davlat, huquq va hokimiyat, jamiyat va uni boshqarish haqidagi qarashlari.
  3. Abu Nasr Forobiyning “Shoirlar san’ati qoidalari haqida” risolasida shoirlar tasnifi.
  4. Abu Nasr Forobiyning musiqa ilmi rivojiga qo’shgan hissasi.
- Tayanch so‘z va iboralar:** falsafa, risola, falsafiy qarashlar, jamoatchilik, uyg‘onish davri, musiqa ilmi, jamiyat, notiqlik, fuqaro, tabiiy ilmlar, mantiq.

### **Abu Nasr Forobiy ilmiy asarlari haqida**

Movarounnahr zaminini IX-XII asrlarga kelib ilm-fanning yirik markazlaridan biriga aylandi. Bu yerda fanning barcha sohalarida yetuk olimlar yetishib chiqdi. Darhaqiqat, o’rta asrlarda

Movarounnahr zамини дунё санларининг барча билимдонларини о'зіда жам қылди. Сан сохаларининг хар бирда улкан ўтуqlarga erishildi.

Forobiy ilmiy меросини о'ргangan олимлар унинг асарларини иккі гуруга ажратган holda тahlil etадilar: 1) yunon faylasuflari, tabiatshunoslarining ilmiy меросини izohlash, targ'ib qilish va o'rganishga bag'ishlangan асарлар; 2) fanning turli сохаларiga oid mavzulardagi асарлар. Forobiy qadimgi yunon mutafakkirlari - Platon, Aristotel, Evklid, Ptolemey, Porfiriylarning асарларига sharhlар yozgan. Ayniqsa, Aristotel асарлари ("Metafizika", "Etika", "Ritorika", "Sofistika")ni izohlab, qiyin joylarini tushuntirib bera olgan, kamchiliklarini ko'rsatgan, ayni vaqtда bu асарлarning umumiy mazmunini ochib beruvchi maxsus асарлар yaratgan. Forobiy sharhlari O'rta va Yaqin Sharq ilg'or mutafakkirlarining dunyoqarashini shakllantirishda, ularni Aristotel g'oyalari ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Abu Ali ibn Sino Forobiy sharhlari ("Metafizika" – "Moba'diy tabiat")ni o'qib, Aristotel асарларини tushunganligini alohida ta'kidlaydi. Forobiyning sharh yozish faoliyati faqat Sharqnigina emas, o'rta asr Yevropasini ham yunon ilmi bilan tanishtirishda katta rol o'ynadi. Bu faoliyat унинг ilmiy faoliyati taraqqiyotining birinchi bosqichini tashkil etadi. Mazmunan Abu Nasr Forobiy асарлари quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1) falsafaning umumiy masalalariga, ya'ni bilimning umumiy xususiyatlari, qonuniyatları va turli kategoriylariga bag'ishlangan асарлар: "Substansiya haqida so'z" ("Kalom fi-l javhar"), "Masalalar manbai" ("Uyunul masoil"), "Qonunlar haqida kitob" ("Kitob fi-l navomis"), "Falak harakatining doimiyligi haqida" ( "Kitob fi-l harakat al-falaka doimatun") va b.;

2) inson bilish faoliyatining falsafiy томонларига bag'ishlangan, ya'ni bilishning shakllari, bosqichlari, usullari haqidagi асарлар. Mantiq (logika)ning turli muammolariga doir асарлари ham shunga kiradi: "Kattalarning aqli haqida so'z" ("Kalom fi-l aql al-Kabir"),

“Yoshlarning aqli haqida kitob” (“Kitob fil-aql as-sag‘ir”), “Mantiq haqida katta qisqartma kitob” (“Kitob al-muxtasar al-kabir fi-l mantiq”), “Mantiqqa kirish kitobi” (“Kitob al-madxal ila-l mantiq”), “Isbot kitobi” (“Kitob al-burxon”), “Sillogizm shartlari kitobi” (“Kitob sharoit al-qiyos”), “Jon (ruh)ning mohiyati haqida risola” (“Risola fi mohiyat an-nafs”).

3) falsafa va tabiiy fanlarning fan sifatidagi mazmuni, tematikasi haqidagi asarlar: “Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi” (“Kitob fi ixso al-ulum va at-ta’rif”, qisqacha nomi “Ixso al-ulum”), “Falsafa tushunchasining ma’nosи haqida so‘z” (“Kalom fi ma’oni ism al-falsafa”), “Falsafani o‘rganishdan oldin nimani bilish kerakligi haqida kitob” (“Kitob fi ashyo allati yaxto-ju antallama kabl al-falsafa”). “Falsafaga izohlar”. (“Taoliq fi-l hikmat”) va b.;

4) moddaning miqdori, fazoviy va hajmiy munosabatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan, ya’ni matematika fanlari – arifmetika, geometriya, astronomiya va muzikaga oid asarlar: “Hajm va miqsor haqida so‘z” (“Kalom fi-l xiyz va-l miqsor”), “Fazo geometriyasiga kirish haqidagi qisqartma kitob” (“Kitob al-madxal ila-l handasat al-vaxmiyati muxtasarsan”), “Astrologiya qoidalari haqida mulohazalarни to‘g‘rilash usuli haqida maqola” (“Maqola fi-l ji-hat allayati yassexxu alayho al qavl bi ahkom an-nujum”), “Muzika haqida katta kitob” (“Kitob ul-musiqa al-kabir”), “Muzika haqida so‘z” (“Kalom fi-l musiqiy”), “Ritmlar turkumlari haqida kitob” (“Kitob ul fi ixso-il-iqo”) va b.;

5) modda xossalari va turlarini, noorganik tabiatning, hayvonlar va inson organizmining xususiyatlarini o‘rganuvchi, ya’ni tabiiy fanlar – fizika, kimyo, optika, meditsina, biologiyaga bag‘ishlangan asarlar: “Fizika usullari haqida kitob” (“Kitob fi usul ilm at-tabiat”), “Alkimyo ilmining zarurligi va uni inkor etuvchilarga raddiya haqida maqola” (“Maqola fi vujub sanoat al-kimyo va-r radd ala mubtiluho”), “Inson a’zolari haqida risola” (“Risola fi a’zo al-insoniya”), “Hayvon a’zolari to‘g‘risida so‘z” (“Kalom fi a’zo al-hayvon”).

6) tilshunoslik, she'riyat, notiqlik san'ati, hattotlikka oid asarlar: "She'r va qofiyalar haqida so'z" ("Kalom fi she'r va-l qavofi"), "Ritorika haqida kitob" ("Kitob fi-l xitoba"), "Lug'atlar haqida kitob" ("Kitob fi-l lug'at"), "Hattotlik haqida kitob" ("Kitob fi san'at al-kitobat").

7) ijtimoiy-siyosiy hayot, davlatni boshqarish masalalariga, axloq, tarbiyaga bag'ishlangan, ya'ni huquqshunoslik, etika, pedagogikaga doir asarlar: "Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola" ("Risola fi-t tanbih ala asbob as-saodat"), "Shaharni boshqarish" ("As-siyosat an-madaniya"), "Urush va tinch turmush haqida kitob" ("Kitob fi maoyish va-l xurub"), "Fazilatli xulqlar" ("As-siyrat al-fazila") va b.

Forobiyning ilmiy merosi, umuman, o'rtalashtirish Sharqining madaniy-ma'naviy hayotidan, tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-siyosiy masalalaridan juda boy ma'lumot beradi. Mutafakkir o'z asarlarini o'sha davrda Sharq mamlakatlarda ilmiy-adabiy til hisoblangan arab tilida yozadi. Forobiy, shuningdek, arab va fors tillarida falsafiy mazmundagi she'rlar ham yozgan.

Abu Nasr Forobiy faoliyatida ilmlar tasnifini ikki qismiga ajratadi:

1. amaliy (kasb-hunar)
2. nazariy (fan) ga

Allomaning fikricha ilmlarning manbai – vujuddir. Falsafa borliq mohiyatini ochib beruvchi fandir. Ilmlarning tasnifi masalasi uning ikki asarida muhokama etilgan. Forobiyning ilmlar tasnifi o'rtalarda yaratilgan birinchi eng mukammal tasnif sifatida baholanadi. Ilmlar tasnifi uning "Ilmlarning kelib chiqishi haqida" va "Ixso al ulum" ("Ilmlarning tasnifi haqida") risolasida keltirib o'tilgan.

"Ilmlarning tasnifi haqida" risolasida barcha fanlar 5 guruhga ajratiladi: 1) til haqidagi ilm (7 bo'lim – grammatika, orfografiya, she'riyat); 2) mantiq va uning bo'laklari; 3) matematika – u yetti

mustaqil fan (arifmetika, geometriya, optika, astronomiya, muzika, og'irliklar haqidagi ilm, mexanika); 4) tabiatshunoslik va metafizika (8 bo'lim – bashorat qilish, tibbiyot, alkimyo); 5) shahar haqidagi fanlar – siyosiy ilm, fiqh, kalom (etika, pedagogika).

Ayrim manbalarda Forobiy mantiq ilmidagi xizmatlari uchun "Mantiqiy" deb atalgan. Allomaning mantiq masalalariga asosiy e'tibor berishining sababi ilmiy bilish usuli mavjudligini anglab yetgan edi. Forobiy mantiq ilmini sakkiz qismga ajratdi: 1. Oddiy iboralar; 2. Murakkab iboralar; 3. Xulosa chiqarish-sillogizm; 4. Dalillash; 5. Bahslashish; 6. Sofistik (yolg'onne haqiqat qilib ko'rsatish); 7. Notiqlik; 8. She'riyat.

### **Abu Nasr Forobiyning davlat, huquq va hokimiyat, jamiyat va uni boshqarish haqidagi qarashlari**

Abu Nasr Forobiyning siyosiy-huquqiy ta'limotida qonunchilikni takomillashtirish konsepsiyasini o'rganishda, jamiyatning paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishining sabablari borasidagi Forobiyning fikrlarini o'rganish ahamiyatlidir. Abu Nasr Forobiyning fikricha, inson o'z tabiatiga ko'ra ijtimoiydir va faqat o'zaro bog'liqlikda, jamoa bo'lib yashay oladi. Chunki har qanday inson o'zining oddiy kundalik ehtiyojlarini qondirish uchun u boshqalarning yordamiga zarurat sezadi, boshqalar ham xuddi shu kabi o'zaro munosabatlar o'matishlariga to'g'ri keladi. Shunday qilib, hayotiy ehtiyoj insonda jamoatchilik hissini paydo qiladi va o'zaro muloqotni keltirib chiqaradi.

Abu Nasr Forobiy jamiyat paydo bo'lishi haqida o'z konsepsiyasini ilgari so'radi. Odamlarning o'zaro birlashishlari sabablari sifatida quyidagi eng muhim shart-sharoitlarni e'tirof etadi: avvalo, insonlar, bir-birining yordamiga muhtojdirlar, shu nuqtayi nazardan ularning ijtimoiy vaziyat va holatlari bir xildir; ikkinchidan, bir jamiyatga birlashgan odamlarning har bir inson ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan faoliyati ham

ijtimoiy, ham individual mukammallikni qo‘lga kiritishga xizmat qiladi. Shu bois ham kishilik jamiyatining paydo bo‘lishi, Abu Nasr Forobiy fikriga ko‘ra, ezgu maqsadlarga asoslangandir. Masalaning shu tariqa anglanishi fozil shahar (davlat)lar paydo bo‘lishi zaruratining muhim ijtimoiy-falsafiy asosidir, zero bunday shahar (davlat)lar Abu Nasr Forobiy tomonidan kishilik birlashmalarining eng oliv shakli deb e’tirof qilinadi. Abu Nasr Forobiyning jamiyat haqidagi ta’limotining o‘ziga xosligi, qolaversa, yangiligi shu ediki, u jamiyat paydo bo‘lishini, uning shakllanishi va rivojlanishi muammolarini odamlarning tabiiy, ijtimoiy-moddiy ehtiyojlari asosida tushuntirishga, anglab yetishga harakat qilgan.

Abu Nasr Farobiy “Fozil odamlar shahri” asarida davlatning kelib chiqishini odamlarning o‘z ehtiyojlarini qondirishga bo‘lgan istagi bilan bog‘laydi. Davlatni yaxshi fazilatli, ma’rifatli hukmdor boshqarishi lozim. Davlatning zo‘rovonlik va beboshlikka qurilishi qoralanadi. O‘rtalarda Abu Nasr Forobiy birinchilardan bo‘lib, jamiyat va ijtimoiy-siyosiy hayot tarkibini jiddiy o‘rganish masalasini qo‘ydi. Ijtimoiy hayotni o‘rganish sohasida Abu Nasr Forobiy bir qator masalalarni belgilab berdi. Bevosita siyosatga oid “Fozil shahar aholisining qarashlari haqida risola”, “Fuqarolik siyosati”, “Baxtga erishuv haqida”, “Davlat arbobining aforizmlari”, “Namunali shahar” asarlari bor. U ideal jamiyat tuzilishini, ya’ni fazilatli shahar aholisini besh qismga bo‘ladi:

- a) Faylasuflar – (fozil kishilar - munosibroq odamlar);
- b) notiqlar (shirinsuxan kishilar, mashshoq, shoir, yozuvchi, din);
- v) o‘lchovchi (mutaxassislar: hisobchi, hakam, muhandis);
- g) qo‘riqchilar (jangchilar, posbon, huquq targ‘ibotchilar);
- d) boylar (xo‘jalik ishlari bilan shug‘ullanuvchilar, chorvadorlar, savdogarlar).

Davlat boshlig‘i va davlat xizmatchilari boshqaruv san’atini yaxshi bilishlari kerak. Shunday boshqaruv kishilarni baxtga, tinchlikka olib boradi. Abu Nasr Forobiy davlat shakli masalasiga ham to‘xtaladi. Taxt otadan bolaga meros bo‘lib o‘tishini qoralaydi. Davlat boshlig‘i o‘z lavozimiga mansub bo‘lgan shaxs bo‘lishini yoqlaydi. Uning fikricha, davlat boshlig‘i har tomonlama yetuk bo‘lishi kerak. Abu Nasr Forobiy ana shu hukmdor to‘g‘risida gapirar ekan, uning oldiga 12 talabni qo‘yadi. Bular: 1) to‘rt muchali sog‘lom; 2) nozik farosatli; 3) xotirali; 4) zehni o‘tkir, zukko; 5) fikri tiniq, so‘zlari chiroyli; 6) ma’rifatli; 7) tamoq, ichimlik, ayollarga nisbatan ochofat bo‘lmashligi; 8) haqiqatgo‘y; 9) nomusli, oriyatli, oliyhimmat bo‘lishi; 10) boylikka qiziqmaydigan; 11) adolatparvar; 12) botir, ya’ni qo‘rqoqlik va hadiks rashdan xoli bo‘lishi darkor.

Abu Nasr Forobiy mana shu barcha xislatlarning bir odamda bo‘lishi qiyin, bunday tug‘ma qobiliyat kamdan kam odamlarda uchraydi va ular nodir insonlardir. Barkamol inson topilmay qolsa, unda yuqoridagi fazilatlardan 6 yoki 5 tasi kamol topgan inson ham aql va zakovatda benazirligi tufayli fozillar shahriga rahbarlik qila oladi, deydi. Fozillar shahrida bunday odam yo‘q bo‘lganda ana shu imom yoki uning izdoshlari chiqargan qonun va tartiblarga amal qilinadi. Avvalgi imom o‘rnigakelgan keyingi rahbarda ham yuqorida aytilgan xislatlar yoshlikdan shakllangan bo‘lishi lozim. Keyingi imomda yana 6 ta fazilat hosil qilinishi zarur: 1) donishmandlik; 2) kuchli xotira; 3) yangi qonunlarni ixtiro qilish; 4) vaziyatni tez ilg‘ab oladigan; 5) notiqlik; 6) harbiy ishlarga mohirlik, rahbarlik qilish. Shu xislatlarga ega bo‘lgan shaxs topilmasa, 2 kishi birlashib fozil shaharga rahbarlik qilishi lozim, deydi. Ya’ni shu xislatlar ikki kishida jamlangan bo‘lsa, biri donishmand, ikkinchisi qolgan hislatlar sohibi bo‘lsa, shu ikkovini fozillar shahriga rahbarlikka qo‘yish kerak, deb aytadi.

## **Abu Nasr Forobiyning “Shoirlar san’ati qoidalari haqida” risolasida shoirlar tasnisi**

Muhammad Forobiyo‘zining – “Shoirlarsan’ati qoidalari haqida” risolasi Arastu “Poetika”siga sharh ekanligini aytadi. Forobiyning ilk mulohazalaridan ko‘rinadiki, u Arastu “Poetika”sining faqat bir qismini, boshqa o‘rinlarda esa uning “Sofistlarga raddiya va “Sinoat al-mug‘olatayn” (“Sofistlarning sirlari”) asarlaridagi she’riyatga doir ayrim o‘rinlarni sharhlaydi. Muhammad Forobiy fikricha, she’riyatda hayotning tasviri, aks – o‘xshashliklarda ham mubolag‘a, tashbeh, favqulodda o‘xshatish (loflar) bo‘lsa ham (“boshi osmonga yetdi”, “to‘qson qo‘yning terisidan kovushi”, “suqaroga shoh erur ajdaho” – Firdavsiyda va Navoiyda) – sofistika deyilmaydi: “Lekin, bundan hech kim mug‘olata-sofistika bilan aks-taqlid ikkovini bir so‘z deb o‘ylamasin. Bular ikkovi ba’zi sabablarga ko‘ra bir-biridan butunlay farq qiladi”. “Sufastoiy (sofist) eshituvchini (suhbatdoshini) g‘alatga undab (yanglishtirib), haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan, nuqsonli narsalarni ko‘z oldiga keltirib qo‘yadi. U hatto mavjud narsani nomavjud deb, nomavjud narsalarni esa, mavjud deb tasavvur qildiradi.

Ammo (shoir, adib) taqlidchi (aks ettiruvchi) bo‘lsa, *narsa suvratining teskarisini emas, balki uning o‘xshashini tasavvur qildiradi*. Forobiyning in’ikos nazariyasiga doir bu fikri juda muhim bo‘lib, u Arastu poetikasining mag‘zi, asosi – mimesis (tasvir, aks ettirish ma’nosidagi) taqlid, hayotga o‘xshatish bilan, hatto san’at, adabiyotning asosiy yo‘li – hayotni (hayotdagi o‘xshash qiyofalarni, obrazlarni, xarakterlarni) haqqoniy aks ettirish – realizm bilan bog‘liqdir.

Poetik ijodning hayotiyligi haqida Forobiy bunday deydi: “Ammo komediyaga kelsak, bu she’riyatning ma’lum bir turi bo‘lib, uning ham ma’lum vazni bo‘ladi, unda yomon fe’l-atvorlar zikr qilinadi. Odamlar, ularning axloqlarida qoralanadigan, xush ko‘rilmagan tabiatlar (xarakterlar) hajv qilinadi”. Yuqorida

ko'rib chiqqanimiz, "Satirikon" asaridan bir parchada jamiyat mulkini tekin yeb tugatuvchi, mol – dunyoga, anvoyi taomlarga ochofat, nullari, boyliklari mehnatsiz topilgani bilan maqtanuvchi Trimalkion kabi mulkdorlar va ularning hamtovoqlari hajv qilingan. Muhammad Forobiyning yunon she'riyati navlari haqidagi ba'zi sikrlari taxminiy, ba'zilari noaniq ekanligini ko'ramiz. "Difiramba – she'riyatning bir turi bo'lib, uning vazni tragediya vaznidan ikki barobar katta bo'ladi. Unda yaxshilik va maqtaladigan barcha xulq-atvorlar, insoniy fazilatlar zikr etiladi. Difirambada ma'lum bir podshoh yoki kishini madh etish maqsad qilib olinmaydi, balki ulardag'i umumi yaxshiliklar zikr qilinadi.

### **Abu Nasr Forobiyning musiqa ilmi rivojiga qo'shgan hissasi**

Tarixdan yaxshi ma'lumki, o'zbek xalqi madaniyatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida musiqaning rivojlanishi uzoq o'tmishimizga borib taqaladi. Musiqa san'atiga oid bevosita va bilvosita ma'lumotlar bir qancha manbalarda uchraydi. Ilm-fan yuksak taraqqiy etgan ushbu davr mobaynida musiqa ijrochiligi, ijodiyoti va musiqa ilmi jadal rivojlanib, mahalliy aholi orasidan mazkur sohaning yetuk namoyandalari yetishib chiqdi. Ushbu davr mumtoz musiqiy meros va bastakorlik asarlarini to'la-to'kis idrok etish, atroficha tahlil qilish uchun muayyan tayyorgarlik ta'lim tizimida izchil o'zlashtirish taqozo etilgan. Olimlar tomonidan musiqaning inson hayotidagi o'rni, uning ruhiyatiga ta'siri, musiqa ilmining tarixiy, nazariy, estetik badiyati qonuniyatları ishlab chiqildi. Shuni ham alohida qayd etish kerakki, musiqa dastlab Forobiy va Ibn Sino asarlarida murakkab fan sifatida qaralib, riyoziy fanlar tarkibida ta'riflangan. Shu davrga kelib, musiqaning falsafiy, nazariy, tarixiy va amaliy muammolarining tadqiq etilishini O'rta Osiyo olimlari o'zlarining maxsus musiqiy risolalarida boshlab berishgan.

Jumladan, uning musiqa san'ati va musiqashunoslik yuksalishiga qo'shgan hissasi bebaho. Manbalarda ko'rsatilishicha,

u zabardast bastakor hamda ud, tanbur va pay asboblarining mohir ijrochisi bo‘lgan. Forobiy o‘tkir didi va ajoyib musiqaviy qobilyati tufayli O‘rta va Yaqin Sharqda yashovchi turli xalqlarning musiqa madaniyati bilan yaqindan tanish bo‘lgan. Uning musiqaviy qarashlarining shakllanishida, ayniqsa, O‘rta Osiyo va Eron xalqlarining musiqa merosi katta ta’sir ko‘rsatgan. Bu xalqlarning musiqa merosini ilmiy va amaliy tomonlarini chuqur o‘zlashtirganligi Forobiyning asarlaridan yaqqol ma’lum bo‘ldi. Forobiy musiqa ilmi va amaliyotida bab-baravar dong taratgan. Uning ijrochilik va bastakorlik ijodi shu qadar yuksak cho‘qqilarga erishganki, hatto bu to‘g‘rida xalq orasida ko‘plab afsonalar yuzaga kelgan. U musiqaga oid nazariy asarlar yozish bilan bir qatorda, o‘zi ham mohir sozanda, bastakor va ba’zi musiqa asboblarining ixtirochisi sifatida ham ma’lum.

Manbalarda Forobiyning musiqa ilmiga oid “Ilmlar klassifikatsiyasi” (“Ixso al-ulum”), “Musiqa haqida katta kitob” (“Kitob al musiqi al-kabir”), “Musiqaga kirish” (“Madxal fi-l-musiqi”) va boshqa ko‘plab asarlari tilga olinadi. Ularning ayrimlari qo‘lyozma sifatida dunyoning turli kutubxonalarida saqlanadi. Zamonaviy ilmga Forobiyning asosan ikkita musiqiy asari keng joriy qilingan. Ular “Ilmlar klassifikatsiya”si asarining musiqaga bag‘ishlangan bo‘limi va “Musiqa haqida katta kitob”dir. Musiqa ilmi masalalarining atroflicha va chuqur yoritilishi jihatdan o‘z davrida tengsiz bo‘lgan “Musiqa haqida katta kitob” jahon musiqa fanining shoh asarlaridandir. Forobiy bu asarida oldinlari boshqa fanlarning tarkibiy qismi bo‘lgan musiqani mustaqil ilm darajasiga ko‘targan. “Musiqa haqida katta kitob”ning dunyoning turli kutubxonalarida saqlanadigan bir necha nusxalari ma’lum. Forobiy tavalludining 1100 yilligi munosabati bilan arab olimlari Zakariyo Yusuf hamda Mahmud Xafniy tomonidan mavjud qo‘lyozmalar asosida kitobning mukammal matni tayyorlanib nashr qilindi. Bu kitob musiqa olamida ko‘p asrlar davomida mashhur. O‘rta va

Yaqin Sharq musiqa fanida ushbu asar eng nodir va qimmatbaho asarlardan biri bo‘lib xizmat qilib kelgan. Sharq musiqa ilmida Forobiy ijodi bilan aloqador bo‘lmagan biron-bir ko‘zga ko‘ringan olimni topish qiyin. “Musiqa haqida katta kitob” XII asrda lotin tiliga tarjima qilindi. Mazkur asar shu davrdan boshlab Yevropa musiqashunoslari diqqat markazida bo‘lib kelgan. XIX asrga kelib “Musiqa haqida katta kitob” bir qancha zamonaviy tillarga ham tarjima qilindi. 1840-yilda nemis sharqshunoslari kitobning cholg‘u asboblariga oid qismini lotin tiliga tarjima qildi.

XX asrning 30-yillarida “Musiqa haqida katta kitob” baron Rudolf D.Erlanje tomonidan fransuz tiliga to‘liq tarjima qilinib, “Arab musiqasi” to‘plamida chop etilgan. Ushbu tarjima orqali Forobiy merosi Yevropaga keng joriy qilingan. “Musiqa haqida katta kitob”ning turli boblari fors va turk tillarida ham nashr etilgan. Asar muqaddimasida Forobiyning ta’kidlashicha, “Musiqa haqida katta kitob” ikki qismdan iborat bo‘lgan. Birinchisida - ushbu ilmning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan bo‘lsa, ikkinchisi o‘tmish olimlarining musiqa ilmidagi “xatolarga” izohlar berishga qaratilgan. Musiqashunos olimlarning ma’luotiga ko‘ra “Musiqa haqida katta kitob”ning hozirgacha saqlangan nusxasining o‘zi ham ikki qismdan iborat. Birinchisi “Musiqa sanatiga kirish”, ikkinchisi “Asosiy qism” deb nomlanadi. Forobiy zamonida nazariya bilan amaliyotni bog‘lovchi eng muhim vosita cholg‘u asboblari hisoblangan. Musiqa asboblarini o‘rganish, parda tuzilishini aniqlash, nazariy fikrlarni dalillashga yordam bergen. Haqiqatdan ham, cholg‘u asboblarining tovush qatorlari uzoq tajriba asosida yuzaga keladi. Cholg‘u asboblarini o‘rganish esa nazariy fikrlarni dalillashga yordam beradi. Sozlar vositasida Forobiy, hattoki, musiqa tarixining katta davrlarini ifodalaydi. Forobiy tovush qatorlar taraqqiyotini ikki davrga ajratadi – johiliya va yangi davr. Bu ikki davrning tovushlari tizimi Bag‘dod va Xuroson tanburlarida o‘z aksini topadi. “Musiqa haqida katta

kitob”ning ikkinchi qismi to‘liq Forobiy yashagan davr musiqa cholg‘ulariga bag‘ishlanadi. Mazkur qismda u har bir cholg‘u asbobining yaratilishi uning inson ruhiyatiga ta’siri haqida batafsil ma’lumot beradi. Bundan shuni ko‘rish mumkinki, Forobiy o‘z zamonasining cholg‘u asboblarini mukammal va atroficha o‘rgangan. Forobiy musiqa asbobidan taralayotgan kuyning inson hissiga ta’sirini aniq hisoblar bilan ko‘rsatib berishga harakat qilgan.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar:**

1. Forobiy ilmiy merosida ilmlar tasnifining o‘ziga xos tomonlari haqida fikr bildiring.
2. Forobiyning davlat, jamiyat haqidagi fikrlari qarashlari haqida esse yarating.
3. Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asari mazmun-mohiyati haqida so‘zlab bering.
4. Forobiyning gumanitar fanlar rivojiga qo‘shtgan hissasi haqida nimalarni bilib oldingiz?

### **Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. Жумабоев Й. Ўзбекистонда фалсафа ва ахлоқий фикрлар тараккиёти тарихидан, – Т., 1997.
2. Мўминов И. Ўзбекистондаги табиий-илмий ва ижтимоий-фалсафий тафаккур тарихидан лавҳалар. – Т., 1999.
3. Хайруллаев М. Абу Наср Форобий, – Т., 1966.
4. Хайруллаев М. Фараби. Эпоха и учение, – Т., 1975.
5. Хайруллаев М. Форобий ва унинг фалсафий рисолалари, – Т., 1963.
6. Хайруллаев М. Ўрта Осиёда илк уйғониш даври маданияти, – Т., 1994.
7. Хайруллаев М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккири, Т., 1971.

8. Юлдашев Ф. Абу Наср Форобийнинг ақл ва билим эволюцияси ҳақидаги қарашлари. – Т., 2018.

9. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1993й.

## MAVZU: SHARQ ALLOMALARI ILMIY MEROSIDA ILMLAR TASNIFI

**Reja:**

1. Dastlabki ilmlar tasnifining shakllanishi.
2. Sharqda dastlabki ilmlar tasnifining yuzaga kelishi.
3. Sharqda ilmlar tasnifini yaratgan allomalar.

**Tayanch so‘z va iboralar:** tasnif, Arastu, nazariya, sun’iy tasnif, Topika, Forobiy, Ibn Sino, falakiyot, tabobat, Mark Varron, dialektika, musiqa, arab fanları, mexanik fanlar.

### **Dastlabki ilmlar tasnifining shakllanishi**

Fanlar tasnifi murakkab va ziddiyatli jihatlardan biri bo‘lib, mazkur masalada hozirga qadar olimlar o‘rtasida turli-tuman fikrlar va qarashlar mavjud. Ma’lumki, tasnif arabcha so‘zdan olingan bo‘lib – saralash, tartibga solish, klassifikatsiya ilmiy faoliyatning biror sohasiga oid o‘zaro bir xil tushunchalar tizimidan iboratdir. Tasnif har bir fanga xos muhim mantiqiy amal bo‘lib, uning vositasida shu fan doirasida to‘plangan bilimlar qat’iy tartibga solinadi. Fanni o‘rganishda bunday Tasnif qulaylik tug‘diradi. Tasnifda bo‘linuvchi va bo‘luvchi tushunchalar o‘zining qat’iy o‘rniga ega hisoblaanib kelingan. Tasnif natijasida fanda muhim ahamiyat kasb etuvchi jadvallar, chizmalar, grafiklar, kodekslar vujudga keladi. Tabiiy va sun’iy tasniflar bir-biridan farq qiladi. Tabiiy tasnif obyektlarning muhim belgilariga asoslanadi (masalan, kimyoviy elementlarning davriy sistemasi). Sun’iy tasnif asosida obyektlarning nomuhim belgilari yotadi va turli-tuman predmetlarni tartibga solish uchun

bo‘lman” quyidagi ilmlar kiritilgan: ular – uch bobdan iborat falsafa, to‘qqiz bobdan iborat mantiq, sakkiz bobdan iborat tib, besh bobdan iborat arifmetika, to‘rt bobdan iborat xandasa, shuningdek, to‘rt bobdan iborat ilm an-nujum, uch bobdan iborat musiqa, ikki bobdan iborat mexanika va uch bobdan iborat kimyodir.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar:**

1. Ilmlar rivoji va tasnifi haqida fikr yuriting.
2. Arastuning ilmlar tasnifi mazmuni haqida so‘zlab bering.
3. Musulmon sharqida ilmlar tasnifi bilan shug‘ullangan allomalar faoliyati haqida esse yarating.
4. Forobiy ilmiy merosida ilmlar tasnifi qanday edi?

### **Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. Баҳодиров Р. Абу Абдуллоҳ Хоразмий ва илмлар таснифи тарихидан // Масул мұхаррир М.Хайруллаев. – Т.: Ўзбекистон, 1995. –144 б.
2. Абдуҳалимов Б. “Байт ул-ҳикма” ва Ўрта Осиё олимларининг Бағдоддаги илмий фаолияти (IX - XII асрларда аниқ ва табиий фанлар). – Тошкент: Тошкент Ислом университети. нашриёт-матбаа бирлашмаси. 2004.

## MAVZU: ABU RAYXON BERUNIY ILMIY MEROSINING O'RGANILISHI

### Reja:

1. Abu Rayxon Beruniyning hayoti haqida.
2. Tarixiy manbalarda Beruniy haqida ma'lumotlar tavsifi.
3. Abu Rayxon Beruniy ilmiy merosining o'r ganilishi.

**Tayanch so'z va iboralar:** Kat, Abu Nasr Iroq, "Beruniy" to'plami, ilmlar tasnifi, globus, Abu Sahl Masihiy, V.Bartold, E.Zaxau, A.Qayumov.

### Abu Rayxon Beruniyning hayoti haqida

Abu Rayxon Beruniy 973-yil 4-sentabrda qadimgi Xorazmning Kat shahrida (hozirgi Beruniy shahri) tug'ilgan. U o'z ijodi bilan Xorazm fanini yuksak cho'qqiga olib chiqdi. Uning siymosida o'rta asrlar Sharqining qomus ul-ilimi, astronomi, geografi, ma'danshunosi, etnografi, tarixchisi, shoiri mujassamlashgan. Beruniy qalamidan fanning turli sohalariga oid juda ko'p yirik asarlar chiqqan bo'lib, bu asarlarida uning ana shu sohalarni nihoyatda yaxshi bilgan tadqiqotchi, fanda yangidan yangi yo'llar ochgan donishmand bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Beruniy yoshligidan ilmga tashna bo'lgan bu haqda "Men bolalik chog'imdanoq – deb yozgan edi. Beruniy – o'z yoshim va sharoitimga qarab, imkoniboricha ko'proq bilim olishga intildim. Buning dalili sifatida quyidagini keltirish kifoya: - biz turadigan joyga bir yunon ko'chib kelgan edi. Men har xil donlar, urug'lar, mevalar va hakozalarni olib borib, unga ko'rsatib va bu narsalar uning tilida qanday atalishini so'rab, nomini yozib qo'yar edim".

Beruniyshunos olim P.Bulgakovning ma'lumotiga qaraganda, Beruniy Abu Nasr Iroq rahbarligida yoshligidan riyoziyot va falakiyotni o'r ganib, 16-17 yoshlaridayoq Quyoshning choshgohdag'i balandligini armila bilan o'chagan. Oradan 30 yil o'tgach, Beruniy

yoshligida o'zi o'lchab olgan natijalarni tahlil qilar ekan, ular anchagina ishonchli bo'lganligini ta'kidlaydi. Yoshlik yillarida u quyosh tutilishini kuzatish bilan shug'ullanadi. 22 yoshida Markaziy Osiyoda birinchi bor yer globusini yaratadi. Aynan 22 yoshidan boshlab Kaspiy dengizining janubi-sharqiy sohilidagi Jurjon shahrida yashadi. So'ng qadimgi Ray shahriga bordi, 998-yildan keyin yana Jurjonga keldi va bu yerda o'zining ikkinchi ustozi tabib, astronom, faylasuf Abu Sahl Iso Masihiy bilan tanishib, undan ta'lif oldi.

992-yil shimoliy va janubiy Xorazm hukmdorlari o'rtaida boshlangan urush natijasida shimoliy Xorazm hukmdori Ma'mun ibn Muhammad g'alaba qozonadi va 995-yilda Xorazmshoh unvonini qabul qilib, Gurganechni poytaxt deb e'lon qildi. Amudaryoning quy'i oqimida joylashgan Gurganch butun Markaziy Osiyoda yirik iqtisodiy, siyosiy markazlardan biriga aylanadi. Xuroson, Movorounnahr, Hindiston, Xitoy va boshqa mamlakatlardan karvonlari shaharda to'xtab, Ustyurt orqali Volga bo'yiga chiqib, Qora dengiz atrofiga, Yevropa tomon yo'l olardilar. Ustyurtdagi o'sha davrda serqatnov bo'lgan karvon yo'llarining qoldiqlariga ko'ra, ular Xorazmdan chiqib, ikki tomonga ketgan: biri Uchquduk, Buloq, Qo'shbuluoq. Beleuli orqali shimoliy-g'arbgaga, ikkinchisi Mang'ishloq tarafga yo'nalgan. Bu yo'llar bo'ylab toshdan tiklangan istehkomlar va karvonsaroylar joylashgan. Shuningdek, bu hududda Alanqal'a, Shemaxaqal'a, Devkesganqal'a shaharlarini xaroba qoldiqlari topilgan. Beruniy 1017-1048-yillarda G'aznada hayot kechiradi va bu davr uning ilmiy faoliyati uchun eng mahsuldar davr bo'ldi. Beruniyning "Xorazmning mashhur kishilari" asari ham shu davrda yaratilgan. Beruniy shogirdi Abul Fazl Saraxsiy ma'lumoti bo'yicha 1048-yil 11-dekabrda vafot etgan.

### **Tarixiy manbalarda Beruniy haqida ma'lumotlar tavsifi**

So'nggi asrlarda arab va fors tillarida yozilgan Bayhaqiy, Shaxrize'riy, Qiftiy, Yoqut Hamaviy asarlarida Beruniy haqida muhim ma'lumotlar keltiriladi. Xususan G'aznaviyalar davrining

ko‘zga ko‘ringan tarixchilaridan biri bo‘lgan Bayhaqiy uni shunday ta’riflaydi “Abu Rayxon Beruniy suhbati shirin, xushmuomala, shirinsuxan, issat-nomusli, zamonasining ilmi va aqlida unga teng keladigan boshqa odamni ko‘rmadi. U idrok etiladigan va tavsifiy fanlar sohasida qay darajada obro‘-e’tibor qozongan bo‘lsa, hissiy bilimlar va inson qo‘li bilan bunyodga keltiriladigan mo‘jizalar dunyosining ham birinchisi edi”.

XIII asrda yashagan geograf, Beruniyning tarjimai holini yozgan Yoqt Hamaviy Beruniy haqida “Zamon ilm va aqlda unga teng keladidan boshqa odamni ko‘rmadi. Uning asarlari ro‘yxatini Marv jome’ining vaqf kitobxonasida ko‘rdim. Oltmisht varaqqa yaqin, bitik zinch yozilgan edi” – deya Beruniy asarlari ro‘yxatini ko‘rgani haqida yozadi.

XIII asrda yashagan suriyalik tarixchi va tabib Xristian Ioanni Bar Ebrey (1226-1286) Beruniyga shunday baho beradi: “O’sha o‘tgan yillarda yunon va hind falsafasi dengizini kechib o‘tgan Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniy o‘tmish ilmlarda shuhrat qozondi. U matematika ilmlarida mutaxassis bo‘lib, bu sohada qator muhim kitoblar yaratdi. Hindistonga borib, u yerda bir necha yil yashadi, hind faylasuflaridan ularning san’atini o‘rgandi va ularga yunon falsafasini o‘rgatdi. Uning asarlari nihoyatda ko‘p, yetuk va nihoyatda ishonchlidir. Bir so‘z bilan aytganda, o‘z davrida, undan so‘ng va hozirga qadar hamkasblari orasida astronomiya ilmida bunday bilimdon va bu ilmnning asosini hamda nozik tomonlarini chuqur biladigan olim bo‘limgan”. Tabriziy, Suyutiy, Qazviniy, Tusiy, Muhammad ibn Mansur Allomiy, Xurosoniy kabilarning asarlarida keltiriladi.

### **Abu Rayxon Beruniy ilmiy merosining o‘rganilishi**

Beruniy faoliyatining o‘rganilishi geografiyasiva tili, mavzu doirasi shunday kengki bugungi kunida uning faoliyatining o‘rganilish darajasini alohida tadqiqot obyekti sifatida tadqiq etish mumkin. Shunga ko‘ra, Beruniy faoliyatining o‘rganilishini

O'zbekistonda va xorijda o'rganilishi kabi ikki yirik guruhga ajratish mumkin. Jumladan, O'zbekistonda olim faoliyatining o'rganilish holatini uch guruhga bo'lib turkumlash mumkin:

1. Rus sharqshunoslari tomonidan olim hayoti va faoliyatiga doir ma'lumotlarning to'planishi;
2. Sovet davri tadqiqotlarida Beruniy siymosining o'rganilishi;
3. Mustaqillik yillarda olim faoliyatining turli yo'nalishlarda tadqiq etilishi.

Beruniy nomi va uning ilmiy merosi haqidagi xabarlar sharhlar Yevropa va Rossiyada ham birdaniga o'rganilgan emas. Uning tarjimai xoli haqidagi dastlabki ma'lumotlar 1836-yilda A.Plyushar tomonidan tayyorlangan enseklopidik nashrning oltinchi tomida keeltirib o'tildi. XX asrda Beruniy hayoti va ijodini o'rganish kengaydi. Bir qancha sharqshunoslarning mazkur masalada ilmiy izlanishlarini olib borishi natijasida sharqshunoslikning yangi tarmog'i bo'lgan Beruniyshunoslik shakllandi. Bu yo'nalishni rivojlantirganlar V.Bartold va I.Krachkovskiylar bo'ldi. 1948-yilda Butunitifoq ilmiy jamoatchiligi Abu Rayxon Beruniy vafotining 900 yilligini nishonladi. Bu tadqiqotning faollashishiga turtki bo'ldi. Rus va o'zbek tillarida uchta to'plam nashr etilgan Beruniy xotirasiga bag'ishlangan sessiyalarda o'qilgan qayta ishlangan ma'ruzalar.

### **Sovet davrida yaratilgan ilmiy asarlar**

O'rganishlar natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, sovet davrida tadqiqotlarning yaratilishi uchun asosiy yo'l ochib bergen omil Beruniy tanlangan asarlarining nashr etilishi bo'ldi. Mazkur davrda Xorazm va xorazmliklarga, xususan, Beruniyning boy merosiga qiziqish XX asrning 30-40-yillarda kuchaydi. Ma'lumki, bu yillarda Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasiga akademik S.Tolstov Xorazmda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar jarayonida Xorazm qadimiy sivilizatsiyasining noyob yodgorliklari topildi. Bu materiallarni

shifrlashda olimlar ko‘pincha Beruniy tadqiqotlariga asosiy manba sifatida murojaat qilganlar. Keyinchalik arxeologlar tadqiqotlariga sharqshunoslar, tilshunoslар, etnologlar va fan va madaniyat tarixining boshqa tadqiqotchilarining ko‘plab guruhlari ham qo‘shildi.

XX asrning 40-50-yillarigacha Berunshunoslik markazi Moskva va Leningradda (Sankt-Peterburg) bo‘lgan bo‘lsa, 1950-yilda SSSR Fanlar akademiyasi nashriyoti “Beruniy” maqolalar to‘plamini nashr ettirgan. Lekin shu davr oxiridan boshlab Toshkentda A. Beruniy merosini o‘rganish bo‘yicha yangi markaz shakllana boshladi. 1957-yilda Beruniy birinchi asari to‘liq rus tiliga ilmiy tarjima qilindi. Bu asar Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar asari bo‘lib, tarjima M.Sale jihatdan Leningrad va qisman Istanbul qo‘lyozmalari asosida amlga oshirilgan. 1961-yilda Beruniy haqidagi ma’lumotlar umulashtirilgan holda A.Irisov rahbarligidagi “O‘rta Osiyolik qirq olim” nomli yig‘ma ma’lumotlardan iborat tadqiqotda nashr etildi. Asarda Beruniyning tarix ilmiga bergen ta’rifi ahamiyatlidir.

1973-yilda O‘zbekiston va Tojikistonning ilmiy markazlarida, boshqa sharq tadqiqot markazlarida Beruniy tavalludining 1000 yilligi keng nishonlandi. Shu munosabat bilan bir qancha ilmiy maqolalar to‘plamlari nashr etilgan bo‘lib, ularda Beruniy ilmiy faoliyatining ko‘p jihatlariga to‘xtalib o‘tildi. Shuningdek, 1974-yilda akademik A.Qayumov G‘ofur G‘ulom nashriyotida nashr etilgan “Beruniy va adabiyot” nomli asarini nashr etdi. Sakkiz qismdan iborat bo‘lgan mazkur asarning besh qismi bevosita alloma yashagan zamonda mavjud bo‘lgan “arab tilidagi adabiyot”, “yunon tilidagi adabiyot”, “hind adabiyoti” kabi qismlardan tashkil topgan edi.

1973-yilda esa yozuvchi Uyg‘un tomonidan besh ko‘rinishli “Beruniy” nomli drama nashr etildi. Navbatdagi tarixiy drama “Beruniy” nomi bilan Omon Matjon tomonidan nashr etilgan edi.

Mazkur tarixiy dramada XI asr boshlarida Xorazmdagi vaziyatlar tilga olingan. 1987-yilda A.Qayumov tomonidan “Abu Rayxon Beruniy va Abu Ali ibn Sino” nomli asar nashr etildi. Mazkur asarda muallif qalamiga asarlarning qisqa tavsifi sharhi berib ketilgan.

### **Mustaqillik yillarida olim faoliyatining turli yo‘nalishlarda tadqiq etilishi.**

Beruniy siy whole o‘rganish masalalari mustaqillik yillarida yangi bosqichga ko‘tarildi. Uning faoliyatini o‘rganishda adabiyotshunoslar, tarix, falsafa va boshqa fan yo‘nalishi tadqiqotchilari jonbozlik ko‘rsatdilar. Xususan, Beruniy ilmiy faoliyatining mustaqillik yillarida o‘rganilishi bo‘yicha quyidagi natijalarni ko‘r shimiz mumkin.

1. Adabiyot yo‘nalishida bajarilgan ishlar: – Beruniyning adabiyot yo‘nalishida olib borgan merosini tadqiq etish ishlarini birinchilardan bo‘lib

2. Boshqa fan tarmoqlar: – Asror Abidov Tomonidan 1991-yil Fan nashriyotida “Abu Rayxon Beruniy va yangi nazariya” nomli risolasini chop ettirdi. Mazkur asar geologiya va geografiya yo‘nalishida bajarilgan va Beruniy ilmiy merosining mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotini o‘zida aks ettiradi.

Beruniy ilmiy merosining o‘rganilishiga salmoqli hissa qo‘shgan olimlardan biri Ubaydulla Karimov bo‘ldi. Ubaydulla Karimov Abu Ali ibn Sino ilmiy merosini tadqiq etish barobarida Beruniyning “Kitob as-saydana fi-t-tibb” (“Farmakognoziya”) asarini tarjima va tadqiq etgan. Beruniyning rus tilidagi 7 jildli tanlangan asarlarini nashrga tayyorlash (1957-1987) da ishtirok etgan. Shu bilan birga Beruniy ilmiy merosi mustaqillik yillarida jamoaviy tarzda ishlangan o‘rta asr mutafakkirlari hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan “Ma’naviyat yulduzlar”, “Buyuk mutafakkirlar yurti” kabi asarlardan ham o‘rin oldi.

3. Falsafa yo‘nalishida bajarilgan tadqiqotlar – Mustaqillik yillarida yurtimizning faylasuf olimlari tomonidan Beruniy ilmiy merosining tarixiy falsafiy qarashlariga doir bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Xususan, 1994-yilda T.Axmedov “Beruniy asarlarida din muammolari” nomli nomzodlik dissertatsiyani himoya qildi. Muallif tadqiqotning o‘zida alloma ilmiy merosiga ilmiy-falsafiy-diniy qonuniyatlarning qiyosiy tahlilini olib borgan. 2008-yilda F.Jo‘raqulov “Abu Rayxon Beruniy tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy merosining g‘arb olimlari tomonidan tadiq etilishi” nomli tadqiqotni yaratdi. Tadqiqotda g‘arbda beruniyshunoslikning vujudga kelishi, Beruniy ilmiy qarashlarining G‘arb olimlari talqinidagi falsafiy masalalarini yoritadi. Shuningdek tadqiqotda XIX asrdan boshlab Beruniy ijodi keng ko‘lamda o‘rganila boshlaganligini qayd etib o‘tadi.

2010-yilda L.Yuldasheva “Abu Rayxon Beruniy dunyoqarashida hind falsafasi muammolarining talqini /tarixiy-falsafiy tahlil” nomli navbatdagи Beruniy ilmiy merosining falsafiy qarashlariga doir ilmiy tadqiqotni yaratdi. Asarning o‘ziga xos tomoni shundan iboratki, tadqiqotga tortilgan asosiy masalalarga tayanch bo‘lib xizmat qilgan obyekt bu Beruniyning “Hindiston” asari edi. Asar falsafiy yo‘nalishda tadqiq etilgani bois jamiyat-din-falsafa-borliq tushunchalarining uzviylik holati va davlat va jamiyatning paydo bo‘lishi, uni boshqaruv xususiyatlarining Beruniy ilmiy merosidagi ko‘rinishlarini o‘zida aks ettiradi.

2010-yilda F.Muhiddinova “Sharq uyg‘onish davri mutafak-kirlarining siyosiy-huquqiy ta’limotlari ( Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sinoning siyosiy-huquqiy qarashlari asosida)” nomli dissertatsion tadqiqotda Beruniyning siyosiy qarashlariga to‘xtalib o‘tadi. 2011-yilda R.Umarova “Beruniyning borliq haqidagi ta’limoti”ga bag‘ishlangan dissertatsiyani yoqladi. Mazkur tadqiqotning o‘ziga xos tomoni muallif Beruniyni tobiin oqimi tarafdori sifatida e’tirof etgan holda uning falsafasida dunyo va borliqni anglash tendensiyalarini ilmiy xulosalashga harakat qilgan.

## Xorijda o'rganilishi

XIX asrdan boshlab Yevropa va Osiyo mamlakatlarida Beruniy merosi bilan qiziqish yanada keng tus oldi. Uning asarlari lotin, fransuz, italyan, nemis, ingliz, fors, turk tillariga tarjima etila boshlandi. Beruniy asarlariga bag'ishlangan yevropalik olimlar J.Reno, E.Zaxau, G.Zuter, E.Videman, K.Nallino, J.Sarton, R.Rayt, M.Meerxof. Beruniy asarlarini E.Zaxau qatorida A.Videman, X.Zuter, Yu. Ruska, H.Vilayter, G.Shtromayer kabi olimlar tadqiq qildilar. 1930-yillarda prof. Paul Kale (1875-1964) tashabbusi bilan Germaniyaning Bonn shahrida Beruniy ilmiy merosini o'rganish uchun "Beruniy" tadqiqot markazi ochiladi. Mazkur markazda olimlar Beruniy asarlarini tarjima qildilar, ayrimlari yuzasidan ilmiy maqolalar, sharhlar yozdilar. G.Shtromayer Beruniy ilmiy merosi bo'yicha chuqur tadqiqotlar olib borgan nemis olimlaridan biridir. U Beruniy ilmiy dahosini tengsiz deb biladi va Yevropa o'rta asrlarda bu kabi oimlarni bera olmaganini afsus bilan ta'kidlaydi. Chunonchi, u shunday deb yozadi: "Agar Yevropa qit'asi bizga mingginchi yillarda lotin tilida ijod qila oladigan Beruniyni bera olganda, u o'zining o'tkir mushohadalari bilan g'arbiy Yevropa allomalari tarixi va madaniyatini yanada yuksaltirgan bo'lar edi va biz bundan benihoya quvonardik. Ming yillar oldin Nobel mukofoti bo'lganda, u ham shubhasiz, musulmon olimlariga berilar edi.

Osiyo olimlari S.Nasr, M.Kozim, S.Baraniy, M.Nizamuddin, Sh.Yaltkay kabilarning kitoblari, tarjimalari nashr etildi. Bu tadqiqotchilar Beruniy ijodiga juda yuqori baho berdilar.

AQShda chop etiladigan ommabop, akademik nashrlardan biri – "Science" ("Fan") jurnalining shu yil 20-iyun sonida Richard Stounning Abu Rayxon Beruniy ilmiy asarlari haqidagi maqolasi bosilib chiqdi. 130 ming obunachiga ega va internet orqali 1 milliongacha o'quvchi foydalanadigan mazkur nashrda hozirgi zamon olimlarining ulug' allomaning Yevropa va Osiyo qatorida boshqa bir qit'a mavjudligi to'g'risidagi bashoratiga munosabatlari

xususida mufassal hikoya qilinadi. Quyida ushbu maqola e'tiboringizga havola etilmoqda.

Hali Uyg'onish davri boshlanmasdan ancha oldin Renessans kishisi bo'lgan bu olim ko'p asrlar ilgari Markaziy Osiyoda tavallud topgan Abu Rayxon Beruniy edi. U Yer aylanasining uzunligini hayratlanarli tarzda aniq hisoblab chiqqan, solishtirma og'irlik hamda moddaning suvga nisbatan zichligi kattaliklarini kashf etgan. Vaqtning ibtidosi ham, intihosi ham yo'q, deb hisoblaydigan kreatsionizm ta'limotini rad etgan va Kopernikdan besh asr avval Quyosh sistemasining markazi Quyosh bo'lishi mumkinligini isbotlagan. Mashhur alloma o'z kashfiyotlari qatoriga Amerikaning mavjudligi haqidagi bashoratni ham kiritgan.

Amerika qit'asining kashf etilishi borasida juda ko'p qaramaqarshi, bahsli fikrlar bor. Masalan, uni Bering dengizi yoki Tinch okeanini kesib o'tgan qadimiy xalqlar, taxminan minginchi yilda Nyufaundlend qirg'oqlarigacha yetib borgan norvegiyalik dengizchilar, yo bo'lmasa, XV asr tadqiqotchilari Xristofor Kolumb va Jon Kabot topgan, degan farazlar mavjud. "O'z hayotida hech qachon okeanni ko'rmagan bo'lsa-da, Beruniy ham "kashfiyotchi toji"ga munosib, – deb qayd etdi Vashingtondag'i J.Xopkins universitetining Markaziy Osiyo va Kavkaz instituti raisi Frederik Starr.

Abu Rayxon Beruniy yetti asr, ya'ni 800-yildan 1500-yilgacha davom etgan "Sharq Renessansi" jarayonining sarchashmasida turgan Markaziy Osiyo olimlarining yorqin namoyandalaridan biridir. O'sha davr allomalari yuksak aql-idrok sohiblari bo'lib, ilmiy kashfiyotlari algebra va geometriyaning asosiy prinsiplari, algoritm va astrolyabiya, zamonaviy meditsinaning asoslari kabi sohalarni qamrab olgan. "Ular noyob iqtidorli buyuk shaxslar bo'lgan", – deydi F.Starr. Ayni vaqtda amerikalik olim bu mislsiz kashfiyotlarga o'arbda yetarlicha e'tibor berilmaganini ham qayd etib o'tadi.

Xitoy, Hindiston, Yaqin Sharq va Yevropa madaniyatlari tutashgan chorrahada yashagan Markaziy Osiyo xalqlari savdo-

sotiq ishini mukammal egallashgan, shu bois ularning aniq fanlarni chuqur bilgani hayratlanarli hol emas edi. “Samarqandda bolalar sakkiz yoshdanoq matematikani o‘rgana boshlaganiga xitoyliklar hayron qolishgan”, – deb ta’kidlaydi F.Starr. Abu Rayxon Beruniyni bemalol Markaziy Osiyoning eng yorqin “yulduz”laridan biri, deb atash mumkin. “U chindan ham qomusiy daho edi, nafaqat aniq fanlar va antropologiya, balki farmakologiya va falsafani ham mukammal egallagandi, – deydi Belgiyadagi Leven katolik universitetining o‘rta asrlar Markaziy Osiyosi bo‘yicha mutaxassisi Jyul Yanssens. – Beruniy kamida 150 ta ilmiy asar muallifi bo‘lib, ulardan atigi 31 tasi bizgacha yetib kelgan, ular ham faqat alohida olimlarning kichik doirasidan tashqarida deyarli ma’lum emas”.

Abu Rayxon Beruniy 973-yilda Orol dengizi yaqinida, hozirgi Xiva(O‘zbekiston) hududida tug‘ilgan. U 16 yoshidayoq quyoshning choshgoh paytidagi balandligidan o‘z shahrining kengligini aniqlash uchun foydalangan. Voyaga yetgach, ko‘p sayohat qilgan. Hozirgi Islomobod atrofidagi qal'a ustiga Yer aylanasini astrolyabiya, sferik trigonometriya va sinuslar qonuni yordamida o‘lchashga mo‘ljallangan asbobni o‘rnatgan (qadimgi greklar singari, Beruniy ham Yerning dumaloq shaklda ekanligini bilgan). Bu borada alloma tomonidan amalga oshirilgan o‘lchovlardagi xatolik hozirgi kunda ma’lum bo‘lgan raqamlarga nisbatan bor-yo‘g‘i 16,8 kilometrga farq qilgan, xolos. F. Starr bu haqda to‘xtalib: “Bilmadim, shunchalik ko‘p bilimni u qaerdan olgan. Haqiqatan ham, bu zot noyob aql-zakovat sohibi edi”, deya o‘z hayratini izhor etadi.

“Beruniy 1037-yili yozilgan “Mas’ud qonuni” asarida ishonchli faktlarni uydirmalardan ajratish maqsadida, “dadil gipoteza”dan foydalanib, klassik grek, hind va islom astronomiyasini tahlil qildi, – deydi F.Starr. – Boshqa bir ilmiy tadqiqotida esa solishtirma og‘irlilik tushunchasini kiritdi, uni ko‘pgina minerallar hamda metallarga tatbiq etdi va bunda nuqtadan keyingi uchta raqamgacha anqlikda o‘lchovlarni amalga oshirishga erishdi. Yevropaliklar esa buni XVIII

asrgacha aniq hisoblab chiqqa olmaganlar”. Yuqorida aytilgan barcha fikrlarning eng shov-shuvlisi, bu – Abu Rayxon Beruniy tomonidan Amerikaning “kashf etilishi”dir. U qiblani, ya’ni namoz vaqtida Makkaning joylashgan o‘rnini aniq belgilash maqsadida o‘z qadami yetgan har bir joyning koordinatalarini sinchkovlik bilan yozib borgan, shuningdek, boshqa manbalardan Yevrosiyoning minglab aholi yashaydigan joylari haqidagi ma’lumotlarni to‘plagan. Beruniy butun dunyoga mashhur bo‘lgan 5 metrli globusini yaratgach, u Yer sharining 3/5 qismi hali hisobga olinmaganini aniqlagan.

XX asrning 50-yillarida hindistonlik Sayyid Hasan Baraniy o‘rta asr olimining yondashuvi (unga bir necha o‘n yillar davomida ilmiy asos topa olishmagan edi) to‘g‘ri ekanligini tasdiqladi. Abu Rayxon Beruniy: quruqliknin sayyoramizning 2/5 qismiga ko‘targan kuchlar Yerning boshqa qismida jamlangan bo‘lishi kerak, degan fikrni ilgari surgan. U Yevropa va Osiyo orasida bir yoki bir necha quruqlik hududlari joylashgan bo‘lishi kerak, degan xulosaga keladi va shunday yozadi: “Aholi yashamaydigan yerlar ham mavjudligini inkor qiladigan hech narsa yo‘q”. F.Starr o‘zining 2013-yil dekabrida chop etilgan “Bugungi tarix” maqolasida “Beruniyning ish uslublari aynan bugungi kun uslublariga nihoyatda o‘xshashligi bilan kishini hayratga soladi, ularni ilmiy tadqiqotning bid’atparast va xurofiy o‘rta asr -dunyosi qa’ridan eshitilgan sokin, ehtiroslardan xoli ovoziga qiyoslash mumkin”.

### Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Beruniy o‘z davrining yirik qomusiy olimi ekanligi haqida o‘z xulosalaringizni bayon qiling.
2. Abu Rayxon Beruniy ilmiy merosini o‘rganishda qanday manbalarni bilasiz?
3. Beruniy ilmiy merosini o‘rgangan sharqshunoslar haqida fikr bildirинг.

4. Beruniy ilmiy merosini mustaqillik yillarida o‘rganilishi bo‘yicha fikringizni bayon qiling.
5. Beruniy ilmiy merosining xorijda o‘rganilishi va uning ahamiyati.

### Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Абу Рейхан Бируни. Избранные произведения, И. Ташкент. АН УзбССР. 1957., Абу Рейхан Беруни, Избранные произведения. т.4. Перевод с арабского У. Каримова. – Т., 1973, с.312.
2. Бируни Абу Рейхан. Геодезия (Определение границ мест для уточнения расстояний между населёнными пунктами) / Испл., пер. и прим. П.Г.Булгакова// Избр. произв. – Т. 3. – Ташкент: Фан, 1966.
3. Бируни Абу Рейхан. Математические и астрономические трактаты / Пред., пер. и комм. П.Г.Булгакова И Б.А.Розенфелда. // Избр. произв. – Т. 7. – Ташкент: Фан, 1987.
4. Муминов И.М. Великий энциклопедист из Хорезма. Ташкент, 1973. Каримов У.
5. Китаб ас-сайдана («Фармакогнозия») Беруни: Автореферат. – Ташкент: Фан, 1971. 73 с.
6. Бируни Абу Рейхан. Избранные произведения. Том 6. Книга вразумления начаткам науки о звездах. – Ташкент: Фан, 1975. – 328 с.
7. Бируни Абу Рейхан. Избранные произведения. Том 3. Геодезия. – Ташкент: Фан, 1966.

## MAVZU: ABU RAYXON BERUNIY ILMIY MEROSSI VA ULARNING TAVSIFI

### Reja:

1. Abu Rayxon Beruniy va tarix ilmi.
2. Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari haqida.
3. “Hindiston” va “Qonuni Ma’sudiy” asarlari haqida.
4. Beruniyning “Saydana” va “Menerologiya” asarlari va uning mazmuni.
5. “Geodeziya” asaridagi tabiiy-ilmiy qarashlarining o’rganilishi.

**Tayanch so‘z va iboralar:** tarix ilmi, “Hindiston”, gumanitar fanlar, tabiiy fanlar, “Saydana”, “Tarixi Xorazm”, Geodeziya.

### Abu Rayxon Beruniy va tarix ilmi

O’tmish tariximizni o’rganishda bevosita tarixiy manbalarga murojaat qilinadi va manbalar orqali tarixiy voqealar tahlil qilinib, aniqlik kiritiladi. O’zbekistonning VIII asr oxiridan boshlab, XII asrgacha bo’lgan tarixi deyarli arab tilidagi yozma manbalarda yoritilgan. Manbashunoslikda arab tilida vatanimiz tarixiga oid yozma manbalarni mualliflarning kelib chiqishiga qarab, ikki guruhga ajratib o’rganiladi. Birinchisi arab tilida ijod etgan yurtimizdan chiqqan tarixchi va olimlar bo’lib, ularning asarlarida ona vatanga muhabbat alohida namoyon bo’ladi, bu ayniqsa Abu Rayxon Beruniyning “Osor ul-boqiya” asarida xalqimiz qadimgi madaniyati to‘g’risidagi ma’lumotlarida alohida ko’zga tashlanadi. Ikkinci guruh – xorijlik olimlardan iborat bo’lib, ular yaratgan arab tilidagi asarlarida yurtimiz tarixi, madaniyati, siyosiy-ijtimoiy hayoti yoritilgan. Mazkur muarrixlar yurtimiz hududini umummusulmon olami, arab xalifaligi bir qismi sifatida yoritganlar. Arab tilida bitilgan eng muhim manbalar qatorida qomusiy bilimlar sohibi Abu

Rayxon Beruniy va uning tarixiy asarlarini keltirish joiz. Beruniy tabiiy va ijtimoiy fanlar bo'yicha 150 dan ortiq asar yaratib, asosan tabiiy fanlar sohasida ulkan kashfiyotlarga va muvaffaqiyatlarga erishgan.

Beruniyning tarixchi sifatida quyidagi ikki xarakteri alohida qayd etib o'tiladi. Ya'ni, turli xalqlarning tarixiy, madaniy taraqqiyoti va ayrim shaxslar faoliyatini baholashda ularning irqiy, diniy yoki sulolalariga asoslanmay hamma xalqlarga birda hurmat bilan qarashga asoslangan. Shuningdek, voqeа va hodisalarни ayniqsa etnografiya sohasida solishtirish asosida o'rganishga harakat qilish, turli xalqqlar va diniy guruhlar uchun xos bo'lgan o'xshashlik yoki ziddiyatlarni axtarib topish.

Tarix va tarix fani ijtimoiy fanlar majmuasi bo'lib, insoniyatning butun o'tmishi davomidagi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotidagi jarayonlar va voqeа-hodisalarни aniq-konkret holda va turli uslublar yordamida davrlarga bo'lingan va umumiyligi holda o'rganadi. Iqtisodiy tarix, siyosiy tarix, madaniyat tarixi, harbiy tarix, diplomatiya tarixi, tarixiy geografiya kabilalar tarix fanining tarmoqlari hisoblanadi. Tarix fanining tarkibiy qismlari maxsus tarixiy fanlar hamda arxeologiya va etnologiya bo'lib, fan va madaniyat tarixi, san'at tarixi shu sohalar bilan bog'liq holda o'rganiladi.

Ayniqsa tarix to'g'risidagi chuqur bilimlarini o'z ichiga olgan "Osor ul-boqiya an al-qurun al-holiya" ("Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar") hamda "Hindiston" yoki "Kitab tahqiq molil-Hind min manqula fi-l-aql va-l-marzuma" ("Hindlarning aqlga sig'adigan va sig'maydigan ta'limotlarining tadqiq etish") va "Kitob ul-musammara fi axbori Xorazm" ("Xorazm haqidagi axborotlar haqida suhbatlar") nomli asarlari bilan jahon tarix fani va madaniyat tarixiga katta hissa qo'shdi. Beruniyning Xorazm tarixiga oid asari yuqorida zikr etilgan nomdan tashqari, yana "Tarixi Xorazm" va "Mashohiri Xorazm" ("Xorazmning mashhur

kishilari") nomlari bilan ham mashhur bo'lib, uning ayrim lavhalari – parchalari Abulfazl Bayhaqiyning 1056-yili yozib tamomlangan "Tarixi Bayhaqiy" va Yoqut Hamaviyning "Mo'jam ul-buldon" asarlarida saqlanib qolgan.

### Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asari haqida

Shunday qilib Abu Rayxon Beruniyning tarixga oid bo'lgan eng yirik asari uning dastlabki asarlaridan "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", ya'ni (Al-osor al-boqiya an al-qurun al-xoliya" asari Qadimgi Xorazmda o'tgan xalqlarning, qadimgi yahudiylar, nasroniylar, majusiylar va imusulmonlarning urf-odatlari, an'analar, bayramlari, kalendarlari, dirlari, payg'ambarlari, muqaddas kitoblari haqidagi barcha ma'lumotlarni o'zida to'plagan yaxlit ensiklopediya xarakteridagi asar hisoblanadi.

Asar Yevropa ilm-fan olamida "Xronologiya" nomi bilan mashhurdir. Bu asarni olim 27 yoshida, ya'ni 1000-yili yozib tugallagan. Asar olimning boshqa asarlari singari arab tilida yozilgan. Asar Jurjon hukmdorlaridan biri Qobus ibn Vashmgirga bag'ishlagan. Tarixdan ma'lumki, o'sha vaqtida Kaspiy oldi viloyatlarida ziyoriyalar sulolasini (928-1042) hukmronlik qilgan. Bu sulolaning vakili Qobus ibn Vashmgir (1012-y. o'ldirilgan) yosh olimni o'z himoyasiga oladi.

Yevropani birinchi marta asar bilan tanishtirgan olim nemis sharqshunosi va beruniyshunosi 1845–1930-yillarda yashagan Eduard Zaxau bo'ldi. Bu asarning birinchi nashrini Eduard Zaxau 1876-1878-yillarda Leypsigda arabcha nusxasi asosida nashr etdi. Nashrda o'sha paytgacha mavjud bo'lgan 4 ta qo'lyozma nusxadan foydalanilgan. Zaxau 1879-yili asarning inglizcha tarjimasini nashrdan chiqaradi.

1943-yilda Tehronda E.Zaxauning arabchadan qilingan inglizcha tarjimasi asosida Akbar Dono Sirisht Sayrafiy tomonidan

nashr etildi. Beruniyshunoslik markazining 50-yillardan boshlab Toshkentga ko‘chishi natijasida 1950-yili sharqshunos olim Abdusattoh Rasulov mazkur asarning bir qismini o‘zbekchaga tarjima qiladi. Nemis arabshunos olimlari Karl Garbers va Iogann Fyukkler tomonidan Zaxau nashrida tushirib qoldirilgan o‘rinlar to‘ldirilib 1952-yilda yana nashr etadi. 1957-yilda esa arabshunos olim M.Sale asarni birinchi marta rus tiliga tarjima qildi. Ammo keng qo‘lyozmalar nusxasi va tarjimalar nusxasi bo‘lishiga qaramasdan mazkur tarjima juda ko‘p kamchiliklarga ega edi. Mazkur tarjima nusxasiga S.Tolstov va V.Shevglolarning so‘z boshi bilan boshlangan. Keyinchalik 1959-yilda A.Xolidov barcha nashrlar va qo‘lyozmalarni solishtirib qaytadan nashr ettirdi. 1968-yili A.Rasulov tomonidan bu asarning o‘zbek tilidagi to‘liq tarjimasi “Fan” nashriyotida bosilib chiqadi. Bu asarning tarjimasi nashr etilishida tarjimon Abdusattoh Rasulovning va mas’ul muharrirlar arabshunos Ismatulla Abdullayev va faylasuf-tabiatshunos O.Fayzullayevlarning xizmati katta bo‘lgan.

### **“Hindiston” va “Qonuni Ma’sudiy” asarlari haqida**

“Hindiston” (“Tahqiq mo’lil hind min ma’qula maqbula fi-l-aql av marzula” /“Hindlarning aqlga sig‘adigan va sig‘maydigan ta’limotlarini aniqlash”/) deb nomlangan asari 1030-yil yozib tugatilgan. Bu kitobda Hindiston xalqlari tarixining turli sohalari (aniq fanlar, adabiyot, falsafa, elshunoslik (etnografiya), geografiya, demografiya, qonunlari va urf-odatlari, dini, diniy rivoyatlari, hind yozuvining turlari, e’tiqod usullari haqida batafsil ma’lumotlar berilgandir. Shuningdek Beruniy bu asarida sanskit tilidagi manbalardan ham keng foydalangan. Bu til bizgacha yetib kelmagan. Beruniy esa bundan ming yil ilgari bu tilni maxsus o‘rgangan. Kitobning arabcha matni birinchi bor 1887-yil, inglizcha tarjimasi esa 1888-yil Londonda Eduard Zaxau tomonidan nashr etiladi. Arabcha matn 1858-yil Haydarobodda

ham nashrdan chiqarilgan. Bu kitob 1963-yil rus tilida, 1965-yil esa o‘zbek tilida nashrdan chiqarilgan. Beruniy “Hindiston” asarida Yerning harakatlanishi haqidagi mulohazalarini bayon etar ekan, bu asarni yozishdan ilgari Yerning harakatlanishi to‘g‘risida “Miftohu ilmi-l-hay’a” (“Astronomiya kaliti”) degan asarida chuqurroq to‘xtalgaligini bayon etgan. Lekin bu asar bizgacha yetib kelmagan.

Yoshi oltmishlarga yaqinlashib qolgan Beruniy o‘zining astronomiya sohasidagi tadqiqotlariga yakun yasab, yirik bir asar yaratishni niyat qildi. 1036-yil oxiri yoki 1037-yil boshida yozib tugallangan “Qonuni Ma’sudiy” ana shu maqsadning samarasi o‘laroq dunyoga keldi. “Qonuni Ma’sudiy” Beruniyning eng yirik astronomik asaridir XIII asrning mashhur tarixchisi Yoqt Hamaviyning aytishicha, bu asar (Beruniydan) avval astronomiya va matematika sohasida yozilgan barcha asarlardan ustun bo‘lgan. Ibn Qiftiy, Abo‘l Fido kabi yirik olimlar ham Beruniy kitobini shu sohadagi asarlari ichida birinchi o‘ringa qo‘yanlar.

Beruniy ushbu asarni yozishdagi asosiy maqsad va vazifalari haqida bunday deydi: “Men har bir insonning o‘z san’atida amalga oshirishi lozim bo‘lgan ishni qildim. U esa: o‘zidan oldingi kishining ijтиҳодини (tirishish, g‘ayrat ko‘rsatish) minnatdorchilik bilan qobil etish, u ijтиҳодда biror xalal borligi ma’lum bo‘lsa-ayniqsa (planetalar) harakatlari miqdorlarining xuddi o‘zini bilish mumkin bo‘lmasa-qo‘rqmay uni tas’hih etish va ravshan bo‘lgan fikrni o‘zidan bir qancha vaqt keyin keluvchi kishilar uchun esdalik qilib qoldirishdir. Men har bobdagи har bir amal yonida uning illat va sabablarini keltirdim, fikrlovchini o‘zimga taqlid qilishdan uzoqlashtiradigan, to‘g‘ri ish qilgan bo‘lsam, uni tasdiqlaydigan, agar yanglishgan yoki hisobda xato qilgan bo‘lsam, uni isloh etadigan amaliyot bayon qilishni ustimga olgan edim, uni ado etdim”.

Hozirgi kunda “Qonuni Ma’sudiy”ning yettita nodir qo‘lyozmasi mavjud bo‘lib, ular London, Parij, Berlin, qohira va

Istambul kutubxonalarida saqlanadi. Asar shu paytgacha birorta tilga to‘la tarjima qilinmagan. Faqat ayrim bo‘laklari yevropa tillariga o‘girilgan, bundan tashqari, unga ko‘pgina tadqiqotlar bag‘ishlangan. Lekin bu tadqiqotlarni mukammal deb bo‘lmaydi, chunki ularning hammasi ham “Qonuni Ma’sudiy”ning to‘laligicha qamray olmaydi. Shularga qo‘sishimcha qilib Qohira universitetining professori doktor Imom Ibrohim Ahmad bajargan 111 maqola tahriri haqida eslatib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Ibrohim Ahmad “Qonuni Ma’sudiy”ni Boyazid kutubxonasi (Turkiya) qo‘lyozmasi asosida 111 maqolani mukammal filologik va matematik izohlar bilan tahrir qilgan. Lekin bu tahrir arab tilida bo‘lganligi uchun faqat shu tilni biluvchilargagina tushunarlidir.

“Qonuni Ma’sudiy”ning 1-maqolasi 11 bobdan iborat bo‘lib, Beruniy bu maqolada qisman o‘z kosmogoniysi, olam shakli va xronologiya haqida bahs yuritadi.

1-maqolaning 1-bobi “Olamdagi mavjudodlarning umumiy shakli haqida muqaddima tarzida tafsilsiz qisqacha xabar” deb atalgan. Bu bobda Beruniy olam shaklining sferikligi (sharsimon, dumaloq) haqida fikr yuritadi va “quyi” hamda “yuqori” olamni ajratadi. Beruniyning aytishicha, “quyi olam” to‘rt unsurdan (elementdan) iborat bo‘lib, bular tuproq, suv, havo, olovdir. “Yuqori olam” esa efirdan iborat. Efir ichma-ich joylashgan sakkiz sferani o‘z ichiga oladi, avvalgi yetti sfera bo‘ylab planetalar harakat qiladi. Sakkizinchi sfera turg‘un yulduzlar sferasidir. Beruniy planetalarni sferalar bo‘ylab shunday tartibda joylashtiradi: birinchi – Oy, so‘ngra - Merkuriy, Venera, quyosh, Mars, Yupiter, Saturn, Yer bilan quyosh orasidagi planetalarni Beruniy “quyi planetalar” quyoshdan keyingi uch planetani “yuqori planetalar” deb atadi. Bu yerda asosan Ptolomeyning planetalar sistemasi bayon qilingan. Ptolomeyning ta’siri ko‘proq 2-bobda seziladi. Ushbu bobda “Ptolomey Almajistiy”si 1-maqolasidagi “olti bahs”, ya’ni “oltita prinsip” nazariy jihatdan asoslangan. Bu prinsiplarni Beruniy

“asosiy qoidalar” deb atadi. Beshinchi, asosiy qoida diqqatga sazovor. Bu prinsipni asoslashda Beruniy, asosan, Yer harakatsizdir degan xulosaga kelsa ham uning ayrim fikrlari bu xulosani uzilkesil deb bilmaslik kerakligini ko’rsatadi. Chunonchi, u (Yerning) “harakatsizligi aksidensiyadir, aksidensiyalar esa doimiy emas” deyishi bunga dalil bo‘la oladi. Beruniy Yerning harakatlanishi haqida fikrini boshqa asarlarida ochiqroq aytgan. Masalan, asturlob (ko’chma astronomik asbob) yasashga doir asarida Abu Said Sijizi yasagan bir asturlob haqida bunday deydi: “Men Abu Saida barcha asturloblardan boshqacha asturlobni ko‘rdim. Menimcha, u juda yaxshi asbob va osmonning ko‘rinma harakatiga emas, balki Yerning qat’iy harakatliligiga asoslangan”.

3-bobni sferik astronomiyaga kirish deyish mumkin. Bu bobda gorizontal, ekvatorial va ekliptik koordinat sistamalari ta’riflanadi. 1-maqolaning 4-bobidan to 11 maqolaning oxirigacha xronologiyaga bag‘ishlangan. Bu bobning materiali “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarining asosiy qismini tashkil qiladi. Shuning uchun bu boblar haqida to‘xtalib o‘tirmaymiz. Faqat shuni aytish kerakki, Beruniy 11-maqolaning 5 bobida Eron, Bobil, Rim, Yahudiy podshohlarining va arab halifalarining xronologik jadvallarini keltirib, Eron, Bobil va Rim podsholarining ismlarini yunoncha transkripsiyada keltirgan. “Qonuni Ma’sudiy” III maqolasi boshdan oyoq matematikaga oid bo‘lib, keyingi maqolalardagi astronomik hisoblashlar va tadqiqotlar uchun matematik apparat bayon qilinadi. Sferik astronomiya uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan geometriya va trigonometriya masalalari ko‘rib chiqiladi. “Qonuni Ma’sudiy” IV maqolasi sferik astronomiyaning asosiy muammolariga va geodeziyaning ba’zi masalalariga bag‘ishlangan. Maqola 26 bobdan iborat. Bu maqolada keltirilgan ma’lumotlar Beruniyning nihoyatda teran va aniq fikr yuritishini yana bir karra tasdiqlaydi. Masalan, shu maqolaning 1-bobida ekliptikaning ekvatorga og‘ish burchagini hisoblash usuli

bayon qilinadi, so'ogra o'rta asr astronomlarning asosiy astronomik asbobi bo'lish asturlobning tuzilishi ta'riflanadi. Shu bob davomida Beruniy o'zidan oldin o'tgan mashhur astronomlar – yunon olimlari Eratosfen, Gipparx, Ptolomey, Sharq astronomlari – Yahyo ibn Abu Mansur, Holid ibn Abdumalik Marvarrudi, Musa ibn Shokir o'g'illari Battoniy, Sanad ibn Ali, mavrlik, damashqlik astronomlar Sulaymon ibn Ismat Samarcandiy, Abul Xusayn So'fiy, Abul Vafo Buzjoniy, Abu Hamid Sug'oniy, Mansur ibn Talha, Muhammad ibn Ali Makkiiy va Abu Mahmud Xo'jandiylarning ekliptikaning og'ish burchagi uchun topilgan qiymatlarini keltiradi va shu bobning oxirida o'zi topgan qiymat  $-23^{\circ}35'$  ni keltiradi. Beruniyning oxirida o'zi topgan qiymat –  $23^{\circ}34'$  dan faqat 1'ga farq qiladi, xolos.

Yana bir misol. 2 bob oxirida graduslarning og'ishlar va kengliklar jadvallari keltiriblgan. Beruniyning bu jadvallari undan oldin tuzilgan jadvallar ichida eng aniqlaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, hozirgi zamon matematik simvolikasi asosan XVII asr oxirilarida yuzaga keldi. U davrgacha matematik belgilarning bo'limganligi matematika fanining rivojlanishini birmuncha orqaga surdi. Shunga qaramay, Beruniy matematik formulalardan foydalanmasdan so'z bilan aytilgan qoidalari hozirgi zamon formulalariga ko'chirilsa, uning aqliy mulohazalash qobiliyatining nihoyatda kuchli bo'lganligiga ishonch hosil qilish mumkin. IV-maqoladan yana bir qiziq dalil keltiramiz. Beruniy shu maqolaning 23 va 24-boblarida "to'rt vatad", "qoziq"ni ta'riflaydi. Shundan so'ng Beruniy "ko'rinish iqlimi kengligi" degan yangi tushuncha kiritadi va uni "ko'rvuchi og'ish" va "kunduz yarmi balandligi"ning funksiyasi sifatida topiladi.

Beruniy kiritgan bu funksiya tushunchasi undan avvalgi arab va yunon astronomiyasida qo'llanmagan va faqat hind-astronomiyasida qo'llanilgan. Demak, Beruniy bu tushunchani birinchi bo'lib o'sha davr astronomiyasiga kiritdi. V maqolada o'rta asr fani oldida turgan eng mushkul masalalardan biri-joyning geografik

uzunligini aniqlash, shuningdek, koordinatalarni, masofalarni va joylar azimutini hisoblash bilan bog'liq masalalar mufassal bayon etiladi. Jumladan, V maqolaning 8-11 boblari diqqatga sazovordir. Chunonchi, 8-bobda muallif Yer Shimoliy yarim sharini yetti mintaqaga bo'ladi. 9-bobda Yerning odamlar yashaydigan (ma'mur) qismi tavsiflanadi. Shuningdek, turli xalqlarda Yer ma'mur qismining qanday bo'lishi bayon qilinadi. 10-bobda yetti iqlim bo'yicha joylashgan mamlakatlar, o'lkalar, viloyatlar, orollar, shaharlar va ularning geografik koordinatalarining jadvallari keltirilgan. Bu yerda Yaqin va O'rta Sharq, O'rta Osiyo, g'arbiy Hindiston shaharlari haqidagi ma'lumotlar anchagina aniq berilgan. Shunisi diqqatga sazovorki, Beruniy ushbu bobda Shosh viloyati, ya'ni qadimi Toshkent viloyatining poytaxtini, "Toshkent" deb ataydi. Demak, respublikamiz poytaxtining nomi kamida ming yillik tarixga ega.

Beruniy Sharqiy Yevropada o'sha davrda yashagan saqlab (slavyan), rus (normann), burjon (bolgar), unqra (venger) va yura (ugro-fin) qabilalari hamda Sharqiy Yevropa va Osiyoda yashagan turk, turkman sug'd xalqlari haqida xabarlar beradi. V maqolaning eng oxiri, II bobida har xil shartlarga ko'ra joyning kengligi va og'ishini topishga doir masalalar va Sharqning mashhur astronom va matematiklari: Sobit ibn Qurra, Sanad ibn Ali, Annayriziylarning shu masalalarni yechish usullari keltirilgan. Masalaning shartiga qarab, kenglik va og'ishni topish qoidasi ixcham, ba'zan esa murakkab formula ko'rinishini oladi.

### **Beruniyning "Saydana" va "Menerologiya" asarlari hamda ularning mazmuni**

Beruniy hayoti va ijodini yoritishga keng ko'lamli adabiyotlar bag'ishlangan. Biroq "Saydana" uning boshqa asarlari kabi ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan, chunki XI-XIII asrlarda tabobat va farmakologiyaga oid asarlar yozgan mualliflar orasida "Saydana"

haqida ishoralarni uchratmaymiz. “Kitob al-ṣaydāna fi-l-ṭibb” asari 1200-1225-yillarda farmatsevtlar orasida katta muvaffaqiyat qozongan bo‘lsa-da, uni kosonlik (Farg‘ona) Abu Bakr Kosoniy Hindistonda fors tiliga tarjima qilgan.

Kitobning arabcha asli bizgacha 1927-yilda Turkiyada topilgan va Bursa shahridagi Kursunlu Jami kutubxonasida saqlanadigan yagona qo‘lyozma holida yetib kelgan. Qo‘lyozma Beruniy merosining ilk tadqiqotchilaridan biri, G‘azansar Tabreziy (1232-1292) nomi bilan mashhur Abu Ishoq Ibrohim tomonidan hijriy 678(1280)-yilda qayta yozilgan. “Ṣaydāna» kitobini ilmiy tadqiq qilish asosini mashhur sharq tabobati tarixchisi, nemis tadqiqotchisi Maks Meyerxof qo‘ygan. 1932-yilda u kitobga arabcha muqaddimani nemis tarjimasi bilan, kirish va eslatmalar bilan nashr ettirdi.

Akademik I.Krachkovskiy va A.Beliniskiy rus tiliga tarjima qilib, bu so‘zboshidan alohida parchalarni nashr qilganlar. 1973-yilda kitobning to’liq qayta ko’rib chiqilgan rus tiliga tarjimasi prof. U.Karimov tomonidan Toshkentda nashr etilgan. Fors tilidagi “Kitob al-Saydona” matni mazmunining tanqidiy tahlili ham hijriy 1370-yilda (1991) Tehronda doktor Abbas Zaryob tomonidan tahrir qilingan.

Beruniyning lug‘atshunoslik sohasidagi xizmatlari haqida, umuman olganda, A.Dexxudo, A.Zareb, Z.Safo, M.Sutuda kabilar ma’lumot beradi. Shu bilan birga, alohida ta’kidlash joizki, J.Matiniy Eronda “Abu Rayxon Beruniyning forstilida ilmiy lug‘at yaratishdagi urinishlarining chegarasi” nomli maqolasida qisman yoritgan. Tojikistonda Saydananing ilmiy tibbiyot terminologiyasining shakllanish jarayonidagi ahamiyati M.Sultonning monografik tadqiqotida qisqacha qayd etilgan.

Yuqoridagi asarlar ichida tojik ilmiy terminologiyasining eng muhim manbasi Abu Rayxon Beruniyning umrining oxirida (1046-1048) boshlagan, biroq tugallanmagan “Kitob al-saydāna fi-l-ṭibb” asaridir.

“Şaydana” kitobining boshqa farmatsevtika asarlaridan o‘ziga xos jihat shundaki, muallif dori vositalari va boshqa dori vositalarining shifobaxsh xususiyatlari haqida emas, balki bu dori vositalarini o‘simplik, hayvon a’zolari yoki minerallardan yasash usullari haqida qimmatli ma’lumotlar berib, nomlarini beradi. turli tillarda bu dorilar. va gapirish. “Şaydana” kitobi arab alifbo tartibida keltirilgan dori-darmonlarni tavsiflovchi bat afsil so’zboshi va mingdan ortiq paragraflardan iborat. Qayd etish joizki, kitobda 750 ga yaqin o‘simplik turlari, 107 ta mineral moddalar, 101 ta hayvon va 30 ta murakkab dori vositalari nomi keltirilgan. Farmakognoziya bo‘yicha oldingi kitoblarning hech biri bunday miqdordagi dori-darmonlarni topa olmaydi.

Beruniy umrining oxirida, ya’ni 1045-1048-yillarda “Dorivor o‘simpliklar haqida kitob” (“Kitab as-saydana fi-t-tibb”) asarini yozgan. Bu asar tarixga “Saydana” (“Farmakognoziya”) nomi bilan kirgan bo‘lib, uning to‘liq qo‘lyozmasi XX asrning 20-30-yillarida Turkiyada topilgan. Bu asarda Sharqda, xususan, Turkistonda o‘sadigan barcha dorivor o‘simpliklar va ularning farmakologik xususiyatlari haqida ma’lumotlar berilgan. Bu asarni taniqli sharqshunos olim Ubaydulla Karimov rus tiliga tarjima qilib, 1974-yil “Fan” nashriyotida bosmadan chiqargan. Bulardan tashqari Beruniyning Ibn Sino bilan falsafiy mavzudagi savol-javob xatlari ham aniqlandi. Bu xatlarni taniqli faylasuf-olim Anvar Sharipov 1972-yili e’lon qildi. Bu xatlarning o‘zbek tilidagi ikkinchi nashri ham S.Mutalipov muharrirligi ostida 1973-yili e’lon qilindi.

### Minerologiya asari haqida

Beruniy Jurjon hukmdori Vashmgir saroyida yashab yurgan davrida qimmatbaho toshlar va minerallar haqida “Mineralogiya” asarini (“Kitob al jamohir fi ma’rifat al-javohir” (“Qimmatbaho toshlarni bilib olish bo‘yicha ma’lumotlar to‘plami”)) yozgan. Bu asar hozirga qadar o‘zining amaliy ahamiyatini yo‘qotmagan. Bu

asarda muallif 300 dan ziyod minerallar va ularning fizik (qattiqligi, solishtirma og'irligi, rangi, qirralarining tuzilishi va boshqalar), kimyoviy (tarkibida qanday moddalar borligi, suv va olovga chidamliligi) xususiyatlarini tushuntirib bergan. Beruniyning "Mineralogiya" asarini 1963-yil SSSR Fanlar akademiyasi nashriyotida Moskvalik sharqshunos A.Beliniskiy rus tilida nashrdan chiqardi.

Bu asarning o'zbek tiliga tarjimasi mustaqillik davrida 2017-yilda akademik A.Qayumov tomonidan amalga oshirildi va kitob 2017-yili "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" nashriyotida ming nusxada bosilib chiqdi. Beruniy o'z davrida tajribaviy bilimlarni puxta egallagan olimlardan bo'lib, bu uning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlarining muayyan tomonlarini aniqlovchi muhim omillardan hisoblanadi. Beruniy merosini tadqiq qiluvchi ko'pgina olimlarning e'tiroficha, u o'z davrining ajoyib tadqiqotchisi hamda tabiatni ziyraklik bilan kuzatuvchi olimi bo'lgan. Beruniyning turli fanlar sohasi bo'yicha qo'llangan tajribaviy uslubi naqadar foydali ekanligini "Mineralogiya" asarida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Beruniyning mineralogik merosini o'rganuvchi rus olimlaridan biri G.Lemmelyn uning mineralogiyada qo'llagan uslubi to'g'risida gapirib: "Mantiqiy tuzilishlarni kuzatish va tajribada aniqlashni talab etuvchi ilmiy uslub hamda hozirgi zamon fanining qoidalariga javob beruvchi usul"dir, – deydi. G.Lemmelyn o'z fikrini davom ettirib: "Beruniy davrida tajribaviy fanlar ma'lum taraqqiyotga erishgan edi va tajriba uslubi birinchi marotaba sezilarli darajada tabiatshunoslik amaliyotiga kirayotgan edi" – deydi. XX asrda Amerika olimlarining fazodan turib olib borgan ilmiy kuzatuvlari Beruniyning bu fikrlarini to'la tasdiqladi. Ya'ni turli qit'alarga juda kuchli yorug'lik taratib turuvchi katta-katta mash'allar o'rnatilib, fazo kemalaridan kuzatuv olib borilgan. Bir necha yilgi kuzatuv mash'allarning, anig'i mash'allar o'rnatilgan qit'alarming bir-biriga nisbatan yiliga 1-2 sm. Tezlikda harakatlanishini ko'rsatadi. 1912-yilda

nemis olimi meteorolog Alfred Vegener o‘zining “Kontinentlarning paydo bo‘lishi nomli maqolasida materiklarning gorizontal siljishi to‘g‘risidagi farazini ilgari surdi. Shu tariqa zamonaviy fanga materiklarning siljishi to‘g‘risidagi nazariya kirib keldi.

Bulardan tashqari, Beruniy “Mineralogiya” asarida shu davrda sodir bo‘lgan ayrim zilzilalar to‘g‘risida ham ilmiy jihatdan muhim ma’lumotlar keltirgan. Tarixdan ma’lumki, Ko‘kcha daryosi vodiysida Badaxshon shahri yaqinida kuchli zilzila sodir bo‘lgan. Beruniy ushbu asarida ko‘pgina minarallarning paydo bo‘lishini tushuntirish bilan birga, foydali qazilmalarning joylashgan o‘rnini haqida ham ma’lumotlar keltirgan. Jumladan, Badahshon (hozirga Fayzobod) shahridan uch kunldik masofada qimmatbaho toshlarning paydo bo‘lgani va ular ushbu kuchli zilzila ta’siridan ochilib qolganini tushuntirib bergen. Ushbu qimmatbaho toshlar paydo bo‘lishi to‘g‘risida gapirib, olim Badahshon zilzilasi paytida juda katta cho‘qqi qulab tushgani va uning parchalanib ketishi natijasida ana shu qoyalarda qimmatbaho toshlar ochilib qolganini tushuntirib bergen. Bu qimmatbaho toshlarning joylashish o‘rnini Pandj daryosi bo‘yida Kohilol qishlog‘iga yaqin joyda bo‘lib, Beruniydan oldin manbalarda u haqida hech qanday ma’lumot bo‘lmagan. Uzoq vaqt mobaynida olimning bu fikrlari fanda afsona shaklida qabul qilinib kelingan. Beruniydan o‘n asr keyin Rossiya Fanlari akademiyasi Yer fizikasi instituti olimlarining ushbu hududda olib borgan dala izlanishlari Beruniyning fikrlarini to‘liq tasdiqlagan. Bu joyda yirik seysmik yoriqlar mavjudligi aniqlandi va u yerda o‘pirilib tushgan qoyalarning o‘lchami 900 metr<sup>3</sup> ga teng ekanligi aniqlandi.

### **Beruniyning “Geodeziya” asaridagi tabiiy-ilmiy qarashlarining o‘rganilishi**

1025-yil 18-noyabrda Beruniy “Geodeziya” (“Tahdid nihoyot il-amokin li tas’hih masofot al-masokin” / “Turar joylar (orasidagi) masofalarni aniqlash uchun manzillarning chegaralarini belgilash”/)

asarini yozib tugatgan. Geodeziyada matematik geografiya asoslari mufassal bayon qilinadi va umuman Bu asar 1966-yil Toshkentda Istanbul nashridan rus tiliga P.Bulgakov tomonidan tarjima qilib nashr qilindi. "Munajjimlik san'atidan boshlang'ich tushunchalar" asari 1029-yil G'aznada yozilgan bo'lib, unda astrologiyaga oid asosiy tushunchalar sodda qilib izohlab berilgandir. Uni Yevropacha qilib, "Astrologiya" deb atasak bo'ladi. Bu asarini O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Abu Rayxon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti olimlari va Moskva sharqshunoslari A.Ahmedov, B.Rozenfeld, M.Rojanskaya, A.Abdurahmonov va N.Sergeyevalar hamkorlikda rus tiliga tarjima qilishib, "Kniga vrazumeniya nachatkam nauki o zvezdax" degan nom bilan 1975-yil "Fan" nashriyotida nashr etishdi.

Beruniy boshqa fanlar qatori geodeziya fanida ham katta yutuqlarga erishgan buyuk olimdir. Uning bir qancha yirik asarlarida geodeziyaga doir boblar ajratiladi. Beruniy 63 yoshida o'zi tuzgan asarlari ro'yhatida geodeziya va unga aloqador masalalarga bag'ishlab yozgan qirqqa yaqin asari ko'rsatilgan. Geodeziya sohasida bunchalik ko'p asar yozgan olim hozirda ham kam uchraydi. Demak, Beruniy o'z davrining buyuk geodeziya olimi bo'lib, bundan ming yil ilgari geodeziyaning bir qancha masalalarini yechish bilan shug'ullanibgina qolmay, balki ilmiy asarlar yozib, bu fan rivojiga salmoqli hissa qo'shgan. Beruniyning fan oldidagi katta xizmatlaridan biri shuki, u fanni turli ta'qiblardan tozalashga intilgan, fanning sofligi yo'lida kurashgan. Beruniy sehrgarlik va munajjimlik san'atini bir qatorga qo'yadi. U "Geodeziya" asarida munajjimlik haqida shunday deydi: "Munajjimlik san'ati umuman ojiz asosga ega bo'lganligi kabi undan olinadigan natijalar ham shunday bo'ladi. Ulardan chiquvchi xulosalar haqiqiy ilmlarga nisbatan chalkashdir". Beruniy 1018-yil 21-oktabrda "Geodeziya"ning uchdan bir qismini yozib bo'lganiga qaraganda, u o'z asarini G'aznaga kelishi bilanoq, balki hatto undan ham

oldinroq yoza boshlagan. U 1021-1024-yillar Hindistonda bo‘ladi va asarni 1025-yil 20-oktabrda G‘aznada yozib tugatadi. Beruniy “Geodeziya”ni boshqa yirik asarlari kabi boblar va qismlarga ajratgan emas. Lekin ko‘rilayotgan masalalarining xarakter va mazmuniga ko‘ra asarni shartli ravishda muqaddima, beshta nazariy bo‘lim va oltinchi amaliy masalalar bo‘limidan iborat deb qarash mumkin. Asarda Beruniy muqaddimasi muhim. Bunda Beruniy olam tuzilishi, yerning geologik tarixi, ilmlarning paydo bo‘lishi, qit’alar ko‘chishi va boshqa ilmiy-falsafiy mulohazalarni keltirish bilan birga, asarni yozishdan maqsadi nima ekanligini ham bayon qilgan. “Men hozir o‘z so‘zlarimni bayon qilishdan intilayotgan so‘nggi maqsadim... ma’lum bo‘lsinki, bu – yo, umuman olganda, Yerdagi ma’lum joylarning sharq va g‘arb orasidagi uzunlamasini, shimoliy va janubiy qutblar orasidagi kenglamalarini va ular orasidagi masofalarni hamda ba’zilarning azimutini boshqalarniki orqali aniqlash usulini bayon qilishdan iborat yoki, xususan olganda, -o‘shalarni hozir mumkin bo‘lganicha Sharq mamlakatining poytaxti – G‘azna uchun aniqlashga tirishishdir”. Ma’lumki, bu iboralarda aytilgan, Beruniy aniqlashni maqsad qilgan masalalar geodezik masalalardir. Shuning uchun ham bizning asrda asar qisqacha “Geodeziya” nomi bilan mashhur bo‘ldi. Olim asarni yozayotgan payt uning hayotidagi og‘ir bir muddat ekanligini biz yuqorida eslatib o‘tgan edik. Beruniy “Geodeziya”ni “Aqllar madadga muhtoj bo‘lgan va ko‘ngillar yordam istagan bir paytda, (endi) men aqlimga kelgan (bu) fandagi ixtirolarni bayon etishim yoki (uning) noaniq (joylarini) to‘ldirishim kerak, toki u mening (mehnatim samarasini) tanovvul qilib, go‘zallik libosiga o‘ransin”... deb “Geodeziya”ni yozishdan oldinga qo‘ygan maqsadini ilk bor qisqacha ifoda qiladi. So‘ngra Sulton Mahmud saroyida to‘plangan johil va g‘ayriilm shaxslar bilan munozara qilish, ularni tanqid ostiga olish tarzida geometriya, arifmetika, meditsina, veterinariya, musiqashunoslik, mantiq, geografiya, astronomiya fanlarining kelib

chiqishi haqidagi Beruniy fikri xususida gapirar ekanmiz, avvalo, uning dunyoqarashi ustida to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar:**

1. Beruniyning tarix ilmiga doir asarlarini tahlil qiling.
2. Allomaning tabiiy ilmlar rivojida tutgan o‘rni va roli haqida fikr yuriting.
3. “Saydana” asari haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. “Geodeziya” asari va uning mazmuni haqida so‘z yuriting.

### **Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. Абу Рейхан Бируни. Избранные произведения, И. Ташкент. АН УзбССР. 1957., Абу Рейхан Беруни, Избранные произведения. т.4. Перевод с арабского У.Каримова. – Т., 1973, с.312.
2. Бируни Абу Рейхан. Геодезия (Определение границ мест для уточнения расстояний между населёнными пунктами) / Иссл., пер. и прим. П.Г.Булгакова// Избр. произв. – Т. 3. – Ташкент: Фан, 1966.
3. Бируни Абу Рейхан. Математические и астрономические трактаты / Пред., пер. и комм. П.Г.Булгакова и Б.А.Розенфелда. // Избр. произв. – Т. 7. – Ташкент: Фан, 1987.
4. Муминов И. Великий энциклопедист из Хорезма. – Ташкент, 1973.
5. Каримов У. И. Китаб ас-сайдана («Фармакогнозия») Беруни: Автореферат. – Ташкент: Фан, 1971. 73 с.
6. Бируни Абу Рейхан. Избранные произведения. Том 6. Книга вразумления начаткам науки о звездах. – Ташкент: Фан, 1975. - 328 с.
7. Бируни Абу Рейхан. Избранные произведения. Том 3. Геодезия. – Ташкент: Фан, 1966.

## MAVZU: ABU ALI IBN SINO ILMIY MERO SINING O'RGANILISHI

### Reja:

1. Abu Ali ibn Sino hayoti va faoliyati.
2. Abu Ali ibn Sino ilmiy merosida ilmlar tasnifi.
3. Abu Ali ibn Sino ilmiy merosining o'rganilishiga doir.

**Tayanch so'z va iboralar:** ilmlar tasnifi, tibbiyot, Abulxayr Hammor, "Kitob lison ul-arab", ana'naviy ilmlar, musiqa ilmi, Urjuza, "Donishnama", U.Karimov, Tib qonunlari

### Abu Ali ibn Sino hayoti va faoliyati

Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatini O'rta asr sharoitida dunyo madaniyatining oldingi qatoriga olibchiquan buyuk mutafakkirlardan biri – Abu Ali ibn Sino bo'lib, u Yevropada Avitsenna nomi bilan mashhurdir. Ibn Sino (asl ismi Husayn, otasining ismi Abdulloh) Buxoroning Afshona qishlog'ida, hijriy 370(980)-yilning safar oyida, amaldor oilasida tug'ildi. 986-yilda ibn Sino oilasi Buxoroga ko'chib keladi va shu vaqtdan boshlab yosh Husayn boshlang'ich ma'lumot olishga, ilm-fanni o'rganishga kirishadi. Uning yoshligi, yigitlik chog'lari Somoniylar hukmronligining so'nggi yillariga, xususan, Nuh II ibn Mansur Somoni hukmronligi davri (976-997) ga to'g'ri keladi.

Ibn Sino iste'dodli, xotirasi kuchli, zehri o'tkir bo'lganligidan o'z davrida ma'lum bo'lgan ilmlarni tezdan egallay boshladi. 10 yoshidayoq Qur'oni Karimni boshdan-oyoq yod o'qir edi. 13 yoshlaridan boshlang'ich matematika, mantiq, fiqh, falsafa ilmlari bilan shug'ullana boshlaydi. Ibn Sino yosh bo'lishiga qaramay, Abu Abdulloh Notiliy rahbarligida falsafani, Hasan ibn Nuh Qumriydan tibbiyot ilmini har tomonlama o'rganadi, asta-sekin tabiblik bilan ham shug'ullanadi. U o'zidan avval o'tgan Sharq mutafakkirlarining asarlarini chuqur o'rganish bilan birga, qadimgi yunon tabiiy-ilmiy,

falsafiy merosini, xususan, Aristotel, Yevklid, Ptolemey, Galen, Gippokrat, Pifagor, Porfiriylarning asarlarini ham qunt bilan o'rgandi. 16-17 yoshidayoq ibn Sino mashhur tabib – hakim bo'lib tanildi. 999-yilda Buxoro Qoraxoniylar tomonidan zabit etilgach, Somoniylar hokimiysi inqirozga uchradi. 1000-yilda Ibn Sino Buxorodan chiqib ketdi va madaniyat markazlaridan biri hisoblangan Xorazmga bordi, u yerda Xorazm hokimi Ali ibn Ma'mun saroyidagi olimlarni birlashtirgan o'z zamonasining akademiyasiga qabul qilindi. Ibn Sino Beruniy, ibn Miskavayh, Abu Sahl Masihiy, Abulxayr Hammor, Abu Nasr ibn Iroq kabi yetuk olimlar bilan yaqindan tanishdi. Lekin bu davrda kuchayib borayotgan Mahmud G'aznaviyning ta'qibidan qochib, Xorazmni tashlab ketishga va Xuroson, Eronning turli shaharlarida sarson-sargardonliqda yurishga majbur bo'ldi. Abivard, Tus, Nishapur shaharlari orqali Jurjon shahriga kelgan ibn Sino hokim qobus ibn Vashimgir saroyida mashhur tabib sifatida yashadi, bo'lajak shogirdi Juzjoniy bilan tanishdi. 1019-1021-yillarda Hamadonda vazir lavozimida xizmat qilarkan, hokim bilan kelisha olmay, 4 oy qamoqda yotib chiqdi. 1023-yilda Isfahonga qochdi va butun umrini ilmiy asarlar yozishga bag'ishladi. Ibn Sinoning "Kitob al-qonun fit-tibb", "Kitob un-najot", "Kitob ul-insof" kabi mashhur asarlari, geometriya, astronomiya, o'simlik, hayvonot olami, mantiqqa oid risolalari, "Hayy ibn Yaqzon" falsafiy qissasi alloma hayotining so'nggi yillarda yozilgan. U Isfahonda rasadxona qurish bilan mashq'ul bo'ldi. Umrining so'nggi yillarida feodal urushlar kuchayib ketganligi, ijtimoiy-siyosiy hayotda o'zi ham faol qatnashganligi tufayli u Isfahon, Ray, Hamadon shaharlari orasida sarson-sargardonliqda yurib, 1037-yil 18-iyunda Isfahon shahrida 57 yoshida qulunj kasalligidan vafot etdi. Ibn Sinoning hayot yo'li o'zi yozgan tarjimayi holi va shogirdi Juzjoniy tomonidan qoldirilgan manbalardan ma'lum. Ibn Sinoning ilmiy qiziqishlari, dunyoqarashining shakllanishida qadimgi Sharq madaniyati, yunon ilmi, falsafasi, Markaziy Osiyo xalqlarining mustaqillik uchun

olib borgan kurashlari muhim rol o‘ynadi. Ibn Sino tarjimai holida Forobiyning “Metafizika maqsadlari”, “Fusus ul-hikam” kabi muhim risolalarini qunt bilan o‘rganganligi, ularidan keng foydalanganligini ta’kidlab o’tadi.

Ibn Sino asarlarining umumiy soni 450 dan oshadi, lekin bizgacha faqat 160 ga yaqin asari yetib kelgan, xolos. Ko‘p risolalari shaharma-shahar ko‘chib yurish, feodal urushlari, saroy to‘polonlari, turli falokatlar tufayli yo‘qolib ketgan. Ko‘p manbalarda Ibn Sino, avvalo, tabib sisatida talqin etiladi, holbuki tabobat uning ilmiy sohalari orasida eng muhimlaridan biridir. Ibn Sino asarlarining asosiy qismi Yaqin va O‘rta Sharqning o‘sha davr ilmiy tili hisoblangan arab tilida, ba’zilari fors tilida yozilgan. Uning bizga ma’lum bo‘lgan katta asari “Kitob ush-shifo” (“Shifo kitobi”) 22 jilddan iborat bo‘lib, 4 ta katta bo‘limini mantiq, fizika, matematika, metafizikaga doir masalalar egallagan. Uning ayrim qismlari lotin tiliga, Yevropadagi boshqa tillarga, sharq tillariga, shuningdek, rus, o‘zbek tillariga tarjima qilingan. 20 jilddan iborat bo‘lgan “Kitob ul-insof” (“Insوف kitobi”) bizgacha yetib kelmagan, chunki Isfahondagi yong‘inda yo‘qolgan. “Kitob un-najot” (“Najot kitobi”) 4 katta qismdan – mantiq, fizika, matematika, metafizikadan iborat, “Kitob lison ul-arab” (“Arab tili kitobi”) 10 jildni tashil etadi. “Donishnoma” fors tilida yozilgan bo‘lib, 4 qismni – mantiq, fizika, matematika, metafizikani o‘z ichiga oladi (Rus tiliga tarjima etilgan, bir qismi o‘zbek tilida bosilgan).

### **Abu Ali ibn Sino ilmiy merosida ilmlar tasnifi**

Ibn Sinoning ilmiy merosini shartli ravishda 4 qismga, ya’ni falsafiy, tabiiy, adabiy va tibbiy sohalarga bo‘lish mumkin, olim shularning har birida chuqur iz qoldirgan. Lekin Ibn Sino asarlarining miqdoriy nisbatiga nazar solsak, olimning qiziqish va e’tibori ko‘proq falsafa va tibga qaratilganini ko‘ramiz. Garchi, uni

“Avitsenna” sifatida G‘arbda mashhur qilgan uning tibbiy merosi, xususan, “Tib qonunlari” bo‘lsada, “Shayx-ur-rais” nomi, eng avval, uning buyuk faylasufligiga ishoradir.

Olimning falsafaga oid eng yirik va muhim asari “Kitob ash-shifo”dir. U 4 qismdan iborat: 1) mantiq – 9 bo‘lakka bo‘lingan: al-madhal – mantiqqa kirish; al-maqulot – kategoriyalar; al-iborat – interpretatsiya; al-qiyos – sillogizm; al-burhon – isbot, dalil; al-jadal – tortishuv, dialektika; as-safsata – sofistika; al-xitoba – ritorika; ash-she’r – poetika (she’r san’ati); 2) tabiiyot (bu yerda minerallar, o’simliklar, hayvonot olami va insonlar haqida alohida-alohida bo‘limlarda gapiriladi; 3) riyoziyot – 4 fanga bo‘lingan; hisob (arifmetika), handasa (geometriya), astronomiya va musiqa; 4) metafizika yoki ilohiyot. Bu asarning ayrim qismlari lotin, suryoniy, ibroniy, nemis, ingliz, fransuz, rus, fors va o‘zbek tillarida nashr etilgan.

Ibn Sinoning yana bir falsafiy asari “Kitob an-najot” “Kitob ash-shifo”ning qisqartirilgan shakli bo‘lib, u ham qisman jahonning bir necha tillariga tarjima qilingan. Olimning falsafiy qarashlari yana “Al-ishorat va-ttanbihot” (“Ishoralar va tanbihlar”), “Hikmat al-mashriqiyin” (“Sharqchilar falsafasi”), “Kitob al-ishorat fi-lmantiq va lhikmat” (“Mantiq va falsafaning ishoralari”), fors tilida yozilgan “Donishnoma” (“Bilim kitobi”) va boshqa turli hajmdagi falsafiy risolalarda hamda “Tayr qissasi”, “Salomon va Ibsol”, “Hayy ibn Yaqzon”, “Yusuf haqida qissa” kabi falsafiy mazmunli badiiy qissalarda o‘z aksini topgan.

Ibn Sinoning dunyoqarashi Arastu ta’limoti va Forobiy asarlari ta’sirida shakllandi. Uning fikricha, falsafaning vazifasi mavjudotni, ya’ni barcha mavjud narsalarni, ularning kelib chiqishi, tartibi, o’zaro munosabati, bir-biriga o’tishini zaruriyat, imkoniyat, voqelik, sababiyat omillari asosida har tomonlama o’rganishdan iborat. Olamda mavjud barcha narsalar ikkiga bo‘linadi: zaruriy vujud (vujudi vojib) va imkoniy vujud (vujudi

mumkin). Zaruriy vujud eng irodali, qudratli, dono Tangridir. Qolgan narsalar imkoniyat tarzida mavjud bo'lib, Tangridan kelib chiqadi. Zaruriy vujud bilan imkoniy vujud munosabati sabab va oqibat munosabatidir. Bu jarayonda olamdag'i hamma narsalar emanatsiya tarzida, ya'ni quyoshdan chiqayotgan nur shaklida asta-sekin amalga oshadi. Shu tartibda imkoniyat shaklida mavjud bo'lgan aql, jon, jism, ular bilan bog'liq osmon sferalari kelib chikadi. Bular hammasi substansiya (javhar) bo'lib, yana borliqda aksidensiya – narsalarning belgilari, rangi, hajmi, xillari mavjud. Jism shakl va moddadon tashkil topadi. Xudo abadiy, uning oqibati bo'lmish materiya ham abadiydir. Uning o'zi boshqa tayin jismlarning asosidir. Narsalarning moddiy asosi hech qachon yo'qolmaydi. Materiyaning eng sodda bo'linmas shakli 4 unsur: havo, olov, suv, tuproqdan iborat. Ularning turlichalig' o'zaro birikuvi natijasida murakkab moddiy narsalar tashkil topadi. Murakkab narsalar shaklan o'zgarishi mumkin, lekin ularning moddiy asosi bo'lgan 4 unsur yo'qolmaydi, abadiy saqlanadi.

Ibn Sino fikricha, avval tog'-toshlar, so'ng o'simlik, hayvonot va taraqqiyotning yakuni sifatida boshqa jonzotlardan aqli, tafakkur qilish qobiliyati va tili bilan farq qiluvchi inson vujudga kelgan. Hodisalarni chuqur bilish, fan bilan shug'ullanish insongagina xosdir. Inson bilimlari narsalarni bilish yordamida vujudga keladi. Bilish hissiy bilish va tushunchalar yordamida fikrlashdan tashkil topadi. Sezgida narsa-hodisalarning ayrim, tashqi belgilari, tayin tomonlari bilinsa, aql ularning mohiyatini, ichki tomonlarini abstraksiyalashtirish va umumlashtirish yordamida bila oladi. Inson aqli turli fanlarni o'rganish yordamida boyiydi, rivoj topadi. Ibn Sino tushunchasida bilimlarni chuqur o'rganish orqali xudoni bilish mumkin degan fikr yotadi. U mavjud bilimlarni egallagan insongina haqiqiy musulmon bo'la oladi, deb tushunadi. Ibn Sino mantiqni ilmiy bilishning, mavjudotni o'rganishning ilmiy usuli deb biladi. U mantiqiy usullar, ta'riflash, hukm, xulosa chiqarish, isbotlash

masalalarini chuqur o'rgandi, mantiq fanini Forobiydan so'ng bilishning to'g'ri metodi sifatida rivojlantirdi.

Ibn Sino o'z davridagi tabiiy fanlarning rivojiga ham ulkan hissa qo'shgan olimdir. Uning tabiiy-ilmiy qarashlari "Kitob ash-shifo"ning tabiiy fanlarga oid qismida bayon qilingan. Olimning ba'zi geologik jarayonlarga oid mulohazalari hozirgi ilmiy nazariyalarga juda yaqindir. Uningcha, vulqonlar aslida tog' paydo bo'lishi va zilzilalar bilan bog'liq. Tog' paydo bo'lishining o'zi esa 2 yo'l bilan bo'ladi: 1) kuchli yer qimirlashi vaqtida yer qobig'inинг ko'tarilishi; 2) suv orqali va havoning asta-sekin ta'siri natijasida chuqur jarliklar paydo bo'lib, natijada ularning yonida balandlik hosil bo'lib qolishi. Zilzilaning paydo bo'lishiga ham bir necha sabablar bor. Ularning biri gazsimon yo olovsimon bug' bo'ladi. Mana shu bug' harakatga kelib, yerni qimirlatadi. Suvlarning yer ostiga sizib kirishi, tekis yer chetining o'pirilishi, ba'zida tog' cho'qqilarining kuch bilan qulashi ham zilzilaga sabab bo'ladi. Olim fikricha, yer yuzasining ma'lum qismi bir mahallar dengiz tubi bo'lgan, zamon o'tishi bilan geologik jarayon oqibatida suv havzalari o'rni o'zgargan. Bir vaqtlar dengiz bo'lib, hozir quruklikka aylangan yerlarda dengiz hayvonlarining toshqotgan qoldiqlari saqlanib qolgan. U bunday yerlarga Kufa, Misr va Xorazm yerlarini kiritadi.

Ibn Sino mineralogiya (ma'danshunoslik) sohasida ham salmoqli ishlar qilgan. U minerallarning original tasnifini taklif etdi. Unga ko'ra, barcha ma'danlar 4 guruhga: toshlar, eriydigan jismlar (metallar), oltin-gugurtli yonuvchi birikmalar va tuzlarga bo'linadi. Bu tasnif to XIX asrgacha deyarli o'zgarishsiz saqlanib keldi. Ibn Sinoning geologiya va mineralogiyaga oid fikrlari uning "al-Af'ol va-l-infiolot" ("Ta'sir va ta'sirlanish") asarida ham uchraydi.

Ibn Sino boshqa tabiiy fanlar qatori kimyo bilan ham shug'ullangan va unga oid asarlar ham yozgan. Bu asarlarini u turli davrda yozgan bo'lgani uchun ularda Ibn Sinoning kimyoga bo'lgan munosabatining evolyutsion o'zgarib borishi yaqqol aks etgan. Uning kimyo sohasida

aytgan fikrlari o'sha davrdagi alkimyo uchun nihoyatda ilg'or edi. Ibn Sino 21 yoshida, ya'ni ilmiy faoliyatining bo'sag'asida metallar transmutatsiyasiga, ya'ni oddiy metallarni oltin va kumushga kimyoviy yo'l bilan aylantirish mumkinligiga ishongan va mutaqaddim kimyogarlarning kitoblari ta'siri ostida "Risola as-san'a ila-lbaraqiy" ("Baraqiyga atab san'at (al-kimyo)ga doir risola") nomli kichik asar yozgan. Lekin 30 yoshlarga borib, ilmiy tajribasi ortgan yosh olim bu sohadagi urinishlarning zoe ketishiga amalda ishonch hosil qiladi va "Risola al-iksir" ("Iksir haqida risola") asarida kimyoviy yo'l bilan sof oltin va kumush olish mumkinligiga shubha bildiradi. 40 yoshlarda yozishga kirishgan "Kitob ash-shifo"da esa kimyogarlarning transmutatsiya sohasidagi barcha harakatlari behuda ekanligini nazariy jihatdan isbotlashga urindi. Uning fikricha, o'sha vaqtida ma'lum bo'lган har bir metall o'zicha alohida bir modda bo'lib, kimyogarlar o'ylagandek bir yagona metallning turi emas. U oltinning alohida bir elementligini bilmasada, uni narsalardan yasab bo'lmasligini ham anglagan edi. Olimning bu nazariy mulohazalari o'rta asr kimyosining ilmiy kimyoga o'sib o'tishida muhim rol o'ynadi.

Ibn Sino botanika masalalari bilan ham juda ko'p shug'ullandi, chunki tabobatda ishlatiladigan dorivor moddalarning aksariyati o'simliklardan olinadi. U "Kitob ash-shifo" ning "an-nabot" ("O'simliklar") qismida o'simliklarning turlari, paydo bo'lishi, oziqlanishi, o'simlik a'zolari va ularning vazifalari, ko'payishi hamda o'sish sharoitlari haqida yozadi, ilmiy terminologiya yaratish sohasida ham ish olib boradi.

Ibn Sino yoshlidan astronomiyaga qiziqqan va bu qiziqish umrining oxirigacha saklangan. U 8 ta mustaqil risola hamda "Kitob ash-shifo" va "Donishnoma"ning riyoziyot qismlarida astronomiyaga alohida boblarni bag'ishlagan. Ptolemyning "Almagest"ini qayta ishlab, shuning asosida amaliy astronomiya bo'yicha qo'llanma yaratgan. Ibn Sino Jurjon shahrining geografik uzunligini o'z davri uchun butunlay yangi bo'lган usul – Oyning

eng baland nuqtasini kuzatish opqali aniqlab bergen. Beruniy “Geodeziya” asarida bu usulning to‘g‘riligi haqida gapirib, uni faqat Ibn Sino nomi bilan bog‘laydi. Bu usul Yevropada 500 yil dan keyin (1514-yil) astronom Verner tomonidan yangidan kashf qilindi. Matematika sohasida Ibn Sino Yevklidning “Negizlar” kitobini qayta ishlab, unga sharh va to‘ldirishlar kiritdi, geometrik o‘lchamlarga arifmetik terminologiya qo‘lladi, “son” tushunchasi doirasini “natural son”dan ancha kengaytirdi.

She’riyat sohasida ham Ibn Sino sezilarli iz qoldirdi. U o‘zining ayrim tibbiy asarlari (“Urjuza”)ni rajaz vaznli she’rda yozgan. Bundan tashqari, uning bir nechta falsafiy qissalari ham borki, ular keyinchalik fors-tojik adabiyotiga chuqur ta’sir ko‘rsatdi. Olimning fors tilida yozgan bir necha g‘azal va qit’alari, 40 dan ortiq ruboiylari mavjud. Uning she’riy merosi qisman rus va o‘zbek tillarida nashr etilgan.

Ibn Sino musiqa bobida Forobiyning ilmiy yo‘nalishini davom ettirgan yirik nazariyotchidir. Musiqa haqidagi “Javome’ ilm ul-musiqiy” (“Musiqa ilmiga oid to‘plam”) asari “Kitob ash-shifo” ning bir qismi bo‘lib, har biri bir necha bobli 6 bo‘limdan iborat. “An-najot”, “Donishnoma”larda musiqa haqida kichik bo‘limlar mavjud, “Tib qonunlari”, “Risolai ishq” va boshqalarda musiqaning ayrim masalalari haqida fikr yuritgan. O‘z davri musiqasining barcha muammolarini bayon etgan: nag‘ma, bo‘d (interval), lad tizimlari, iyqo, kuy yaratish, musiqa asboblari va h.k. Yevropada keyinchalik “softizma (tovushqator)” atalgan musiqaviy tuzilmani birinchi bo‘lib asoslagan. Ibn Sino musiqiy go‘zallik haqida mukammal ta’limotni ilgari surib, musiqani hamohanglikning eng kamolga yetgan turi deb biladi. Ritm masalalariga Sharqning boshqa musiqa nazariyotchilari singari aruz badiiy tizim bilan bog‘liq holda qaraydi. Tabib sifatida u musiqani muhim tibbiy vositalar jumlasiga kiritgan. Inson nutqiy ohanglari rivojlanishi natijasida musiqa paydo bo‘lganligi haqidagi nazariyasi hozirgi zamонавиу мусиқа назаријаларига mos keladi.

O‘zining barkamol shaxsn ni tarbiyalash g‘oyasida musiqani asosiy vositalar sirasiga kiritgan.

Ibn Sinoning tabobatda qilgan ishlari uning nomini bir necha asrlarga shu fan sohasi bilan chambarchas bog‘ladi. Olimning tabobat taraqqiyotidagi buyuk xizmati shundaki, u o‘zigacha o‘tgan turli xalq namoyandalari tomonidan asrlar davomida tib ilmi sohasida to‘plangan ma’lumotlarni saralab, muayyan bir tartibga soldi va ularni o‘z tajribalari bilan boyitgan holda ma’lum nazariya va qonun-qoida asosida umumlashtirdi. Bunga uning “Tib qonunlari” va bu asarning jahon tib ilmi tarixida tutgan mavqeい va qozongan shuhrati yorqin dalildir.

Ibn Sinoning tabobat sohasida qilgan ishlari o‘sha davr tabobatini bir necha asrlarga ilgarilatdi va ayrim sohalarda hatto hozirgi zamon tibbiyotiga yaqinlashtirdi ham. Olim yashagan davrda bu sohada antik olimlarning, xususan Gippokrat, Galen, Dioskorid va boshqaning ta’limoti ustuvor edi. Ibn Sino ham o‘z tibbiy faoliyatida ularning nazariy qarashlari va amaliy ko‘rsatmalariga tayandi, lekin ularni Hindiston, Xitoy, O‘rta Osiyo, Sharq olimlarining hamda o‘z tajribalari va bilimlari asosida rivojlantirdi va boyitdi. Ibn Sinoning daho tabib sifatida shuhrat qozonishining asosiy omillaridan biri – uning tib nazariyasini, xususan, anatomiya – inson gavdasi tuzilishini mukammal bilishligidir. Bosh suyagining tuzilishi, tishlarning tuzilishi to‘g‘risida u Galenga ergashgan holda to‘g‘ri fikrlagan. Uning ko‘zning anatomiysi, ko‘rish jarayonining qanday sodir bo‘lishi va unda ko‘z qorachig‘ining roli, ko‘z muskullarining joylashishi xususida yozganlari zamonaviy oftalmologiyaga yaqindir. Asablar, qon tomirlar, mushaklarning tuzilishi va funksiyalari to‘g‘risida yozganlari anatomiyaning amaliyot bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bu esa amaliy anatomiyaning asoschisi deb tan olingan rus olimi N.Pirogovni Ibn Sinoning izdoshi deyishga asos beradi.

Ibn Sino o‘tkir diagnost edi. Uning ba’zi tashxis usullari hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Perkussiya (a’zoga urish orqali

diagnoz qo‘yish)ni, xususan, assit va meteorizmni farqlashda, istisqoni aniqlashda (qoringa sekin urish orqali) qo‘llagan. Bu usul 600 yildan keyin venalik tabib Leopold Auenbrugger (1722–1809) tomonidan qayta kashf qilinib, yana 50 yildan so‘ng amaliyotga kirgan. Olim qon tuflash holatlari va nafas olish turlarini chuqur o‘rganib, ulardan tashhisda soydalangan. Ibn Sino turli kasalliklarning differensial diagnostikasida va gavdaning umumiy holatini aniqlashda tomir urishi, siydik va najasga qarab olinadigan belgilarga katta e’tibor beradi. Masalan, diabet (qand) kasalligini u siydikning holati, shu jumladan, undagi shirinlik moddasiga qarab tashhis qiladi. Diabet kasalligida siydikda qand moddasi bo‘lishini 1775-yilda ingliz olimi Dobson aniqlagan. Tabobat tarixida birinchi bo‘lib Ibn Sino vabo bilan o‘latni farqlagan, yuqumli kasalliklar bilan og‘rihan bemorlarni boshqalardan ajratgan holda saqlash kerakligini ta’kidlagan, meningit, oshqozon yarasi, sariq kasalligi, plevrit moxov, zaxm, qizamiq, suvchechak, kuydirgi kabi kasalliklarning belgilari va kechish jarayonini to‘g‘ri tasvirlab bergan. Quturish kasalligining ko‘rinishlari, uning yuqumli xarakteri, bemorning bu kasallikdagi holatlarini juda to‘g‘ri aniqlagan. 1804-yilda yevropalik olim Sinke quturgan hayvonlarning so‘lagi yuqumlilagini tasdiqlagan.

Psixik va asab kasalliklarini tavsiflash va davolashga ham olim ko‘p yangiliklarni kiritgan. Bu kasalliklarni davolashda u atrof muhitning, iqlimning, parhez va jismoniy mashqlarning ta’siriga hamda bemor kayfiyatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarga katta ahamiyat beradi. Bemorlarni davolashda olim 3 narsaga – tartib (parhez), dorilar bilan davolash va turli tibbiy tadbirlarni qo‘llashga ahamiyat berish kerakligini aytadi. Kasallikni davolashda ovqatlanish, ya’ni parhezni muhim omillardan deb hisoblaydi va har bir kasallik uchun o‘z ovqatlanish tartibini beradi. Chunonchi, jigar kasalliklarida ko‘proq mayiz, anjir, anor suvi iste’mol qilishni buyuradi. Bu esa bunday kasalliklarni hozirgi glyukoza va insulin bilan davolash usullarining qadimiyligi ko‘rinishidir.

Ibn Sinoning jarrohlik sohasini rivojlantirishdagi xizmatlari ham ulkandir. U o‘z tibbiy asarlarida zamonaviy jarrohlikda qo‘llanib kelayotgan ayrim usullarni bayon qiladi. Yiringli shishlarni kuydirish yoki pichoq bilan yorish, bavosir shishlarini tikish, tampon, o‘tkir modda yoki tikish bilan qon to‘xtatish, tomoqni kesib, nay qo‘yish (traxeotomiya) shular jumlasidandir. Yelka suyagining chiqishini oddiy bosish bilan davolash usuli hozirgacha “Avitsenna usuli” deb ataladi. Umurtqanining qiyshayishini Ibn Sino o‘zi ixtiro qilgan yog‘och moslama yordamida tuzatgan. Bu usulni XV asrda fransuz tabibi Kalo qayta kashf etgan. Suyaklarni gipslash usuli ham Ibn Sino tomonidan keng qo‘llangan, lekin u ham keyinchalik unutilib, yevropalik tabiblar tomonidan 1852-yilda amaliyotga yangi ixtiro sifatida qaytarilgan.

Hozir ko‘z jarrohligida qo‘llanayotgan usullarning qariyb barchasi Ibn Sinoga ma’lum bo‘lgan. Yomon sifatli saraton (rak) shishlari, qovuq toshlarini olish, istisqo, bavosirning operatsiyalari, bosh suyagining operatsiyasi va boshqalar Ibn Sino qo‘llagan muolaja usullaridandir. Jarrohlikda anesteziya (og‘riqni sezdirmaslik) masalasiga ham Ibn Sino katta e’tibor bergen. Buning uchun u afyun, mingdevona, nasha va h. k. narkotik ta’sirga ega bo‘lgan dorilardan foydalangan. Kasallikni davolashda Ibn Sino shaxsiy gigiena, uyqu va jismoniy mashqlarning ahamiyati kattaligini uqtirgan. Uning bir kasallikni boshqa bir kasallikni chaqirish yo‘li bilan davolash usuli diqqatga sazovordir. Masalan, u tutqanoqni davolashda to‘rt kunlik isitma bilan og‘rishni foydali deb biladi. Avstriyalik psixiatr Yu. Vagner-Yaureg (1857–1940) shunday usulni qo‘llab, zaxm kasalligini bezgakni yuqtirish orqali davolagani uchun 1927-yilda Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan.

Ibn Sino dorishunoslik sohasida chuqr tadqiqotlar olib borgan. U antik olimlarning farmatsiyasi asosida musulmon Sharqida paydo bo‘lgan yangi farmatsiyaning shakllanishiga yakun yasadi. Tabobatda sano, kofur (kamfara), rovoch, tamr-hindiy (hind

hurmosi) kabi dorilarning ishlatalishi, asal o‘rnida ko‘p dorilarning qand (shakar) asosida tayyorlanishi ham Ibn Sinoning xizmatidir. Uning dorivor o‘simliklarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash usullari hozirgi dorishunoslikdagi usullarga juda yaqindir. Tabiiy dorilar bilan bir katorda Ibn Sino birinchilardan bo‘lib kimyoviy usulda tayyorlangan dorilarni ham ishlatgan. Kasallikning turiga qarab avval sodda, so‘ng murakkab tarkibli dori bilan davolagan. Eng muhimi, u oziq-ovqatlarning shifo-baxsh ta’siriga katta ahamiyat berib, davolashni shunday mahsulotlardan (meva, sabzavot, sut, go‘sht va h. k.) boshlagan. Dori tayinlashda bemorning mijozи (issiq, sovuq, ho‘l, quruq), yoshi, iqlim sharoitini hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi. Ibn Sino farmatsiyasi juda puxta o‘ylangan farmakologik tadqiqot usuliga asoslanganligi bois o‘rta asr Yevropa farmatsiyasidan ancha o‘zib ketdi va zamonaviy dorishunoslikka yaqinlashdi. Olim ishlatgan dorilarning bir qanchasi hozirgi farmakopeyalardan mustahkam o‘rin olgan.

Ibn Sinoning tibga oid yozgan asarlarining 30 dan ortig‘i bizgacha yetib kelgan, ularning orasida “Qonun” kabi tibbiy ensiklopediya bilan bir qatorda tibning ayrim nazariy va amaliy masalalariga bag‘ishlangan turli hajmdagi “Urjuza fi-ttibb” (“Tibbiy urjuza”), “al-Adviyat al-qalbiya” (“Yurak dorilari”), “Daf’ almadorr al-kulliya an-al-abdon al-insoniya” (“Inson badaniga yetishgan barcha zararlarni yo‘qotish”), “Kitob al-qulanj” (“Qulanj haqidagi kitob”), “Maqola fi-nnabz” (“Tomir urishi haqida maqola”), “Risola fi-l-boh” (“Shahvoniy quvvat haqida risola”), “Risola fi tadbiri al-musofirin” (“Safardagilarning tadbiri haqida risola”), “Risola fi xifz as-sihha” (“Sog‘liqni saqlash haqida risola”), “Risola fi-s-sikanjubin” (“Sikanjubin haqida risola”), “Risola fi-lfasd” (“Qon olish haqida risola”), “Risola fi-lhindabo” (“Sachratqi haqida risola”) kabi risolalar ham bor.

Ibn Sino o‘z davridagi ilmlar tasnifi masalasiga ham jiddiy e’tibor bilan qaradi va bu sohada “Aqsom al-ulum al-aqliya”

(“Aqliy ilmlar tasnifi”) nomli asar yozdi. Unda olim aqliy ilmlarni hikmat – falsafa ilmlari deb olib, ularni nazariy va amaliy qismlarga bo‘ldi. Nazariy ilmlar haqiqatni bilishga, amaliy ilmlar yaxshi ishlarni bajarishga qaratilgan. Nazariy falsafa 3 ga bo‘linadi: 1) quyi darajadagi ilm, ya’ni tabiatshunoslik (tib, kimyo, astrologiya va boshqa); 2) o‘rta darajadagi ilm – matematika (geometriya, arifmetika, astronomiya, musiqa); 3) oliy darajadagi ilm – metafizika (ilohiyot). Amaliy falsafa ham uch qism (axloq, iqtisod va siyosat) ga bo‘linib, birinchisida bitta shaxs, uning fe'l-atvori qanday bo‘lishi haqida; ikkinchisida insonlarning oilada, xo‘jalik ishlarida bir-biri bilan munosabatlari qanday bo‘lishi va uchinchisida shahar yoki o‘lka miqyosida kishilarning bir-biri bilan munosabati qanday bo‘lishi, davlatni idora qilish haqida gap boradi. Bu turkumlar ham mayda tarmoqlarga bo‘linib ketadi. Asarda 29 ilm tarmog‘i tilga olinadi. Ibn Sino haqiqiy axloqiy fazilatlarga va ideal jamoaga shu mavjud dunyoda erishuv mumkin, jamiyatda insonlar o‘zaro yordam asosida yashashlari kerak deb ta’kidlaydi.

Jamiyat kishilarning o‘zaro kelishuvi asosida qabul qilinadigan adolatli qonunlar yordamida boshqarilishi lozimligini aytadi. Jamiyat a’zolarining hammasi bu konunga itoat etishlari, qonunni buzish vaadolatsizlik jazolanishi lozim. Agar hokim podshoning o‘zi adolatsizlikka yo‘l qo‘ysa, xalqning unga qarshi qo‘zg‘oloni to‘g‘ri va jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmog‘i kerak, deb hisoblaydi. O‘zining axloq to‘g‘risidagi fikrlarida insonlarning kundalik ishlaridagi eng zarur axloqiy munosabatlarga, kamtarlik, izzat-hurmat, jasurlik, to‘g‘rilik, sofdillik kabi xulqiy qoidalarga alohida e’tibor beradi.

Ibn Sino o‘zining boy va serqirra ilmiy merosi bilan keyingi davr Sharq va G‘arb madaniyatining rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Sharqning Umar Xayyom, Abu Ubayd Juzjoni, Nasriddin Tusiy, Fariduddin Attor, Ibn Rushd, Nizomiy Ganjaviy, Faxriddin Roziy,

Taftazoniy, Nosir Xisrav, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Ulug‘bek, Bedil, Bahmanyor ibn Marzbon kabi mutafakkir va olimlari o‘z asarlarida Ibn Sino ta’limoti va ilmiy g‘oyalarini davom ettirdilar. Yevropada allomaning asarlari XII asrdan boshlab lotin tiliga tarjima qilinib, universitetlarda o‘qitila boshlandi. Yevropaning mashhur faylasuf va tabiatshunos olimlaridan Jordano Bruno, Gundisvalvo, Vilgelm Overnskiy, Aleksandr Gelskiy, Albert fon Bolshtedt, Foma Akvinskiy, Rojer Bekon, Dante va boshqalar Ibn Sinoning ilg‘or fikrlaridan o‘z ijodlarida foydalandilar va uning nomini zo‘r hurmat bilan tilga oldilar.

Ibn Sino ilmiy merosini o‘rganish ishlari yangi davrga kelib jadal tus oldi va natijada chet el hamda O‘zbekistonda maxsus ilmiy yo‘nalish – sinoshunoslik vujudga keldi. “Tib qonunlari”ning lotincha tarjimasi to‘liq holda 40 marta nashr etildi. Uning ayrim qismlari nemis, ingliz va fransuz tillariga tarjima qilindi, olimning falsafiy va boshqa sohalarga oid asarlari ham jahonning bir necha tillarida nashr etildi, uning ijodiga oid qator yirik tadqiqotlar yaratildi.

### **Abu Ali ibn Sino ilmiy merosining o‘rganilishiga doir**

Jahonning turli kutubxonalarida Ibn Sino asarlarining qo‘lyozmalari saqlanadi, shu jumladan, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik universitetida ham alloma qalamiga mansub 50 asarning 60 ta qo‘lyozmasi mavjud. Yevropa olimlari Y.Bishmann, Y.Ruska, X.Korbin, Kruz Xernandez, L.Garde, A.Guashon, X.Ley, P.Morividj, J.Saliba hamda arab, turk va eron olimlari M.Najotiy, A.Nodir, J.Qanavotiy, Said Nafisiy, Yahyo Maxdaviy, Umar Farrux, E.Ihsono‘g‘lu, F.Rahmon, M.Muso, H.G‘araba, M.Shohvardiy va boshqalar Ibn Sino ijodini o‘rganishga ma’lum hissa qo‘shdilar. Rossiyalik olimlardan Y.Bertels, A.Borisov, I.Braginskiy, S.Grigoryan, B.Petrov, B.Rozenfeld, V.Ternovskiy, A.Sagadeyev, M.Rojanskaya, Tojikiston olimlaridan S.Ayniy, M.Dinorshoyev,

T.Mardonov, N.Rahmatullayev, A.Bahovuddinov, Y.Nuraliyev bu yo‘nalishning rivojlanishiga xizmat qildilar.

Rus antropolog M.Gerasimov, bir necha tarixiy shaxslar qatori, Ibn Sinoning ham kalla suyagi asosida haykal-portretini yaratgan. Andijon tibbiyot instituti xodimlari (Y.Otabekov, Sh.Hamidullin, Y.Sokolova) Ibn Sinoning ilmiy asoslangan timsolini haykal-byustda tasvirladilar (1965). O‘zbekistonlik rassom S.Marfin Ibn Sino badiiy portretini ishlagan (1968). Ibn Sino haqida “O‘zbekfilm” studiyasi ijodkorlari (rej.E.Eshmuxamedov; O.Agishev, E.Eshmuhamedov ssenariysi) “Dahoning yoshligi” tarixiy-biografik badiiy filmini (1984) yaratdilar.

O‘zbekistonda Ibn Sino asarlarini tarjima va tadqiq etishda sharqshunos olimlar S.Mirzayev, A.Murodov, A.Rasulov, U.Karimov, Y.Zavadovskiy, A.Semyonov, M.Sale, P.Bulgakov, Sh.Shoislomov, E.Talabov, H.Hikmatullayevlar ulkan ishlarni amalga oshirdilar. T.Qori-Niyoziy, I.Mo‘minov, M.Xayrullayev, M.Boltayev, A.Axmedov, G.Matvievskaya, V.Jumayev, N.Majidov, O.Fayzullayev, M.Baratovning monografiya va maqolalarida Ibn Sino ijodining turli qirralari tadqiq etilgan.

G‘arbda Avitsenna nomi bilan mashhur ulug‘ mutafakkir Abu Ali ibn Sino o‘rta asrlardayoq islom olamining nufuzli olim-faylasifi deya nom qozongan va jahon ilm-fani, madaniyatiga beba ho ulush qo‘shgan. G‘arbda Uyg‘onish davri antik davr merosini, asosan qadimgi yunon faylasuflari – Suqrot, Platon, Aristotel va ularning izdoshlari merosini chuqur o‘rganishga sharoit yaratib berdi. Bu davrda Abu Ali ibn Sinoning tabobat va falsafa sohasidagi asarlari lotin tiliga o‘girilib, asosan, Rim va Venetsiyada nashr qilindi. Allomaning sharqu-g‘arbda birdek shuhrat topgan “Tib qonunlari” asari XII asrdayoq lotin tiliga tarjima qilinib, 1500-yildan 1674-yilgacha 60 marta ketma-ket nashr qilingan va bir necha asrlar davomida shifokorlarning dasturilamal qo‘llanmasi bo‘lib kelgan. 1608-yili Venetsiyada kitobning bezaklangan nodir nashri chop qilingan.

Kiyev Rusining Markaziy Osiyo bilan savdo aloqalari orqali Ibn Sino asarlari rus xalqiga ham yetib borgan. Ulug' allomaning turli sohalardagi merosini o'rganish barobarida musiqa nazariyasi xususidagi nuqtai nazarlari barcha davrlarda rus tadqiqotchilari diqqat markazida turdi. XIX asrga kelib – Tib qonunlarining ayrim qismlari nemis, fransuz, ingliz tillariga ham tarjima qilinadi.

Ibn Sinoning G'arbda tarjima qilingan dastlabki asarlari – ash-Shifo, – Kitob an-najot va asosan – Tib qonunlaridir. Ushbu asarlar fransuz mutafakkirlari Dominik Gundisalvo, Giyom d'Overenskiy, Aleksandr Gelskiy, Jan de lya Roshel, Stefan Brabantskiy va boshqalar ijodiga kuchli ta'sir o'tkazgan. Buyuk mutafakkirning falsafiy asarlari G'arbda, xususan, Fransiyada XIII asrda yuksak shuhrat cho'qqisiga erishdi va lotin sxolastikasining rivojlanishi bilan bog'liqdir. Shu yo'sinda Ibn Sino falsafasi ham xuddi tabobati singari e'tibor qozonib, yangi platonizm g'oyalari bilan G'arbgaga kirib bordi. Shuni qayd qilish kerakki, Abu Ali ibn Sino ta'limotining g'arb filosof va teologlari tomonidan yuksak e'tirofga sazovor bo'lish sabablaridan biri uning g'oyalarni Avgustin Blajen g'oyalariiga yaqin turishi, o'xshashligi edi. Avgustin Blajen ilgari surgan g'oyalarni xristian dini ta'siri ostida shakllangan edi. Cherkovning diniy aqidalarini nazariy asoslashga intilgan o'rta asr mutafakkirlari (sxolastlar) orasida ko'plab olimlar bo'lib, ulardan Giyom d'Overenskiy, Jan de lya Roshellar avliyo Avgustinning shogirdlari va izdoshlari edilar. Chuqur tahlilli mutafakkirlar Ibn Sinoning ruh muammosi haqidagi fikrlari badantarbiyadan keyin hamsov uvdida cho'milishdan saqlanish kerakligini uqtiradi. Bundan juda kuchli odamlargina mustasnoligini ham ta'kidlab o'tadi. Shuningdek, cho'milish miqdorining ahamiyati inson salomatligi uchun muhimligini ham esdan chiqarmaslikni o'z asarlarida sifatida yozib qoldirgan.

Ochiq suv havzalari, ariq va ko'llarda suvga cho'milish maqsadida borib sovuq suvga cho'milish qoidalariga amal

qilmasdan suvga cho‘kkan, ammo turli sabablar bilan haётga boshqadan qaytgan 11 ta insonlar bilan o‘tkazilgan so‘rovnomalarda va tez tibbiy yordam xodimlarining aniqlashicha, insonlar sovuq suvga cho‘milgan paytida organizmda modda almashinuvining susayishi, asab-nerv tizimining tortishishi va qon bosimi-ning pasayishi aniqlangan. Bularning natijasida odamlar es-hushini yo‘qotishi, oshqozon va nafas tizimiga suv yutish (asfeksiya) natijasida komaga tushishi hollari aniqlangan.

Ibn Sino tomonidan bundan ming yillar oldin aytib o‘tilgan sovuq suvga cho‘milish qoidalari hozirgi kunda ham tashviqot – targ‘ibot mavzularida o‘z o‘rnini yo‘qotgan emas.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar:**

1. Abu Ali bin Sino ilmiy merosi G‘arbda qaysi olimlar tomonidan o‘rganilgan?
2. Abu Ali bin Sinoning Xorazm Ma’mun Akademiyasidagi faoliyati haqida esse yozing.
3. Abu Ali bin Sino tibbiyotdan tashqari ilmning yana qaysi sohalari bilan shug‘ullangan?
4. Abu Ali bin Sinoning axloqiy qarashlari haqida nimalarni bilasiz?
5. Abu Ali bin Sino tomonidan ishlab chiqilgan ilmlar tasnifining o‘ziga xos jihatlari nimalardan iborat?

### **Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. Комилов Н. Ибн Сино ва Данте. – Тошкент. 1983.
2. Қориев М. Ибн Сино. – Тошкент. 1995.
3. Машарипова Г. Абу Али ибн Сино “Усул’ илм ал-хандаса” асарининг математик манба сифатида фан тарихидаги ўрни. – Тошкент. 1995.
4. Мухитдинова Ф. Шарқийониш давримутафаккирларининг сиёсий-ҳуқуқий таълимотлари( Абу Наср Форобий, Абу Райхон

Беруний, Абу Али ибн Синонинг сиёсий-хукукий қарашлари асосида). – Тошкент. 2010.

5. Ирисов А. Ибн Сино – маърифатпарвар адиб. – Урганч. 2013.

6. Ибн Сино. Тааланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент. 1993.

7. Ибн Сино. Тааланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент. 1993.

## MAVZU: ABU ALI IBN SINO ILMIY ASARLARI TAHLILI

### Reja:

1. Abu Ali ibn Sino asarlarining dunyo ilmiy merosiga qo'shgan hissasi

2. Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari" asari va uning o'rzanilishi.

3. Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari" asarining o'zbek va rus tilidagi tarjimalari haqida.

Tayanch so'z va iboralar: falsafiy qarashlari, "Salomon va Ibsol", "Hayy ibn Yaqzon", Baxmanyor ibn Marzbon, "Tadbir ul-manzil", Kitob ash-Shifo.

### Abu Ali ibn Sino asarlarining dunyo ilmiy merosiga qo'shgan hissasi

Ibn Sino asarlari o'rta asrlarda Yevropada ilmiy til hisoblangan lotin tiliga, u orqali Yevropaning boshqa tillariga tarjima etilgan. Ibn Sino ilmiy risolalardan tashqari, chuqur falsafiy mazmunli badiiy obrazlar va ma'lum voqealar orqali ifoda etuvchi "Tayr qissasi", "Salomon va Ibsol", "Hayy ibn Yaqzon" kabi falsafiy qissalar yaratgan. Ibn Sino zamonasining yetuk shoiri ham bo'lgan. U Sharq, xususan, fors poeziyasida ruboiy janrining asoschilaridan biri bo'lib, ruboilyari o'zida chuqur falsafiy xulosalarni ifodalaydi. Ibn Sino arabcha qitalar ham yozgan (Uning she'riy merosi qisman rus va uzbek tillarida nashr etilgan). Ibn Sino tabobat

masalalarini ommabop holda nazm bilan izohlovchi “Urjuza” nomli tibbiy asar yaratdi. Uning Aristotel (Arastu) ta’limoti xususida Abu Rayxon Beruniy bilan va o‘zining shogirdi – ozarbayjonlik mutafakkir Baxmanyor bilan yozishmalari fan olamida mashhur. Ayniqsa, tabobat, u bilan bog‘liq holda anatomiya, psixologiya, farmakologiya, terapiya, xirurgiya, diagnostika, gigiena kabi ilmlar ibn Sino ijodida bir qancha yangi ixtiolar bilan boyidi va yangi bosqichga ko‘tarildi. Bulardan tashqari, kimyo, mineralogiya, astronomiya, matematika, o‘simgilik dunyosi, geologik jarayonlarni o‘rganish sohasida ham u yangi-yangi fikrlarni olg‘a sura oldi. Ibn Sinoning tibbiyot sohasidagi asarlaridan “Kitob al-qonun fit-tibb” (“Tib qonunlari”), “Kitob ul-qulanj” (“Ichak sanchiqlari”), “Kitob un-nabz” (“Tomir ko‘rish haqida kitob”), “Fuj ul-tibbiya joria fi majlisih” (“Tib haqida hikmatli so‘zlar”), “Tadbir ul-manzil” (“Turar joyning tuzilishi”), “Fil-hindubo” (“Sachratqi o‘simgili haqida”), “Risola fi-dastur it-tibbiy” (“Tibbiy ko‘rsatmalar haqida”) kabi asarlari mavjud. Uning tibbiyotga oid qomusiy asari “Kitob al-qonun fit-tibb” 5 mustaqil katta asardan tarkib topgan: ularning har biri ma’lum sohani izchil, har tomonlama yoritib beradi.

Birinchi kitobda tibbiyotning nazariy asoslari, uning predmeti, vazifalari, bo‘lim va metodlari, kasallikning kelib chiqish sabablari, belgilari, sog‘liqni saqlash yo‘llari, kishi anatomiyasi haqida mazmundor, aniqligi bilan kishini taajjubda qoldiruvchi qisqacha ocherk, sog‘liqni qanday saqlash kerakligi haqidagi ta’limot (keyinchalik gigiena deb nomlangan) bayon etiladi. “Qonun”ning bu kitobini hozirgi zamon ichki kasalliklar propedevtikasi darsligiga tenglashtirish mumkin. “Qonun”ning oddiy dorilarga bag‘ishlangan ikkinchi kitobida 800 ga yaqin dorining xususiyatlari, ularni tayyorlash va iste’mol qilish usullari bayon etilgan. Ibn Sino simob, uning birikmalarini dori qilib ishlatishni birinchi bo‘lib tavsiya etadi, sharobni quvvatga kirituvchi, jarohatlarni tozalovchi dori sifatida ishlatadi.

Uchinchi kitobda ayrim organlar (hatto soch, tirnoqlar)ning kasalliklari, ularni davolash usullari bayon etiladi, uni maxsus patologiya darsligi deb atasa ham bo‘ladi. Bu kitobda bosh miya, nerv, ko‘z, qulqoq, burun, tomoq, qorin, tish, yurak, jigar, buyrak kasalliklari batafsil tahlil qilinadi. “Qonun”ning to‘rtinchı kitobi organizmning umumiy kasalliklariga bag‘ishlangan. Unda isitmalar, o‘smalar, ularning sababi, xirurgik kasalliklar (suyak sinishi, chiqishi, jarohatlanish) va ularni davolash usullari, har xil dorilardan zaharlanish va bunda ko‘riladigan choralar to‘g‘risida ma’lumot beriladi. Chechak, qizamiq, moxov, vabo va boshqa yuqumli kasalliklar tafsir etiladi. “Qonun”ning beshinchı kitobida murakkab dorilarning organizmga ta’siri, ularni tayyorlash, iste’mol qilish usullari bayon qilingan. Bu kitob dorishunoslik ilmiga – farmakologiyaga bag‘ishlangan.

Tibbiyotning asosiy vazifasi, uning ta’biricha, “inson sog‘lig“ini saqlash, agar kasallik paydo bo‘lgan bo‘lsa, bu kasallikni keltirib chiqargan sabablarni aniqlash va ularni yo‘qotish orqali sog‘liqni tiklashdan iborat”. Ibn Sino fikricha, tib ilmida nazariy bilimlar va amaliyat o‘zaro bog‘liq bo‘lishi, bir-biriga asoslanmog‘i zarur, aks holda urivoj maydi, o‘zmaqsadiga erisha olmaydi. “Tib ilmi avvalo ikki qismga – nazariy va amaliy qismlarga bo‘linadi... Nazariya deb ataluvchi qismi tabiblarning fikrlarini ifoda qilib, maxsus amaliya deb ataladigan qismi tadbir va amalning qanday bo‘lishi kerakligini o‘rgatadi. Tibning amaliy qismi ikkiga bo‘linadi. Birinchi qismi sog‘lom tanlarning tadbirini bilish bu sog‘liqni saqlashga taalluqli bo‘lgani uchun sog‘liqni saqlash ilmi deb ataladi. Ikkinci qismi – kasal tanning tadbirini bilish bo‘lib, sog‘lom holatga qaytarish yo‘llarini ko‘rsatadi, bu davolash ilmi deb ataladi». Ibn Sino kasallikni o‘rganishda obyektiv sharoitni har tomonlama bilishga katta ahamiyat berdi, muhitdagi turli tabiiy narsalar, suv, havo orqali kasallik tarqatuvchi ko‘zga ko‘rinmaydigan “mayda hayvonotlar” haqidagi fikrni olg‘a surdi.

“Qonun” 800 yil davomida hakimlar uchun asosiy qo‘llanma bo‘lib keldi. O‘rta asrlarda “qonun” Sharqdagina emas, balki g‘arb-mamlakatlarining universitetlarida ham talabalar uchun tibbiyotdan yagona qo‘llanma edi.

Ibn Sinoning “Kitob ush-shifo” asarida turli tibbiyot ilmlariga: botanika, geologiya, mineralogiya, astronomiya, matematika, kimyo-ga oid ko‘p ma’lumotlar keltiriladi. Uning tog‘larning vujudga kelishi, yer yuzasining davrlar o‘tishi bilan o‘zgarib borishi, zilzilaning sabablari kabi turli jarayonlar haqidagi fikrlari keyinchalik geologiya ilmining mustaqil ravishda rivoj topishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Ayrim joylarning bir vaqtlar dengiz bo‘lganligi, shu sababli qattiq qatlamlarda turli dengiz hayvonlarining izlari saqlanib qolganligi haqida ham turli misollar asosida fikr yuritiladi; meteoritlar, vulkanlar haqida ma’lumotlar keltiriladi. Mineralogiya ilmining rivojida ham ibn Sinoning xizmati katta. U minerallarni 4 guruhga ajratadi:

- 1) toshlar;
- 2) eriydigan jism (metal)lar;
- 3) oltingugurtli yonuvchi jismlar;
- 4) tuzlar.

Kimyoda ham ibn Sino zamonasining bilimlarini umumlashtirishga harakat qilib, turli asarlar yezdi, tajribalar o‘tkazdi. Xususan, uning organik kimyo sohasidagi fikrlari keyingi davr mutaxassislari tomonidan yuqori baholandi. U oddiy metallni qimmatli metallga aylantirish ustida fikr yurituvchi alximiklarni tanqid qildi. Ibn Sino astronomiya sohasida Ptolemeyning geosentrik nazariyasidan tashqariga chiqmagan bo‘lsa-da, tabiiy hodisalar-ning ichki sababiy bog‘lanishini aniqlashga harakat qildi, inson hayoti va ijtimoiy hodisalarini osmon jismlari harakati, holatiga bog‘lovchi astrologiyaga shubha bilan qaradi, turli tajribalar o‘tkazish uchun yangi astronomik asbob yaratish, botanikada turli o‘simliklarning tabiiy xususiyatlarini o‘rganish, ilmiy terminologiya yaratish sohasida ish olib bordi.

Ibn Sino dunyoqarashi Forobiy asarlari ta'sirida shakllandi, u ijtimoiy-falsafiy masalalarda Forobiy qarashlarini davom ettirdi, ilg'or falsafiy oqimni yangi tabiiy-ilmiy fikrlar bilan boyitib sistemalashtirdi va yangi bosqichga ko'tardi. Ibn Sino fikricha, falsafaning vazifasiga mavjudotni – barcha mavjud narsalarni, ularning kelib chiqishi, tartibi, o'zaro munosabati, biridan ikkinchisiga o'tishini har tomonlama tekshirish uchun zaruriyat, imkoniyat, voqelik, sababiyat prinsiplarini asos qilib oldi. Olam – barcha mavjud narsalar ikkiga bo'linadi: zaruriy vujud (vujudi vojib) va imkoniy vujud (vujudi mumkin). Zaruriy vujud hech narsaga bog'liq bo'lмаган bir butunlikni tashkil etib, u eng irodali, qudratli, dono Tangridir. Qolgan hamma narsalar imkoniy tarzda mavjud bo'lib, zaruriy vujud – Tangridan kelib chiqadi. Vujudi vojib va vujudi mumkin – sabab va oqibat munosabatidadir. Bu jarayon quyoshdan chiqayotgan nur shaklida asta-sekin amalgalashadi. Shu tartibda imkoniyat shaklidagi mavjud bo'lган aql, jon (nafs) va jism, ular bilan bog'liq holda osmon sferalari kelib chiqadi, mavjud narsalarga aylanadi. Bular hammasi substansiya (javhar) dir. Bundan tashqari borliqda aksidensiya (obraz) – narsalarning belgilari, rang, hajmi, hidi va boshqa hislari mavjud. Jism shakl va moddadon tashkil topadi. Xudo abadiy, uning oqibati bo'l mish materiya ham abadiydir. Uning o'zi boshqa konkret jismlarning asosidir. Narsalarning konkret ko'rinishlari, shakllari o'zgaradi, lekin ularning moddiy asosi yo'qolmaydi. Materiya doim vujudga kelishi mumkin bo'lган narsalardan avval mavjud bo'lib, bu narsalar ularni tashkil etuvchi materiyaga muhtojdir. Materianing eng sodda, bo'laklarga bo'linmaydigan shakli to'rt unsur: havo, olov, suv, tuprokdan iborat.

Ularning turlicha o'zaro birikuvi natijasida murakkab moddiy narsalar tashkil topadi. Murakkab narsalar o'zgarib, turli shakllarga ega bo'lishi mumkin, lekin ularning moddiy asosi bo'lган to'rt unsur yo'qolmaydi, abadiy saqlanadi. Uning fikricha, avval tog‘-

toshlar, so‘ng o‘simlik, hayvonot va taraqqiyotning yakuni sifatida inson vujudga kelgan. Ig‘son boshqa barcha hayvonot olamidan so‘zi, tili va aqli, tafakkur qilishi bilan farq qiladi. Real hodisalarni chuqur bilish, fan bilan shug‘ullanish insongagina xosdir. Ibn Sino “Risolatun fi taqsim al-mavjudot” asaida butun borliqni tarkibiy qismlarga bo‘lib, birma-bir sanaydi va ularga ta’rif berib o‘tadi. Vujudi vojib, vujudi mumkin, substansiya, aksidensiya, materiya, shakl, aql, unsur, jism, quvvat, sezish, mineral, hayvon, nutq, lison kabi kategoriyalar bu risolada qisqacha ta’riflanadi.

Inson bilimlari narsalarni bilish yordamida vujudga keladi. Bilish hissiy bilish va tushunchalar yordamida fikrlashdan tashkil topadi. Inson aqli turli fanlarni o‘rganish yordamida boyiydi, rivoj topadi. Bunda, xususan, u mantiq ilmiga katta e’tibor beradi. Aql har qanday bilishning va amaliy faoliyatning mezoni sifatida talqin etiladi. “(Aql) tarozisida o‘lchanmagan har qanday bilim, – deb yozadi ibn Sino, – chin bo‘lolmaydi, demak, u haqiqiy bilim emas”. O‘rta asrda Yaqin va O‘rta Sharq, jumladan, Markaziy Osiyo falsafasida aql nazariyasi juda muhim o‘rin egallaydi.

Ibn Sino ijodida fanning strukturasini tekshirish, ilmlarning tartibini aniqlash, ularni tasnif qilishga e’tibor alohida o‘rin egallaydi. Bu masalada ham olim Forobiy boshlab bergen fan-ar tasnifi haqidagi masalani yanada taraqqiy ettirishga harakat qiladi. Ibn Sinoning falsafiy sistemasini ifodalovchi asarlarida (“Kitob ush-shifo”, “Kitob un-najot”, “Donishnoma”) falsafiy bilimlar: mantiq, fizika, matematika, metafizika tartibida beriladi. Bulardan mantiq – bilishning metodi, mavjudotni o‘rganish, u haqda fikr yuritishning ilmiy usuli sifatida talqin etiladi. “Mantiq, – deb yozadi ibn Sino, – insonga shunday bir qoida beradiki, bu qoida yordamida inson xulosa chiqarishda xatolardan saqlanadi”. Mantiq yordamida inson haqiqiy bilimni yolg‘ondan ajratadi va noma’lum narsalarni o‘rganadi. U mantiq ilmini tadqiq etishga katta e’tibor beradi, unga maxsus risolalar bag‘ishlaydi.

Xususan, u mantiqiy usullar, ta'riflash, hukm, xulosa chiqarish, isbotlash masalalarini o'rganishga katta hissa qo'shdi, mantiq sanini Forobiydan so'ng bilishning to'g'ri metodi sisatida rivojlantirdi. Mantiqdan tushqari barcha qolgan ilmlarni ibn Sino tabiat va ijtimoly hodisalar haqidagi ilmlar sisatida o'zining "Aqsom ul-ulum ul-aqliya" ("Aqliy bilimlar tasnifi") asarida alohida-alohida sanab, ta'rif berib o'tadi. Ibn Sino falsafiy ilmlarni avvalo ikkiga bo'ladi: nazariy va amaliy ilmlar. Nazariy ilmlar haqiqatni bilishga, amaliy ilmlar yaxshi ishlarni bajarishga qaratilgan. Falsafaning nazariy qismi uchga bo'linadi: 1) quyi darajadagi ilm, ya'ni tabiatshunoslik; 2) o'rta darajadagi ilm — matematika; 3) oliy darajadagi ilm — metafizika. Falsafaning amaliy qismi ham uchga bo'linadi:  
a) shaxs haqidagi ilm;  
b) insonning o'zaro munosabatlari haqidagi ilm;  
v) davlatni, mamlakatni boshqarish haqidagi ilm. Nazariy-falsafiy ilmlarga kiruvchi har uch turdag'i ilmlar asosiy va yordamchi bo'laklarga ajraladi; tabiatshunoslik ilmlari astrologiya, meditsina, alkimyo kabi yetti xil tarmoqni o'z ichiga oladi. Matematika esa arifmetika, geometriya, astronomiya, musiqa nomi bilan 4 tarmoqqa bo'linadi. Asarda 29 ta ilm tarmog'i tilga olinadi.

Ibn Sino o'z dunyoqarashida panteistik prinsipga asoslanadi: Tangri va borliq bir-biriga zid, bir-birini inkor etuvchi narsalar emas, aksincha, ular bir butun holda mavjudotni tashkil etadi. Abadiylik Tangriga xos. Tangri va tabiat ma'lum pog'onalar yordamida bog'lanadi. Uzun va yaxlit zanjirning bir tomonida yaratuvchi Tangri — zaruriy vujud, ikkinchi chekkasida tabiat yotadi. Ibn Sino haqiqiy axloqiy fazilatlarga va ideal jamoaga shu mavjud dunyoda erishuv mumkin, jamiyatda insonlar o'zaro yordam asosida yashashlari kerak deb ta'kidlaydi. Jamiyat kishilarning o'zaro kelishuvi asosida qabul qilinadigan adolatli qonunlar yordamida boshqarilishi lozimligini ta'kidlaydi.

Jamiyat a'zolarining hammasi bu qonunga itoat etishlari, qonunni buzish va adolatsizlik jazolanishi, basharti podshoning o'zi adolatsizlikka yo'l qo'sya, xalqning unga qarshi qo'zg'oleni to'g'ri va jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanmog'i lozim. Ibn Sino o'zining ko'p tarmoqli mahsuldor ijodi, boy merosi bilan jahon madaniyati taraqqiyotida katta rol o'ynadi. O'z ijodi, ilmiy faoliyatida ibn Sino Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlaridagi yuqori madaniy ko'tarinkilik, madaniy "uyg'onish"ning ma'naviy yutuqlarini mujassamlashtira oldi, bu bilan butun Sharq va Yevropadagi ma'rifat, madaniyat taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. U o'z davrida Sharq va Yevropada "Shayx ur-rais", "Olimlar boshlig'i", "Tabiblar podshohi" kabi eng buyuk nomlarga sazovor bo'ldi. Ibn Sino mashhur murabbiy sifatida Abu Ubayd Jurjoniy, Umar Isfahoniy, Muhammad Sheroziy, Ahmad Ma'suriy, mashhur Ozarbayjon mutafakkiri Baxmanyor ibn Marzbon, Yusuf Iyloqiy, ajoyib olim va shoir Umar Hayyom kabi shogirdlarini tarbiyaladi. Uyg'onish davri miniatyura va suratlarida ibn Sino mashhur qadimgi yunon olimlari Aristotel, Galen, Gippokrat, Ptolemey, Evklid bilan bir qatorda tasvirlangan. O'simliklarning birinchi ilmiy tasnifini yaratgan tabiatshunos Karl Linney doimo yashil bo'lib turuvchi bir o'simlikni Ibn Sino sharafiga "Avitseniya" deb atadi.

Ibn Sino asarlari Yevropada XII asrdan boshlab lotin tiliga tarjima qilina boshladi. "Tib qonunlari" asarining o'zi lotinchada 30 martadan ortiq nashr qilindi. "Kitob ush-shifo"ning ko'p bo'limlari, mantiq, musiqa, yerning tuzilishi, geologik jarayonlar, metafizikaga oid qismlari ham lotinchada nashr etildi. So'nggi ilmiy tadqiqotlar Ibn Sinoning Sharq adabiyotiga ham ta'sir ko'rsatganligini, chuqur falsafiy mazmunni ifodalovchi ruboiy va falsafiy qissalar janrining taraqqiyotiga turtki bergenligini ko'rsatadi. Ibn Sino xalq orasida shu darajada hurmatga sazovor bo'ldiki, u folklor qahramoniga aylanib ketdi. Sharq xalqlarida

uning to‘g‘risida turli hikoya, rivoyatu afsonalar vujudga keldi. Jahon olimlari Ibn Sino asarlari, uning faoliyati to‘g‘risida ko‘pdan beri ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boradilar. Hozirda jahondagi deyarli barcha tillarda ibn Sino haqida asarlar yaratilgan.

### Abu Ali ibn Sinoning “Tib qonunlari” asari va uning o‘rganilishi

Abu Ali ibn Sino “Tib qonunlari”ning Birinchi kitobida tibning nazariy masalalari, Ikkinci kitobida sodda dorilarning tavsifi va tibbiy ta‘siri, ya’ni dorishunoslik masalalari ko‘rilgan edi. Asarning uchinchi kitobi uning eng katta qismi bo‘lib, u odam tanasi a’zolarining kasalliklari tashxisi va muolajasiga bag‘ishlangan. Unga, o‘rta asr tibbiy an’anasiga ko‘ra, boshdan oyoqqacha bo‘lgan a’zolarda sodir bo‘ladigan, o‘sha davrda ma’lum ko‘p kasalliklar kiritilgan. Uchinchi kitob hajm jihatidan katta bo‘lgani uchun asarning avvalgi nashrlarida u ikki jildga bo‘lib chop etilgan edi, uchinchi nashrda ham shu shakl saqlandi. Zero, bu nashr “Tib qonunlari” Uchinchi kitobining 1979-1980-yillarda amalga oshirilgan ikkinchi nashri asosida tayyorlandi.

Uchinchi nashrda ham matnning bo‘linishi avvalgisidek qoldirildi, ya’ni birinchi jildga I-XII fanlar va ularga tegishli izoxlar, ikkinchi jildga esa XIV-XXII fanlar hamda butun Uchinchi kitobga tegishli ko‘rsatkichlar kiritildi. “Qonun”ning Uchinchi kitobini o‘zbek tiliga tarjima qilishda asos qilib bu asarning XII asrda ko‘chirilgan va Leydenda saqlanayotgan qo‘lyozmasi olingan. “Qonun”ning oldingi ikki kitobida qilinganidek, Uchinchi kitobda ham tarjima uchun yordamchi manba sifatida uning 1877-yilda Buloq (Misr)da bosilgan nusxasidan foydalilanilgan (bu kitob B sigli bilan belgilangan). B bilan L orasidagi muhim farqlar izohlarda ko‘rsatilgan. Ushbu nashrda izoh va ko‘rsatkichlar qayta ko‘rib chiqilib “Markaziy Osiyo xalqlari yozma merosini o‘rganish:

manbashunoslik va matnshunoslik tadqiqotlari” fundamental loyihasi doirasida A.Rasulov va A.Qayumov tarjimalari asosida nashrga tayyorlangan.

### **Abu Ali ibn Sinoning “Tib qonunlari” asarining o‘zbek va rus tilidagi tarjimalari haqida**

Abu Ali ibn Sinoning (980-1037) – “Tib qonun”lari asari 1012-1024-yillar mobaynida arab tilida yaratilgan. Bu til bir necha asr davomida islam dini tarqalgan mamlakatlarda umumiyligi ilmiy til vazifasini o‘tagani tufayli shu hududlarda barcha ilmiy asarlar, shu jumladan, – qonun ham arabcha aslida keng tarqaladi. Ibn Sino vafotidan 100 yil o‘tar-o‘tmas qonun Yevropaga ham yetib keladi va kremonalik Herard tomonidan lotin tiliga tarjima qilinadi. Shu vaqtida uning ibroniyligiga tarjimasi ham amalga oshiriladi. Shu tarzda – Qonun 500 yildan ortiq muddatda Yevropa tabiblari qo‘lidan tushmaydigan asarga aylanadi. Keyinchalik XIX asrga qadar Sharqda turli tabiblar tomonidan unga arab va fors tillarida sharhlar yozildi.

XIX-XX asrlarda – Qonunning ayrim qismlari nemis, fransuz va ingliz tillariga, keyinchalik urdu va fors tillariga ham tarjima qilinadi. Biroq, bu asar XX asrning o‘rtalariga qadar hozirgi zamon tillarining birontasiga ham to‘la ravishda o‘girilmagan, zero, bu juda mashaqqatli ish bo‘lib, uni amalga oshirish uchun klassik arab tilini puxta bilgan filolog olimlar bilan tubbiyot tarixi mutaxassislarining hamkorlikda ishlashlari talab etilar edi.

1950-yili Ibn Sino tug‘ilganiga hijriy yil hisobi bilan 1000 yil to‘lganini xalqaro miqyosda nishonlash to‘g‘risida Jahon Tinchlik Qo‘mitasining murojaati chiqadi. Unga javoban O‘zbekiston sharqshunos olimlari Ibn Sinoning tabobatga oid shoh asari – “Tib qonunlari”ni arabchadan o‘zbek va rus tillariga tarjima qilishdek mushkul, ammo sharafli vazifani o‘z zimmalariga oladilar. Bu ishni amalga oshirish FA Sharqshunoslik institutining peshqadam

arabshunos olimlariga topshiriladi. Ishchi guruhida Sodiq Mirzayev (1885-1961), Abdusattoh Rasulov (1893-1977), Abduqodir Murodovlar (1893-1974) bilan yonma-yon ToshDU tadqiqotchilari Ubaydulla Karimov (1920-1997), Aziz Qayumov, Quvomiddin Munirov (1928-2012), Asomiddin O'rino boyevlar (1929-2009) hamkorlikda ishladilar.

O'zbek tiliga tarjima guruhi barobarida – Qonunni rus tiliga tarjimasida M.Sale (1899-1961), Yu.Zavadovskiy (1909-1979), T.Bulgakovlar (1927-1993) mehnat qildilar. Ish hajmi nihoyatda katta bo'lgani bois, guruh a'zolariga bo'lib berilgan edi. Bu esa tarjima uslubida har xillikka sabab bo'lib, uni bir uslubga keltirish, istilohlar tarjimasini ham unifika-siyalashtirishni taqozo qilar edi. Shu nuqtayi nazardan ruscha tarjimaning umumiy tahriri fil.f.d. A.Arends, o'zbekcha tarjimasi U.Karimovga yuklatiladi. Tarjimadagi turli tibbiy tushuncha va istilohlarning sharhini amalga oshirishda o'zbekcha tarjimada tibbiyotchilardan A.Asqarov va V.Jumayev (1922-1968), ruschada esa moskvalik tibbiyotchilar – V.Ternovskiy (1888-1976) va B.Petrov ishtirot etdilar.

Shu tariqa tarixda birinchi marta buyuk alloma Ibn Sinoning jahonga mashhur asari arabchadan o'zbek va rus tillariga tarjima qilinib, 1954-1961-yillar mobaynida 5 kitob, 6 jilda bosilib chiqdi. Arabcha aslida 1000000 dan ortiq so'z bo'lsa, o'zbekcha tarjimasi 4000 betdan iborat.

1980-yilda Ibn Sino tavalludining shamsiy hisob bo'yicha 1000 yillik yubileyi munosabati bilan – "Tib qonunlari" o'zbekcha va ruscha tarjimalarining qayta ishlangan 2-nashri amalga oshirildi. Bu nashrda avvalgisida tarjimasiz qolib ketgan ko'pgina istilohlar sharhlandi, dori nomlari aniqlandi. Bu nashrlar o'zbekcha tarjimasining umumiy tahriri O'zR FA muxbir a'zosi U.Karimov va H.Hikmatullayev (1929-1994), ruscha tahriri U.Karimov va P.Bulgakov tomonidan bajarildi. Mana shu 2-nashr asosida keyinchalik – Qonun turli (to'liq va muxtasar) shakllarda

yana 6 marta chop qilindi. Shunday qilib, XI asrda yaratilgan – “Tib qonunlari”ga yuqorida nomlari zikr qilingan zahmatkash olimlar allomaning yurtida, ming yildan keyin yangi umr baxshida qildilar.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar:**

1. Abu Ali bin Sinoning aql va tafakkur haqidagi qarashlari haqida gapirib bering.
2. “Tib qonunlari” asari xorijda qaysi olimlar tomonidan o‘rganilgan?
3. Abu Ali ibn Sinoning “Tib qonunlari” asarining o‘zbek tarjimasi kimlar tomonidan amalga oshirilgan?
4. Abu Ali bin Sinoning tarixiy-falsafiy qarashlari haqida nimalarni bilib oldingiz?

### **Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. Комилов Н. Ибн Сино ва Данте. – Тошкент. 1983.
2. Қориев М. Ибн Сино. – Тошкент. 1995.
3. Машарипова Г. Абу Али ибн Сино “Усул’ илм ал-хандаса” асарининг математик манба сифатида фан тарихидаги ўрни. – Тошкент. 1995.
4. Мухитдинова Ф. Шарқ уйғониш даври мутафаккирларининг сиёсий-ҳуқуқий таълимотлари( Абу Наср Форобий, Абу Райхон Беруний, Абу Али ибн Синонинг сиёсий- ҳуқуқий қарашлари асосида). – Тошкент. 2010.
5. Ирисов А. Ибн Сино – маърифатпарвар адаб. – Урганч. 2013.
6. Ибн Сино. Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент. 1993.
7. Ибн Сино. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент. 1993.

## **MAVZU: ABU MANSUR MOTURIDIY BUYUK KALOM ILMI VA FIQH ALLOMASI**

### **Reja:**

1. Abu Mansur Moturidiy hayoti va faoliyati.
2. Abu Mansur Moturidiy ilmiy merosi va uning ahamiyati.
3. Mustaqillik yillarda Abu Mansur Moturidiy ilmiy merosiga munosabat.
4. Imom Moturidiy ta'limotining Yevropada keng o'r ganilishi.

**Tayanch so'z va iboralar:** Nasafiy, kalom ilmi, Muhammad Ayyub Ali, Saydi Ali Rais, Chokardiza, kutubxona, Kitob al-tavhid.

### **Abu Mansur al Moturidiy hayoti va faoliyati**

Abu Mansur Moturidiy hayoti va ijodiga oid manbalar Abul Yusr Pazdaviy (vaf. 493/1100-y.)ning “Usulud din”, Abul Muin Nasafiy (vaf. 508/1114-y.)ning “Tabsiratul-adilla”, Ibn Fazlulloh Umariy (vaf. 749/1348-y.)ning “Masolikul absor fi mamaliki-l-amsor”, Abdulqodir ibn Abul Vafo Qurashiy (vaf. 775/1373-y.) ning “al-Javharatul-muziya fi tabaqot-i-l-hanafiya”, Ibn Qutlubg'o (vaf. 879/1474-y.)ning “Toju-t-tarajim”, Muhammad Murtazo Zabidiy (vaf. 1205/1791-y.)ning “Ithofu-s-sodati-l-muttaqin bi sharhi ihyoi ulumi-d-din” va Muhammad Abdulhay Laknaviy (vaf. 1304/1887-y.)ning “al-Favoidul-bahiya fi tarojimi-l-hanafiya” asarlarida uchraydi. Shuningdek, zamонавиъ тадқиқотчилардан Abdulmalik Sa'diy, Shovosil Ziyodov, Saidmuxtor Oqilov, Sunmaz Kutlu, Hamza Bakriy, Sa'd Ahmad Damanhuriy, Bilqosim G'oliy kabi mutaxassislar mavzu doirasida risola va ilmiy ishlar nashr qilganlar.

Abu Mansur Moturidiyning to'liq ismi Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud Hanafiy Moturidiy Samargandiyidir. Buyuk imom, figh olimi, kalom ilmining moturidiylilik oqimi asoschisi deb sifatlanadi. “Imom al-hudo», “Imom al-mutakallimon” (“Hidoyat

yo'li imomi", "Mutakkimlar imomi") nomlari bilan ulug'lanadi. 870-yilda Samarqand yaqinidagi Moturid qishlog'ida tavallud topgan va umrining oxirigacha shu yerda yashab o'tgan. Abu Mansur Moturidiy Samarqand yaqinida joylashgan Moturid qishlog'ida tug'ilib, shu yerda istiqomat qilgani uchun unga "Moturidiy" nisbasi berilgan. Zubaydiy "Ithof as-soda al-muttaqin" nomli kitobida ayrim manbalarda Abu Mansur Moturidiyning ismidagi Mahmuddan keyin Muhammad ismi borligi va olimga Ansoriy nisbasi ham berilganini ta'kidlagan. Yana bir arab tadqiqotchisi Doktor Muhammad Ayyub Ali Abu Mansur Moturidiya nisbatan Ansoriy nisbasini qo'llash asosli deb hisoblagan. U bunga Moturidiyning "Kitobut-tavhid" asarining ayrim qo'lyozmalari hoshiyasida uchratganini aytadi. Biroq, boshqa arab tadqiqotchisi Ahmad ibn Avazulloh Hazbiy Abu Mansur Moturidiya Ansoriy nisbasi berilganini asossiz deb xulosa qilgan.

Olimga nisbatan "Abu Mansur" kunyasining qo'yilishi uning "Mansur" ismli o'g'li borligini ham ifodalamaydi. Chunki, uning o'zi "Ta'vilotu-l-Qur'on" asarida: "O'g'il ko'rsam ismini Mansur qo'yaman" degan umididao'zinio'zi "Abu Mansur" deb kunyalaganini Masad surasida keltirgan. Abu Mansur Moturidiy Masad surasini tolibi ilmlarga sharhlab, kitobiga qoralayotganda taxminan 60 yoshda bo'lgan. Abu Mansur Moturidiyning Mansur ismli o'g'li bo'lganida, albatta, Abul Muin Nasafiy "Tabsiratul-adilla" asarida bu haqida ma'lumot bergen bo'lardi. Shundan kelib chiqib, Moturidiyning o'g'li bo'lmanan, degan to'xtamga kelish mumkin. Moturidiyning ilmiy merosini tadqiq qilgan zamonaviy sharqshunoslar ham uning o'g'il farzandi bo'lmanini ta'kidlab o'tganlar. Masalan, U.Rudolf, V.Madelung kabi g'arb sharqshunoslari o'z tadqiqotlarida uning o'g'il farzandi bo'lmani haqida so'z ochmaganlar. Turk tadqiqotchisi Shukru O'zenning ta'kidlashicha, Moturidiyning o'g'il farzandi bo'lmanida, albatta, manbalarda bu haqda ma'lumot berilgan bo'lar edi. Mashhur qomusiy olim Toshko'prizoda "Miftahu-ssaoda" asarida Abu Mansur Moturidiyning ilmiy merosiga shunday baho

bergan: “Ahli sunna val jamoaning kalom ilmidagi rahnamolari ikki kishidir. Biri hanafiy bo‘lsa, ikkinchisi shofeiydir. Hanafiy rahnamo Abu Mansur Muhammad ibn Mahmud Imomu-l-huda, Rais ahli sunna val jamoa Abu Mansur Moturidiydir. Shofeiy rahnamo esa Shayx ahli sunna, Raisu-l-jamoa, Imomu-l-mutakallimin Abul Hasan Ash’ariy Basriydir”.

Abu Mansur Moturidiy yashagan davrga kelib (IX asrning oxiri-X asrning birinchi yarmi) Movarounnahrda to‘g‘ri yo‘ldan adashgan turli guruh va firqalar ko‘payib, ularning aksariyati imon-e‘tiqod masalalari bo‘yicha bahsu munozaralar tufayli vujudga kelgan edi. Mana shunday murakkab sharoitda alloma Abu Mansur Moturidiy yetishib chiqdi va ularning noto‘g‘ri fikrlariga asosli raddiyalar berdi. U hanafiy mazhabi asoschisi Abu Hanifaning (699-767) ta‘limotiga suyangan holda o‘ziga xos kalom maktabini yaratdi. U asos solgan moturidiylik ta‘limoti keyinchalik Samarqand kalom maktabi doirasidan chiqib, butun islom olamiga tarqalib, sunniylikdagi ikki yirik maktabning biri (boshqasi – ash’ariya) sifatida tanildi.

Imom Moturidiy 944-yilda Samarqandda vafot etgan va mashhur Chokardiza qabristoniga dafn etilgan. Shahar aholisi, ayniqsa, o‘rtta qatlam orasida mashhur bo‘lgan ulamolar, jumladan, Moturidiyning safdosh va shogirdlari ham shu yerga dafn qilingan. Solih ulamolar guruhi faoliyatini tadqiq qilishda ushbu qabriston va u bilan bog‘liq ma‘lumotlar muhim ahamiyatga ega. Turk admirali Saydi Ali Rais XVI asrda Osiyo bo‘ylab sayohatga chiqib, Samarqanddagagi Chokardiza qabristonini ham ziyorat qiladi. Bu haqda esdaliklarida bayon etadi. Shuningdek, XVIII-XIX asrlarda yozilgan “Samariya” va “Qandiya xurd” asarlarida ham Chokardiza va unda dafn etilgan ulug‘ allomalar haqidagi ma‘lumotlar uchraydi. V.Bartold ham xotiralarida 1920-yildagi Samarqand safari davomida ushbu qabristonda bo‘lgani va u yerda Moturidiy maqbarasini ko‘rganini ta‘kidlaydi.

Yuz yillar davomida fiqh ulamolari, shayxlar va allomalar dafn etilgan Chokardiza qabristoni sho‘rolar davrida aholi yashaydigan manzilga aylantiriladi. Natijada ko‘plab qabrtosh va qayroqlar yo‘qolib ketadi. Moturidiy maqbarasini tiklash jarayonida esa faqih va ulamolarning qabrtoshlari topildi. Ularning aksari qoraxoniylar davriga mansub bo‘lib, biz uchun ko‘plab yangi ma’lumotlarni berishi tabiiy. Hozir mazkur qabrtoshlar islomshunos olimlar B.Bobojonov, A.Mo‘minov, U.Rudolf tomonidan o‘rganilib, maxsus tadqiqot chop etildi. bir qatorda turk tadqiqotchilaridan So‘nmas Kutlu va Axmet Ak hamda olmon tadqiqotchisi Ulrix Rudolflar ham Imom Moturidiy ustozlarining shajarasini tuzganlar. Albatta, mazkur shajaralar orqali Abu Mansur Moturidiyning kimdan dars olgani haqida birlamchi ma’lumotlarga ega bo‘lishimiz mumkin.

### **Abu Mansur Moturidiy ilmiy merosi va uning ahamiyati**

Samarqandda madrasani xatm qilgan imom Moturidiyning o‘zi ham madrasada fiqh va kalom ilmidan saboq bergen. Ilm bilan shug‘ullanib, qimmatli qo‘llanmalar, risolalar yozgan. U zotning “Kitob al-tavhid” (“Yakkaxudolik haqidagi kitob”), “Ta‘vilot ahl as-sunna” (“Sunniylik an’analari sharhi”) mashhur bo‘lib, “Kitob al-tavhid” haligacha bilish nazariyasi bayon qilingan musulmon ilohiyotining birinchi asari hisoblanadi. Madrasalarda bu kitob darslik sifatida o‘rgatiladi.

Imom Moturidiy qalamiga mansub asarlarning soni o‘n beshtaga yetib qoladi. Manbalarda ko‘rsatilishicha, Abu Mansur Moturidiyning “Kitobu-t-tavhid” (“Tavhid kitobi”), “Kitobu-l-maqolot” (“Moqolot kitobi”), “Ma’xazu-sh-sharoi” (“Shariatlar manbai”), “Kitobu-l-jadal” (“Munozara kitobi”), “Ta‘vilotu-l-Qur’on” (“Qur’on ta‘villari”), “Kitobu bayoni vahmi-l-mu’tazila” (“Mo‘taziliylarning xom-hayolini bayon etuvechi kitob”), “Raddu-l-usul al-hamsa” (“Besh asosga raddiya”), “Kitobu raddi availi-l-adilla li-l-Ka‘biy” (Ka‘biyning asosiy dalillariga raddiya

kitobi), “Raddu kitobi-l-Ka’biy fi va’idi-l-fussoq” (“Ka’biyning fosiqlarning va’idiga bag’ishlangan kitobiga javob”) kabi asarlari mayjud. Lekin sanab o’tilgan bu kitoblar haqida to’liq bir tasavvur yo’qligi tadqiqotchilarga qiyinchilik tug’diradi. Chunki ilk o’rta asr mutakallimlarining ko’pgina ilmiy merosi kabi Abu Mansur Moturidiy asarlarining aksariyati bizgacha yetib kelmagan. Uning ilmiy merosidan faqat “Kitobut-tavhid” va “Ta’vilotu-l-Qur’on”lar saqlanib qolgan.

Bulardan tashqari Abu Mansur Moturidiyga yana boshqa ba’zi asarlar ham nisbat berilgan. Bunga misol qilib, Abu Hanifaning “al-Fiqhu-l-akbar” risolasiga sharh tarzida yozilgan “Sharh al-Fiqhi-l-akbar” nomli asarni olish mumkin. Ushbu asar ham ba’zi manbalarda Abu Mansur Moturidiyga tegishli deb ta’kidlangan. Hatto Xaydarobod shahrida 1946-yil Abu Mansur Moturidiy nomi bilan nashr etilgan. Ayrim tadqiqotchilar ushbu asarni Abu Mansur Moturidiyga emas, balki uning zamondoshi Abu Lays Samargandiyga (vaf. 370/980-y.) tegishli deb e’tirof etganlar. Asarni ko’zdan kechiradigan bo’lsak, uning bir qancha joylarida ash’ariylarning e’tiqodlari tanqid qilingan. Ma’lumki, Abu Mansur Moturidiy davrida ash’ariya ta’limoti keng rivojlanmagan edi. Abu Lays Samargandiy esa, Moturidiydan biroz keyinroq, ya’ni IV-X asming ikkinchi yarmida yashagan. U davrda ash’ariya ta’limoti tanilib bo’lgan edi. Shu nuqtayi nazardan ushbu asarni Abu Lays Samargandiyga tegishli deb taxmin qilish mumkin. Lekin olmon tadqiqotchisi U.Rudolf “Sharhu-l Fiqhi-l-akbar” nomli risolaning Abu Laysga ham tegishli emasligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, risola matnida Abu Lays fikrlarining berilgani, uning muallif ekaniga asos bo’lmaydi. Bu yerda risolaning noma’lum muallifi Abu Laysdan iqtibos keltirgan bo’lishi mumkin, xolos. Shuningdek, matnda, payg’ambarlar payg’ambarligidan oldin kichik gunohlar qilgan bo’lishi mumkin, degan jumla uchraydi. Abu Lays esa payg’amberlar doim har qanday gunohlardan pok bo’lganligini

qat’iy ta’kidlagan. Shuningdek, turk tadqiqotchisi Axmet Ak manbalarda quyidagi asarlar Abu Mansur Moturidiyga yanglish ravishda nisbat berilganini aytib o’tgan: “Risola fi-ttavhid”, “Kitobu-l-usul”, “Vasiya va munojot”, “Pandnomai Moturidiy” (fors tilida), “Favoid”, “Kitobu-t-tafsir al-asmo va-s-sifat”.

Yuqoridagi asarlardan qat’i nazar, bizgacha Abu Mansur Moturidiyning “Kitobu-t-tavhid” va “Ta’vilotu-l-Qur’on” nomli asarlari yetib kelgan va ular haqida aniq tasavvurga egamiz. Quyida olimning mazkur ikki asari haqida muxtasar ma’lumot berib o’tiladi. Nasafiy o’z asarida ta’kidlashicha, Abu Mansur Moturidiyning “Ta’vilotu-l-Qur’on” nomli tafsiri o’z davrida mashhur hisoblangan va ko’plab olimlar ushbu asarni quyidagicha tavsif bilan yuksak baholaganlar.

Abu Mansur Moturidiyning tafsir yo‘nalishida yozgan ushbu asari “Ta’vilot ahli-s-sunna” yoki “Ta’vilotu-l Qur’on” nomi bilan tanilgan. Bu tafsir moturidiya ta’limotida ma’lum va mashhur bo‘lib, moturidiya ulamolari nazdida, boshqa biror avvalgi va keyingi tafsirlar unga tenglasha olmagan. Mazkur kitob bizga to‘liq holda etib kelgan bo‘lib, dunyoning ko’plab qo‘lyozma fondlarida nodir qo‘lyozma nusxalari mavjud. Ushbu asarning eng qadimiy nusxasi Makkadagi “Maktabatu-l-Harami-l-Makkiy” kutubxonasi qo‘lyozmalar fondida saqlanadi. Mazkur asar bo‘yicha bir necha bor tadqiqot ishlari olib borilgan va u nashr etilgan. 1972-yili Qohirada Ibrohim va Sayyid Avziylar kitobning bir qismini tadqiq etganlar va Fotiha surasidan Baqara surasining yarmigacha nashr qildirganlar. Hoji Xalifa “Kashfu-z-zunun” asarida “Ta’vilotul-moturidiya fi bayon usuli-s-sunna va usuli-t-tavhid” nomli kitob haqida ma’lumot berib o’tgan. Uning ta’kidlashicha, Alouddin Muhammad ibn Ahmad ibn Abu Ahmad Samarcandiy jamlagan ushbu kitob allomaning boshqa kitoblari orasida tili va uslubi jihatidan eng oson va ravon o‘qiladigan asar bo‘lgani sababli moturidiya ulamolarining asosiy manbai hisoblangan. Mazkur

kitobning bir nusxasi Hindistondagi Xudobaxsh nomli kutubxonada 294-raqam ostida saqlanadi. Ushbu manba ustida tadqiqot olib borgan Doktor Ayyub Ali bukitob Alouddin Samarqandiy tomonidan Moturidiyning tafsiriga yozilgan sharhdир, degan xulosaga kelgan. Abul Muin Nasafiyning shogirdi Alouddin Samarqandiy “Ta’vilot ahli sunna” tafsiriga “Sharhu kitobi-tta’vilot” nomli sharh yozgan. Abu Mansur Moturidiyning mazkur tafsiri o‘z davrida katta shuhrat qozongan. Bunga moturidiya ulamosi Abul Muin Nasafiyning “Tabsiratu-l-adilla” asarida aytilgan quyidagi so‘zlarni misol keltirish mumkin: “Abu Mansur Moturidiyning Qur’onga yozgan tafsiri barcha chigalliklarni ochib beruvchi, inson qalbidagi shubhali qora bulutlarni xaydovchi hamda nihoyatda balig‘ vasf ila yaratilgan asardir. Alloh shunday kitobni yozgan zotga o‘z salomini yo‘llasin”. “Ta’vilot ahli sunna” kitobi 2009-yili turk olimi Bekir Topal o‘g‘li tomonidan ikkinchi marotaba ko‘p jilda nashr etildi. Abu Mansur Moturidiyning eng muhim asarlaridan biri “Kitobu-t-tavhid” bo‘lib, uning asl nusxasi hozirda Kembrij universiteti qo‘lyozmalar fondida saqlanadi. U 206 varaqdan iborat bo‘lib, satrlar soni 21 qatordan, ko‘chiruvchi Amin Hanafiy Shofeiy deb ko‘rsatilgan. Asar 15 sha’bon 1150/31-dekabr 1735-yil ko‘chirilgan. 1970-yili misrlik olim Fathulloh Xulayf uzoq yillar davom etgan izlanishlari natijasida Bayrutning “Dorul mashriq” nashriyotida “Kitobu-t-tavhid”ning nashrini amalga oshirgan. Nashrda bir talay kamchiliklarga yo‘l qo‘yilganiga qaramay, u o‘zidan keyingi tadqiqotlar uchun manba sifatida xizmat qiladi. Shundan so‘ng “Kitobu-t-tavhid” yana bir necha marotaba nashr etildi. Abu Mansur Moturidiy “Kitobu-t-tavhid” asari kalom ilmiga oid olimning eng ahamiyatli asari hisoblanadi. Chunki unda olimning kalom ilmidagi aqidaviy qarashlari o‘z aksini topgan. Shu tufayli “Kitobu-t-tavhid” asari moturidiylik ta’limotini bilishdagi eng asosiy manba sifatida e’tirof etilgan. “Kitobu-t-tavhid”ni moturidiylik ulamolari orasida birinchilardan bo‘lib Abul Yusr

Pazdaviy “Usul ad-din” asarida va Abul Muin Nasafiy “Tabsiratu-l-adilla” asarida ta’kidlab o’tganlar hamda undan iqtiboslar keltirganlar. “Kitobu-t-tavhid” asarining mazmuniga to’xtaladigan bo‘lsak, o‘z davrida unga turlicha munosabatlar bildirilgan. Chunki asar til va mazmun jihatidan nihoyatda qiyin uslubda yozilgan edi.

Asarning qiyin tilda, mantiq ilmiga asoslangan holda yozilgani bois, uni ko‘plab olimlar, hatto, moturidiya ulamolari ham tanqid ostiga olganlar. “Kitobu-t-tavhid” asarini birinchi bo‘lib Abul Yusr Pazdaviy tanqid ostiga olgan. Lekin u “Tavhid”dagi ma’nolarning yopiqligi, keraksiz jumlalar ko‘p ishlatilgani borasida so‘z yuritgan, xolos. Moturidiyning asarda ifodalangan aqidaviy qarashlariga e’tiroz bildirmagan. Ayrim sharqshunoslar Abul Yusr Pazdaviyning ushbu tanqidlaridan kelib chiqib, u to‘liq moturidiya ta’limotini tanqid ostiga olgan, degan fikrga kelganlar. Abu Mansur Moturidiy ulamolarining “Kitobu-ttavhid” asariga bunday munosabatlarining oldini olish maqsadida Abul Muin Nasafiy “Tavhid”ga sharh sifatida “Tabsiratu-l-adilla” asarini yozib, undagi murakkab, ma’nosи yopiq jumlalarni sharhlab bergen. Abul Muin Nasafiyning bu harakati natijasida zomonamizning ayrim sharqshunoslari uni moturidiylik ta’limoti interpritatori (ochib, yoritib beruvchisi) deb ataganlar.

### **Mustaqillik yillarda Abu Mansur Moturidiy ilmiy merosiga munosabat**

O‘zbekistonda Abu Mansur Moturidiy va moturidiyshunos olimlar ilmiy merosini o‘rganishga bag‘ishlangan muhim tadqiqotlar amalga oshirilgan. “Abu Mansur Moturidiy yozma merosi va uning “Kitob at-ta’vilot” asari” nomli dissertatsiya yurtimizda mavzu bo‘yicha amalga oshirilgan ilk tadqiqotlardan sanaladi. Tadqiqotda Moturidiy hayotining bosqichlari, uning ilmiy ijodiga ta’sir ko‘rsatgan muayyan tarixiy, diniy shart-sharoitlar, Movarounnahrda, jumladan Samarqanddagi diniy, ijtimoiy-siyosiy holat o‘rganilgan. Abu Mansur Moturidiyning X

asr birinchi yarmida Movarounnahr tarixida, xususan Samarqand shahri ijtimoiy-siyosiy tarixida tutgan konkret mavqeい aniqlangan, olim ijtimoiy-siyosiy pozitsiyasining o'zi ishlab chiqqan ta'limotga ta'siri darajasi belgilangan, asarlarining nodir qo'lyozma nusxalari aniqlangan, "Kitob at-ta'vilot" asari ilmiy istifodaga kiritilib, ta'limotning Movarounnahrdagi tarixi va evolyutsiyasi jarayoni to'liq ohib berilgan. Shuningdek, "Kitob at-ta'vilot" asarining tarkibiy qismlari hamda yozilish uslublari, shuningdek Moturidiyning ushbu asari yordamida kalom ta'limotining yangi qirralari aniqlangan va ilmiy dalillar bilan ohib berilgan. Moturidiylik ta'limotida mavjud olamni bilish va insonda iroda erkinligi masalalariga oid yangi qarashlar manbadagi ma'lumotlar asosida yoritib berilgan. Tadqiqotda Movarounnahrdan yetishib chiqqan olimlarning moturidiylik ta'limotiga bag'ishlangan asarlari hamda ularning ushbu kalom mакtabiniing rivojlanishiga qo'shgan hissalari ko'rsatib berilgan.

S.Oqilov "Abu-l-Mu'in Nasafiy va uning moturidiya ta'limoti rivojiga qo'shgan hissasi" mavzusidagi tadqiqotida ham mazkur ta'limotni yoritgan. Tadqiqotda Movarounnahrda kalom ilmining rivojlanish jarayonlari, IX-X asrlarda kalom ilmining rivojlanishi va bunda Abu Mansur Moturidiy ilmiy merosining tutgan o'rni, ushbu ta'limotga bo'lgan munosabatlar o'rganilgan. Olimning kalom ilmiga bag'ishlangan "Tabsiratu-l-adilla" asari ilmiy tahlil qilingan va ushbu asarning dunyo fondlaridagi qo'lyozmalari kodikologik tavsiflangan.

O'zbekistonda islomshunoslikning ilmiy, nazariy asoslarini mustahkamlash bo'yicha amalga oshirilgan muhim ishlarning ma'lum qismi dissertatsiyalar, monografiyalar va ilmiy maqolalarda o'z aksini topgan. Jumladan, birinchi marta oliy malakali ilmiy kadrlar ro'yxatiga yangi "Islomshunoslik" mutaxassisligi kiritildi. Ushbu mutaxassislik tarkibiga "Islom tarixi va manbashunosligi", "Qur'onshunoslik, hadisshunoslik",

“Fiqh, kalom ilmi. Ilohiyot”, “Mumtoz sharq adabiyoti va manbashunosligi” ixtisosliklari kiritilgan va yuqoridagi ixtisosliklar bo‘yicha fan doktori ilmiy darajasini olish bo‘yicha dissertatsiyalar himoyasiga ixtisoslashgan Ilmiy kengash ochilib, o‘z faoliyatini olib bormoqda. Ilmiy kengashda islomshunoslikning dolzarb muammolariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar natijasida shakllangan dissertatsiyalar himoya qilinmoqda. Qisqa muddatda kengashda 26 ta falsafa doktori va 8 ta fan doktori dissertatsiyalari muvaffaqiyatli himoyasi amalga oshirildi. Mazkur sohalarga tayyorgarlik bosqichi sifatida O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasida doktorantura ochilgan va hozirda 61 nafar doktorant ta’lim olmoqda. Islomshunoslik fanlari mutaxassisligida kalom ilmining ajratilganligi unga berilayotgan e’tiborni ko‘rsatadi.

Dastlab Prezidentning 2020-yil 11-avgustdaggi PQ-4802-sон qarori bilan O‘zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi huzurida davlat muassasasi shaklidagi Imom Moturidiy Xalqaro Ilmiy-tadqiqot Markazi tashkil etilgan edi. 2020-yilning 6-noyabrida “O‘zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi huzuridagi Imom Moturidiy Xalqaro Ilmiy-tadqiqot Markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror qabul qilindi.

### Xorijda o‘rganilishi masalasi

“Kitob-at-tavhid” XX asrning o‘rtalarigacha bizgacha yetib kelmagan deb hisoblangan. 1950-yillarda asarning yagona qo‘lyozma nusxasi topilgan. Hozir u Kembrij universiteti kutubxonasida saqlanmoqda. Qo‘lyozmaning faksimile nusxasi Belarusda 2019-yilda ilmiy maqsadda yosh, izlanuvchan islomshunos olim, Minsk masjidi imomi Maqsat hazrat Ovezovning tashabbusi bilan nashrdan chiqqan.

Muftiyatning ilmiy tadqiqot departamenti 2018-yildan buyon faoliyat yuritib, islom diniga oid kitoblarni belarus tilida chop etishga bosh-qosh bo‘lib kelmoqda. Departament Qur’oni Karimni o‘rganish

va aqoid ilmiga oid tadqiqotlar bilan ham shug'ullanilmoqda. Belarusda Alam ul-Xudo – "Haq yo'li bayrog'i" ko'nyasini olgan Imom Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-Moturidiy diniy ta'limotining asosiy yo'nalish sifatida tanlanishi e'tiborga molik.

Belarus islomshunoslari Moturidiy merosini o'rganayotgan chet elliq olimlar bilan ham hamkorlik qilmoqda. Masalan, turkiyalik olim, professor So'nnes Qutludan Jamoliddin al-Qarshiy asarlari vositasida Imom Moturidiyning zohiriy ko'rinishi to'g'risida qimmatli ma'lumotnomma olindi. Belarus muftiyati Moturidiy diniy ta'limoti bo'yicha Markaziy Yevropa markazini tashkil etishni maqsad qilgan. Ayni paytda bu yo'nalishda katta ishlar amalga oshirilmoqda. O'tgan astlarda yashab o'tgan va hozirgi davr olimlarining shu yo'nalishda erishgan yutuqlari umumlashtirilib, kitoblar va islom dini bo'yicha Minsk masjidida bo'lib o'tadigan darslarda yevropaliklar tushunadigan va qabul qiladigan talqinda yetkazilyapti.

Belarusga Moturidiy ta'limoti yetakchilaridan biri Abu Hafs Umar ibn Muhammad Nasafiyning "Aqid an-Nasafiya" kitobi olib kelindi. Minsk masjidida diniy ta'lim olgan, uni muvaffaqiyat bilan tugallagan talabalar Moturidiy ta'limoti mazmun-mohiyatini shu yerda istiqomat qilayotgan musulmonlarga yetkazadi. Maqsat hazrat Qur'oni karimning "Ixlos" surasi tafsirini arab, turk, ingliz va rus tillarida yozib, nashr ettirdi. Ushbu sura Imom Moturidiy, Abu Hafs Nasafiy, Abu Lays Samarqandiy, Sa'ad ad-din Taftazoniy, Abu Hafs G'aznaviy kabi moturidiyshunos olimlar fikriga tayangan holda tafsir qilingan. Shuningdek, hanafiylik mazhabi aqidalariga tayanib yozilgan "Aqida at-tahaviya" asosida videodarslar turkumi tayyorlandi. Ularda ushbu kitob mazmun-mohiyati moturidiyshunos olimlarning izoh va sharhlari asosida ochib berilgan. Videodarslar belaruslik barcha musulmonlarga Imom Moturidiy diniy ta'limotini yetkazish bo'yicha samarali usul bo'ldi.

## **Nazorat uchun savol va topshiriqlar:**

1. Moturidiy hayoti haqida qanday yangi ma'lumotlar bilan tanishdingiz?
2. Moturidiy qalamiga mansub asarlarni tahlil qiling.
3. Moturidiy ilmiy merosiga mustaqillik yillarda qanday e'tibor berilmoqda?
4. Mustaqillik yillarda Moturidiy hayoti va faoliyati tadqiqi kimlar tomoniddan olib borildi?

## **Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. Бўриев О. Ал-Мотуридий. Маснавийи нур. – Тошкент: F.Гулом нашриёти. 2000.
2. Зиёдов Ш. Имом Мотуридий. рисола – Тошкент: Ўзбекистон Халқаро Ислом Академияси.. нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2021. – 32 б.
3. Уватов У., Оқилов С., Даминов Э. Мотуридия таълимоти ва Абу Муин Насафий Илмий мероси. – Тошкент: Мовароуннаҳр. 2018.
4. Уватов У. Мовароуннаҳр ва Хурросон олимларининг ҳадис илми ривожида тутган ўрни (Бухорий, Муслим, Термизий). – Тошкент. 2020.

Muhammad ibn Ali ibn Ismoil Qaffol Shoshiy qalamiga mansub bo'lib, unda Imom Buxoriy sharhi majmularidagi Rasululloh (s.a.v.) kalimalaridan to'plangan". Ushbu asar qo'lyozmasining foto nusxasi O'zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasida saqlanadi. Marhum muftiy Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon hazratlari 1970-yili Damashq shahridagi "Zohiriya" kutubxonasida saqlanadigan "Javomi' al-kalim" asarining qo'lyozmasi (32 sahifadan iborat) foto nusxasini olib kelganlar.

### Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. O'rta asrlarda Shoshda madaniy yuksalish va uning sabablari haqida so'z yuriting.
2. As-Sam'oniyning Al-Ansob asarida Shosh allomalari hayoti haqida esse yaratting.
3. Shoshlik yirik muhaddislar faoliyati haqida so'z yuriting.
4. Shoshlik mashhur fiqh va kalom ilmi namoyandalari hayoti haqida gapirib bering.
5. Mustaqillik yillarda shoshlik allomalar ilmiy merosini tuklashga qaratilgan chora-tadbirlar haqida nimalarni bilasiz?

### Tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. Валиев И. Каффол Шоший. – Тошкент: Истиққол. 2005.
2. Мухамедов Н. Шош воҳаси олимларининг илмий-мальзамий мероси. Тошкент ислом университети. – Тошкент. 2007.
3. Мухамедов Н. Ҳастимом – Абу Бакр Каффол Шоший тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2018.

## MAVZU: MAHMUD ZAMAXSHARIYNING DUNYO ILM-FANI RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI

### Reja:

1. Mahmud Zamaxshariy hayoti va faoliyati.
2. Mahmud Zamaxshariy ilmiy merosining o'rganilishi.
3. Mahmud Zamaxshariy asarlari tahlili.

**Tayanch so'z va iboralar:** mutafakkir, Zamaxshar, ilmiy meros, "Al-Unmuzaj fi-n-naxv", Jorulloh, Kashshof, Mufassal, Xorazm, "Sayohatnama".

### Mahmud Zamaxshariy hayoti va faoliyati

Ko'hna Xorazm zaminida azaldan jahon fani va madaniyati rivojiga munosib hissa qo'shgan ko'plab buyuk allomalar yetishib chiqqan. Abul Qosim Zamaxshariy ham ana shunday ulug' siymolardan biridir. Allomaning to'liq ismi Abul Qosim Mahmud ibn Umar Zamaxshariy bo'lib, u hijriy 467-yil rajab oyining 27-kuni (1075-yil 19-mart) Xorazmning Zamaxshar qishlog'ida tavallud topgan. Mahmud Zamaxshariy haqidagi dastlabki yozma ma'lumotlar asosan o'rta asr arab manbalarida keltiriladi. Allomaning oilasi islomning mu'taziliy ta'limotiga mansub bo'lib, yosh Mahmudning dunyoqarashi taqvodor otasining ta'sirida shakllandi va dastlabki bilimni ham o'z otasidan oldi. Alloma haqidagi ma'lumotlardan ma'lumki, uning bir oyog'i yog'ochdan bo'lib, tarixchilar bu haqda: "Bir oyog'i yog'ochdan edi va uzun yaktagini tushirib kiygani uchun ko'rgan odam uni cho'loq deb o'ylardi" – deb yozganlar. Og'ir kasallik tufayli u yoshligidan bir oyoq bo'lib qolgan va shundan so'ng otasi uni kiyim tikuvchi ustaga shogirdlikka bermoqchi bo'ladi. Biroq yoshligidan ilmga havasmand o'sgan Mahmud otasidan o'zini madrasaga o'qishga yuborishni so'raydi. O'g'lidagi ilmga bo'lgan zo'r ishtiyoq va havasni sezgan otasi uni madrasaga beradi.

Alloma ilm-fanning turli sohalari bilan qiziqib, tolibi ilmlar orasida zo'r iste'dodini namoyon qila boshlaydi. U madrasada o'qitiladigan ilmlarni, ayniqsa, arab tili va adabiyoti, diniy ilmlarni puxta egallahga kirishadi, o'sha davrda ilm ahli orasida qadrlangan hattotlik san'atini ham mukammal egallab, o'z tirikchiligini birqadar tuzatadi. So'ng, arab tarixchisi va biografi ibn Xallikonning yozishicha, talabalik yoshiga yetgach, bilimini yanada oshirish, har tomonlama kamol toptirish maqsadida Buxoroga yo'l oladi. Mazkur davrda Buxoro, mashhur olim Abu Mansur Saolibiyning (961-1138) iborasi bilan aytganda: "Somoniylar davridan boshlab shon-shuhrat makoni, saltanat ka'basi va zamonasining ilg'or kishilari jamlangan: yer yuzi adiblarining yulduzlari porlagan va o'z davrining fozil kishilari yig'ilgan (joy) edi". Zamaxshariy Buxoroda o'qishni tugatgach, bir necha yil Xorazmshohlar xizmatida bo'lib, kotiblik bilan shug'ullanadi, hukmdorlar bilan yaqinlashishga urinadi. Biroq qobiliyati, ilmi, fazilatiga yarasha biror mansab va munosib e'tibor ko'rmagach, o'zga yurtlarga safar qiladi matlabu-maqsadlarining ushalishiga umid bog'laydi. 1118-yili alloma og'ir kasallikka chalinadi, bu kasallikdan tuzalgach esa hukmdorlar xizmatiyu mansab va mol-dunyo ta'masidan mutlaqo voz kechadi, qolgan umrini faqat ilm-fanga bag'ishlashga, asarlar ta'lif etishga astoydil qaror qiladi.

Ilm sohalarini egallah jarayonida ustozlaridan bo'lgan 1113-yilda vafot etgan Jariyr al Dabbiy Isfahoniidan til, lug'at va adabiyot sohalarini chiqur o'rganadi. Isfahoniy Xorazmda ham bir qancha muddat yashagan. Bu o'lkada mutaziliylar ta'limotining joriy bo'lishi ham mana shu Isfahoniy nomi bilan bog'liqdir. Zamaxshariy Bag'dodda shayx ul-islom Abu Mansur Nasr Xorisiy, Abu Saad Shaqqoniy, Abul Xattab ibn Abul Batar kabi mashhur olimlardan hadis ilmidan tahsil oldi. Makkada bo'lganida esa nahv va fiqh bo'yicha ilmni Abu Bakr Abdulloh ibn Talxat ibn Muhammad ibn Abdulloh Yabiriyy Andalusiy, shayx Sadiyd Xayyatiy, lug'at

ilmini esa Abu Mansur Mavhub ibn Xadar Javoliqiy kabi mashhur olimlardan o'rgandi.

U hayoti davomida Marv, Nishopur, Isfahon, Shom, Bag'dod va Hijozda, ikki marta Makkada bo'ldi. Olim bu yerda ilmiy ishlarini davom ettirdi, arab tili grammatikasi va lug'atini hamda mahalliy qabilalarning lajjalari, maqollari, urf-odatlarini chuqr o'rgandi, bu mintaqa jug'rofiyasiga oid xilma-xil ma'lumotlarni to'pladi. Adib ko'p asarlarini Makkadaligida yaratadi. O'zining hayotida chuqr iz qoldirgan mazkur shaharda alloma besh yilcha yashaydi. Shu boisdan u Jorulloh ("Ollohning qo'shnisi") degan sharafli nomga tuyassar bo'ladi. O'z davrining yirik olimi darajasiga ko'tarilgan Zamaxshariyning Xorazmda ham, Sharqning boshqa ko'pgina shaharlarida ham bir qancha shogirdlari bo'lgan, alloma ko'p vaqtini ularga bag'ishlardi. U qarindosh-urug'larining qiyin-qistovlariga qaramasdan, hayotida biror marta ham oila qurmagan. Ilmiy asarlar yaratish va munosib shogirdlar tayyorlashni farzand o'stirishdan a'lo deb hisoblagan. Zamaxshariy oxirgi marta Makkadan qaytib, Xorazmda bir necha yil yashaydi va hijriy 538-yilda, arafa kechasi (1144-yil 14-aprel) vafot etadi. 1333-yili Xorazmda sayohatda bo'lgan mashhur arab sayyohi ibn Battuta (1304-1337) "Ar-Rihla" ("Sayohatnoma") asarida Zamaxshariyning ustida qubbasi bo'lgan maqbarasini ko'rganini yozadi.

Zamaxshariy zamaonasining chuqr bilim sohibi ekanligi va fanning turli sohalariga oid o'lmas asarlari hali u hayot paytidayoq butun musulmon Sharqida unga katta shuhrat keltirgan. Allomani chuqr hurmat va mehr bilan "Ustoz ul-arab va-l-ajam" ("Arablar va g'ayri arablar ustozi"), "Faxru Xvarazm" ("Xorazm faxri") kabi sharafli nomlar bilan ataganlar. Mashhur olimlar, shoirlar, adiblar davrasida u doimo peshvolardan biri bo'lib, qizg'in ilmiy bahslar, munozaralarda uning fikri inobatga olinardi. Mana shunday ulkan obro'-e'tibor, ehtimol, daho o'z asarlaridan birida "va inniy fi

Xvarazm kaabat ul-adab” (“Chindan ham men Xorazmda adiblar uchun bir ka’baman”) deb yozishiga asos bo’lgan bo’lsa ajab emas.

### Mahmud Zamaxshariy ilmiy merosining o’rganilishi

Mahmud Zamaxshariy merosi asrlar davomida Sharq va G’arb tadqiqotchilarining diqqat markazida bo’lgan. O’zbekiston mustaqillikka erishgandan so’ng o’tmish allomalarimizning asarlari, ilmiy meroslarini o’rganish, ularni keng ko’lamda tadqiq etish ijtimoiy fanlarning eng dolzarb vazifalaridan biri bo’lib qoldi. Shu jihatdan Mahmud Zamaxshariyning boy ilmiy merosini o’rganish, uni xalqimizning ma’naviy boyligi sifatida tadqiq etish, respublikamiz ilm-fani iste’moliga zamonaviy tahlil va talqinda taqdim etish, keng jamoatchilikka, xalqimizga tanitish, asarlarini nashr etish katta ahamiyatga ega. Zero, Mahmud Zamaxshariyning ilmiy merosi umumbashariy nazariy-metodologik ahamiyatga molik qadriyat bo’lganligi uchun dunyo miqyosida keng qamrovli tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlar bir qator dolzarb muammolarning ilmiy yechimini topishda hal qiluvchi omil vazifasini o’tagan. Biroq alloma ilmiy merosi tadqiqi borasida o’zbekistonlik olimlar tomonidan muayyan ishlar amalga oshirilgan bo’lsa-da, Mahmud Zamaxshariy ilmiy faoliyatining muhim qismi yetarli darajada tadqiq etilgan emas. Shu ma’noda Mahmud Zamaxshariyning ilmiy merosi O’zbekiston ijtimoiy hayotida ko’pgina fanlarning dolzarb ilmiy muammo sifatida e’tirof etilishi bugunning ijtimoiy ehtiyoji, talabidir.

O’zbekistonda ham Mahmud Zamaxshariy hayoti va u qoldirgan ilmiy meros haqidagi ma’lumotlarni o’rganish bugungi kunga qadar tilshunoslar, tarixchi, faylasuflar tomonidan amalga oshirilgan. Uning hayoti haqidagi ma’lumotlar dastlab Sam’oni, Ibnul Anboriy, Yoqut Hamaviy, Qistiy, Ibn Xallikon, Ibn Qutlug‘beka, Suyutiyy, Toshko’prizoda, Hoji Xalifa, Abdulhay Laknaviy, Zirikliy kabi muarixlarning asarlarida keltirib o’tiladi.

Bugungi kunga qadar Zamaxshariy faoliyatini o'rganish bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarni turli yo'naliishlarga ko'ra tahlil etish mumkin. Bevosita allomaning hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan asarlar<sup>8</sup>.

Ayniqsa, allomaning ayniqsa, Qur'on tafsiriga oid "Al-Kashshof" asari ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan<sup>9</sup>. Ma'lumki, alloma ilmiy merosida arab tilshunosligi va grammatikasining turli tomonlariga oid asarlar salmoqli o'rinni egallaydi. Uning tilshunoslikka oid asarlari bir qator olimlar tomonidan o'rganildi. Dastlab 1921-yilda Sadreddin Ayniy "Mehnatkashlar tovushi" gazetasida yozgan masolasida: "Zamaxshariyning "Muqaddimat-ul-adab" asari o'zbek tili uchun butun dunyoning xazinasi bilan barobardir" deb, uning ijodiga e'tibor berishga chaqirgan edi. Keyinchalik mazkur asar yuzasidan yana qator tadqiqotlar olib borildi<sup>10</sup>.

Allomaning hayoti va ilmiy faoliyati xorijda: turk olimlaridan Xoja Is'hoq Afandi, yevropalik olimlar K.Brokkelman, G.Vetsshtayn, rus olimlaridan V.Bartold, A.Borovkov, N.Poppe va A. Krimskiy, B.Xalidov va A.Xalidov, arab olimlaridan Juvayniy va Xusilar ham alloma ijodini o'rganishgan.

8 Рустамов А. Махмуд Замахшарий. --Тошкент.1971.; Махмуд Замахшарий. Нозик иборалар / Таржимон ва нашрга тайёрловчи У.Уватов. -Т.: Камалак, 1992.

9 Абдуллаев А. Абул-Қосим Махмуд Замахшарийнинг "ал-Кашшоф" асари ва унинг тафсир илмида туттаги ўрни // Шарқ машъали, 2-сони, 2005.

10 Исломов З. Махмуд Замахшарийнинг "Муқаддаматул-адаб" асаридаги туркий феъллартахлии: Филол. фан. ном. дис... автореф.-Т: Тошкент Давлат Университети (ЎзМУ), 1993. Махмуд Замахшарийнинг "Муқаддаматул-адаб" асарининг кўлёзма манбалари ва арабча-туркий феъллар сўзлигининг йигма илмий-танкидий матни: Филол. фан. докт. дис. автореф. -Т: ЎзР ФА Кўлёзмалар институти, 1998.; Адаб илмининг дурдонаси -Т: Тошкент ислом университети (ТИУ) нашриёти, 2002.; Муқаддаматул-адаб (манбашунослик тахлили) Т: ТИУ нашриёти, 2002.; Муқаддаматул-адаб (матни) Т: ТИУ нашриёти, 2002.; Шарқ манбашунослигида "Муқаддима" ва унинг аҳамияти // Тарихий манбашунослик муаммолари: Тўплам. Т.: 2003.; Махмуд Замахшарий // Мовароуниҳрининг буюк алломалари (араб тилида): Тўплам. Т: ТИУ нашриёти, 2004.

## Mahmud Zamaxshariy asarlari tahlili

Buyuk mutafakkir Zamaxshariy arab grammatikasi, lug'atshunoslik, adabiyot, aruz ilmi, geografiya, tafsir, hadis va fiqhga oid ellikdan ortiq asarlar yaratgan, ularning aksariyati bizgacha yetib kelgan. Shu bilan birga arab tilshunosligi va grammatikasining turli tomonlariga oid asarlar alloma ijodida salmoqli o'rinn egallaydi. Jumladan, 1121-yilda yozilgan arab tili grammatikasiga bag'ishlangan "Mufassal" ("Grammatika bo'yicha mufassal kitob") nomli asarini alloma Makkada yashagan paytida, bir yarim yil davomida yozgan. Ko'pchilik olimlar o'z ilmiy qimmati jihatidan Zamaxshariyning bu asari taniqli arab tilshunosi Sibavayhning (796-yili vafot etgan) arab grammatikasiga oid kitobidan keyin ikkinchi o'rinda turadi, deb ta'kidlaganlar. O'z davri ilm ahillari orasida ham bu asar katta e'tibor qozongan va arab tilini o'rganishdagi asosiy qo'llanmalardan biri sifatida keng tarqalgan. Hatto Shom (Suriya) hokimi Muzaffariddin Muso kimda-kim Zamaxshariyning ushbu asarini yod olsa, unga besh ming kumush tanga pul va sarupo sovg'a qilishni va'da bergen. Bir qancha kishilar asarni yod olib, mukofotga ham sazovor bo'lganligi manbalarda keltirilgan. Bu misol Zamaxshariy asarining o'sha davrda qanchalik yuksak baholanganini ko'rsatadi. Bu asarning bir qo'lyozmasi Toshkentda, O'zR FA Sharqshunoslik universitetida saqlanadi. "Mufassal"ning ixchamlashtirilib, muxtasar holga keltirilgan nusxasi "Unmazaj" ("Namuna") nomi bilan ataladi. Mazkur asar ustida M.Nosirova alohida dissertatsion tadqiqot olib borgan bo'lib, quyidagi jihatlarni bayon qilib o'tadi.

Mahmud Zamaxshariy qalamiga mansub yana bir asar "Unmuzaj fi-n-naxv"dir. Asarning o'rganilish tarixi uning yaratilish jarayoni bilan boshlangan. Asarga bag'ishlab yaratilgan sharhlar va hoshiyalar uning o'rta asr olimlari tomonidan o'rganilganligiga ishora qiladi. "Unmuzaj fi-n-nahv" yuzasidan yaratilgan zamonaviy tadqiqotlardan biri misrlik olim Husni Abdujalil Yusuf qalamiga

mansub. U asarni Jamoluddin Ardabiliyning sharhi bilan birga tadqiq etgan. Tadqiqotga manba sifatida asarning Misrdagi “Doru-l-kutub” kutubxonasida saqlanayotgan 3 ta qo‘lyozma va 1 ta toshbosma nusxasi olingan. Ular asosida “Unmuzaj fi-n-nahv” va uning sharhining ilmiy tanqidiy matnini yaratgan va nashr qildirgan. Ammo asar tilshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganilmagan. O‘zbekistonda “Unmuzaj fi-n-naxv” asari A.Abdujabborov tomonidan 2001-yil chop etildi. Biroq nashrda asarning matni qaysi qo‘lyozma yoki toshbosma asosida tayyorlanganligi qayd etilmagan. Asar talabalarga o‘quv qo‘llanma sifatida nashr qilingan. “Unmuzaj fi-n-nahv” asarining o‘rganilish tarixi bo‘yicha olib borgan kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, ushbu mavzu jahon zamaxshariyshunosligida hozirgi zamon arab tilshunosligi nuqtayi nazaridan deyarli o‘rganilmagan. O‘zbekistonda esa Mahmud Zamaxshariyning tilshunoslikka oid ushbu asari umuman ilmiy muomalaga kiritilmagan.

Toshkentda Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik universitetining qo‘lyozmalar fondida “Al-Unmuzaj fi-n-nahv”ning 7 ta qo‘lyozmasi mavjud. Ularning barchasi Jamoluddin al-Ardabiliyning sharhi bilan birga ko‘chirilgan. Bu toshbosma nusxalarning birinchisi 1837-yil Tabrizda, ikkinchisi 1862-yil Eronda bosilgan. Shuningdek, Sharqshunoslik universitetining mazkur fondida 6440 saqlanish raqamli Jamoluddin Ardabiliy sharhi bilan Eronda bosilgan toshbosma va 1885, 1897, 1902-yillarda Jamoluddin Ardabiliy sharhi va Mavlaviy Dovudning hoshiyasi bilan birga nashr qilingan nusxalari ham mavjud. Misrning “Maktabatu-l-adab” kutubxonasida “Unmuzaj fi-n-nahv”ning Jamoluddin Ardabiliy sharhi bilan birga bosilgan nusxasi saqlanadi. Ali Hasan tomonidan hadya qilingan ushbu kitob 1905-yilda Muhammad Mirza Dog‘istoniy Marvaziy tomonidan nashr qilingan. Shuningdek, “Unmuzaj fi-n-nahv”ning eng yangi bosma nusxalari, ya’ni 1990-yilda Misrda doktor Husni Abdujalil Yusuf

va 2001-yil Toshkentda A.Abdujabborov tomonidan nashrga tayyorlanib chop etilgan nusxalar ham mavjud. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar “Unmuzaj fi-n-nahv” asarining nodir manbaligi bois ko‘plab qo‘lyozma hamda bosma usullarda qator mamlakatlarda chop etilganligini ko‘rsatadi. Bu esa o‘z navbatida mazkur asarga ehtiyojning yuqori bo‘lganligiga ishora qiladi.

Zamaxshariyning xorazmshoh Alouddin Abulmuzaffar Otsizga bag‘ishlab yozilgan “Muqaddamat ul-adab” asari alohida ahamiyatga egadir. Bu o‘rinda shuni ta’kidlash kerakki, xorazmshohlar davrida ilm-fan, madaniyat ancha taraqqiy qilgan edi. Hukmdorlar, ayniqsa, xorazmshoh Otsiz olimlar, shoimu adiblarga hurmat bilan qarar, o‘zi ham iste’dodli, ma’rifatparvar, adabiyotga qiziqqan, bilimdon davlat arbobi bo‘lgan. Uning davrida ilm-fan taraqqiyoti yo‘lida bir qancha xayrli ishlar amalga oshirilgan. Shu sababdan bo‘lsa kerak, Zamaxshariy “Muqaddamat ul-adab”ni uning nomiga bag‘ishlab yozgan. Asar besh katta qismga bo‘lingan bo‘lib, otlar, fe’llar, bog‘lovchilar, ot o‘zgartishlari va fe’l o‘zgarishlari haqida bahs yuritadi. Asar 1137-yilda yozib tugallangan. Zamaxshariy o‘z asarida o‘sha davr arab tilining iste’molda bo‘lgan barcha so‘zlari, iboralarini qamrashga intilgan, ularning etimologiyasiga katta e’tibor qilgan. Shu boisdan ham Zamaxshariyning bu yirik asari mazkur yo‘nalishdagi dastlabki asarlardan biri sifatida baholanadi. “Muqaddamat ul-adab”ning arab, fors, turkiy-o‘zbekcha, mo‘g‘uliy so‘zlik kiritilgan qo‘lyozmalari mavjud.

“Muqaddimat ul-adab” arabchadan fors, chig‘atoj, mo‘g‘ul va turk tillariga tarjima qilingan. Manbalarda ta’kidlanishicha, asarning chig‘atoj tilidagi tarjimasi Zamaxshariyning o‘zi tomonidan amalga oshirilgan. Asarni tadqiq qilgan tadqiqotchilar xorazmshoh Otsizning tushunishi uchun asarning arabcha matni bilan birqalikda chig‘atoj tilidagi tarjimasi ham yaratilgan deb xulosa qiladilar. “Muqaddimat ul-adab” yaratilgan davridan

boshlab bir necha asrlar davomida olimlar, tadqiqotchilar diqqatini o‘ziga tortib keladi. U birinchi marta 1706-yili Xo‘ja Is’hoq Afandi tomonidan usmonli turk tiliga tarjima qilingan. So‘ngra Yevropaning bir qancha tillariga (fransuz, nemis) o‘girilgan. Parij, Leypsig, Vena, Leyden, Qozon shaharlarida, Norvegiya, Misr va Hindiston kabi mamlakatlarda bir necha marta chop etilgan. Nemis olimi G.Vetsshtayn “Muqaddimat ul-adab”ning Yevropa qo‘lyozma fondlaridagi yettita nusxasini qiyosiy o‘rganib, 1850-yili Leypsigda asarning ikki jildlik tanqidiy matnini nashr etgan. Asarning chig‘atoy tilidagi tarjimasi o‘zbek tili tarixini o‘rganuvchilar uchun muhim ahamiyatga egadir.

Zamaxshariyning g‘oyatda keng tanilgan “Kashshof an haqoqit it-tanziyl va uyin ilgaqoviyl fi vujuh it-ta’viyl” (“Qur’on haqiqatlari va uni sharhlash orqali so‘zlar ko‘zlarini ochish”) asari Qur’on tafsiriga bag‘ishlangan. Ma’lumki, o‘rta asrlardan boshlab Qur’onni tafsir yoki sharh bilan o‘qish odat tusini olgan. Shu boisdan ham Qur’on yaratilgan davrdan boshlaboq unga bag‘ishlangan tafsirlar, sharhlar yozishga katta ehtiyoj sezilgan. Turmush taqozosi bilan shunday vaziyatda islom tarixida Qur’onga bag‘ishlangan ko‘pdan-ko‘p tafsirlar, sharhlar vujudga kelgan. Zamaxshariy ham tafsir yozishdan avval o‘zidan oldin yaratilgan Qur’on tafsiriga bag‘ishlangan ko‘plab asarlarni qunt bilan tahlil qilgan. “Kashshof” alloma Makkada ekanligida, uch yil davomida (1332-1334) yozilgan. Nemis sharqshunosi K.Brokkelman dunyoning turli qo‘lyozma xazinalarida “Kashshof”ning yuzga yaqin qo‘lyozmalari va asarning o‘ziga bitilgan yigirmadan ortiq sharh va hoshiyalar borligi haqida yozishi Zamaxshariy asarining katta shuhratidan dalolat beradi. Qohiradagi butun dunyoga mashhur Al-Azhar diniy dorulfununining talabalari ham Zamaxshariyning “Kashshof” asari asosida Qur’onni o‘rganadilar. “Kashshof”ning Toshkentda, jumladan, O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy nazoratining kutubxonasida bir qancha qo‘lyozma nusxalari saqlanadi.

Zamaxshariy Makka amiri, olim va adib Abul Hasan Ali ibn Hamza ibn Vahhos Sulaymon bilan do'st edi. Ibn Vahhos o'z mamlakatining jug'rofiyasi bilan juda yaxshi tanish bo'lgan. Zamaxshariy ibn Vahhos ma'lumotlariga tayanib, o'zining Hijozga qilgan safaridan olgan shaxsiy kuzatishlari asosida yozgan "Kitob al-jibol va-l-amkina va-l-miyoh" ("Tog'lar, joylar va suvlar haqida kitob") nomli asarida jug'rofiy joylar, tog'lar va dengizlarga doir qimmatbaho ma'lumotlar keltiradi. Mashhur arab olimi va sayyohi Yoqt Hamaviy (1179-1229) ham o'zining butun dunyoga taniqli "Mu'jam ul-buldon" ("Mamlakatlar qomusi") asarida Arabiston, xususan, Hijoz haqidagi ma'lumotlarni Zamaxshariyning ushbu asariga tayanib yozgan. Zamaxshariyning bu asari g'arb olimlari o'rtasida ham keng tanilgan, 1856-yili gollandiyalik arabshunos olim Salverda de Grave tomonidan mukammal tadqiq qilingan holda nashr etilgan. Mahmud Zamaxshariy adabiyot, tafsir, hadis, fiqh ilmlari bo'yicha ham mukammal asarlar yaratgan. Olimning "Asos al-balogs'a" ("Notiqlik asoslari") asari asosan lug'atshunoslikka bag'ishlangan. Unda arab tilining fasohati, mukammalligi haqida so'z boradi. Fikrni chiroyli ibora va so'zlar bilan ifodalash, so'z boyligidan ustalik bilan foydalanish uchun kishi fasohat, balog'at ilmlaridan yaxshi xabardor bo'lishi kerak.

Buning uchun so'zni to'g'ri, o'z o'rnida ishlatish, qoidaga muvofiq so'zlash va yozish ham kerak bo'lgan. Bu asarda adabiyotning asosiy qismlari, frazeologik so'z birikmalari, ularni amalda tadbiq etish yo'llari chuqur tahlil qilingan. "Atvoq uz-zahab fi-l-mavoi'z va-l-xutab" ("Xutbalar va va'zlar bayonida oltin shodalar") – nasihatomuz maqolalar to'plamidan iborat. Asar birinchi marta 1835-yili nemis olimi Fon Xomir tomonidan nemischaga tarjima qilinib, arabcha matni bilan nashr etilgan. O'ttiz yilcha o'tgach, fransuzchaga tarjima qilinib, 1886-yili Parijda chop etilgan. 1873-yili usmonli turk tiliga tarjima

qilinib, Istambulda nashrdan chiqqan. Zamaxshariyning “Rabi’ ul-abror va nusus ul-axyar” (“Ezgular bahori va yaxshilar bayoni”) asarida adabiyot, tarix va boshqa fanlarga oid hikoyalar, latifalar, suhbatlarning eng saralari jamlangan, 97 bobdan iborat bu asarning nodir bir qo‘lyozma nusxasi Toshkentda, O‘zR FA Sharqshunoslik universitetida saqlanadi. Shuningdek, Leyden, Berlin kutubxonalarida ham qo‘lyozmalari mavjud. Olimning aruz vazni haqida bahs yurituvchi “Kustos fi-l-aruz” (“Aruzda o‘lchov (mezon)”) asari muhim manbalardan hisoblanadi. Alifbo tartibida yig‘ilgan arab maqollari, masallariga bag‘ishlangan boshqa bir asarini “Mustaqso fi-l-amsol” (“Nihoyasiga yetgan masallar”) deb atalgan. “Maqomat” (“Maqomlar”) – ellik maqomdan iborat bo‘lib, qofiyali nasr – saj’ uslubining nozik namunalarini o‘zida mujassam etgan muhim asardir. “Devon ush-she’r” kitobi ham diqqatga sazovor asarlardan sanaladi. Zamaxshariyning “Navobig‘ ul-kalom” (“Nozik iboralar”) asari esa arab lug‘atlarini o‘rganishga bag‘ishlangan yuksak did bilan yozilgan. Bu asar dastlab fransuz tiliga tarjima qilinib, asl nusxasi bilan birgalikda 1876-yili Parijda, 1870-yili Qohirada, 1884-yili Bayrutda, 1896-yili esa Qozonda nashr etilgan.

#### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar:**

1. Maxmud Zamaxshariy hayoti va ilmiy merosi dunyoning qaysi olimlari tomonidan o‘rganilgan?
2. Maxmud Zamaxshariy ilmiy merosi O‘zbekistonda qaysi ilm yo‘nalishlarida tadqiq etilgan?
3. “Kashshof” asari va uning mazmuni haqida so‘z yuriting.
4. “Mufassal” asari va uning mazmuni haqida so‘z yuriting
5. Maxmud Zamaxshariyning tilshunoslik ilmi taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi haqida nimalarni bilib oldingiz?

### **Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. Абу-л-Қосим Махмуд Замахшарий. Нозик иборалар. (Шархлар муаллифи ва тарж. У. Уватов. Нашрга тайёрловчи Асад Дилмурод). – Т: Камалак, 1992. – 80 б.
2. Хоразм фарзанди. Кўлланма /Тузувчи Ф.Рўзиева; Мухаррир Ҳ.Маматраимова. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кнаси. – Т: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий к-наси нашриёти, 2005. – 20 б.
3. Сураймонова Н. Махмуд Замахшарий “Асос-Ул-Балога” асарининг манбашунослик тадқиқи. – Тошкент. 2007.
4. Болтаев А. Замахшарийнинг ижтимоий-сиёсий қарашлари. – Тошкент. 2007.
5. Бўриев О. Замахшарийнома. – Тошкент: Ўзбекистон. 1996.

## GLOSSARIY

**Abbosiylar** – arab xalifalari sulolasi bo'lib (749-1258-yy.), bu sulolaga Muhammad Payg'ambarning amakivachchasi Abu-ul Abbas Saffoh (749-754-yy.) asos solgan. Abbosiylar sulolasi besh asr, ya'ni 749 yildan 1258 yilgacha hukm surgan. Abbosiylardan 38 kishi xalifa bo'lgan.

**Abu Mansur Hasan ibn Nuh Qumriy** – tib olimi. Somoniylar amiri Mansur Ibn Yahyoning shaxsiy tabibi bo'lgan. Alloma buxorolik bo'Igani uchun "Buxoriy" nisbasi bilan ham tanilgan. Abu Mansur Hasan tabobat ilmida Ibn Sino ustozи. "Kitob ilal ul-ilal" ("Kasalliklar sabablari kitobi"), "Kitob g'ino va mano" ("Hayot va o'lim haqida kitob") kabi arab tilida yozilgan bir qancha asarlarning muallifi. Bularning keyingisi esa inson organizmida paydo bo'ladigan har xil kasalliklar, ularning dorilari va davolash usullariga bag'ishlangan.

**Abu Mansur Isfahoniy Husayn ibn Zayd ibn Tohir (? – 1057)** – riyoziyotchi, musiqada Ibn Sinoning (Isfahondagi) shogirdi. Ibn Sinoning falsafiy risolalaridan "Hay ibn Yaqzon" ("Yaqzonning o'g'li Hay") asariga sharh yozgan hamda "Shifo" asarining mazmunini saqlagan holda qisqartmasini tuzgan.

**Abu Nasr ibn Iroq Mansur ibn Ali (? – 1036)** – xorazmlik riyoziyotchi va falakiyatshunos olim. Xorazmshoh saroyidagi Abu Ali ibn Sino, Abu Sahl Masixiy, Abulkayr Hammor va Abu Rayxon Beruniy kabi olimlar bilan muloqatda bo'lgan. Xorazmshoh Abulabbos Ma'munga bag'ishlab "Kitob fi kuriyya as-sama" ("Samoning shar shaklida ekani haqida kitob"), "Risola filhalli shubhaten arazat fil-maqolat as-solis ashara min kitob al-usul" ("Negizlar" kitobining o'n uchinchi maqolasida yuz bergen shubhani hal qilish haqidagi risola"), "Risola fi sana al-usturlab bit-tariq assi na i ila Abi Abdallah Muhammad ibn Ali al-Ma'muni" ("Abu Abdilloh Muhammad ibn Ali al-Ma'munga usturlobni san'at

usulida yasash haqida yuborilgan risola") kabi asarlar yozgan. O'z davrida "Batlimusi soniy" ("Ikkinchi Ptolemy") degan faxriy nom olgan.

**Abu Nazr Samarqandiy** (Abu Nazr Muhammad ibn Mas'ud A'yoshiy Sulamiy), (10-a.) – fiqx olimi. Xurosonda bosh imomlik qilgan. Arab tilida 208 ta asar yozgan. Bulardan "Kitob sirat abiy" ("Otamning tarjimai holi kitobi"), "Kitob sirat Umar" ("Umarning tarjimai holi kitobi"), "Kitob al-muvazzah" ("Izohlangan narsalar haqida kitob"), "Kitob sirat Muoviya" ("Muoviyaning tarjimai holi kitobi") kabi asarlari diqqatga sazovordir. Ayniqsa uning "Tafsir as-Sulamiy" kitobi mashhur bo'lib, nemis sharqshunosi K.Brokkelmanning yozishicha, bu asarning Ibrohim ibn Ahmad Qummiy tomonidan qaytadan ishlangan nusxasi bizgacha yetib kelgan.

**Abu Yusuf Yoqub ibn Ibrohim** (731-798) – fiqhshunos olim. Abu Hanifaning shogirdi. Xalifalar Xodi (785– 786) va Horun ar-Rashid (786–809) davrida Bag'dodda qozi bo'lgan. Abu Yusuf Yoqub ibn Ibrohim ar-Rashid topshirig'iga ko'ra "Kitob al-xiroj" ("Soliq haqida kitob") asarini yozgan. Bu kitob ilk xalifalikning ijtimoiy-iqtisodiy tarixi bo'yicha qimmatli manba hisoblanadi.

**Adab** (arab.) – shaxsning tarbiyaviy darajasi, axloqiy qiyofasi, ma'naviy barkamolligining asosiy sharti va mezoni, o'zbek tilidagi odob va axloq so'zlarining o'zgargan shakli, ma'nodoshi. Kishi adab orqali el-yurt o'tasida obro'-e'tibor, izzat-hurmat topadi. Adab xalqimiz hayotida qadim-qadimdan muhim rol' o'ynab kelgani uchun mun-tlarning deyarli barcha shakl va ko'rinishlariga shu nuqayı nazardan yondashilgan. Ularga nom va baho berishda adab asosiy mezon bo'lgan.

**Ajam** – arablar o'zları bosib olgan hududlardagi boshqa xalqlarni, jumladan, Yaqin, O'rta Sharq hamda O'rta Osiyo xalqlarini shunday ataganlar.

**amid ul-mulk** – davlat hujjatlari va elchilik aloqalari vaziri

**amir al-mo'minin** – mo'minlarning hukmdori. Ilk islam davrida xalifalarning keng qo'llanilgan unvoni. Bu unvonni dastlab xalifa Umar olgan. Keyingi barcha xalifalar ham shu unvon bilan yuritilgan.

**amir ul-umaro** – harbiy ishlarni boshqargan

**Avliyo** (arab. valiy - do'st) – valiy, valoyat suzlaridan olingan. Valoyat – adovatning teskarisidir. Islom dinida mo'minlar Allohning avliyosi, Alloh esa ularning valiysi, ya'ni do'sti degan aqida mavjud. Kundalik hayotda donishmand, uzoqni ko'ra oladigan, keljakni bashorat qila oladigan. Ma'naviy barkamol kishilarga nisbatan qo'llanadi.

**Bayt al-hikma** – Tarixdan ma'lumki, 749 yilda Abu-l-Abbos Saffox xalifa Marvon II ni taxtdan ag'dargach, xalifalikni boshqarish Abbosiylar sulolasi qo'liga o'tadi. Bag'dod tez orada sharqda Markaziy Osiyogacha, g'arbda Ispaniyaga qadar kengaygan yirik davlatning poytaxtiga aylandi. Arablar, odatda, o'zлari bosib olgan mamlakatlarning boyliklarini o'z manfaatlari yo'lida ishlatish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solar edilar. Shu boisdan bu mamlakatlarning ham moddiy, ham ma'naviy boyliklari asta-sekin Bag'dodga oqib kela boshladi. Ayniqsa, Mansur, Horun ar-Rashid, Ma'mun kabi Abbosiy xalifalar qadimiy qo'lyozma asarlar va yirik olimlarni o'z saroylariga jalg etishga alohida e'tibor qaratish bilan bir qatorda, bu borada mislsiz jonbozlik ham ko'rsatdilar. Natijada Bag'dod tez orada butun xalifalikda ilmiy faoliyat yuritish uchun katta imkoniyatlarga ega bo'lgan qulay shaharga aylandi. Bu esa o'z navbatida, olimlarning o'sha yerda ijod qilish ishtiyoqini oshirib yubordi. Saroyda qo'lyozma asarlarni saqlash odati ummaviylar sulolasi davrida ham mavjud bo'sada, bu ish abbosiy xalifalardan al-Mansur davrida doimiy jarayonga aylandi, sifat va miqdor jihatni ham tubdan o'zgardi. Al-Mansur nodir qo'lyozma asarlarni toplashdan tashqari, o'zga yurtlardagi olimlarni ham o'z saroyiga jalg eta boshladi. Uning saroyida Gundishopur maktabidan taklif

etilgan turli diniy e'tiqodda bo'lgan ko'pgina olimlar, tabiblar, kamyogarlar, geograflar va muhandislar xizmat qilgan. Ular orasida Bag'dod shahrining qurilishida ishtirok etgan astrologlar – eronlik an-Navbaxt va basralik yaxudiy Menassiyalar (vaf. Tax. 815 y.) ham bor edi. Musulmonlar orasida "Mashallah" nomi bilan tanilgan Menassiya, Mansur, Horun ar Rashid, Amin va Ma'munlar davrida eng mashhur astrologlardan biri edi. Mansur saroyida Gundishopur maktabidan Bag'dodga taklif etilgan qator tabiblar ham faoliyat ko'rsatgan. Ular ichida Baxtyashu oilasiga mansub bir qancha xristian tabiblari bo'lib, ularning eng yirik namoyandasini bo'lmish Jibril ibn Baxtyashu, xalifa al-Mansur uchun tabobatga oid ko'pgina asarlarni yunon tilidan arab tiliga tarjima qiladi. Jibril ibn Baxtyashuning o'zi va bu oilaning o'ndan ortiq boshqa tabiblari Bag'dod shahrida uzoq yillar davomida tabiblik faoliyati bilan mashg'ul bo'lganlar. Harronlik yirik kamyogar va tarjimon Jobir ibn Hayyon ham xalifa al-Mansur davrida yashagan. Ibrohim Fazariy xalifa Mansurning topshirig'iga binoan, hindlarning astronomiyaga oid yirik qomusiy asari "Sindhind"ni sanskrit tilidan arab tiliga tarjima kiladi. Yuqorida zikr etilgan asarlardan tashqari, al-Mansur uchun falsafa, tabobat, falakiyat, riyoziyot, tarix, adabiyotga oid boshqa kitoblar ham tarjima qilingan.

**Bilim** – borliqni bilish jarayonining amaliyotda tasdiqlangan natijasi. Obyektiv reallikning inson ongida adekvat aks ettirilishi (tasavvur, tushuncha, mulohaza, nazariyalar). U kundalik, ilmiy, empirik, nazariy bilimlarga ajraladi. Kundalik bilim sog'lom fikrga va kundalik amaliy faoliyat shakllariga asoslanadi. Insonning atrof-muhitga moslashuvi, uning xatti-harakatlari va oldindan ko'ra bilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

**buxorxudot** – Buxoro mahalliy hukmdorlari, yirik yer sohiblari

**Evolyutsiya** – (Lot. evolutio - ochilish, yozilish, takomillashish) tadrijiy rivojlanish. Umumilmiy va falsafiy ta'limot hisoblanadi. Tabiat, jamiyat va ruhiyma'naviy, rivojlanish konsepsiylarini

umumlashtirib ifoda etishga xizmat qiladi. Evolyutsiya tushunchasi keng ma'noda, rivojlanish tushunchasining sinonimi sifatida ishlatiladi.

**Fenomen** – Tushunchasi aynan shu hodisaning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan mohiyatni ochib beradi va "mohiyat" tushunchasini o'z ichiga qamrab oladi.

**Fiqh** – Islom huquqshunosligi bo'lib, bu soha rivojida Qafhl Shoshiy, Burhoniddin Marg'noniy, Jaloliddin Ahmad Kosoniy kabilarning ulushi katta bo'lgan.

**Fozil shahar** – Forobiy ijtimoiysiyoq qarashlaridagi ideal jamiyat.

**g'oziy** – Islom dini uchun g'ayridinlarga qarshi muqaddas urush – g'azavot ishtirokchisi. Shariatga ko'ra, bunday urushda oti va qurol-yarog'i bor har bir musulmon erkak qatnashishi shart bo'lgan. Kambag'allar, qullar, nogironlar va keksa kishilar bundan ozod etilgan.

**hadis** – Islom dini ta'limoti bo'yicha Qur'onidan keyin turadigan ikkinchi muqaddas manba bo'lib, Muhammad Payg'ambarning hayoti va faoliyati, shuningdek uning diniy va ahloqiy ko'rsatmalarini o'z ichiga oladi.

**hadisi sahih** – to'g'ri hadis

**Hadisi Sharif** – Muhammad payg'ambarning nasihatlari, ko'rsatmalarini va faoliyati bilan bog'liq ahloqiy, huquqiy me'yorlar.

**Hamadoniy Yusuf** (1048, Hamadonning Buzanjird qishlog'i – vaf. 1141 y., Afg'onistonning Bomiyon shahri) – tasavvufning yirik namoyandası, mashhur olim. Bag'dodda Abu Is'hoq Sheraziydan tahsil olgan. Isfahon, Samarqand va Buxoroda o'z bilimini oshirgan. Tasavvufni Abu 'Ali Farmadiy, Abdulloh Juvayniy va Hasan Simmoniydan o'rgangan. Zamonasining yetuk allomalari Abdulqodir Giloniy, Imom G'azzoliy, shayx Hamiduddin Mo'lltoniy bilan muloqotda bo'lgani, o'ttiz marta haj ziyoratiga borgani haqida degan rivoyatlar bor. Hamadoniy Buxoroda uzoq muddat yashab,

Ahmad Yassaviy va ‘Abdulxoliq G‘ijduvoniyni tarbiyalab, voyaga yetkazgan. U keyinchalik xojagon-naqshbandiya tariqatining bosh shiorlariga aylangan “xush dar dam”, “nazar bar qadam”, “safar dar vatan”, “xilvat dar anjuman” qoidalarini ishlab chiqqan.

**hanafiya** – so‘fiylikdagi diniy huquq mazhablaridan biri. Abu Hanifa an-Nu’mon asos solgan. Iroqda vujudga kelib, islom tarqalgan barcha mamlakatlarda, shu jumladan, Xuroson va Movarounnahrda ham keng tarqalgan.

Ilmiy bilim – tizimli, asosli va narsa, hodisalar mohiyatiga chuqur kirib boradigan bo‘ladi. U empirik va nazariy darajada bo‘ladi.

**Imom** – arabcha so‘z bo‘lib, namozda jamoatning oldida turib namozni boshqaruvchi kishi. Shuningdek, islom dinida musulmonlarning rahbari, boshlig‘i demakdir. Imom atamasi nihoyatda keng mazmuni bo‘lib, quyidagi ma’nolarda ishlatilgan: 1. Sunniylikda barcha musulmonlarning oliv rahbari; 1. Sunniylikka shariat mazhablarining asoschisi; 3 Shialikda eng yuksak rahnamo, ya’ni Hazrati Ali va uning avlodlari; 4. Sunniylikda ham shialikda ham masjidda namozni boshqarib boruvchi dindor – masjid imomi.

**Kalom ilmi** – O‘rta asrlarda felsafiydiniy fikrlami, dinning nazariy asoslarini o’rganish, islom aqidalariga nisbatan aqliy mulohaza yuritish jarayonida vujudga kelgan maxsus bilimlar tizimi.

**Kubroviylik** – tasavvuf tariqati. XIII asr boshida Xorazmda Najmuddin Kubro asos solgan. Kubroviylik tasavvufning O‘rta Osiyodagi maktabi bo‘lib, ma’naviy vorislik zanjirini Ma’ruf al-Karxiy (vaf. 816 y.) orqali Abu Bakr yoki Ali ibn Abu Tolibga yetkazadilar. Kubroviylikda tariqat a’zolarining yagona tashkiliy tizimi bo‘limgan. Ularni ta’limotning ruhi va maqsadi birlashtirgan. Kubroning shogirdi Sayfiddin Boxarziy tomonidan Buxoro yaqinidagi Soqtariy qishlog‘ida tashkil etilgan xonaqoh Najmuddin Kubro nomi bilan atalgan. Bu yerda Kubroviylik tariqati XVIII asrning oxirlarigacha keng tarqalgan edi.

**Matematika** – (yun. *thematike, mathema* – bilim, fan) – aniq mantiqiy mushohadalarga asoslangan bilimlar haqidagi fan. Dastlabki obyekti sanoq bo‘lgani uchun ko‘pincha unga “hisob-kitob haqidagi fan” deb qaralgan (bugungi matematikada hisoblashlar, hatto formulalar ustidagi amallar juda kichik o‘rin egallaydi). Matematika eng qadimiy fanlardan biri bo‘lib, uzoq rivojlanish tarixini bosib o‘tgan va buning barobarida “matematika nima?” degan savolga javob ham o‘zgarib, chuqurlashib borgan. Yunonistonda matematika deganda geometriya tushunilgan. IX-XIII asrlarda matematika tushunchasini algebra va trigonometriya kengaytirgan. IX asrdan fan tarixi “Musulmon renessansi” deb nomlangan yangi yuksalish davriga kiradi. “Bayt ul-hikma”da Yunoniston, Hindiston, Xorazm va Xitoyda jamg’arilgan bilimlar sintez qilinib, Matematika izchil rivojlantirila boshlandi. Xorazmiy tarqoq bilimlarni tartibga keltirib, algebraga asos soladi. Uning o‘nli sanoq sistemasi bayon qilingan asari tufayli bu qulay hisoblash vositasi dunyoga yoyildi. Asarlari o‘qimishli bo‘lishi uchun Xorazmiy aniq va lo‘nda bayon uslubini qo‘llagan. Shu tufayli uning asarlari keng tarqalgan. Xorazmiy uslubi yevropalik tarjimonlar tomonidan muallif nomi bilan algoritm deb atalgan. Musulmon Sharqi olimlari geometriyani ham rivojlantirgan (Sobit ibn Qurra, Abulvafo, Umar Xayyom), trigonometriyaga fan sifatida asos solganlar (Ibn Xaysam, Beruniy, Tusiy), xususan, Ahmad Farg‘oniy tomonidan Ptolemeyning stereografik proyeksiya haqidagi teoremasining isbotlanishi Bag‘dod akademiyasida geometriya chuqr o‘rganilganini ko‘rsatdi. Arab tilida ijod qilgan matematiklarning uchinchi va to‘rtinchchi darajali tenglamalarni geometrik usulda yechish yo‘llari keyinchalik analitik geometriya yaratilishiga turki bo‘lgan.

**Mu’taziliylar** – Arabcha - ajralib chiqqanlar, uzoqlashganlar. Islomda ilk ilohiyot oqimlaridan biri bo‘lib, diniy hukm va aqidalarni aql doirasida qabul qiluvchilar.

**muftiy** – fatvo beruvchi, qaror chiqaruvchi, sud ishlarini amalga oshiruvchi oliy martabali shaxs.

**muhaddis** – islom dunyosida hadis ilmi bilan shug'ullanadigan olim.

**mutafakkir** – chuqur falsafiy fikrlash iste'dodiga ega bo'lgan kishi, tafakkur egasi.

**Naqshbandiylik** – tasavvuf tariqatlaridan biri. Bahouddin Naqshband asos solgan. Naqshbandiylik ta'limotining asosida "ko'ngil Xudoda bo'lsinu qo'l ish bilan band bo'lsin" ("dil ba yoru dast ba kor") shiori yotadi. Unga ko'ra, dilni Allah bilan bog'lagan hodda kasb-hunar va qo'l mehnatini aslo tark etmaslik kerak. Faqirona yashash, xayr-ehson hisobiga emas, o'z mehnati hisobiga hayot kechirish lozim. Bu g'oya tariqat asoslanadigan o'n bir qoidada ham o'z ifodasini topgan. Turonzamin tasavvufida zikr tushishning ikki usuli amalda bo'lgan. Biri – zikri jahriy, ikkinchisi – zikri xufiya. Naqshbandiylikda zikri xufiya amalda bo'lib, bunda zikr tushayotgan solik so'zlarni til bilan talaffuz qilmaydi, ovoz chiqarmaydi, so'zlar faqat dilda aytiladi.

**qozi** – sud ishlarini amalga oshiruvchi, sharhlovchi shaxs

**Qur'oni Karim** – musulmonlarning muqaddas kitobi

**renessans** - so'zi fransuzchada "qayta tug'ilish, yangi ruhda o'sish" ma'nolarini bildiradi va o'zbekchada ba'zan, "uyg'onish", deb ham yuritiladi.

**shahriston** – o'rta asrlarda Sharqdagi shaharlarning markazi, ya'ni mudofaa devori bilan mustahkamlangan shaharning asosiy qismi. Shahristonda saroy, jome masjidi, yopiq yoki ochiq bozor, bosh maydon – registon, muhim ma'muriy binolar, hukmdor va uning yaqinlarini qo'rg'onlari, shuningdek, oddiy aholi xonadonlari va boshqalar bo'lgan.

**shayx ul-islom** – eng yuqori pog'onada turuvchi huquqshunos shaxs

**shayx ul-islom** – eng yuqori pog'onada turuvchi huquqshunos shaxs

**shayxulislom** – din va ilm peshvosi

**so‘fiylik** (arabcha “suf” – jun) – islom dini paydo bo‘lgandan so‘ng uning doirasida, Qur’on va Hadisga mos ravishda VIII asrning o‘rtalarida shakllangan ta’limot.

**Tamaddun** – (Lot civilis-fuqaroviyligi, ijtimoiy) serqirra va murakkab mazmunga ega boigan ijtimoiyfalsafiy tushuncha. Sivilizatsiya (tamaddun) tushunchasini shotland tarixchisi va faylasufi A.Fergyusson (1723-1816) jahon tarixiy jarayonining maium bir bosqichini ifodalash uchun, fransuz ma’rifatparvarlari aqlidrok va adolatga asoslangan jamiyat degan ma’noda ishlatgan edilar.

**tariqat** – so‘fiylikka xos atama bo‘lib, uch ma’noda ishlatilgan: 1) umuman, so‘fiylik yo‘li; 2) so‘fiylikni muayyan tarmog‘i, yo‘nalishi; 3) so‘fiylik bosqichlaridan biri. Tariqatni so‘fiylik yo‘nalishlari, tarmoqlari ma’nosida qo‘llash kenroq tarqalgan. Tariqatga qadam qo‘yish – tirikchilikning barcha tashishlaridan voz kechish hamda ixtiyorni pirga topshirishdan boshlanadi. O‘rta Osiyoda naqshbandiylik, kubraviylik, yassaviylik tariqatlari tarqalgan.

**tohiriyalar** – Tohiriyalar davlatini boshqargan sulola. Asoschisi – Tohir ibn Husayn.

**Tolerantlik** – Lot tolerantia - chidam, sabr-toqat— o‘zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg‘ulari, fikr-mulohazalari, g‘oyalari va e’tiqodlariga nisbatan chidamlilik, bag‘rikenglik.

**ulamo** – islom ilohiyotchilari va huquqshunoslari, shuningdek, diniy muassasalarga, qozilik mahkamalariga, o‘quv yurtlariga mutasaddi bo‘lgan barcha musulmon dindorlari ulamolar deb yuritilgan.

**Ummaviylar** – arab xalifalari sulolasi (661-750-yy.). Asoschisi makkalik yirik savdogar va qurayshiylar zodagoni Abu So‘fyonning o‘g‘li Muoviyadir. Muoviya xalifa Ali hokimiyatini tan olishdan bosh tortib, Damashqda o‘zini xalifa deb e’lon qilgan.

**Uyg'onish davri** – Yangi davr arafasida o'ziga xos qadriyatlarga ega bo'lgan g'oyaviy va madaniy rivojlanishni o'z ichiga olgan tarixiy jarayondir.

**Uzlat** (arab. – biror narsadan saqlanish; chekinish, kishilardan chetlashish; uzlat etish, yolg'izlikni ixtiyor qilish) – xoli joy; tanholik; hech nimaga bog'lanmaslik; dunyoning xilma-xil g'avg'olaridan forig'lik. Sufiylar uchun Muhammadning (s.a.v.) Hiro tog'ida o'tkazgan uzlatdagi hayotlari ibrat va namunabo'lgan deyiladi. Tasavvufda uzlat deyilganda shayx, pir, murshid rahnamoligi va ko'rsatmalariga binoan muridning maxsus bir makonda berkinib, ibodat va zikr orqali ma'lumdarajaga erishishni istashi tushuniladi. Kamida qirq kundavom qiladigan bu jarayonga xalq tilida "chilla" ham deyiladi. Islomda hech qachon hayotni batamom xilvatda o'tkazish lozimligitarg'ib etilmagan. Tasavvufga ko'ra, uzlat hayotdan qochish, kundalik turmushdan ajralib yashash, odamlardan bezish emas, balki ma'lum muddat ruhiy kamolotga erishib, yana faoliyatnidavom ettirish hisoblanadi.

**vazir ul-vuzaro** – ulug' vazir

**Xitoba** – Ritorika, notiqlik san'ati qoidalari, uning tarkibiy qismlari kabi masalalar.

**Xojagon** – Yassaviya va naqshbandiya oqimlaridan iborat bo'lган, Markaziy Osiyoda keng tarqalgan tasavvuf tariqatlariidan biri.

**Xonaqoh** (fors-sug'd. – uy) – darvishlar, qalandarlar, shuningdek, g'arib va miskinlar istiqomat qiladigan uy – qalandarxona, darvishxona. Musulmon mamlakatlarida zoviya, tak'ya, rabot nomlari bilan ham yuritiladi. XII asr boshlarida tariqatlar shakllanish arafasida sufiylar yig'ilib to'planadigan joy sifatida xizmat qilgan muvaqqat manzillar talabga javob bera olmay qoldi. Bu paytda tasavvufga qiziqish ortib borishi, muridlarning soni o'sib, ixlosmandlarning tobora ko'payib borishi tufayli bu jarayonni tizimga solish ehtiyoji tug'ildi. Mana shu jarayonlar ta'siri o'laroq, sufiy markazlari – xonaqohlar paydo bo'ldi.

**Xorazm Ma'mun akademiyasi** – Xorazmning poytaxt shahri Gurganjda (Ko'hna Urganch) ma'rifatparvar ma'muniylar sulolasiga mansub Xorazmshoh Ali Ibn Ma'mun va Ma'mun ibn Ma'munning sa'yi-harakati hamda qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning bevosita rahnamoligida Sharqning yirik ilmiy markazi "Dor-ul hikma va ma'rifa" tashkil qilingan edi. Fanning dolzarb muammolari bilan shug'ullangan bu ilm dargohi shundan ikki asr avval Bag'dodda faoliyat ko'rsatgan "Bayt-ul hikma" hamda O'rta Osiyo, xususan Xorazmda shakllangan qadimiy ilmiy-ma'rifiy an'analarni davom qildirib, jahon ilm-fani taraqqiyotida munosib o'rinni egalladi. Bu ilmiy dargoh endilikda Xorazm Ma'mun akademiyasi nomi bilan yuritilib kelmoqda. Xorazm Ma'mun akademiyasining shakllanishi va taraqqiy qilishida yuqorida omillardan tashqari antik yunon olimlarining asarlari hamda IX asrda Bag'doddagi "Bayt-ul hikma"da faoliyat ko'rsatgan ajdodlarimiz Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Ahmad Marvaziy, Abbas Javhariy kabi olimlarning ilmiy kashfiyotlari ham muhim rol o'ynaydi. Ma'mun akademiyasi olimlari yuqorida nomlari ko'rsatilgan allomalarning asarlaridan ma'naviy oziqlandilar, ularning ilmiy xulosa va kashfiyotlarini o'z tadqiqtolari bilan boyitdilar va rivojlantirdilar.

**Yassaviylik** – tasavvuf tariqatlaridan biri. Markaziy Osiyoda vujudga kelgan. Asoschisi Ahmad Yassaviy. Yassaviylik Yusuf Hamadoniy va Abdulxoliq G'ijduvoniy ta'limotlari negizida shakllangan deyiladi, lekin tariqatning suhravardiya an'anasiga borib taqalishi haqida ham ma'lumotlar bor. Yassaviylikda tasavvufning asosiy to'rt maqomi shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat keng targ'ib etilgan. Unga ko'ra, shariatsiz tariqat, tariqatsiz ma'rifat, ma'rifatsiz haqiqatga erishib bo'lmaydi. Bularning har biri alohida bosqich bo'lib, bir-birini to'ldiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### Rahbariy adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. –Тошкент: Ўзбекистон, 2016.; Конун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараккиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. –Тошкент: Ўзбекистон, 2017; Ватанимиз тақдиди ва келажаги йўлида янада хамжихат бўлиб, катъият билан харакат килайлик. Ижтимоий баркарорликни таъминлаш, мукаддас динимизнинг софлигини асрар – давр талаби мавзуусидаги анжумандада сўзлаган нутки. // Хидоят, – Тошкент. 2017. –№ 6. 7 -б.

2. Мирзиёев Ш.М. Буюк алломалар, адаб ва мутафаккирларимиз ижодий меросини кенг ўрганиш ва тарғиб килиш максадида ёшлар ўргасида китобхонлик танловларини ташкил этиш тўғрисида. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 04.08.2018.

### Asosiy adabiyotlar

1. Абдухалимов Б.А. «Байт ал-хикма» ва Ўрта Осиё олимларининг Бағдоддаги илмий фаолияти. -Т.: Тошкент ислом университети, 2004. -236 б.
2. Абу Бакр Шоший // Ислом энциклопедияси (A–X). – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2004. -Б. 10.
3. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. Т.: ЎзМУ нашриёти, – 2004.
4. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. –Т.: Шарқ, 2001.- 368 б.
5. Аль-Хорезми. Астрономические трактаты. / Пер. и примеч. А. Ахмедова. – Ташкент: Фан, 1983. – 140 с.
6. Ахмедов А. Ахмад ал-Фаргоний. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1998. – 160 б.

7. Баходиров Р.М. Абу Абдуллоҳал-Хоразмий ва илмлар таснифи тарихидан. – Т.: Ўзбекистон, 1995. -143 б.
8. Бобоев С. Ахмад ал-Фарғоний. – Тошкент: Тафаккур, 2010.
9. Бозоров О.Б. Шодиев Р.Т. Ўрта Осиё тасаввуфи ва ахлоқий қадриятлар. – Самарқанд, 1992.
10. Бойматов С. Маматкулов Ф., “Буюк аждодларимиз мероси бутун инсониятнинг бойлигидир”. Илмий-услубий қулланма. Жиззах-2015.
11. Буюк аждодларимиз. – Тошкент: Тошкент ислом университети. 2002.
12. Жузжоний А.Ш. Тасаввуф ва инсон. – Тошкент: Адолат, 2001.
13. Ирисов А. Абу Али ибн Сино ҳаёти ва ижодий мероси. – Тошкент: Фан, 1980. – 207 б.
14. Комилов Н. Нажмиддин Кубро. – Тошкент: Халқ мероси, 1995.
15. Комилов Н. Тасаввуф. Т.: Мовароунахр – Ўзбекистон, 2009.
16. Комилов Н. Тафаккур карвонлари, – Тошкент: Маънавият, 1999. – 279 б.
17. Конрад Н.Н. Запад и Восток. М.: Т.1 редак. Вост. литератurm. 1972.
18. Кориев О. Фарғона фикҳ мактаби ва Бурхонуддин ал-Марғиноний. – Т.: Фан, 2009.
19. Махмуд Аз-Замахшарий. “Ал-Унмузаж”. Тошкент ислом университети. – 2001.
20. Маънавият юлдузлари / Тўпловчи, нашрга тайёрловчи ва мастьул муҳаррир М.М.Хайруллаев. Тўлдирилган қайта нашр. -Т.: Халқ мероси нашриёти, 2001. - 408 б.
21. Маърифат юлдузи. – Урганч: УДУ, 1997.
22. Мец Адам. Мусульманский ренессанс // Перевод с немецкого и предисл. Е. Э. Бертельса. – М.: наука, 1966.

23. Мухамедов Н. Шошлик мұхаддис ҳаёти ва фаолиятига доир айрим маълумотлар // Академик Убайдулла Каримов номидаги ёш шарқшунослар илмий конференцияси тезислари (ЎзР ФА Шарқшунослик институти, 2005 йил 6 апрель), - 2005.
24. Оқилов С. Абул Муин ан-Насафий илмий мероси ва мотуридия таълимоти. – Т.: Нур полиграф. 2008.
25. Рудолф У. ал-Мотуридий ва Самарканд суннийлик илохиёти. -Т.: Имом ал-Бухорий халқаро жамғармаси, 2001. -397 б.
26. Саидов А. Усулул фикх – ислом қонуншунослигига бир назар // Усулул фикх. -Т.: Адолат, 1997. -Б. 209.
27. Сулеймонова Ф. Шарқва Ғарб (Қадимий давр ва ўрта асрлар маданий алокалари). -Т.: Ўзбекистон, 1997. -416 б.
28. Уватов У Имом ал-Бухорий ҳаёти. -Т.: Шарқ, 1998. -90 б.
29. Уватов У. Абу Исо ат-Термизий. Сахих ат-Термизий / ААбдулло таржимаси. -Т.: F.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1993. -208 б.
30. Уватов У. Икки буюк донишманд (Абу Исо ат-Термизий, Ал-Ҳаким ат-Термизий). – Тошкекн: Шарқ. 2005.
31. Уватов У. Имом Шоший ҳаёти ва ижодига оид баъзи маълумотлар // Тарихий манбашунослик муаммолари (Республика илмий-амалий анжумани материаллари). - Т.: Университет, 2003.
32. Уватов У. Мұхаддислар имоми. –Т.: Маънавият, 1998.
33. Усманов И. Тасаввуф фанидан глоссарий. – Т.: ТИУ, 2011. – 125 б
34. Усмон Турар. Тасаввуф тарихи. – Т.: Истиқлол, 1999. – 180 б
35. Хайруллаев М. Фараби – крупнейший мыслитель средневековья. – Ташкент: Фан, 1973. – 100 с.
36. Хайруллаев М.М. Ўрта Осиёда илк Уйғониш даври маданияти. – Т.: Фан, 1994. – 77 б.

37. Ҳақиқат манзиллари. – Т.: Янги аср авлоди, 2009.
38. Ҳаккул Иброҳим. Тақдир ва тафаккур. – Тошкент: Шарқ, 2007.
39. Ҳамидҷон Ҳомидий. Тасаввуф алломалари. – Т.: Шарқ, 2004.
40. Ҳасанов Ҳ. Сайёҳ олимлар. – Т.: Ўзбекистон, 1981.
41. Ҳожи Исматуллоҳ Абдуллоҳ. Марказий Осиёда ислом маданияти. – Тошкент: Шарқ. 2005. – 384 б.
42. Ҳомидий Ҳ. Тасаввуф алломалари. – Тошкент: Шарқ, 2004
43. Ҳусниддинов З. Ислом: йўналишлар, мазҳаблар, оқимлар. – Т.: Мовароуннахр, 2000.– 108 б.
44. Шайх Нажмиддин Кубро – кутби даҳр. – Тошкент: ЎзРФА Фалсафа ва хукук институти, 1998.
45. Шайх Нажмиддин Кубро. – Тошкент: Ёзувчи, 1995.
46. Зиёдов Ш. Ал-Мотуридий ҳаёти ва мероси. – Т.: А. Кодирий, 2000. – 27 б.

### Dissertatsiya va avtoreferatlar

1. Эшонжонов Б. IX аср Мовароуннахр маданий ҳаётида Имом ал-Бухорийнинг мавқеи ва унинг “ал-Жомиль ас-саҳиҳ” асаридаги фикҳий масалалар. Тарих фан ном ... дис. автореф. – Т.: Тошкент ислом университети, 2001. – 29 б.
2. Уватов У. Мовароуннахр ва Ҳурсон олимларининг ҳадис илми ривожида тутган ўрни (ал-Бухорий, Муслим, ат-Термизий): тарих фан доктори... дис. – Т.: Тошкент ислом университети, 2001. – 300 б.
3. Ахмедов А.А. Научное наследие ал-Хоразми и его место в истории науки и культуры: Автореф. ... док. ист. наук. – Т.: ИВАН РУз., 1986.
4. Кариев А.А. Бурхан аддин ал-Марғинани и его место в истории фикха: Автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Т.: ИВАН РУз., 2001.

5. Рахимжанов Д.А. Абу Ҳафс ан-Насафийнинг “Китоб ал-қанд фи ма‘рифат ‘уламо’ Самарқанд” асари – Самарқандда ҳадис илми тарихи бўйича мухим манба: Дис. ... тарих фан. номз. – Тошкент: ТИУ, 2003. – 169 б.
6. Бабашев Ф.А. Хоразм Маъмун Академияси алломаларининг маърифий-ахлоқий карашлари. Диссертация, – Т.: 2000.
7. Жўрақулов Ф. Абу Райхон Берунийнинг табиий-илмий ва ижтимоий-фалсафий меросининг ғарб олимлари томонидан тадик этилиши. Фал. фан.ном. дисс.... – Тошкент. 2007,

### Gazeta va jurnallar

1. Яминов А. Каффол Шоший Ўрта аср араб манбаларида // ЎзР ФА ШИ. Шарқшунослик. - 2004. - 12-сони. – Б. 76-82.
2. Мухамедов Н., Раҳматжонов Р. Диний ва дунёвий маърифат уйғунлиги // “Тошкент ислом университети» илмий-таҳлилий ахбороти. -2003. -3-сони. – Б. 36-42.
3. Мухамедов Н. “Китоб ал-Ансоб»даги шошлиқ олимлар // Имом ал-Бухорий сабоқлари. 2003. -4-сони. – Б. 23-28.
4. Мухамедов Н. Араб манбалари шошлиқ олимлар ҳақида // “Тарихий манбашунослик муаммолари» (Республика илмий-амалий анжумани материаллари (2003 йил 25 апрель). – Т.: Университет, 2003. – Б. 65-67.
5. Мухамедов Н. Каффол Шоший - машҳур ҳадисшунос олим ( “Жавомиъ ал-калим» кўлёзмаси мисолида) // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. -2003. -5-сони. – Б. 57-59.
6. Мухамедов Н. Имом Каффол Шоший — мұхаддис олим // ТИУ илмий-таҳлилий ахбороти. -2003. -1-сони. – Б. 13-16.
7. Мухамедов Н. Тожуддин ас-Субкийнинг “Табақот аш-шофиъия ал-кубр» асарида шошлиқ олимлар // ТИУ илмий-таҳлилий ахбороти. -2004. -3-сони. – Б. 21-26.

## Internet manbalari

[https://moturidiy.uz/.](https://moturidiy.uz/)

<https://bukhariy.uz>.

[https://ziyouz.uz/.](https://ziyouz.uz/)

[https://ziyonet.uz/.](https://ziyonet.uz/)

## MUNDARIJA

KIRISH .....	3
1-MAVZU: “Sharq allomalarining ilmiy merosi” fanining predmeti, maqsad va vazifalari .....	7
2-MAVZU: IX-XII asrlarda O’rta Osiyoda ilm-fan taraqqiyoti: tarixiy shart-sharoit va omillar .....	18
3-MAVZU: O’rta asrlarda musulmon Sharqida tashkil etilgan yirik ilmiy markazlar.....	26
4-MAVZU: O’rta Osiyoda dunyoviy ilmlar rivoji .....	41
5-MAVZU: Muhammad Xorazmiy ilmiy merosining hozirgi kundagi ahamiyati .....	48
6-MAVZU: Abu Abdulloh Xorazmiyning dunyo ilmlari tasnifiga qo’shgan hissasi .....	59
7-MAVZU: Ahmad Farg‘oniy ilmiy merosining dunyo ilm-faniga qo’shgan hissasi va ahamiyati .....	68
8-MAVZU: Imom Buxoriyning hadis ilmi rivojiga qo’shgan hissasi .....	77
9-MAVZU: Abu Iso Muhammad Termiziyning hadis ilmi tarixida tutgan o’rni va rivojiga qo’shgan hissasi .....	88
10-MAVZU: Abu Nasr Forobiy o’rta asrning buyuk qomusiy olimi .....	98
11-MAVZU: Abu Nasr Forobiy ilmiy asarlari va tabiiy ilmiy qarashlari .....	105
12-MAVZU: Sharq allomalari ilmiy merosida ilmlar tasnifi .....	117
13-MAVZU: Abu Rayxon Beruniy ilmiy merosining o’rganilishi .....	125
14-MAVZU: Abu Rayxon Beruniy ilmiy merosi va ularning tavsifi .....	137
15-MAVZU: Abu Ali ibn Sino ilmiy merosining o’rganilishi .....	153
16-MAVZU: Abu Ali ibn Sino ilmiy asarlari tahlili .....	170
17-MAVZU: Abu Mansur Moturidiy buyuk kalom ilmi va fiqh allomasi.....	182
18-MAVZU: Abul Muin Nasafiyning ilmiy-ma’naviy merosi va uning o’rganilishi .....	194
19-MAVZU: Qaffol Shoshiy va Shosh allomalari ilmiy merosining o’rganilishi .....	202

20-MAVZU: Mahmud Zamaxshariyning dunyo ilm-fani rivojiga qo'shgan hissasi .....	225
GLOSSARY .....	237
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI .....	248



ISBN 978-9943-8419-6-3

9 789943 841963

FERUZ NARMANOV

**SHARQ ALLOMALARİ  
ILMIY MEROSI**

*O'quv qo'llanma*